



UDK:091

Botir ABDULLAEV,

Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti v.b., PhD

E-mail: 8batir8@mail.ru

TDSHU professori t.f.d., professor M.Is'hoqov taqrizi asosida

SOME REFLECTIONS ON THE 29TH SONGS OF ZARATHUSHTRA

Annotation

This article analyzes the Gathas of Zarathushtra, his chants as the object of moral and spiritual upbringing of man and his involvement in the Zoroastrian religion, and also on the basis of the socio-political climate of that time, ambitions and claims to political leadership of Zarathushtra, or rather to political power are carefully considered. Such scientific views in avestology are new, and practical steps taken in this direction can open new facets in the study of the personality of Zarathushtra and his sacred book avesta in the future.

Key words: Avesta, Gathas, person, spirituality, yasna, society, progress, zarathushtrainism, religion, doctrine, human values, monotheism, polytheism, blessing, truth, politics, power.

НЕКОТОРЫЕ СООБРАЖЕНИЯ О 29-Й ПЕСНИ ЗАРАТУШТРЫ

Аннотация

В данной статье анализируются Гаты Заратуштры, его песнопения как объект духовно нравственного воспитания человека и вовлечение его в зороастрийскую религию, а так же исходя из социально-политической обстановки того времени рассматриваются амбиции и претензии Заратуштры на политическое лидерство, точнее на политическую власть. Подобные научные взгляды в Авесталогии являются новыми и предпринятые практические шаги в данном направлении могут открыть в будущем новые грани в изучении личности Заратуштры и его Гатов.

Ключевые слова: Авеста, Гаты, человек, духовность, ясна, общество, зороастризм, религия, доктрина, общечеловеческие ценности, монотеизм, политеизм, благоденствие, истина, политика, власть.

ZARDUSHT 29-QO'SHIG'I XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Mazda Yasna dinining payg'ambari bo'lmish Zardushtning o'z dinini targ'ib qilishda keng qo'llagan Gohlar deb atalgan qo'shiqlar tuplami, xamda ularda insoniyat kamoloti va farovon turmushi masalasi, shuningdek, o'sha davrning ijtimoiy-siyosiy xolati, jumladan, siyosiy yetakchilik, aniqrog'i Zardushtning siyosiy xokimiyat da'vosi masalasi Gohlar asosida o'rganilgan. Bu kabi ilmiy qarashlar Avestashunoslikda yangicha mustaqil qadam bo'lib, o'rganilayotgan masala atrofida yanada yangi ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'ladi.

Kalit so'zlar: Avesta, Gohlar, inson, ma'naviyat, yasna, jamiyat, taraqqiyot, zardushtiylik, din, ta'limot, umumbashariy qadriyatlar, siyosat, yetakchilik, politeizm, ezgulik, haqiqat.

Kirish. Bundan uch ming yillar ilgari dunyoga kelgan "Avesta" zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sifatida katta ijtimoiy, ma'naviy ahloqiy voqeikka aylandi. "Avesta"ning tarixiy-ijtimoiy xodisa maqomidagi qadriyati faqat shugina emas. Balki u butun insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi, tasavvur va tafakkur olamining yangi sarchashmasi, inson ijtimoiy xayot, yashash zavqi va mohiyati bilan bevosita bog'liq yuksak insonparvar g'oya sifatida yuzaga keldi [1].

Avesta zardushtiylik dinining mazmun mohiyatini o'zida mujassam etgan, ensiklopedik xarakterdagi moddiy – ma'naviy yodgorlik bo'lib, u avval O'rta Osiyo, keyinchalik Eron va boshqa hududlar bo'ylab tarqalib, unda insoniyat tarixida ilk bora monoteizm g'oyalarini ilgari surilgan[2].

"Avesta" dagi ijtimoiy adolatga yo'g'rilgan g'oyat insonparvar qarashlar nafaqat inson, balki butun borliq, tuproq xavo, suv koinot, yulduzlar xayvonlar, xashoratl, parrandayu darrandalar yaxlit olamning o'zaro munosabatlari orqali inson ma'naviy-ahloqiy me'yorlarini ilk bor ishlab chiqdi. Inson faoliyati xatti-harakatlari va munosabatlarining qonuniyatlarini dastlabki ko'rinishlarda, ammo qiymatini yo'qotmaydigan darajada yuzaga keltirdi. Xuddi ana shu umuminsoniy, asotiriy-diniy va dunyoviy g'oyalar mag'izida "Avesta" ning tarixiy-ijtimoiy hodisa sifatidagi mohiyati belgilanadi[3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbekistonda mazkur masala A.Mahkamning "Avesto, M.Is'hoqovning "Zardusht "Goh"lari. Ma'no o'girmalari va germeneytik talqinlari", B.Jalolovning "Zarathushtra Gatalari", N.Jo'raevning "Avesto" nomli kitoblarida Gohlarning o'zbek tiliga qilingan tarjimalarida u yoki bu darajada tahlil qilingan.

Jahon avestashunosligida Gohlarning 29-qo'shig'i J.S.Taraporewalaning "Gathas of Zarathushtra", D.J.Iranining "The Gathas The Hymns of Zarathushtra", F.Azargoshasbning "Translation of Gathas The Holy Songs Of Zarathushtra", K.S.L.Guthriening "The life of Zoroaster", L.H.Millsning "Gathas of Zarathushtra (Zoroaster)", H.Humbachning "The heritage of Zarathushtra", W.B.Henningning "Zoroaster, Politician or Witch-doctor?", S.Inslerning "The Gathas of Zarathushtra" nomli asarlarida o'rganilgan. Lekin masalaga yondashuv xali xamon turlicha. Ushbu mavhum qo'shiqning ma'no-mazmuniga kirish, germeneytik talqini borasida olimlar bir to'xtamga kelmaganlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Zardusht aslida qadimda Daitiya – Amudaryo[4] bo'ylarida yashagan Spitama urug'idan bo'lib, uning urug'idagilar boshqa xudolar qatori Axura Mazdaga ham e'tiqod qilishgan. Birgina Zarathushtra ular orasida boshqa xudolarga ishonchsiz bo'lgan. Axura Mazdani esa o'zi uchun chin xudo deb bilgan. Uning imon-e'tiqodi, qalb ko'zi ochila borgani sari Axura Mazdadan o'zga

ma'budlardan voz kecha bordi. Nixoyat, Zaratushtra Axura Mazdaning nazariga tushib, uning tanlangan vakili, xush xabarini o'z urug'i orasida odamlarga bildirishga ilohiy vakolat oladi[5]. Ammo jaholat davri odamlari uning so'zlariga ishonmaydilar. Zaratushtra o'z yurtini tashlab ketishga, hijrat qilishga majbur bo'ladi. U o'z dinini o'n yildan ortiq targ'ib qiladi. Ammo tarafdorlar topish qiyin bo'ladi. Nihoyat, o'zga yurtda[6] uning hokimi Vishtaspaga, malika Xutaosyaga va saroy a'yonlariga Mazda dini mohiyatini tushuntirishga erishadi.

Zardusht o'z da'vatlarini Gohlar deb atalmish qo'shiqlar to'plamiga joyladi. Gohlar Avestaning Yasna naski tarkibiga kiruvchi 28-34, 43-51, 53-qo'shiqlardir. Gohlar Avestaning bizgacha yetib kelgan matnlari tarkibidagi eng qadimiy qismi sifatida Avestashunos olimlar tomonidan e'tirof etiladi. Gohlarning lingvistik tahlili ham shuni ko'rsatadi.

Avestaning "Yasna" naskiga kiruvchi Gohlar Mazda Yasna dinining asoschisi Zardushtning qo'shiqlar to'plami bo'lib, omma oldida kuylangan, hamda jamiyatni ezgulik sari yetaklashga xizmat qilgan.

Zardusht real tarixiy shaxs bo'lib, bronza davrining poyonii, ilk temir asriga o'tish davri oralig'ida yashagan (taxminan miloddan avvalgi VIII asrlar). Aynan shu davrda qabilaviy diniy tarqoqlikdan yaxlit davlatchilikka o'tish zaruriyati vujudga kelgan bir vaqtda Zardusht tarixiy vaziyat va shart-sharoitga javob bera oladigan fenomenal shaxs sifatida insoniyat tarixida birinchilardan bo'lib yakkaxudolik g'oyasini ilgari sura boshlaydi. Uning ushbu g'oyasi Axura Mazdani oliy xudo sifatida gavdalanirishdan iborat bo'lgan.

Jamiyat xayotida ro'y berishi kerak bo'lgan o'zgarishlarga to'sqinlik qilgan ibtidoiy diniy tasavvurlarga asoslangan ko'pxudolikdan yakkaxudolik tomon tafakkur izlanishlarini olib borgan shaxs davr talabini anglab yetib va ushbu mashaqqatli vazifani o'z zimmasiga olgan Zardusht Mazda Yasna dini atrofida jamiyatni boshini qovushtirish uchun maydonga chiqdi. Ammo jaholat davri odamlari uning so'zlariga ishonmaydilar. Zardusht o'z yurtini tashlab ketishga, hijrat qilishga majbur bo'ladi.

Qabilaviy o'zaro kurashlar avj olgan bir paytda Zardusht davr talabi, tarixiy zaruratni o'zida his etgan holda turli dinlarga e'tiqod qiluvchi qabilalarni yagona xudo g'oyasi atrofida jipslashtirib, o'sha davrdagi real ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy masalalarni hal qilish ma'suliyatini o'z zimmasiga oldi. Zardusht o'z zamonasining diniy isloxotchisi sifatida o'timishdagi, hamda o'z davri diniy g'oyaviy qarashlaridan kelib chiqib, mavjud diniy tushuncha va qadriyatlarini isloh qilib, o'z diniy ta'limotiga asos soldi.

Gohlar paydo bo'lgan davr Zardusht va uning tarafdorlari uni yod bilganlar. Chunki bu davrda hali yozuv amaliyoti mavjud emas edi. Keyinchalik Avesta matn xolatiga keltirilganda Gohlar tilining original va konservativ kurinishini saqlab qolgan holda Avestoga kiritilgan. Ushbu holatni islom dinining muqaddas kitobi qur'onda ham kuzatish mumkin. Qur'on nozil bo'lgan davrdan xozirga qadar uning original-ilohiy, konservativ ko'rinishini saqlab qolgan.

Zardushtiylik dunyo dinlariga g'oyaviy ta'sir ko'rsatgan eng qadimiy dindir. Ushbu dinda qadimgi ajdodlarimizning diniy tasavvurlarining evolyusion rivojlanish xarakati, ya'ni, politeizmdan monoteizm tomon qilingan tafakkur izlanishlari aks ettirilgan.

Ezgulik va yovuzlik timsollari deyarli barcha dinlarda uchraydi. Ushbu xolat ibtidoiy diniy tasavvurlarga xos bo'lib, ezgu timsol yorug'lik, shod xurramlik olib kelsa, yovuzlik timsoli aksinchsa, baxtsizlik, yolg'on, kasallik, qaboxat olib kelgan[7].

Insoniyat taraqqiyotida diniy tushunchalar qo'rquvdan e'tiqod va ilohga bo'lgan muhabbat darajasi ortib borgan sari, u inson tafakkuri va xayotining ajralmas qismiga aylanib bordi. Shu jumladan davlat va jamiyat qonun qoidalarini

belgilab beruvchi yetakchi kuchga aylandi. Zardushtiylikda Axura Mazda obrazining gavdalanishi qadimiy xalqlarning ko'pxudolikdan yakkaxudolik tomon qilgan tafakkur burilishini isbotlaydi.

Lekin so'nggi yillarda Zardusht Gohlarining mazmuniga chuqurroq kirib o'rganish, ularni tadqiq qilish bilan birga bu borada yangicha ilmiy xulosalar kelib chiqmoqda.

Tahlil va natijalar. Avestashunoslik sohasida faoliyat olib boruvchi tadqiqotchilar so'nggi yillarda yangidan yangi ilmiy xulosalarga kelmoqdalarki, bizgacha yetib kelgan Avestaning Gohlar qismida payg'ambar Zardushtning faqatgina ezgulikka, ma'naviyat va ma'rifatga, inson xayotining xaqiqat da'vatigina emas, balki din kohinlari va o'sha davr jamiyatning zodagon va xukmron qatlamlari (Zardusht yashagan davrda jamiyat turli tabaqalarga ajralib bo'lgan edi) yetakchilik, jamiyatning mavjud moddiy boyliklariga egalik qilish, uni boshqarish, tasarruf etish uchun siyosiy kurashi aks etgan degan qarashlar shakllanmoqda. Ushbu masalani Avestaning Yasna naskiga kiruvchi "Qoramol, Buqa nolasi" deb ataluvchi 29-qo'shig'i misolida talqin qilib ko'rishga urinamiz (Chorva mollarini qo'llab quvvatlash duosi). Unda payg'ambar Zardushtning O'sha davr xarbiy elitasi hamda jangchilar qiynoq va jabr sitamlaridan chorva mollarini asrash, himoya qilishga qaratilgan da'vati aks etgan. Ushbu Goh Axunavaitiy qo'shiqlar to'plamiga taalluqlidir. 48.10 qo'shiqda esa uni ushbu zahmatli ishga xudoning o'zi ma'sul qilganini bildirib, jamiyatning hukmron tabaqa va chorvadorlarni unga so'zsiz bo'ysinishlarini talab qilib chiqdi.

Zardushtning o'z davri ijtimoiy munosabatlarini tartibga solish xususidagi fikr mulohazalari va qarashlari mehnatni ulug'vorligini madh etgan satrlarida ko'rinadi. Yasna 32. da aytilishicha Zardusht chorva molini qurbonlikka keltirish bilan bog'liq diniy marosimlarni qattiq qoralagan, "Xaoma" mast qiluvchi ichimlikni iste'mol qilishni qoralagan (qadimda xaoma ichimligini iste'mol qilish kohinlargagina ruxsat etilgan. Ular esa sarxush xolda diniy marosimlarda xaddan ziyod qurbonliklar keltirganlar), chorva mollarini nobud qiluvchilardan chorvadorlarni himoya qilmoq zarurligini uqtirgan. Diqqat bilan matn mazmuni e'tibor bilan o'rganilsa Zardushtning ushbu qarashlarda nafaqat diniy-ahloqiy, balki ijtimoiy-siyosiy masalalar tartibi, talablari, uni isloh qilish hususida mulohaza qilingandek ko'rinadi. Zardusht yashagan davr ijtimoiy munosabatlarida chorva mollariga egalik qilish, uni tasarruf etish muhim ijtimoiy-siyosiy mavqeni belgilovchi omillardan biri bo'lgan deb tasavvur qilishimiz mumkin.

Zardusht Yasna 46.2 bobida chorva mollariga egalik qilish huquqi talablarini ochiq oydin namoishkorona bildirib o'tgan[8].

Mifologik matnlarda chorva, mol joni omon qolishi uchun jangchiga qaramaqarshi o'laroq Zardushtga himoya qilishni so'rab Axura Mazdaga murojaat qilgan. Matnda ana shu keskin qaramaqarshilik jangchi va kohin misolida ko'rsatiladi. Zardusht chorva mollarining himoyachisi sifatida e'tirof etilgan (Yasna 29), holbuki u Axura Mazdaning payg'omi (payg'ambari) edi. Spenta Maynyu uni jangga tayyorlar ekan, shirin va lazziyatli nutqni unga hamrox qildi. Jangchining kuchi bilagida, kohinniki esa ilohiy qudratida deb faraz qilingan.

Matn ustida yana chuqurroq mulohaza qilinsa, jangchi hamda kohinlar o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik mavhum narsalar asosida emas, balki aniq va ravshan xolda chorva mollariga egalik qilish xususida kelib chiqqan. Jangchilar chorva mollarini xarbiy yurishlarda o'lja sifatida qo'lga kiritganlar, kohinlarga esa chorva qurbonlik uchun muhim edi. Shunday qilib ushbu holatda jiddiy muammo sifatida ko'ndalang bo'lgan ijtimoiy-siyosiy kelishmovchilik, ixtilof

yanada kengroq tus oldi. Ushbu holatda Zardusht o'sha davrning chorva mollari misolida ma'lum bir ijtimoiy mulkchilikka egalik qilish da'vosi bilan maydonga chiqdi. Ijtimoiy mulkchilikning ma'lum bir qismiga egalik qilish siyosiy xokimiyatga ochiqdan ochiq da'vo qilish emasmi degan fikr tug'ildi. Chunki, Zardusht yashagan davr jamiyatining ijtimoiy siyosiy munosabatlarida mulkka egalik qilish (Zardusht barcha chorva mollarining raxnamosi, xomiysi, xalaskori, himoyachisi, qolaversa chin egasi sifatida gavdalanirilmogda) o'ziga xos siyosiy mavqeni belgilovchi omil bo'lib xizmat qilgan[9]. Ushbu keltirilgan fikr va muloxazalarimizni Gohlar 29 bobini M.Is'hoqov tomonidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalaridan foydalanamiz va tarixiy talqin qilishga urinib ko'ramiz.

29.1. Senga nola qilibon, so'roqlaydi Buqaning joni
Meni nechun yaratding, kimlargadir bo'lay qurboni,
Ana heshm (aeshma), zo'rliklaru bosqin meni aylaydi

asir

Sendan bo'lak cho'ponim yo'q, ezgu sohib, yaylov posboni.

29.2. Buqa jonin yaratgan zot shunda undan so'roqlab dedi:

Chorvolarning haqqi kimdir, kim ularning pushti panohi

Kim tayinlar hukmdorin, parvarishlab bo'liq o'tlog'in.
G'azab devin kim haydaydi, kimdir o'shal hoidiy ilohiy.

Yasna 29.9 badda quyidagi nola o'z ifodasini topgan. Govsharvon (hukiz ruhi, joni) yaratganga nolish bilan murojaat etmogda.

29.9. Govsharvon nola qilib dedi: Ey, Xudo

Nechun ul ojizu notavon erga

Mening asrovimni ko'rmishsan ravo?

Istagim qudratli qo'riqchi, hakam,

Kim unga ko'makdosh, bo'lay xotirjam!

Matnlarning ananaviy mazmun va moiyatidan farqli o'laroq bu yerda chorva (buqa, xo'kiz ruhi) xudoga nola qilib, undan himoya so'ramogda. Govsharvon (hukiz ruhi, joni) yaratganga nolish bilan murojaat etmogdagi, notavon inson olamni yovuzliklardan himoya qilishga qodir emas. Bas shunday ekan, kim olamni asrashga qudratli hukmdor ko'riqchilik qo'lini cho'zadi? Ushbu xolatda chorva mollariga (Xo'kiz ruhi olam ruhi sifatida tushunilgan. Bundan mazmun

shuki, olamga qo'riqchilik qilish so'ralmogda) hukmdorlik qilish, uni himoyatiga olish uchun biror bir qo'riqchining zaruriyati paydo bo'lganligi, hamda bu kimsa payg'ambar Zardusht timsolida gavdalanirilmogda.

29.10. Ey Ahura, ato ayla Haqiqatning hukmini,

Ezgu o'y-la kuch bag'ishla, Ezgulik tayinini.

Osudalik ato etgil borliq Makonlar ichra,

Chunki o'zing berguvchisan so'raganning tilagini.

Zardusht Ahura Mazdaga murojaat qilib, Haqiqatni

Ezgu niyat bilan birga berishini so'ramogda, toki borliqda obodlik, osoyishtalik, tinch hayot barqaror bo'lsin. Barcha istaklarni berishga esa, Ahura Mazda qodir.

29.11. Haq ne yerda ey Vahuman, ayo Shahriyor,

Sizku meni ilohlar-la uzviy bo'l debon

Loyiq etib tanlaganlar! Ayo Ahura Mazda

Bizlarni ham hushnud etib, ber shunday ehson[10].

Bu so'zlar Zardushtning Axura Mazdaga iltijosi "Ilohlar-la uzviy bo'l" moqqa loyiq bo'lish bu o'rinda Zardusht kabi barcha odamlar o'z e'tiqod yo'liga erishsin, Yaratganni tanisin, degan ma'noni ifodalamoqda. Bu ishda odamlarga Ahura Mazda yordam berib, ular Zardusht yo'lini tanlashdek ilohiy mukofotga erishsinlar, deyilmogda.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni aytilish mumkinki Gohlarning 29-bo'limi nazarimizda Zardushtning chorva mollariga xomiylik qilish, qolaversa unga egalik qilish masalasi muhim va zaruriyat sifatida Axura Mazdaga qilingan iltijo va nolalardan iborat qo'shig'i shaklida namoyon bo'limgda. Gohlarning ushbu badda yurtimizda bronza davrining poyoni hamda temir asriga o'tish davrining boshlarida kechgan, xamda, ilk davlat uyushmalarining yuzaga kelishi bilan bog'liq, o'z davrining o'ziga xos murakkab ijtimoiy-siyosiy masalalari aks etgan. Zardushtning birdan bir maqsadi bu ilohiy hamda mustahkam tartib asosiga qirilgan ilohiy hokimiyat o'rnatish. Bu istagini u Axura Mazdaga xos bo'lgan uning serqirra tajalliyarlari sifatlariga asoslamog'i kerak edi. Bu yo'lda unga to'g'anoq bo'luvchi yovuz kuchlarni Drauga (Yolg'on – yovuzlikning universal qiyofasi) orqali ifoda qildi. Gohlarning ushbu bobida Zardusht o'zining siyosiy da'vosini, aniqrog'i siyosiy yetakchilikni Mazda Yasna dini g'oyalari bilan yo'g'rilgan qo'shiqlari orqali keng ommaga yetkazib, uni mustahkamlashga qilgan urinish va zahmatlari deb tushunishimiz fikrimizcha to'g'ri bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Авеста тарихий-адабий ёдгорлик. Ақар Маҳкам таржимаси. Т.: 2015. 4-Б.
2. Махмудова Г.Т. Философская сущность Авесты. Т.: «Санъат» 2010. С-4.
3. Авеста тарихий-адабий ёдгорлик. Ақар Маҳкам таржимаси. Т.: 2015. 4-Б.
4. Исҳоқов М. Авеста Яшт китоби. Т. "Шарк". 2001. С-3.
5. Авеста тарихий-адабий ёдгорлик. Ақар Маҳкам таржимаси. Т.: 2015. 5-Б.
6. Авеста. Избранные гимны из Видевдата. Перевод с Авестийского И.М. Стеблин-каменского. М., «Дружба народов» 1993. С-8.
7. Тейлор Э.Б. Первобытная культура. М.: «Наука» 1989. 436 С.
8. Запороженко А.В. Социально-философическая интерпритация древнеиранской мифологии в контексте исторического образования. Конфессиональный и мифологический аспекты исторического образования//материалы научной конференции // Новосибирск. 2015. С-240.
9. Стеблин-Каменский И.М. Гаты Заратуштры. "Петербургское востоковедение" Спб. 2009. С-76.
10. Мақолада келтирилган Гоҳларнинг ўзбек тилига таржималари электрон нусхасидан фойдаланишга рухсат бериб, кўрсатган химматлари учун М.Исҳоқовга миннатдорлик билдирамиз. Шунингдек, J.S.Taraporewalaning "Gathas of Zarathushtra", D.J.Iranining "The Gathas The Hymns of Zarathushtra", F.Azargoshasbning "Translation of Gathas The Holy Songs Of Zarathushtra", K.S.L.Guthriening "The life of Zoroaster", L.H.Millsning "Gathas of Zarathushtra (Zoroaster)", Н.Humbachning "The heritage of Zarathushtra", S.Inslerning "The Gathas of Zarathushtra" асарларининг инглиз тилидаги вариантларидан фойдаланилди.



UDK: 94-055.2(575.171)

Sherali ALLABERGANOV,

Urganch davlat universiteti yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i, PhD

Firuza JUMANAZAROVNA,

Xorazm Ma'mun akademiyasi kichik ilmiy xodimi

E-mail: jumanazarovafiruza8485@gmail.com

O'zMU tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori O.A.Radjabov taqrizi asosida

PERSONNEL WHO WORKED IN THE COMMUNICATION SYSTEM OF KHOREZM DURING THE SECOND WORLD WAR

Annotation

This article analyzes the activities of the communication system in the republic, the problems and shortcomings of the communication system in the Khorezm region, the activities of employees working in the same system. Due to the fact that railway communication, mail, telegraph were forced to adapt to the conditions of the war, heavy and complex tasks were assigned to Uzbek signalmen. To solve such problems, it was necessary to take into account the martial law, quickly compare information and transmit correspondence. During the Second World War, there were also changes in radioactivity. People learned about the events at the front on the radio. In addition, the radio provided spiritual nourishment to hardworking people behind the front line.

Key word: Telephone, mail, telegraph, radio, front, press, evacuation.

ПЕРСОНАЛ, РАБОТАВШИЙ В СИСТЕМЕ СВЯЗИ ХОРЕЗМА В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В данной статье анализируется деятельность системы связи в республике, проблемы и недостатки системы связи в Хорезмской области, деятельность сотрудников, работающих в той же системе. В связи с тем, что железнодорожное сообщение, почта, телеграф были вынуждены приспосабливаться к условиям войны, на узбекских связистов возлагались тяжелые и сложные задачи. Чтобы решить такие проблемы, необходимо было учитывать военное положение, быстро сопоставлять информацию и передавать корреспонденцию. Во время Второй мировой войны также произошли изменения в радиоактивности. О событиях на фронте люди узнали по радио. Кроме того, радио давало духовную пищу трудолюбивым людям за линией фронта.

Ключевые слова: Телефон, почта, телеграф, радиосвязь, фронт, пресса, эвакуация.

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA XORAZMDA ALOQA TIZIMIDA FAOLIYAT YURITGAN XODIMLAR

Annotatsiya

Mazkur maqolada respublikada aloqa sohasi faoliyati, Xorazm viloyatida aloqa tizimi muammo va kamchiliklari, shu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlar faoliyati tahlil qilinadi. Temir yo'l aloqasi, pochta, telegraf urush sharoitlariga moslashishga majbur bo'lganligi sababli o'zbek signalchilari oldiga og'ir va murakkab vazifalar qo'yilgan edi. Bunday muammolarni hal qilish uchun harbiy holatni ko'rib chiqish, ma'lumotni tezda taqqoslash va yozishmalarni etkazish zarur edi. Ikkinchi jahon urushi davrida radio faoliyatida ham o'zgarishlar bo'ldi. Frontdagi voqea xodisalar radio orqali xalqqa yetkazib turildi. Bundan tashqari radio front ortidagi mehnatkash xalqqa ma'naviy ozuqa berdi.

Kalit so'zlar: Telefon, pochta, telegraf, radio aloqa, front, matbuot, evakuatsiya.

Kirish. Germaniya va SSSR o'rtasida o'zaro hujum qilmaslik va urush olib bormaslik to'g'risida shartnoma imzolanganiga qaramay, 1941 yil 22 iyun kuni tong saharda nemis qo'shinlari urush e'lon qilmasdan Sovet Ittifoqining chegara shaharlarini bombardimon qila boshladilar. SSSR tarkibiga kirgan xalqlar va respublikalar uchun og'ir sinovlar boshlandi va shu kuni butun Sovet Ittifoqida harbiy holat e'lon qilindi. 1941 yil 22 iyul kuni Urganch shahrida uch mingdan ortiq odamlar ishtirokida miting bo'lib o'tdi. Urushning birinchi kunlaridanoq zudlik bilan harbiy holat joriy etish, barcha davlat xo'jalik, jamoat, ta'lim muassasalarini Mudofaa vazirligiga bo'yusundirish to'g'risida farmonlar, qarorlar va farmoyishlar qabul qilindi[15].

Urushning birinchi kunlarida respublikada 6386 signal operatoridan iborat asosiy shtabdan 3891 kishi yoki 60% frontga chaqirildi, ularning bir qismi ko'ngilli sifatida frontga ketdi[8]. Aloqa sohasidagi frontga ketgan ko'plab ishchilar ancha malakali edi. Ularning yo'qligi aloqa ishini orqaga ketishiga olib keldi.

Shuningdek, kadrlar yetishmovchiligi tufayli xalq xo'jaligi tarmoqlari xavf ostida qoldi. Kerakli miqdordagi malakali kadrlarni imkon qadar tezroq tayyorlash yoki qayta tayyorlash lozim edi. Bundan tashqari, respublikamizdan frontga askarlar, kiyim-kechak, oziq-ovqat, dori-darmonlar, shuningdek, pochta va radioaloqa sohasi mutaxassislarini yuborish talab qilindi.

Urushning birinchi yillarida front va front orti tashkilotlari va muassasalariga xizmat ko'rsatish uchun asosiy telefon va telegraf liniyalarining qariyb 70 foizi va mintaqaviy telefon va telegraf liniyalarining 80 foizi ta'minlangan. Bunday tadbirlarni, ya'ni telefon, telegraf bilan nafaqat frontdagi muassasalar, balki O'zbekistonning xalq xo'jaligini ham ta'minlay oladigan tarzda amalga oshirish kerak edi.

Urush yillarida respublikada mavjud bo'lgan yozishmalarni tashish uchun 110 ta avtomashinaning 90 tasi Respublika Mudofaa Xalq Komissarligiga foydalanish uchun berilgan. Shuning uchun ham, pochta aloqasi sohasida qiyinchiliklar yuzaga kelgan. Bu, ayniqsa, chekka hududlarga pochta jo'natmalarining o'z vaqtida yetkazilishida o'z

ifodasini topgan. Shuning uchun pochta ot aravalarida yoki eshakli aravalarda olib borilgan, hamda yaqin atrofdagi hududlarga velosipedda yetkazilgan. Bu pochta, jurnal, gazeta va boshqa yozishmalarni kech bo'lsada yetkazib berishni ta'minlagan[7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ikkinchi jahon urushi yillarida aloqa operatorlari faoliyati, aloqa tizimidagi muammo va kamchiliklar, tizim faoliyati masalasi yoritilgan bir necha ilmiy ishlar nashr etilgan. Ularda urush yillarida aloqa tizimining vujudga kelishi, ushbu sohadagi yutuq va kamchiliklar hamda aloqa sohasida faoliyat yuritgan xodimlar to'g'risida dastlabki ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, viloyatdan aloqa ta'limiga jalb qilingan kadrlar masalasi, tizimdagi muammo va kamchiliklar yoritilgan bir qancha arxiv hujjatlari tahlil qilingan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda aloqa masalalari juda dolzarb muammoga aylandi. Shu sababli ko'pgina tadqiqotlar yuzaga keldi. Sh.Z.Tadjibayev, A.K.Nosirova, F.Roziyev va X.Jo'rayeva, A.Qurbonov, Sh.S.Eshonboyeva, F.Fayziyeva, X.Abdukarimova, X.Akbarov, M.Ubaydullayev asarlari shular jumlasidandir. Mustaqillik yillarida kundalik hayotda uyali aloqa vositalari, orgtexnika va Internet tizimining axborot-kommunikatsiya imkoniyatlaridan keng foydalanila boshlandi. Ular haqidagi umumiy ma'lumotlarni N.R.Mahkamova va B.A. Orifxonov, A. Eshmurodov, N. Zaynutdinova, M.Nurullayeva, Y. Sultonov, N. Yunusov, R.I. Isayev, G.X. Mirazimovlarning mutaxassis va talabalar uchun yozilgan o'quv qo'llanmalari hamda aloqa sohasiga oid maxsus tayyorlangan risolalardan ko'rish mumkin. Mazkur nashrlarda ham Xorazm vohasi aloqa tizimi tarixi haqidagi ma'lumotlar juda kam uchraydi. Olimlar O'.Mavlonov, S.Ahmedov, B.Umarovlar tomonidan tayyorlangan va 2014 yilda o'zbek, rus va ingliz tillarida nashrdan chiqarilgan "O'zbekiston pochta: tarix va taraqqiyot" kitobida, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professor-o'qituvchilari L. N. Jo'rayev G'.R. Mamatqulov, R.F. Xudoyberdiyev va B.I. Ahtamov hammualliflikda tayyorlagan "Zamonaviy pochta aloqasi" nomli o'quv qo'llanmasida respublikada aloqa xizmatining vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi aks ettirilgan. Ammo bu tadqiqotlarda Xorazm aloqa tizimi faoliyati bo'yicha juda kam ma'lumot berilgan.

Zohidova Yu. Q, Karimov A, Ibragimov Sh. Rahmatullayeva I. tadqiqotlarida hamda I.S.Yusupovning "Xorazm voxasida aloqa tizimi tarixi (1873-2018)" dissertatsiyasi avtoreferati hamda shu muallifning 2022 yilda nashr qilingan "O'zbekistonda aloqa tizimining taraqqiyoti tarixi" (Xorazm viloyati misolida) nomli monografiyasida viloyat aloqa tizimi bo'yicha ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari M.Matniyozovning Xorazm tarixi kitobida ham qisqa bo'lsada ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini obyektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma'lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ikkinchi jahon urushi yillariga kelib respublikaning barcha aloqa organlarida boshqa sohalarda bo'lgani kabi ish kunining yangi tartibi belgilandi. Ish boshqa aloqa bo'limlari bilan muvofiqlashtirildi. Respublikaning barcha hududlarida aloqa bo'linmalari o'rtasida koordinatalarni, aloqalarni o'rnatish, shuningdek aloqa vositalarining reja bo'yicha harakati qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha shtab tuzildi. Aloqa sohasida frontga yordam bera oladigan aloqa vositalari, aloqa vositalari uchun ehtiyot qismlar va harbiy qismlarni yig'ish bo'yicha tezkor guruh tuzildi[1].

Ushbu tadbirlarning barchasi aniq va o'z vaqtida amalga oshirildi. Bundan tashqari, Toshkent shahrida, Respublikaning barcha viloyat, shahar va tumanlarida maxsus qo'shimcha tadbirlar o'tkazildi. Sovet Ittifoqining g'arbiy

qismlaridan ko'chirib keltirilgan zavod va fabrikalarni aloqa vositalari bilan ta'minlashning aniq tartibi ishlab chiqilgan. Buning uchun barcha zarur materiallar va vositalar tayyorlandi. O'zbekiston SSR Mudofaa vazirligi ko'rsatmasi asosida kolxoz va sovxozlar o'rtasida pochta va xat-xabarlarini tashish va yetkazib berishni ta'minlash uchun barcha zarur narsalar, jumladan ot aravalar bilan ta'minlash to'g'risida shartnoma tuzildi[16].

Ikkinchi jahon urushi respublikamizning barcha aholisida vatanparvarlik ruhini uyg'otdi. Urush yillarida o'zbek signalchilari ham "Hammasi front uchun!", "Hammasi g'alaba uchun!" shiorlari ostida yashadilar, va tinmay kechayu-kunduz o'z ishlarida ishlashdi. Dam olish va uxlashni unutib, xalq uchun ham, frontda bo'lgan birodarlar uchun ham ishladilar. Bunga bir qancha misollar keltirish mumkin.

Xorazm viloyati Urganch pochta bo'limidan pochtachi Roziya Babayeva o'n besh yoshida og'irligi bir necha o'n kilogramm bo'lgan ulkan, og'ir o'ram xatlarni olib, bir o'zi piyoda pochta Urganch shahri va Urganch tumani bo'ylab tarqatib yurgan. U kuniga bir necha o'nlab kilometr piyoda yurishi kerak edi.

Roziya Babayevaning o'zi bergan og'zaki tarixiy ma'lumatlariga ko'ra, u yoki bu uyga "qora xat" olib borganida eshikni taqillatishdan qo'rqgan. Lekin u hech qachon unga aytilgan haqoratlar quloq solmagan yoki hatto g'azablangan va qayg'uli bevalar va onalarning haqoratlarini qabul qilmagan. U xat tarqatish uchun ko'chada paydo bo'lganida, aholi qo'rqvandan uylariga qochib ketishgan, u eshikni taqillatganda, ular uzoq vaqt ochmagan. Ammo bularning barchasiga qaramay, u har kuni ertalab o'z ishiga borgan va o'z vazifasini har qanday qiyinchilikka qaramay bajargan[16].

Shunday mas'uliyatli insonlardan yana biri bu Davletova Safarguldir. U 1943-1945 yillarda Gurlan tuman komsomol komitetining birinchi sekretari bo'lib ishlayotgan bo'lishiga qaramay urushga ketgan yigitlarning oilalariga borib ularning xolidan habar olishi bilan birga, askarlardan kelgan maktublarni o'z egalariga yetkazib berishdek mas'uliyatli ishni ham amalga oshirgan. Yosh bo'lishiga qaramay S.Davletova og'ir xatlarni ko'tarib piyoda uyma-uy yurib front maktublarni tarqatish va frontga xat yozib jo'natishdek mas'uliyatli ishlarni qilgan[3].

Bunday mas'uliyatli ishlar erkak kishilar tomonidan ham amalga oshirilgan. Urush yillarida viloyat signalchilaridan xorazmlik Yo'ldoshev Xudoyor viloyat aloqani ta'minlash, pochta va yozishmalar haqida xabar berish, axborot bilan ta'minlashga katta hissa qo'shgan.

1941 yilda Xorazm viloyat aloqa idorasi shakllangan[6]. Ikkinchi jahon urushi yillarida pochta xizmati xodimlari murakkab sharoitda ishlashlariga qaramasdan, odamlarning ko'nglini ko'tarish, g'alabaga bo'lgan ishonchini oshirish uchun astoydi harakat qilganlar. Jangohlarda aloqachilardan Yusup Bekchanov, Abram Desser, Sapo Qazaqov, Ibragim Matnazarov, Xudoyor Yuldashlar katta jasorat ko'rsatishgan[15]. Urushda viloyat ayollaridan 350 dan ortiqi qatnashgan[4]. Birinchi ko'ngillilar qatori frontga ketganlar orasida aloqachi Ro'za Ibrohimova bo'lib, u dastlab 1943 yilda aloqachilar tayyorlash qisqa kursida ta'lim olagan. Tez fursatda nemis tilini mukammal o'rganib, parashyutdan sakrash, hattoki tank boshqarishni ham o'rganishga muvaffaq bo'lgan Roza Ibrohimova 3-Belorusiya fronti tarkibida erkak jangchilar bilan birga radiorazvedkachi vazifasini bajargan.

1944 yil bahorida xorazmlik jasur qiz dastlab Moskva yaqinidagi alohida diviziyasida, so'ng 4-tankchilar guruhida harbiy xizmatni boshlaydi[9]. Jangovar topshiriqlarning birida Roza Ibrohimova bir necha razvedkachilar bilan birga dushmani qurol-yaroq va yoqilg'i saqlanuvchi omborxonalarini chizmasini tuzishga borgan. Berilgan topshiriq bajarilib qaytilayotganda ular dushman pistirmasiga duch kelganlar va jang qilib, o'rmon ichiga yashiringan tankka yetib borganlar.

Shu payt tankka snaryad kelib tushgan va tank yona boshlagan. Tank ichida qolib ketgan qo'mondon va muhim hujjatlarni olib chiqish vazifasi Roza Ibrohimovaga yuklatilgan. Tirik qolgan uch nafar razvedkachi esa dushmani chalg'itib turganlar. Qo'mondonni olib, butalar orasiga yashirinishga urinayotgan vaqtda navbatdagi snaryad kelib portlagan. Natijada Roza Ibrohimova yarador bo'lib, hushidan ketgan. R.Ibrohimova tibbiy sanitariya batalonida o'ziga kelganida, qo'mondon hayotini saqlab qolgani uchun "Za boyevsiye zaslugi" medali bilan mukofotlanganini bilgan. Davolanib chiqqach razvedkachi qiz partizanlar otryadida "Katta yer" orasida muntazam aloqa o'rnatish bilan shug'ullangan[5].

Roza Ibrohimovaning jangovar yo'li Smolensk shahridan boshlanib, Orsha, Minsk, Vitebsk, Litva, Latviya, Polsha, Sharqiy Prussiya orqali o'tib Berlinda tugagan. Polshani ozod etishda Ibrohimova Roza yangi topshiriq olgan. Unga ko'ra, razvedkachilar guruhi dushman egallab turgan aholi yashash yerlaridan birida qolib, hujum qilib kelayotgan sovet qismlariga qo'shilishi lozim edi. Vayron bo'lgan cherkov ichida o'rmashib, tez orada Roza Ibrohimova o'zlari joylashgan manzil koordinatasini ratsiya orqali ma'lum qilgan. Tong paytida fashist askarlarining o'zaro suhbatidan sovet qo'shinlari yaqinlashib kelayotganini anglagan guruh qo'mondoni artilleriyaga o't ochish haqida buyruq bergan. Bu xabarni Roza Ibrohimova ratsiya orqali jangchilar guruhiga yetkazgan. Yetib kelgan sovet qo'shinlari vayronalar ichida qolgan razvedkachilarga chiqishlariga yordam bergan. O'zbek qizi odamlarning yuzini ko'rar, lekin hech narsani eshitmas edi, chunki u kontuziyaga uchragan edi. 1945 yil martida harbiy kasalxonadan chiqqan Roza Ibrohimova o'z harbiy qismiga kelib qo'shilgan va Berlin uchun olib borilgan janglarda mardonavor qatnashgan[2].

Xulosa va takliflar. Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston signalchilari nafaqat respublikada, balki uning chegaralaridan tashqarida ham aniq va uzluksiz aloqani ta'minladilar. Urush yillarida pochta va aloqa xodimlarining ko'pchiligi inson resurslari yetishmasligi sababli bir necha barobar ko'p, lekin mehnasevarlik va fidoyilik bilan ishladilar.

Bir so'z bilan aytganda urush yillarida barcha aloqa va pochta xodimlari Respublikamizning butun aholisi kabi g'alaba yo'lida fidokorona mehnat qildilar. Pochta aloqasi kabi radio ham odamlar hayotida katta rol o'ynadi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida, ayniqsa, radioning kundalik turmushdagi mavqei nihoyatda ortgan. Urush jangohlaridagi ahvoldan aholi radio karnaylar orqali xabardor bo'lib turgan. Shahar ko'chalari va bozorlarda, odamlar ko'p to'planadigan joylarda o'rnatilgan ovoz kuchaytirgichlar orqali "Sovinformbyuro" ma'lumotlari dahshatli urush nafasini yetkazib turgan va xalqni g'alabaga ruhlantirishda muhim rol o'ynagan. Urush yillarida "Frontdan va frontga xat", "Armiya va flot uchun" ruknidagi eshittirishlarini respublika ahli jon kulog'i bilan tinglagan.

Urush yillaridagi qiyinchiliklarga qaramay, Respublikada klublar, bog'lar, teatr va kinoteatrlar, kutubxonalar, muzeylar va boshqa ko'ngilochar maskanlar o'z faoliyatini to'xtatmadi. Gazeta-jurnallar ham xuddi shunday chop etilib, o'zbeklarning frontdagi harakatlari, askarlarning qahramonliklari, front orti mehnatkashlarining fidokorona mehnatlari haqida ma'lumot oldilar. O'zbekistonliklarning yordami bilan "O'zbek askarlariga qarindoshlardan maktub" gazetasini chiqarish uchun ikki millionga yaqin imzo to'plandi, unda iliq so'zlar yozilgan va frontning barcha bo'limlarida fashistlarni mag'lub etishga chaqirilgan.

ADABIYOTLAR

1. Жўраев Л.Н... Учебное пособие Современной почты. Т., 2016. С. 31.
2. Jumaniyazova F.J. "Xorazm xotin-qizlari ikkinchi jahon urushi maydonlarida". Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi.2022 yil №6/2. 159-bet.
3. Jumaniyazova F.J. "Front ortida mehnat qilgan jonkuyar ayol". Xorazm iste'dodi. 2022 yil iyun. 3-bet.
4. Jumaniyazova F.J. "Khorezmian women on the fronts of the Second World War (based on archival documents)". International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE) DOI:10.48047/INTJECSE/V15I2.79 ISSN: 1308-5581 Vol 15, Issue 02 2023.p.570.
5. Ishaqova M., Muhammadjonova M. O'zbek ayollari ikkinchi jahon urushi maydonlarida. "O'zbekiston tarixi"/ 2020, № 2, -B. 47.
6. Мавлонов Ў., Ахмедов С., Умаров Б. Почта Узбекистана: история и развитие. Т., 2014. С. 120.
7. Матниёзов М. История Хорезма. Ургенч: —Хоразм, 2003. С. 118.
8. Xiva aloqa tarixi muzeyi ma'lumotlari. 2017 yil.
9. XOTIRA KITOBİ. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI 1941-1945. –T: "Qomuslar bosh tahririyati". 1995.243-b.
10. Xorazm viloyati Davlat arxivi, 251-fond, 1-ro'yhat, 43-ish, 2-varaq.
11. Xorazm haqiqati 1941 yil 3-mart. N;52 (3748). Gazetada 3-bet.
12. Xorazm haqiqati " 1942 yil 13-sentabr. N;212 (4220).
13. Xorazm haqiqati " 1944 yil 27-sentabr. Chorshanba. N;190 (4760).
14. Shomansurova.R.Uch ayol qissasi // "Saodat" jurnali. 1975. №5. 16-b.



Пыосxon BURXONOV,
Farg'ona davlat universiteti doktranti

Toshkent axborot texnologiyalari Farg'ona filiali dotsenti, PhD Z.Xatamova taqrizi asosida

TARIXCHI OLIM A.O'RINBOYEV ILMIY MEROSIDA KATALOG MASALASI TARIXIDAN
Annotatsiya

Maqolada A.O'rinboyevning ilmiy faoliyatida katalog tuzish va nashr etish ishlari masalasi yoritilgan bo'lib, olim tomonidan O'zRFA Sharhshunoslik institutida saqlanayotgan qo'lyozmalarni kataloglashtirish ishlariga qo'shgan hissasi tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Katalog, qo'lyozma, sharh, nashr, tartib, institut.

ИЗ ИСТОРИИ ВЫПУСКА КАТАЛОГА В НАУЧНОМ НАСЛЕДИИ УЧЕНОГО-ИСТОРИКА А.УРИНБОЕВА
Аннотация

В статье освещается вопрос каталогизации и публикации произведений А. Уринбоева в его научной деятельности, анализируется вклад ученого в каталогизацию рукописей, хранящихся в Институте востоковедения УзНА.

Ключевые слова: Каталог, рукопись, восток, издание, заказ, учреждение.

FROM THE HISTORY OF THE PRODUCTION OF THE CATALOG IN THE SCIENTIFIC HERITAGE OF THE HISTORIAN SCIENTIST A.URINBOEV
Annotation

The article highlights the issue of cataloging and publishing the works of A. Urinboev in his scientific activities, analyzes the scientist's contribution to the cataloging of manuscripts stored at the Institute of Oriental Studies of the UzSC.

Key words: Catalog, manuscript, east, publication, order, institution.

Asomiddin O'rinboyevning ilmiy merosida sharh qo'lyozmalarini kataloglashtirish va tasniflash masalasi katta ahamiyatga ega. O'zbekiston Fanlar akademiyasiga qarashli Sharh qo'lyozmalari instituti manbalar fondining yettita katalogini tuzish va nashr etish ishlarida faol ishtirok etgan. Bundan tashqari, xalqaro miqyosda beshta xorijiy loyihalar asosida katalog yaratib nashr etishga muvaffaq bo'lgan. Olimning shu sohadagi muvaffaqiyatlarini tahlil etishda katalog va uning yaratilish tarixiga qisqacha to'xtab o'tildi.

Katalog so'ziga shunday mazmunda ta'rif berilgan: "Katalog – (yunoncha katalogos ro'yxat) ma'nosini anglatib, ayrim buyumlar, masalan, kitob, ekponat, mahsulotlarning ma'lum tartibda berilgan ro'yxati. Masalan, markalar, badiiy asarlar, kutubxona katalogi, kompyuter dasturlarining mantiqiy qurilmasida fayl nomlari saqlanadigan joy, fayllar yig'indisi." [1] Ushbu ta'rifga asosan Asomiddin O'rinboyev kitoblar katalogini tuzganligi va manbalar Sharh qo'lyozmalar instituti fondi kutubxonasida saqlanayotganidan xulosa qilib kutubxona katalogini yaratgan deyish mumkin.

Tarixdan bugungi kungacha yetib kelgan eng qadimgi katalog miloddan avvalgi VII-asrda Ossuriya shoxi Ashshurbannipal tomonidan to'plangan hujjatlar yig'isi qayd etilgan loy lavhalaridir. Uning har bir lavhasida til, matnning qisqacha mazmuni, sarlavha, muallif ismi, hujjat saqlanayotgan kutubxona kodi, ya'ni raqami yozilgan [2]. Devoriy katalog xaqidagi qiziq ma'lumotlardan biri: miloddan avvalgi 239 yilda tashkil etilgan Xorus ibodatxonasi kutubxonasining fondlari xaqidagi bino devoriga qayd etilgan edi. Bu ma'lumotlarni o'rganishni ma'lum ma'noda Asomiddin O'rinboyev ilmiy merosini tadqiq etishda yordami bor. Olim tomonidan tuzilgan, tahrirlangan kataloglar ham o'zida qadimiy tajriba va yangi ilmiylikni birlashtira olgan. Kataloglar qalin kitob shaklida bo'lib, har bir manbaga bir qancha tavsiflar yozilishi, manbaning yozilgan va xattot tomonidan ko'chirilgan sanasi, uning yana bir nusxasi mavjud yoki yo'qligi, qo'lyozma ko'chirilgan qog'ozning sifati va

ko'chirilgan qog'ozning sifati, ba'zilarida xatto qog'oz ishlab chiqarilgan joyi, saqlanayotgan raqami kabi ma'lumotlar batafsil berilgan. Ilmiy yangilikda esa, Asomiddin O'rinboyev tashabbusi bilan O'zR FA Sharhshunoslik instituti manbalari mavzulashtirilib katalog holiga keltirila boshlandi [3].

G'.Karimov bir noyob manbani qidirib topishda juda qiynalgan va "Qo'lyozmalarni kataloglashtirish, ya'ni qo'lyozma kitoblardagi asarlarning qisqacha tavsifini tuzib chiqib, kitoblar holda nashr etish O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharhshunoslik instituti tashkil qilingan 1943 yildan beri, bu dargohdagi eng muhim ilmiy vazifalardandir [4]", -deb ta'kidlagan. Bunda u katalog yordamida har bir tadqiqotchi onsonlik bilan o'zi istagan manbani topishi va foydalanishi qulayliklariga ishora bergan. Chunki xatto chet mamlakatlarda ham kerakli manbani izlab topa olmagani, O'zbekistonda katalog yordamida topishi yengil ko'chgani haqida mavzu orasida so'z ochgan. Asomiddin O'rinboyev mana shunday tadqiqotchi va olimlarning ishini yengil qilish va mavjud qo'lyozmalarni tartibga keltirish faoliyatini olib borganligi tahsinga sazovor. Lekin bunday ishlar aslida murakkab jarayon bo'lsada, chetdan qaragan inson uchun bu mehnatlar sezilmaydi. Tasavvur qilaylik, agar katalog bo'lmasa o'n bir mingdan ortiq qo'lyozma asarlar ichidan kerakli birgina manbani qidirib topish uchun bir-necha oylarga teng vaqtini sarflash mumkin. Katalogga tayangan holda esa besh daqiqada o'sha manba qo'lingizda bo'ladi. Bu qanchalik qulay va yengillik yaratishini shu jarayondan o'tgan kishigina chuqur anglab, katalog tuzish va nashrga tayyorlash ishlarini amalga oshirgan olimlar mehnatini qadrlay oladi.

Qo'lyozmalarni Asomiddin O'rinboyev tomonidan kataloglashtirish masala yuzasidan akademik D.Yusupova bilan ham bir-necha bor suhbatlashildi. "O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritguncha vaqtda sharhshunoslik institutimiz qo'lyozmalari fondida mavjud manbalar asosida 11 jildlik katalog nashr etildi. Ularning V va VI jildlari

Asomiddin akaning shaxsan o'zi tomonidan tavsiflar berilgan holda tayyorlangan. VII, IX va XI jildlarida kataloglarga kiritilgan qo'lyozmalarni jam'lash va tahrirlar ishlarini amalga oshirgan[3].” Xozirda ushbu kataloglar deyarli ilmiy muomalada qo'llanilmaydi. Chunki, mustaqillikdan keyin ularni mavzulashirilgan holda, yangi va qulay ko'rinishda nashr etilgan. Shunday bo'lsada, tadqiqot maqsadidan kelib chiqib, o'n bir jildlik katalogni mukammal o'rganib chiqildi.

Professor A.Semenov ta'kidlashiga ko'ra, 1960 yilda nashrga tayyorlangan V jildga kiritilgan qo'lyozmalarni tafsiflarini yozishda S.A.Azimjonova, V.I.Belyayev, Ye.Betger, D.Voronovskiy, V.Jukov, A.Qayumov, A.Kononov, N.Mikluxo-Maklay, A.Molchanov, K.Munirov, T.Nigmatov, Z.Rizayev, M.Salye, A.Semenov, O.Smirnova, K.Starkova, S. Tveritina, A.O'rinboev, A.Shmitlar faol qatnashganlar [5].

Katalogning beshinchi jildida tarix, biografiya (tarjimai xol), akt va epigrafika, memuar va badiiy adabiyotlar nomli bo'limlar bo'lib, ularning har birida sohaga oid qo'lyozmalar tasnifi joy olgan.

Sharq qo'lyozmalarining 1963 yilda nashr etilgan VI jildining kirish qismini yozgan olim D.Voronovskiyning qayd etishicha, ushbu to'plamga kiritilgan qo'lyozmalarining ellik ikkitasining tavsiflari Asomiddin O'rinboev tomonidan yozilgan [6]. Ularning o'ttiz ikkitasi takrorlangan holda katalogga kiritilgan va natijada 84 ta tavsif Asomiddin O'rinboevga tegishli bo'lgan.

1964 yilda yuqorida ta'kidlangan katalogning VII jildi tarix fanlari nomzodi Asomiddin O'rinboev va filologiya fanlari nomzodi L.M.Yepifanovlar tahriri ostida nashrdan chiqadi. Ushbu to'plamga kiritilgan qo'lyozmalar tavsifi A.Qayumov, K.Munirov, T.Nigmatova, A.O'rinboevlar tomonidan tayyorlangan. Unda ja'mi 608 ta qo'lyozmani tavsifi keltirilgan bo'lib ko'p qismi XIV – XX asr badiiy adabiyotiga to'g'ri keladi. She'riyat bo'limidagi qo'lyozmalar XIV-XX asrlarga oid bo'lgan asarlar bo'lib, ularning mualliflari orasida Navoiy, Lutfiy, Sakkokiy, Durbek kabi adabiyot namoyondalari bor [6].

Sharq qo'lyozmalari katalogining VII jildiga kiritilgan 608 ta tasnifning 115 tasi Asomiddin O'rinboev tomonidan tayyorlangan, ularning 55 tasi qayta takrorlangan, jami 170 ta tasnif Asomiddin O'rinboev mehnati bilan bog'liq. Kirish so'zni Asomiddin O'rinboev va L.M.Yepifanovlar yozgan. Katalogda tarix, memuar va sayoxatlar, badiiy adabiyotlar, tabiiy fanlar (astronomiya va astrologiya), yashirin fanlar (kabbalistika, orzu kitoblari), medisina, kosmografiya, falsafa kabi bo'limlar mavjud.

1971 yilda ushbu katalogning IX jildi Asomiddin O'rinboev hamda L.M.Yepifanovlar muharrirligida nashr etiladi[7]. Kirish so'z ham ularga tegishlidir. Unga tojik, fors tillarida yaratilgan 745 (№№ 6010-6755) ta qo'lyozmaning ilmiy tasnifi kiritilgan bo'lib, tarix, adabiyot, tibbiyot, falsafa, islom tarixi, aniq fanlar, geografiya sohalariga oid manbalardir.

Asomiddin O'rinboevning ta'kidlashicha, ushbu katalog jamoa mehnati mahsuli bo'lib, unga kiritilgan qo'lyozmalarining tavsifini 5tasi I.Abdullayev tomonidan, 63 tasi A.Vildanova, 154 tasi G.Voloshina, 140 tasi L.M.Yepifanova, 10 tasi Ye.Polyakova, 27 tasi Z.Rizayev, 128 tasi X.Xikmatullayev, 1 tasi K.Munirov, 20 tasi U.Xamroyev, 24 tasi L.Azizzoda, 147 tasi Sh.Zunnunov, 1 tasi N.Mannonova hamda 25 tasi B.Yusupovalar tomonidan tayyorlangan.

1987 yilda nashr etilgan XI jildni Asomiddin O'rinboev va R.Djalilovalar tahriri ostidan nashr etilgan. Bu jildga umumiy 585 (№№ 6990-7574) ta fors, arab tillarida yozilgan qo'lyozma asarlar tasnifi kiritilgan. Asomiddin

O'rinboev shunday deb izoh keltiradi: “ Katalogni nashrga tayyorlash ishlarini tartibga keltirishda A.Vildanova, D.Yusupova, B.Vaxabova, A.Kaziberdiyev kabi olimlar faol ishtrok etdilar. Qo'rsatkichlar qismi hamda katalogga kiritilgan qo'lyozma asarlarning 26 ta ilmiy tavsifini D.Yusupova tayyorladi. Matematika va astronomiya sohalariga oid ilmiy tasniflar A.Axmedov tomonidan ko'rib chiqildi. Fotoko'rgazma (ilyustratsiya) ishlari Sharqshunoslik instituti fotolaboratoriyasida K.Muzurova tomonidan amalga oshirildi.” Bu yerda Asomiddin O'rinboev katalogni tayyorlashda mehnatini ayamagan har bir olimni eslab o'tib, ularga o'z minnatdorchiligini bildirib qo'ymoqchi bo'lgan.

XI jild katalog tarix bo'limi bilan boshlangan, bo'lib, unga kiritilgan manbalar O'рта Osiyo va Sharq mamlakatlari tarixiga oid ma'lumotlarni bayon etadi. Ularning ba'zilari xattotlar tomonidan qo'chirilgan ishlar emas, balki, muallifning shaxsiy qo'lyozmasi bilan yozilgan. Masalan, Xo'ja Abdula'zam Somiy Buxoriyning “Ayn at-tavorix” asari muallif tug'ilgan yilidan to vafotiga qadar bo'lgan voqealar xronologik tarzida berilganligi bilan ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Asomiddin O'rinboev katalogning kirish qismida “Maktuboti Amir Xaydar” nomli qo'lyozmaga alohida to'xtalib o'tadi. Shuning uchun ushbu “Amir Xaydar maktub”larini topib tadqiq etildi. Unda XIX asr boshlari Buxoro xonligi xo'jalik boshqaruv ishlarining ma'lumotlari beruvchi ja'mi 279 ta maktub mavjud. Ular 1800-1826 yillarda Qarshi boshqaruvchisi bo'lgan Muhammad Xakimboy devonbegiga yozilgan. Xatlarda xarbiy sohaga oid va xo'jalik boshqaruv masalalari bo'yicha savol-javoblar, vaqf yerlaridagi hosilni yig'ib olish, axolidan xiroj va zakot solig'ini yig'ish, mutavalli, mudarris, qozi kabi lavozimlarga amaldorlarni tayinlash kabi xuquqiy masalalar ham qayd etilgan. Amir Xaydar Qarshi xokimidan Shaxrisabz ishlariga alohida e'tibor berishi lozimligi va ma'lumotlarni unga yetkazib turishini qat'iy ta'kidlagan. Maktublarda Qo'qonda ishlab chiqarilgan oq qog'ozga nasta'liq xati bilan yozilgan. Muallif va sana qayd etilmaganligi jumboqli masala bo'lgan. Lekin, Asomiddin O'rinboev hamda R.Djalilovalar tahriri ostida nashr etilgan katalogda bu maktublarda jamlanmasi Buxoro amiri Xaydarning shaxsan o'z qo'lyozmasida yozilganligi ta'kidlanadi. Bunga asosiy dalil sifatida Sharqshunoslik instituti tomonidan tayyorlangan o'n bir jildli katalogning birinchi jildiga kiritilgan “Sayyid Amir Xaydar Baxodirxonning Xakimboy inoqqa maktublari to'plami”, “Amir Xaydar maktublari” ga kiritilgan maktublarda keltiriladi. Ushbu maktublarni ham olib o'rganib chiqildi. Ularda Buxoroning bosh qushbegi lavozimida bo'lgan shaxs, ya'ni Xakimboy inoqqa amir tomonidan yuborilgan maktublarda jamlanmasi, 1800-1820 yillarda bitilgan turli sohalariga oid 955 ta hujjat va yorliklar to'plami mavjud. Mavzu doirasidan chiqmaslik uchun yig'ilgan ma'lumotlar batafsil kiritilmadi.

Sharq qo'lyozmalarini mavzulashirgan holda tayyorlashda esa Asomiddin O'rinboev rahbarligi ostida tarix, aniq fanlar, medisina va miniatura sohalariga oid bo'lgan kataloglar tahrirlandi. Tarix sohalariga oid qo'lyozmalar tavsifi jamlangan katalog esa Asomiddin O'rinboev tahriri ostida nashrdan chiqdi.

Asomiddin O'rinboev 1964 yil, 1971 yil, 1987 yil, 1998 yil, 1999 yillarda nashr etilgan Sharq qo'lyozmalarini to'plami nashr etilishida muharrir vazifasini bajargan. Ularning barchasi O'zR FA ga qarashli sharq qo'lyozmalari instituti fondida saqlanayotgan manbalarga asosan tuzilgan.

B.Vaxobova tomonidan amalga oshirilgan “O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasidagi Abu Ali ibn Sino asarlari to'plami (katalog)” ini nashrga tayyorlab, mas'ul muharrir vazifasini bajargan.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. IV jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – B. 500. (jami 703.)
2. Флоров Ю. Из истории библиотечных каталогов //Наука и жизнь. № 6. – Россия, 2022. Батафсил маълумот учун қаранг: <https://www.nkj.ru/archive/articles/44638/>
3. Юсупова Д. Асомиддин Уринбаев. – Ташкент, 2004. – С. 11.
4. Karimov G'. Payg'ambarning xirqasi: Esse // Sharq yulduzi. – 2010. – № 4. – В. 131-137.
5. Akademik Yusupova D.Yu.dan olingan og'zaki tarix.
6. Собрание восточных рукописей АН УзССР (серийный, аннотированный каталог). – Т. I. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1952. – С. 440; - Т. II. – С. 590; – Т. III. – С. 553; – Т. IV. – С.560; – Т. V. – С.543. – Т. VI. – С. 737; – Т. VII. – С. 554; – Т. VIII. – С. 798; – Т. IX. – С.600; – Т. X. – С.705; – Т. XI. – С.444.
7. Собрание восточных рукописей АН УзССР (серийный, аннотированный каталог). Т. V. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1963. – С. 8.
8. Д.Вороновский. Предисловие. Собрание восточных рукописей АН УзССР (серийный, аннотированный каталог). Т. VI. – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1963. – С. 10.
9. Вахабова Б. Рукописи произведений Ибн Сины в собрании АН РУз (каталог). / Отв. ред. А.Урунбаев. – Ташкент: Фан, 1982. – 71 с.



Shoira JUMAeva,

Chirchiq davlat pedagogika universiteti "O'zbekiston tarixi" kafedrasi mudiri, t.f.f.d.(PhD)

E-mail:shairajumayeva@mail.ru,

Eshbolta QOBILOV,

Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d

TerDu dotsenti, t.f.n J. Mirzayev taqrizi asosida

WRITTEN SOURCES ABOUT THE SHRINES OF THE TASHKENT OASIS

Annatation

Since ancient times, the Tashkent oasis has attracted the attention of many tourists, ambassadors, merchants and historians. The article talks about the sacred places and shrines of the Tashkent oasis, their unique rituals and traditions, which are covered in similar sources.

Key words: Written sources, shrine, ritual, religious view, holy place, tradition, Tashkent oasis.

ПИСЬМЕННЫЕ ИСТОЧНИКИ О СВЯТЫНЯХ ТАШКЕНТСКОГО ОАЗИСА

Аннотация

Ташкентский оазис издревле привлекал внимание многих туристов, послов, купцов и историков. В статье рассказывается о священных местах и святынях Ташкентского оазиса, их уникальных ритуалах и традициях, которые освещены в подобных источниках.

Ключевые слова: Письменные источники, святыня, обряд, религиозный взгляд, святое место, традиция, Ташкентский оазис.

TOSHKENT VOHASI ZIYORATGOHLARI TO‘G‘RISIDAGI YOZMA MANBALAR

Annotatsiya

Toshkent vohasi qadimdan ko‘plab sayyoh, elchilar, savdogarlar va tarixchilar e‘tiborini o‘ziga jalb etib kelgan. Maqolada aynan mana shunday manbalarda yoritilgan Toshkent vohasi muqaddas qadamjo va ziyoratgohlari, o‘ziga xos marosim va urf-odatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Yozma manbalar, ziyoratgoh, marosim, diniy qarash, muqaddas qadamjo, an‘ana, Toshkent vohasi.

Kirish. Globalizatsion jarayonlar shiddat bilan kechayotgan bugungi kunda ziyoratgohlar va ziyorat bilan bog‘liq marosimlar turli xalqlar diniy madaniyatini o‘rganish, dinlararo hamda millatlararo tolerantlik tuyg‘ularini targ‘ib etishda muhim vosita vazifasini bajarmoqda. Shu sababli ham zamonaviy globallashtirish dunyoda ziyorat qadimiy diniy an‘ana sifatida barqaror rivojlaniyotgan madaniy hodisaga aylandi. Bu esa o‘z navbatida, ziyorat va ziyorat bilan bog‘liq marosimlarni xalq madaniyatining o‘ziga xos fenomeni sifatida o‘rganish hamda targ‘ib etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda o‘zining geografik joylashuvi, xo‘jaligi va iqtisodiyotiga ko‘ra yetakchi mintaqalaridan biri hisoblangan Toshkent viloyatida 200ga yaqin tarixiy, tabiiy hamda diniy qadamjo va ziyoratgohlar joylashgan bo‘lib, ushbu maskanlar tarixi, o‘ziga xosligi hamda ular bilan bog‘liq tarzda o‘tkazilgan turli marosimlar etnologik jihatdan to‘liq tadqiq etilmagan. Shu jihatdan, mazkur mavzuni elshunoslik yo‘nalishida tadqiq qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Toshkent vohasi qadamjo va ziyoratgohlari mavzusiga doir tadqiqotlar va adabiyotlar tarixshunosligi beshta guruhga bo‘lib, tahlil qilingan:

Birinchi guruhga Toshkent viloyati ziyoratgohlari to‘g‘risidagi yozma manbalar kiradi. Aynan mazkur guruhga mansub manbalarning farqli tomoni shundaki, ularning asosiy qismida Toshkent viloyati ziyoratgohlari to‘g‘risida dastlabki ma‘lumotlar qayd qilinganligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi guruh adabiyotlari asosan, XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi istilosi davrida yozilgan asarlardan iborat bo‘lib, ziyoratgohlarning

bunyod etilish tarixi, ular bilan bog‘liq afsona va rivoyatlar bilan bir qatorda mahalliy aholining ziyoratga oil marosimlari, avliyolarga bo‘lgan hurmati, e‘tiqodi hamda Zangiota ziyoratgohida o‘tkazilgan xalq sayli tasvirlangan. Mazkur guruhga mansub asarlar jumlasiga A. Xoroshxin, P. Maev, N. Malliskiy va B. Luninlarning tadqiqotlarini kiritish mumkin. Yuqoridagi mualliflar ziyoratgohlar tarixi va marosimlarini etnografik dalillar asosida o‘rganib, o‘z xulosalarini bayon qilgan.

Uchinchi guruh adabiyotlari sovet davri tarixshunosligiga oid bo‘lib, mazkur davrda mafkuraviy tazyiqlar ta‘sirida yozilgan ateistik mazmundagi adabiyotlar bilan birga ko‘plab ekspeditsiyalar tashkil etilib, mavzuga doir bir qancha ilmiy nashrlar chop qilingan. Jumladan, o‘zbek xalqi kundalik turmush tarzida ziyorat va ziyorat marosimlari hamda avliyo kulti bilan bog‘liq qarashlar S. P. Tolstov, G. P. Snesev, Yu. V. Knozorov, V. N. Basilov, O. A. Suxareva va I. M. Jabborov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan.

To‘rtinchi guruh adabiyotlari asosan, mustaqillik yillarida yaratilgan bo‘lib, mazkur davrda ziyoratgohlar va ziyorat marosimlarini tarix, arxeologiya, etnologiya, epigrafika, folklorshunoslik, psixologiya hamda turizm nuqtai-nazaridan o‘rganish borasida salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilib, yangi nazariy-metodologik yondashuvlarga ega ilmiy nashrlar yaratildi. Jumladan, I. Jabborov, H. Karomatov, B. Ahmedov, O. Bo‘riev, S. Buxoriy, A. Ashirov, I. Suvonqul, T. Qilichev, A. Malikov, M. Sattor, O‘. So‘fiev, N. Abdulahatov, Z. Abidova hamda F. Akchaev kabi olimlar tomonidan yaratilgan asarlarda ziyorat marosimlari milliy qadriyat sifatida yoritib berilgan.

Beshinchi guruh adabiyotlarda xorijiy tadqiqotlar aks etgan bo'lib, ularda bugungi kunga qadar Toshkent viloyati ziyoratgohlari xorijiy tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganilmaganligini alohida qayd etish joiz. Mazkur mavzu Markaziy Osiyo va O'zbekiston miqyosida olib borilgan ilmiy izlanishlarda qiyosiy tahlil sifatida yoritib berilgan. Jumladan, S. N. Abashin, O. V. Gorshunova, V. L. Ogudin, T. Yu. Paul (Germaniya), J. A. Gross, T. Zarkon, H. Fathi va Yayoi Kavaxara kabi xorijiy tadqiqotchilar tomonidan tasavvuf ta'limotlari bilan bog'liq ziyoratgohlar, ziyoratgohlar epigrafikasi, ziyorat bilan bog'liq urf-odat-marosimlar, zikr, muqaddas qadamjo hamda ziyoratgohlarga tegishli vaqf hujjatlari kabi yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuni tadqiq etish jarayonida qiyoslash, tizimli tahlil, tavsifiylik, tarixiylik, tarixiy-qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan.

Shuningdek, Toshkent viloyatida joylashgan ziyoratgohlarda 2019-2023 yillar davomida olib borilgan dala tadqiqotlari materiallaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Buyuk Ipak yo'lining eng muhim markazlaridan bo'lgan Choch va Iloq hududi VII–VIII asrlarda ko'plab shahar hamda qishloqlarga ega bo'lgan, iqtisodiy jihatdan rivojlangan, qishloq xo'jaligi va hunarmandchilik, shuningdek, tovar-pul munosabatlari yuksak darajada taraqqiy etgan mintaqasi sifatida tarixiy manbalardan o'rin olgan. Jumladan, musulmon malakatlarini kezib chiqqan arab, fors olim va geograf Al-Istaxriy, Ibn Havqal va Al-Muqaddasiy tomonidan Shosh tarixiy viloyati quyidagicha ta'riflangan: "Xuroson va Movarounnahrda jome masjidlari, obod qishloqlari ko'pligi, zaminlari kengligi va imoratlari ko'pligi-aholisining kuch-quvvati va jasurligi borasida bu kabi boshqa bir mamlakat uchramaydi..." [1]. Shuningdek, Toshkentning qadim va buyuk tarixi to'g'risida qadimgi va o'rta asrlarga oid yuzlab qo'rg'onlar, shaharchalar va tarixiy me'morchilik obidalari ma'lumot beradi.

Toshkent shahri va uning atrofidagi mozorlar hamda ziyoratgohlar, ziyorat marosimlari to'g'risidagi qisqacha ma'lumotlar Mavloni Muhammad Qozining "Silsilat ul-orifiy", Faxriddin Ali as-Safiyning "Rashahot-u ayn-ul hayot" (1503), Muhammad Olim Siddiqiyning "Lamahot min nafahot ul-quds" (1624), Tohir Eshonning "Tazkirai Tohir eshon" (XVIII asrning 30 yillari), Xoja Abdurahim Hisoriyning "Tuhaft ul-ansob Alaviya" (1737), Muhammad Sharif ibn Muhammad Husayn Buxoriyning "Hujjat ul-zokirin" (1697), Avaz Muhammad Attor Ho'qandiyning "Tarixi jahonnamoyi" (1874) asarlarida ham qisman yoritib berilgan.

Muhammad Olim Siddiqiyning Yassaviya tariqati shayxlari hayoti to'g'risida ma'lumot beruvchi "Lamahot" asarida Xuziyonda Ismoil ota qabri, Toshkentdan 2 farsax (12–16 km.) uzoqlikda, O'rtasaroy qishlog'ida Sadr ota qabri, 4 farsax (24–32 km.) masofada joylashgan Ko'hak qishlog'idagi Badr ota qabri mavjudligi qayd qilingan. "Hujjat ul-zokirin" asarining muallifi Muhammad Sharif ibn Muhammad Husayn Buxoriy esa Sadr ota qabrini Toshkentdan 2 farsax (12–14 km.)da joylashgan Avsar hududida, deb ko'rsatgan [2]. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur yozma manbalarda asosan, Toshkent vohasining siyosiy-iqtisodiy hayoti va shahar-qo'rg'onlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan bo'lib, tadqiqot mavzusiga doir materiallar asosan, qisqacha xarakterga ega hamda ziyoratgohlarning joylashgan o'rniga oid ta'riflar bilan cheklangan.

Toshkent viloyati ziyoratgohlari to'g'risida ma'lumot beruvchi yana bir muhim yozma manbalardan biri Muhammad Solihxo'ja Toshkandiyning qalamiga mansub "Tarixi jadidai Toshkand" asari hisoblanadi. Toshkent shahri va viloyatining XIX asrga oid tarixi hamda geografiyasi to'g'risida ma'lumot beruvchi mazkur asarda ziyoratgohlar to'g'risidagi faktlar

Toshkent dahalari kesimida berilgan bo'lib, muayyan tartibda hamda to'liq keltirilgan. Muallifning yozishicha, Toshkentning to'rt dahasi nomlari shu yerda dafn qilingan avliyolar – Qaffol Shoshiy, Shayx Zayniddin, Shayx Hovandi Tohur va Zangiota nomlari bilan atalgan. Shuningdek, mazkur asarda Kaffol Shoshiy, Shayx Muhammad parranda, Xoja Dovud, Shayx Hovandi Tohur, Boboi Obrez, Hazrat Ukkosha, Xoja Yakka, Zangi Ota, Shayx Zayniddin, Xoja Chirog'bardor, Said Rabotakxoja va Xoja Alambardor kabi bir qator shaxslarga tegishli mozorlarning shaharda joylashgan o'rni, ularga tutash binolar va o'rtasidagi masofa hamda o'sha davrdagi holati to'g'risida ma'lumotlar olish mumkin. Muallif tomonidan olib borilgan kuzatishlar asosida Toshkent viloyatining tog'li qishloqlarida joylashgan quyidagi ziyoratgohlar to'g'risida ma'lumotlar berilgan: Puli Barbar ko'prigi yaqinidagi Bobo Sardorota yoki turkiy aholi tilidagi Bobo Chirtarota qadamjosi (Hazrati Ikrama nomlari bilan bog'liq), Bog'iston qishlog'idagi shayx Umar Bog'istoniy, Farkent qishlog'ida Bobo Mochin, Jeta va Mo'g'ul tog'idagi Idris payg'ambar, Zartalosh tog'idagi Muhammad parranda qadamjolari (Shayx Umar Bog'ustoni o'g'li) yoki Xoja Murodbaxsh, Zangiota va Arslonbob ziyoratgohlari.

Ushbu asarda Toshkent vohasida ma'lum va mashhur bo'lgan Zangiota ziyoratgohining Beshyog'och dahasida joylashganligi hamda Amir Temur tomonidan bunyod qilinganligi qayd qilingan. Ammo, ushbu ziyoratgohning qachon bunyod qilinganligi to'g'risida aniq bir ma'lumot berilmagan.

"Tarixi jadida-i Toshkand" asarida keltirilgan mozorlar va ziyoratgohlar VIII–XIX asrlarga mansub bo'lib, Toshkent va uning atrofidagi quyidagi ziyoratgohlar to'g'risidagi ma'lumotlar turli adabiyotlarda qayd qilingan: Qoraxo'ja ota (XI asr), Cho'pon ota (XV asr), Oqil ota (XVII asrning yarmi), Oq ota, Qo'yliq ota, Ilonli ota, Qabz ota, Mohu ota, Zangi ota, Qizil mozar va boshqa ko'plab mozorlar shular jumlasidandir [3].

Toshkent vohasidagi ziyoratgoh va mozorlar to'g'risidagi ma'lumotlar Faxriddin Ali as-Safiyning "Rashahot-u ayn-ul hayot", Mavloni Muhammad Qozining "Silsilat ul-orifiy" kabi asarlarida ham keltirilgan [4].

Toshkent vohasi ziyoratgohlari tarixini o'rganishda yurtimizda bo'lgan xorijiy sayyohlarning asarlari ham muxim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston bo'yab sayohat qilgan amerikalik diplomat Yujin Skaylarning "Turkiston: Rossiya Turkistoni, Qo'qon, Buxoro va G'uljaga sayohat qaydlari" asarida Toshkent tarixi, shaharning Rossiya imperiyasi istilosidan so'ng ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, aholining turmush tarzi, musulmonlar hayoti, ta'lim tizimi, bozorlari va savdo munosabatlari bilan bir qatorda Zangiota ziyoratgohida yilda bir marta o'tkazilgan xalq sayli tasvirlangan. Muallif Zangi otani Toshkent va uning atrofidagi butun mamlakatning muqaddas voliysi bo'lib, 1097 yilda vafot etganligini qayd etgan. Shuningdek, Yu. Skaylarning e'tiborini Zangiota maqbarasining xaroba holati, ziyoratgohdagi uyum bo'lib yotgan qo'chqor shoxlari hamda ziyoratchilar tomonidan qurib qolgan tut daraxtiga niyat bilan bog'lanayotgan latta parchalari tartadi. Muallif ushbu holatni daraxtga sig'inish urf-odatining saqlanib qolganligi bilan izohlagan. Muallif rus zobitlarining vaqtini chog' qilish maqsadida uelning rus hokimi ayollar raqsini tashkil qilgani diniy bayramni tahqirlash sifatida musulmonlarning nafratiga sabab bo'lganligi, bu holat mahalliy aholining tuyg'ularini poymol etadigan holat bo'lib, rus rasmiylari buni anglab yetmagani bayon etib o'tgan [5].

Jumladan, Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo hududlarining bosib olinishida ishtirok etgan A. P. Xoroshxin qirg'iz va qalmaq tillarini yaxshi bilganligi sababli istilochilik harakatlari davomida mintaqasi xalqlari tarixi, turmush tarzi hamda etnografiyasiga oid ma'lumotlarni 10 yil davomida

yig'ib borgan. Muallif o'z esdaliklarida ziyoratgohlar, mahalliy avliyolar va xalq sayllari kabi masalalariga oid ma'lumotlarni ham keltirgan. Jumladan, u o'z asarida Toshkent viloyatidagi Zangiota ziyoratgohida o'tkaziladigan xalq sayli haqida qisqacha, lekin qimmatli ma'lumotlarni qayd etgan [6].

P. Maevning Toshkent tarixiga oid tadqiqotlariga bag'ishlangan "Aziatskiy Tashkent" asarida Zangiota ziyoratgohi haqida hikoya qilingan. Muallif o'z kuzatishlari va mahalliy aholi tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida ushbu ziyoratgohning bunyod etilish tarixiga oid Amir Temur bilan bog'liq rivoyatlar, ziyoratgohning me'moriy tuzilishi, maqbaralarning holati, mahalliy aholining ziyorat bilan bog'liq urf-odatlarini hamda har yili kuz oylarida ziyoratgohda o'tkaziladigan xalq sayli to'g'risida ma'lumotlar bergan. P. Maev Zangiota ziyoratgohidagi sayllarni rus xalqining "qabriston bayrami" bilan qiyoslagan. Shu bilan birga, ushbu sayl yilda bir marotaba o'tkazilib, "Arsol' (Yangi yil)" deb nomlanganligini qayd etgan [7].

Ma'lumki, XIX asrning so'nggi choragida O'rta Osiyo xalqlarining madaniy hayotida muhim rol o'ynagan "Turkestanские ведомости" gazetasi 1870 yil 28 apreldan boshlab nashr qilingan bo'lib, uning sahifalarida nafaqat rasmiy, shu bilan birga, o'lka tarixi, etnologiyasi va statistikasi bo'yicha qiziqarli maqolalar chop qilingan. Jumladan, mahalliy aholining diniy qarashlari, ziyoratgohlar va ziyorat marosimlari to'g'risida ham muhim ma'lumotlar aks etgan maqolalar muntazam nashr etib borilgan. Ushbu gazetasining 1875 yil 26 avgust sonida Anbar ona, 1878 yildagi 34- sonida Zangiota ziyoratgohi, 1887 yil 48- sonida Toshkent viloyatidagi Xo'jakent qishlog'i hamda Hazrati Ali va uning Duldul oti izlari bilan bog'liq qadamjo to'g'risida, 1904 yil 37 sonida Anbar onaning qizi bilan bog'liq "Qiz Avliyo" ziyoratgohi haqida maqolalar chop qilingan [8].

1897 yilda S. Lidskiy "Turkestanские ведомости" gazetasida Toshkent viloyatidagi Xo'jakentning diqqatga sazovor joylari to'g'risidagi yo'l esdaliklarini nashr qilgan edi. Muallif Xo'jakentdagi Hazrat Ali bilan bog'liq qadamjo to'g'risida batafsil hikoya qilish bilan birga, bugungi kunda unutilib ketgan rivoyatni ham keltirgan: qishloq atrofida xalifa Ali tashrif buyurgan joy bo'lib, mahalliy aholi tomonidan qadamjo sifatida ulug'lanadi. Bu yerda Xalifa Ali chozonini qo'ygan qoya, uning mashhur Duldul otining tuyuq izlari, qoyatoshlardagi Zilfiqor qilichi qoldiqlari va alohida yotgan ulkan toshni ko'rish mumkin. Xalq orasida tarqalgan rivoyatga ko'ra, mazkur yakka holda yotgan toshni Hazrat Ali qo'lida ko'tarib o'ynagan ekan. Shu payt yonidan go'zal qiz o'tib ketadi. Yo'lovchi qizning go'zalligini ko'rgan Hazrat Ali qo'lidagi ulkan toshni shu yerda tushirib yuborgan. Yakka holda yotgan ulkan tosh tarixi mahalliy aholi tomonidan mana shunday izohlanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston obidalaridagi bitiklar. Toshkent shahri. – Toshkent: Uzbekiston today, 016. – B. 9.
2. Sultonov O'. A. Muhammad Solihxo'ja va uning "Tarixi jadidayi Toshkand" asari (XIX asr). – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – B. 94.
3. Bulatova V., Mankovskaya L. Pamyatniki zodchestva Tashkenta XIV–XIX vv. – S. 124; Toshkent. Ensiklopediya.... – B. 67, 129, 228, 385.
4. Ali as-Safiy. Rashahot-u ayn-ul hayot. / Tarjimon Domullo Xudoybergan ibn Bekmuhammad. – Toshkent: Ibn Sino nashriyoti, 2004. To'ldirilgan 2-nashr. – B. 291; Mavlono Muhammad Qozi. Silsilat ul-orifun. O'zR FASHI qo'lyozmasi. – №11413. – 43b-44a varaqlar
5. Скайлер Ю. Туркистони, Кўкон, Бухоро ва Гулжага саёҳат кайдлари. / З. А. Саидбоев таржимаси. – Тошкент: O'zbekiston, 2019. – 105 б.
6. Хорошхин А. П. Сборник статей касающихся Туркестанского края. – СПб., 1876. – С. 191.
7. Маев Н. А. Азиатский Ташкент / Материалы для статистики Туркестанского края. – Вып. IV. – СПб., – С. 263–266.
8. Туркестанское ведомости. 1875 г. 26 август. – С. 110–111; Казбеков Ю. Праздник в Зенги-Ата. // Туркестанские ведомости. – 1878. – №34. – С. 57; Галий Аскар Казинин. Айша Биби. // Туркестанские ведомости. – 1904. – №37. – С. 168.
9. Остатки языческих обычаев среди туземцов. // Туркестанский сборник. Т. 463. – Ташкент, 1897. – С. 17–19; Сборник по материалах по мусульманству. // Туркестанский сборник. Т. 563. – Ташкент, 1897. – С. 1–15.
10. Баземъ въ Занге-ате. // Туркестанский сборник. 1873. Т. 83. – С. 197.

"Turkestanskiy sbornik" to'plamida ham Markaziyo Osiyo hududida joylashgan qadamjo va ziyoratgohlar to'g'risida bir nechta maqolalar chop qilingan. Ushbu to'plamdan o'rin olgan "Ostatki yazycheskix obychaev sredi tuzemsov", "Sbornik po materialov po musulmanstvu" kabi maqolalarda qadamjo va ziyoratgohlar hamda ziyorat marosimlari to'g'risida ma'lumotlar berilgan [9]. Jumladan, "Bazem' v' Zange-ate" deb nomlangan maqola asosan, yilda bir marta, uch kun mobaynida Zangiota ziyoratgohida o'tkazilgan sayl to'g'risida bo'lsa-da, ushbu ziyoratgohning 1874 yildagi holati va me'moriy qiyofasi tasvirlanib, mahalliy aholining mazkur avliyo ruhiga bo'lgan hurmati va ziyoratgohda bajariladigan marosimlar haqida ma'lumotlar berilgan [10].

Xulosa va takliflar. Yuqorida nomlari qayd qilingan tarixiy manbalarda Toshkent vohasining muqaddas qadamjolari va ziyoratgohlari, ziyorat marosimlariga oid qimmatli tarixiy hamda etnografik ma'lumotlar mavjud ekanligi, qolaversa, o'zbek milliy madaniyatida ziyoratning tutgan o'rmini anglashda tarixiy asos vazifasini o'tashi bilan ham qadrlidir. Umuman olganda, ushbu davrda amalga oshirilgan tadqiqotlar, garchi malakali mutaxassislar tomonidan bajarilmagan bo'lsa-da, tadqiqot mavzusi doirasida ilk e'lon qilingan ilmiy ishlar ekanligi va shaxsiy kuzatuvlari asosida yozilganligi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, "Turkestanские ведомости" gazetasida chop qilingan materiallar asosida ziyoratgohlar tarixi bilan bog'liq bo'lgan, ammo bugungi kunga kelib unutilib ketgan afsona va rivoyatlar, xalq sayllari hamda ziyorat marosimlarini o'rganish mumkin.

Ziyoratgohlar mavzusi barcha davrlar uchun dolzarb mavzu bo'lganligi bois, ko'plab manbalarni va ma'lumotlarni keltirish mumkin. Masalan, sovet davriga oid ilmiy adabiyotlarda asosan, muqaddas qadamjo va ziyoratgohlar tarixiy obida sifatida o'rganilib, me'moriy yechimiga asosiy e'tibor qaratilgan. Ateistik ruhdagi adabiyotlar siyosiy tuzumning qattiq bosimi bilan yozilgan bo'lib, xalqimizning milliy qadriyatlarini, urf-odat va an'analari eskilik sarqitlari sifatida baholanganligi aniqlandi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligidan so'ng xalqimizning milliy qadriyati sifatida ziyorat va ziyorat marosimlari qaytarib berildi. Ziyoratgohlar va qadamjolar qayta tiklanib, mazkur sohada ilmiy tadqiqotlar uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Olib borilgan adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, shuni qayd etish mumkinki, asosan, ziyoratgohlar arxitekturasi hamda folklorshunosligiga bag'ishlangan adabiyotlar salmoqli bo'lib, epigrafik, etnografik va etnopsixologik jihatlarini yoritish bo'yicha kompleks tadqiqotlar bajarilmagan. Bu esa o'z navbatida tadqiqot mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.



Umida ZARIPBOYEVA,
Namangan davlat universiteti tarix yo'nalishi talabasi
E-mail:umidazaripboyeva629@gmail.com

Namangan davlat universiteti dotsenti Z.Madrahimov taqrizi asosida

HOLY STEPS IN KHANKA DISTRICT

Annotation

This article provides information about the holy places located in Khanka district of Khorezm region, their history, directions, peculiarities and attitude towards them.

Key words: Khorezm, Khanka, Khanaqo, holy places, Yahya Gulomov, Saidota mausoleum, Hazrat Kozliota's tomb, Hazrat Baba Khoja's graves, Hazrat Haji Eshon.

СВЯТЫЕ СТЕПЕНИ В ХАНКИНСКОМ РАЙОНЕ

Аннотация

В данной статье представлена информация о святых местах, расположенных в Ханкайском районе Хорезмской области, их истории, направлениях, особенностях и отношении к ним.

Ключевые слова: Хорезм, Ханка, Ханако, святые места, Яхья Гуломов, мавзолей Саидота, могила Хазрата Козлиоты, могилы Хазрата Бабы Ходжи, Хазрат Хаджи Эшон.

XONQA TUMANIDAGI MUQADDAS QADAMJOLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Xorazm viloyatining Xonqa tumanida joylashgan muqaddas qadamjolar, ularning tarixi, yo'nalishlari, o'ziga xosliklari va ularga bo'lgan munosabat haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Xonqa, Xonaqo, muqaddas qadamjolar, Yahyo G'ulomov, Saidota maqbarasi, Xazrati Ko'zliota qabri, Xazrati Bobo Xo'ja qabrlari, Hazrati Hoji eshon.

Xorazm vohasi o'zining qadimiy tarixi, noyob madaniyati, nafis san'ati, yuksak ma'rifati, dono falsafasi va insonparvarligi bilan ma'lum va mashhurdir.

Kirish. Insoniyat paydo bo'libdiki u rivojlanadi va shakllanadi. Har bir millatning o'zining rivojlanish va bunyodgorlik yo'li mavjuddir. Insoniyat tarixida shu paytga qadar ko'plab davlatlar mavjud bo'lgan, dunyoning turli o'lkalarida sanoqsiz shaharlar, qal'a va qo'rg'onlar barpo etilgan. Bu qal'a va qo'rg'onlarning ayrimlari hozirga qadar saqlanib qolgan. Bunday yirik arxeologik yodgorliklar tarix va arxeologiya fani uchun ajoyib bir manba hisoblanadi. Arxeologik manbalar yurtimizning har bir viloyatida mavjuddir. Ko'hna qal'alar diyori deb atalmish Xorazm vohasida ham, bunday tarixiy va arxeologik yodgorliklar ko'plab uchraydi.

Xorazm xalqi tarixi qadimgi davr bilan bog'lanadi. Qizilqum cho'lining cheksiz qumlari orasida ko'plab sir va sinoatlarga to'la Xorazm vohasi yoyilgan. Arablar istilosi davri manbalarida Xorazm "Ming qal'a o'lkasi" deb ataladi. Bu hududdan arxeologlar bir qatov maxobatli qal'alar va saroylarni, qadimiy aholi manzilgohlarni topdilar. Suvsiz dasthlarning bepoyon kengliklarida yuzlab qal'alar, maqbara shuningdek, inshootlar qad ko'tarib, ulkan butler singari Qadimgi Xorazm sirlarini saqlaydi. XX asrning 30 yillarigacha, ya'ni Xorazm hududida qazishmalar boshlanganda, atxeolog S.P.Tolstov, bu qadimiy o'lka haqida juda kam narsa ma'lum edi. Ammo qazishmalar natijalari barcha kutilganidan ham oshib ketdi.

Eng muhimi bino qurish, me'morchilik, insoniyot kamoloti, tarixiy yilnomasi bo'lib kelgan. Mil. avv. I mingyillikning birinchi choragiga kelib, qadimgi Xorazm hududlarida sug'orma dehqonchilikning taraqqiy etishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi natijasida, ibtidoiy jamoa munosabatlari o'rniga davlatchilik tizimi shakllana

I.A. Karimov.
boshladi. Ushbu tizimning shakllanishida qadimgi shaharlarning ahamiyati nihoyatda yuqori bo'ldi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, qadimgi Xorazm shaharlarining rejayiy uslublari – ichki va tashqi tuzilishi, himoya inshootlari, tabiiy joylashuvi nuqtayi nazaridan ko'p hollarda bir-biridan o'xshashlik topadi[1].

Xorazm viloyati ham ko'hna tarixi bilan mashhur hududlardan biri hisoblanadi. Xorazm toponimikasining kelib chiqishi ham uzoq tarixga borib taqaladi. Atrofi unumsiz sahrolar bilan qamrab olingan Xorazm iqlimi va tuproq sharoiti, kanal va suv inshootlari yordami bilan suniy sug'orish sistemasini Sharq dehqonchiligining asosi qilib qo'ygan ulkan Sharqning bir qismidir. Xorazm – Quyi Amudaryo bo'ylarida, bunday qaraganda, eng chekkadagi maskanlardek ko'rinsa-da, aslida insoniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan voha. Zardusht, Beruniy, Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Ogahiy kabi ko'plab olimlar aynan shu sarhadda yashab ijod qilishgan. Xorazm tarixini teran tadqiq qilgan S. P. Tolstov yozganidek, Xorazm nomi fors yozuvlarida, "Avesto"da va pahlaviy tilidagi diniy asarlarda, yunon, lotin, xitoy va arman manbalarida bir necha bor tilga olinadi. Xorazm diyoring paydo bo'lishi haqida turli xil rivoyat va afsonalar mavjuddir. Shulardan biri, Xiva xoni Olloqulixon (1825 – 1842) saroyiga Erondan elchi bo'lib kelgan Rizoqulixon "Xorazm safari" asarida keltirib o'tadi. Unga ko'ra, Sulaymon payg'ambar bir zamonlar parilardan biriga g'azab qilib uni dunyoning eng uzoq chekkasiga olib borib tashlashni devga buyuradi. Dev parini opichlab, payg'ambar aytganday joyni uzoq qidiribdi. Nihoyat o'sha vaqtda dashtu-biyobon bo'lib yotgan hozirgi Xorazmni ma'qul topibdi. Biroq dev Sulaymonning topshirig'ini bajargandan keyin, o'ziyam

shu yerda qolishga qaror qilibdi. Uzoq sargardonlikdan keyin u asira parini sevib qolibdi. Natijada, dev pari bilan oila qurib, shu yerda yashay boshlabdi, shu maskanni vatan tutibdi. Shuning uchun Xorazmning yigitlari devday qizlari esa paridek chiroyli, go'zal emish.

Arab sayyohi Muqaddasiy (X asr) ma'lumotlarida keltirilishcha, sharq podshohi 400 kishidan g'azab qilib surgun qilishni buyuradi va ularni kimsasiz joyga olib borishni buyurgan. Oradan vaqt o'tib kelib qarashsaki, badarg'a qilinganlarning hammasi tirik bo'lib, ular o'zlariga chayla qurib, baliq ovlab kun kechirar ekanlar. Ular go'sh va o'tin ko'p ekan. Ular go'shtni "xor" o'tinni esa "razm" der ekanlar. Shunda podsho o'sha joylarni, ular sharafiga Xorazm deb ataymiz degan ekan[2].

Rus olimi Tolstov ma'lumotlariga qaraydigan bo'lsak, "Xorazm" atamasi quyoshli yer degan manoni bildiradi. So'g'dshunos olim M.N. Bogolyubovning fikricha, Xorazm uch so'zdan tarkib topgan "yaxshi qo'rali yer" degan manolari ham mavjuddir. Demak, Xorazm toponimi qanday ma'noni anglatmasin, quyoshli o'lka, mustahkam o'lka, ajoyib qal'ali o'lka degan ma'nolar bu toponim uchun umumiy ekan.

Xorazm viloyati azaldan o'zining qadimiy tarixi, tarixiy-me'moriy obidalari, buyuk allomalari va boy madaniyati bilan mashhurdir. Xorazmning qadimiy va navqiron Xonqa tumani qadimiyliги jihatdan Ko'hna Xorazmning tarixiy poytaxtlari bo'lgan Qo'yqirilganqal'a, Tuproqqal'a, Kat va Xiva shaharlari bilan bir qatorda turadi. Uzoq davom etgan tarixiy va etnik jarayonlar natijasida tuman tarixi o'ziga xos tarzda shakllangan. "Xonqa" atamasining kelib chiqishi, ma'nosi to'g'risida olimlarning fikrlari yakdil emas. Mashhur arxeolog Yahyo G'ulomov o'zining "Xorazmning sug'orilish tarixi" asarida "Xonqa" atamasi "Xonaqoh" so'zidan kelib chiqqan degan fikrni ilgari suradi. U o'z fikrini mo'g'ullar davrida vayron etilgan machitlardan biri bo'lgan Sayid ota xonaqosining saqlanib qolganligi va uning atrofiga keyinroq aholi ko'chib kelib, yashash joyi bunyod etilganligi haqidagi xulosalari bilan tasdiqlaydi. Yahyo G'ulomovning ma'lumotlariga ko'ra, "Xonaqo" so'zi keyinchalik Xonqaga o'zgartirilgan[3].

"Ziyoratgoh" atamasi yakka yoki jamoaviy tarzda boriluvchi imyon keltirganlar ilohiy kuchlarga hurmat bajo keltirish orqali o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun ilohiy kuchlardan ko'mak so'rab, murojaat qilinadigan joy ma'nosini anglatadi. Islom dinining xanafiylilik mazhabida ziyorat qilish savobli ish hisoblanadi[4]. Ziyoratgohlar va ziyorat marosimlari oid tadqiqotlarni o'rganishda mahalliy ilmiy izlanuvchilarning xoijiy olimlar bilan hamkorlikda nashr etgan ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. 2007 – yilda taniqli sharqshunos olimlar – D. Abramsova va E. Karimov tomonidan "Muqaddas joylar, dunyoviy mafkuralar: O'zbekistonda diniy ziyorat va davlat" mavzusida ilmiy maqola e'lon qilindi. Ushbu ilmiy maqolada O'zbekistondagi Toshkent, Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlarida olib borilgan[5].

Xonqa – shaharcha, Xonqa tumani markazi. Xonqa – "Zikrxona" so'zidan olingan. Xonqa X asrda Darxos deb atalgan. V. V. Bartold "xonqao" forscha xona so'zining so'g'diylar tilida talaffuz qilinishidir degan. 1981 – yil Moskvada nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" nomli ikki jildlik yirik asarida "Xonaqoh" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Xonaqoh" – fors – tojik atamasi bo'lib, masjidning namoz o'qiydigan keng va kata xonasiga ayliladi[6].

Xonqa tumanining vujudga kelishi ham ana shu ziyoratgohlardan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shulardan dastlabkisi hisoblangan Said ota maqbarasi Xonqa tumanida joylashgan. Maqbara 1766 yilda hovli shaklida qurilgan bo'lib, Xorazm me'morchiligida o'ziga xos uslubga ega bo'lgan majmua. Majmua bir qancha binolardan iborat,

ular turli davrlarda qurilgan. Maqbara usti yopiqhovli (14,0x7,0 m), xonaqoh (7,0x7,0 m), ayvon va unga kiraverishdagi qo'shimcha xonalar (qorovulxona, otxona va boshqalar)dan iborat. Hovli markazida quduq saqlangan. Xonaqoh gumbaz tomli, gumbaz asosiga g'ishtin sharafalar, ostki qismiga 8 ta ravoqdi deraza ishlangan. Darvozadagi arab yozuvlari orasida masjidning qurilgan yili qayd etilgan[7].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Manbalarda, Said otaning Amir Tarag'ay bilan muloqotda bo'lgani qayd etiladi. "Temurnoma" asarida yozilishicha, Said ota o'n to'rt yoshida Xorazmdan Buxoro sharifiga borib, yigirma yil ilm olib, Toshkentga borib, Zangiotaga muridlik qilgani to'g'risida ma'lumotlar bor. Said ota Ahmad Yassaviyning so'fiylik tariqatining davomchisi sifatida janubiy Xorazmda mashur bo'lgan, avliyolik darajasiga avliyolik darajasiga yetgan shaxsdir. Sharqshunos olimlar L.Mankovskaya va V.Bulatovalar Said ota xonaqohi haqida ma'lumot berib, xonaqohni uning o'g'illari yoki nevaralari qurgan bo'lishi mumkin deb taxmin qilishadi. Keyinchalik bosqinchilar Safardiz qal'asini vayron qilganda ham bu xonaqoh omon qolgan. Vaqt o'tishi bilan odamlar bu yerga ko'chib kela boshlaganlar, avval qishloq, keyin Xonqa qal'asi paydo bo'lgan. Hozirda maqbara madaniy-tarixiy ob'yekt sifatida davlat himoyasiga olingan. Hozirda ham bu ziyoratgoh Xorazm viloyatida eng katta ziyoratgohlardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olib qaraganda Xonqa nomining kelib chiqishini Said ota nomi bilan bog'laydilar[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Tumanning mashhur ziyoratgohlaridan biri – Xazrati Ko'zliota qabri Durgadik qishlog'ida joylashgan bo'lib, uning asl ismi Uzun Hasan ota bo'lib, bu muhtaram zot Zangiotaning muridlaridan biri hisoblanadi. Bu mo'tabar zot Buxoroda ilm olib, so'ngra 2-3 nafar tengdosh do'stlari bilan Toshkent tomonlarga ketishgan emish. Bugungi kunda Xazrati Ko'zliota qabri muqaddas ziyoratgohga aylangan.

Hazrati Hoji eshonning qabri Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi Qoraqosh qishlog'ida bo'lib, bu muhtaram zot Toshmuhammad eshonning muridlaridan, ulug' zohid va obid kishilardan biri bo'lgan. Uning karomatlarini o'z ko'zlari bilan ko'rgan aholi unga e'tiqod boylab, ko'p kishilar Hoji eshonga murid bo'lib, so'filik qilib xizmatini qilishgan. Vafotlaridan keyin Qoraqosh qishlog'ining Polvon kanalining janubiy qismiga maxsus maqbara dafn qilingan. Keyinchalik bu joy muqaddas ziyoratgohga aylantirilgan. Bu maqbara hozir ham saqlanib turibdi. Bu qishloqda Sayid Muso bobo, Mulla Abdujabbor bobo, Xoji Muso Bobo degan ulug' kishilar tavallud topgan va yashab o'tganlar. Ular ham ziyoda zohid tabiat, karomatli inson bo'lganlar[9].

Hazrati Sova bobo – Sova boboning qabri Xorazm viloyatining Xonqa tumanidagi Navxos qishlog'ida joylashgan bo'lib, payg'ambarimiz Muhammad alayhi salom zamondosh bo'lgan Abdurahmon sahoba sharafiga qurilgan maqbaradir. Ma'lumotlarga ko'ra, u kishi yoshligida yetim qolib, ko'p aziyatlarga chekkan. Jahongashtalik qilib, Xorazm diyoriga kelib qolgan ekanlar. Ul zot ziyoda orif va obid kishi bo'lib, o'z davrining mashhur avliyolaridan bo'lgan. Umrlarining oxirlarida shu qishloqqa dafn qilinib, qabri ustida xonaqoh, gumbaz va qorixonalar qurilgan.

Rivoyatlarda aytilishicha, Sova boboning qabri joylashgan yerdan yo'l o'tgan bo'lib, u yerdan Xayri Xo'ja ismli bir zoti sharif o'tib borayotganida, Abdurahmon sahobaning qabridan ovoz kelgan. Xayri Xo'ja eshon Abdurahmon sahobani qazib olib, yer ustiga xonaqoh, gumbaz qurdirib mayitni qayta dafn qilgan ekanlar[10]. Shu voqeadan keyin Xayri Xo'ja eshonning fatvolari bilan to'ro'zi qiyomatgacha Sova Bobo maqbarasining shayhi etib, Nurmuhhammad shayxning avlodlari tayinlangan ekan. Bugungi kunda Sova bobo maqbarasini qishloq ahli

ziyoratgohga aylantirishgan va maqbara hozirgi kunda ham saqlanib turibdi.

Xazrati Bobo Xo'ja qabrlari – Xonqa tumanining Navxos qishlog'ida joylashgan bo'lib, bu kishini Qora Alam bobo ham deydilar. Ma'lumotlarga ko'ra, qadim zamonlarda Navxos qal'asida katta bozor bo'lib, Xazrati bobo xo'ja qal'aning ulug' so'fiylaridan biri bo'lgan. Hazrati bobo xo'ja islom aqidalarining to'rtta adibini ham to'liq egallagan alloma bo'lib, ma'lumotlarga ko'ra, Xorazm diyorida mo'g'ullar tajovuz qilganda katta jasorat ko'rsatgan ekanlar. Shu bois xalq u kishini valilullo, karomatli va jasur xaloskor sifatida e'zozlab, vafotlaridan so'ng qabrini muqaddas ziyoratgohga aylantirishgan.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda Xorazm viloyati Xonqa tumanidagi bu ziyoratgohlarning barchasiga hukumat tomonidan alohida e'tibor berilib, davlat muhofazasiga olingan. Bu kabi kabi ziyoratgohlarni Xorazm viloyatining har bir tumanida uchratish mumkin. Natijalar shuni ko'rsatadiki Xonqa tumani nafaqat Xorazm viloyidagi bali butun respublika hududidagi qadimiy va o'timishi bilan faxrlansa bo'ladigan tumanlardan biri hisoblanadi. Bu ziyoratgohlar

orqali biz avliyolar tarixi, ularning faoliyati, Xoazm tumani toponimikasiga oid qisqacha ma'lumotlar, ayrim mulohazali fikrlar, viloyat aholisi eshonlar va avliyolarning qanchalik e'zozlaganligi, ularga atab ko'plab maqbara va inshootlar qurganligi shuningdek, Xorazm viloyati me'morchiligiga oid ma'lumotlar ham olishimiz mumkin. Xonqa tumanidagi bu maqbara va inshootlar o'zining tarixiyliigi va qadimiyliigi bilan mashhurdir.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni qayd etsih mumkinki, yurtimizda saqlanib kelayotgan ziyoratgoh va qadamjolarini asrash barchamizning burchi. Chunki, ularda xalqning ruhiyati, ma'naviyati, qo'yingki o'zligi aks etib turibdi. Shu bois biz ularni xalq ma'naviyatining ko'zgisiga aks etamiz. Istiqloq sharofati bilan o'zining buyuk kelajagini yaratish yo'lida mehnat qilayotgan xalqimizning haqiqati o'z oldiga qo'ygan maqsadi kabi boy va qadim o'tmish borligini, umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismi bo'lgan o'ziga xos urf-odat, an'analarga ega ekanligini o'rganish, shunga doir tegishli tadqiqotlarni olib borish bugungi avlod uchun juda muhim bo'lib, yurtimizning yanada ravnaq topishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Эшов Баходир. Қадимги Ўрта Осиё шаҳарлари тарихи. – Тошкент, 2006. – Б. 151-152.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/umid-bekmuhammad-xorazm-toponimi-turli-taxminlar.html>
3. Фуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Т., 1959.
4. Ислон енсиклопедяси./З.Хусниддинов тахрири остида – Т: ЎзМЭ,2004.- Б.20.
5. Boborahimov. Sh, Bozarov. N, Surhon vohasi ziyorat turizmi salohiyati va uni rivojlantirish istiqbollari. TOSHKENT – 2023. B- 10
6. Rajabboyeva Dilnoza Maqsud qizi. Xonqa tumanidagi joy nomlari toponimlari. Urganch Davlat Universiteti talabasi maqolasi. 2022 – yil.
7. <https://uz.wikipedia.org>
8. Хонқа тарихи. – Урганч: “Хоразм”, 1995. – Б. 14.
9. Абдурасулов А., Абидова З. Хоразм қадамжолари ва зиёратгоҳлари. – Т.: YANGI NASHR, 2016. – Б. 76.
10. Камариддин Эшон. Комилжон Дурди. Тазкиратул авлиё, ёхуд Хоразм диёрида мадфун бўлган авлиёлар. – Урганч: “Хоразм”, 1997. – Б. 57.



Zulfizar ISMATOVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: zulfizarismatova791@gmail.com

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti dotsenti v.b., PhD N. Narziyev taqrizi ostida

BUXORO VOHASI TOPONIMLARINING MANBA VA ADABIYOTLARDA YORITILISHI

Annotatsiya

Maqolada toponimikaga oid manba va adabiyotlardan foydalanilgan holda Markaziy Osiyoning, xususan Buxoro viloyatining topografiyasi, etimologiyasi va toponimiyasiga oid ma’lumotlar manba va ilmiy adabiyotlar va dala etnografik tadqiqotlari asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Topografiya, etimologiya, toponimiya, qadriyat, an’ana, ma’muriy hudud.

EXPLANATION OF NAMES OF BUKHARA OASIS IN SOURCES AND LITERATURE

Annotation

Using toponymy sources and literature, the topography, etymology and toponymy of Central Asia, in particular Bukhara region, are covered in the article on the basis of sources and scientific literature and field ethnographic research.

Key words: Topography, etymology, toponymy, value, tradition, administrative area.

ОБЪЯСНЕНИЕ НАЗВАНИЙ БУХАРСКОГО ОАЗИСА В ИСТОЧНИКАХ И ЛИТЕРАТУРЕ

Аннотация

В статье топография, этимология и топонимия Центральной Азии, в частности Бухарского региона, освещаются с использованием источников и литературы по топонимии на основе источников и научной литературы и полевых этнографических исследований.

Ключевые слова: Топография, этимология, топонимия, значение, традиция, административная территория.

Kirish. Turkiston zamini jahonning eng rivoj topgan qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Chin bilan Rum, Rossiya va Sibir bilan Hindistonning o‘rtasida joylashgan bu o‘lkada ne-ne hukmdorlar, istilochilar, janglar bo‘lgan, turli-tuman xalqlar, qabilalar yashagan, allaqanday tillar jaranglagan. Bu kabi jarayonlar kishilar, tillar, dinlar, madaniyat – mahalliy sharoit bilan, qadimdan zo‘r an’anasi bo‘lgan fors-tojik va turkiy madaniyat bilan qorishib ketgan [1].

Bularning hammasi o‘lkamizning toponimlarida ham o‘z aksini topdi. Tarixga nazar tashlaganimizda ham toponimlarning ajoyib va g‘aroyiblarini uchratamiz. Hatto ayrim hududlarning o‘zi 5-10 va undan ham ko‘proq nom bilan atalganini guvohi bo‘lishimiz mumkin.

Toponimlar aslida joy nomlari sifatida o‘tmishda yashagan turli qavm va elatlar hayotida muhim iz qoldirgan qimmatli tarixiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy manbadir. Har bir el, elat, xalq, millat ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy munosabatlari muayyan manzil-makon bilan bog‘lar ekan, ularning har birini aniq nom bilan bog‘liq holda tushunib kelgan. Sababi, yurtimiz hududlarida juda qadimdan yashab kelayotgan turli millat va elatlarning tarixi, ajdodlarimizning tafakkur yo‘sinini, yashash tarzi, joylarga nom berish o‘ziga xos tadqiqot obyekti sanaladi [2].

O‘zbekiston Birinchi Prezidenti I.A.Karimov “Qachonki, joy nomlari tarixga aloqador milliy qadriyat, an’ana, milliy o‘zlik, umuminsoniy fazilatlar bilan muvofiqlashgan holda o‘rganilsagina, o‘z ijobiy bahosiga ega bo‘ladi”[3], degan fikrlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon boladi [4]”, - degan fikrlaridan ham ko‘rinib turibdiki, toponimlarimizni o‘rganish orqali o‘zligimizni, milliy qadriyatlarimizni va tariximizning asl ildizlarini o‘rganamiz.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Toponimlarga, ularning kelib chiqishi, ma’nosi, o‘zgarishi, talaffuz qilinishiga kishilar juda qadim zamonlardan qiziqib kelishgan. Har bir toponim ortida qanchadan-qancha voqealar, tabiiy hodisalar, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot, xalq, qabila, urug‘, ayrim kishilar faoliyati haqidagi ma’lumotlar yashirinib yotadi. Tarixiy manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, toponimlar ma’nosi va kelib chiqishiga doir ilk ma’lumotlar qadimgi dunyo mutafakkirlari asarlarida qayd etilgan. Chunonchi, qadimgi yunon-rim davri adiblari bo‘lgan Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya”, Pomoniya Melaning “Xorografiya”, Pliniyning “Tabiiy tarix “ nomli asarlarida qayd etilgan joy nomlari uzoq o‘tmishga aloqador dastlabki manbaviy ma’lumotlar hisoblanadi [2].

Sharqda, jumaladan, O‘rta Osiyoda toponimikaga qiziqish qadimdan boshlangan. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Abu Rayhon Beruniyning “Qonuni Mas’udiy”, “Hindiston”, “Saydana”, “Geodeziya”, “Minerologiya”, “Osori boqiya” (“Saydana” kitobida 400dan ortiq qishloq, tog‘, daryo, shahar va orollarning nomlari tilga olingan. “Qonuni Mas’udiy”da 603 ta joy nomi ko‘rsatilgan), Ibn Sinoning “Dengiz qirg‘oqlari” asrlarida toponimkaga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Arab tilshunoslari lug‘at tuzishda joy nomlarini, tog‘, daryo, qishloq nomlarini izohlashga alohida e’tibor berganlar. Bu borada Halil ibn Ahmad (VIII asr), Abu Ubayda (IX), Muhammad al-Albariy (Xasr), Abdulla ibn Qutayba (IX asr)larning xizmatlari kattadir. Ma’lumki, arab fani, arab tilshunosligi, Kufa maktabining ilk vakillaridan bo‘lgan Ismoil al-Javhariy 40000 klassik arab tili so‘zligini o‘z ichiga olgan “Salih” nomli lug‘atida o‘sha davrga xos bo‘lgan bir qator toponimlarni ham izohlagan [5].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqola umumqabul qilingan metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik va ilmiy xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Joy nomlarini o'rganilishi o'rtaslarida arab, fors va turkiy tillarda yozilgan bir qancha tarixiy-geografik asarlarda bayon etilgan. Xususan, muallifi nomi ma'lum bo'lgan "Hudud ul-olam" asarida ham toponimikaga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Bu asar fors tilida 372 yilda (mil.982-983) Guzgon (Guzgonon, Juzjon, Juzjonon – Shimoliy Afg'onistondagi tarixiy viloyat [6]) viloyatining voliysi Abdulhoris Muhammad ibn Ahmad uchun yozilgan. Mazkur asari orqali Movorounnahrda dengiz va qo'ltiqlar, tog'lar va ulardagi ma'danlar, daryolar, nohiyalar, shaharlar haqida kerakli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

"Hudud ul-olam"da Buxoroga quyidagicha ta'rif beriladi: "Movorounnahrda eng katta va obod shahar, mashriq podshosining poytaxti. Havosi nam joy, mevalar va oqar suvlar ko'p. Odamlari mergan va zafar qozonuvchi. U yerda yaxshi jun, gilam-palos, sholcha va joynamoz tayyorlanadi, pashmina va sho'ra ham ishlab chiqariladi va uni boshqa joylarga olib ketadilar. Buxoro hududi o'n ikki farsangga o'n ikki farsangdir va uning gir atrofi uzluksiz devor bilan o'rab olingan va uning hamma rabotlariyu qishloqlari ana shu devor ichkarisida [6].

Bundan tashqari Buxoro hududidagi Mu'kon, Xujodiy, Dando'na, Bo'mikas, Madomijkas, Jazg'ankas, Baykand, Tavovis kabi minbarli shaharchalar haqida ham qimmatli bilimlarga ega bo'lamiz.

Yana bir tarixiy manbalaridan biri bo'lgan Ibn Havqalning "Kitob surat al-ard" asaridir. Bu asarda ham Movorounnahrning geografiyasi, toponimiyasi, aholisi, tabiiy boyliklari, savdo mahsulotlari, harbiy yurishlar, hukmdorlar va boshqaruv tizimi, qo'shin va boshqa shu kabilar haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Asarda Buxoro shaharlari haqida quyidagicha fikrlar mavjud: "Buxoro devorining ichkarisida ham, tashqarisida ham shaharlar bor. Devorning ichkarisidagi shaharlar: at-Tavoris, unda eng katta minbar joylashgan. Namijkand, Zandana, Mug'kon, Xujoda – ularning hammasi devorning ichida joylashgan. Devor tashqarisidagi shaharlar: Baykand, Farabr, Karminiya, Xudimankan, Xarg'onkat, Madyomijkat [7].

Bu asarda Buxoro viloyatining qishloqlari bo'yicha ham ma'lumotlar bor. "Xujoda qishlog'i Buxorodan Baykandga boradigan yo'lining o'ng tomonida shahardan uch farsax masofada joylashgan. U bilan yo'l orasidagi masofa taxminan 1 farsax Mug'kon shahardan besh farsax masofada, Baykand yo'lining o'ng tomonida. U bilan yo'l orasidagi masofa uch farsax.

Zandana shahardan to'rt farah masofada, shahardan shimolda joylashgan. Najmik at-Tavovisga boradigan yo'lining chap tomonida, shahardan to'rt farsax masofada. U bilan yo'l orasidagi masofa taxminan yarim farsax.

Karminiyadan Xudimankangacha as-So'g'd tomonga yurganda bir farsax. Xudimankan bilan Samarqand yo'li orasidagi masofa bir g'alva Buxorodan Samarqandga boradigan yo'ldan chapda.

Madyomijkat as-So'g'd daryosining orqasida, Xudimankandan yuqoriroqda, bir farsax masofada joylashgan. Xarg'onkat Karminiyaning qarshisida bir farsax masofada daryoning orqa tomonida joylashgan [7].

Yana bundan tashqari Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning "Kitob surat al-arz", Samoniyning "Kitob al-ansob", Hofizi Abro'yning "Geografiya" (XV asr), Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" (XVI asr), Abulg'oziyning "Shajarayi tarokima" va "Shajarayi turk" (XVII asr), Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammadning "Dil g'aroyib" (XIX asr), Muhammad Solihxo'janing "Tarixi jadidayi Toshkent"(XIX asr) kabi asarlari ana shular jumlasidandir. Qayd etilgan manbalarda O'rta Osiyoning keying ming yillikdagi tarixiy geografiyasiga tegishli

ma'lumotlar qamrab olingan. Mazkur asarlarda o'lkamizning tog', vodi, dasht, cho'llar ma'danlari, suvlari, o'simliklari, hayvonot olami, ma'muriy hududiy tarkibi, etnik-hududiy holati, shahar va qishloqlari, xo'jaligi, xalqaro munosabatlari geografiyasi hamda tarixiy toponimiyasi haqidagi ma'lumot berilgan [2]. Qimmatli manbalarimizdan O'rxun-Enisey bitik toshlarida, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kabilarda ham joy nomlariga oid ma'lumotlar uchraydi.

Chet ellik olimlardan ham bir nechtasi Buxoro tarixini va tarixiy topografiyasini o'rganishgan. Bulardan sharqshunos akademik V.V Bartold, V.A Shishkin, I.I Umnyakov, O.A Suxareva va boshqalar.

Bular orasidan I.I Umnyakov Buxoro shahri tarixiy topografiyasi masalalariga qo'l urgan. Buxorodagi rus siyosiy agentligi mahkamasida faoliyat ko'rsatgan davrlarda, ya'ni 1916-1920 yillar orasida Buxoro shahri tarixiy topografiyasi masalalari bilan jiddiy shug'ullanadi. Mahalliy va arab manbalarini jalb qilgan holda Buxoro shahrining ilk o'rta asrlardagi tarixiy ko'rinishini tiklashga muvaffaq bo'ldi. Qo'lga kiritilgan ma'lumotlar uning "Buxoroning o'rta asrlar tarixiy topografiyasi masalalariga doir" kitobida o'z aksini topdi. Mahalliy va arab geograflari ma'lumotlarini qiyosiy o'rganish natijasida Buxoro shahri tarixiy topografiyasi davrlar osha o'zgarib borganligi va hatto darvozalar nomi ham zamonga qarab o'z nomini o'zgartirib turgani xususida qimmatli ma'lumotlarni taqdim etadi [8].

Yana bir tarixchi va geograf venger olimi Armeni Vamberi (1832-1913) maxfiy topshiriq olib Turkiston o'lkasiga sayohat qilgan. Uning "Buxoro tarixi", "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" asarlarida toponimik tadqiqotlarni o'rganishda muhimdir. Vamberi o'z asarlarida 600ga yaqin geografik nom va atamalar izohlarini berib o'tilgan [2].

O'lkamizning toponimiyasini o'rganish davrida uning kelib chiqish rivoyatlarini yozib olish orqali ham tadqiq qilingan. Toponimik rivoyatlar o'lkamizni tarixiy- etnografik nuqtayi nazardan tadqiq etgan olimlar tomonidan ham to'planib, tahlilga tortilgan. Xususan, B.X Karmisheva O'zbekiston Respublikasining janubiy tumanlarida istiqomat qiluvchi urug'-qabilalarga bag'ishlangan etnografik tadqiqotida etnonimlar va qishloq nomlarining kelib chiqishi haqidagi rivoyatlarni ham keltirgan [9].

Xulosa va takliflar. Markaziy Osiyo, jumladan O'zbekistondagi toponimlarning asoslarini, izohi va etimologiyasini o'rganish, tadqiq qilish o'tgan asrning 60 yillaridan boshlandi. Endilikda mamalakatimizning Qashqadaryo, Surxondaryo, Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlari, Toshkent shahri, shuningdek, Navoiy, Farg'ona viloyatlarining ba'zi tumanlari toponimlari to'plangan va ilmiy tahlil qilingan. Ushbu munosabat bilan O'zbekiston toponimiyasi bo'yicha o'ndan ortiq dissertatsiya himoya qilingan, bir necha monografiya va joy nomlarining izohli lug'atlari nashr etilgan. Bu sohada H.Hasanov, E.Begmatov, Z.Do'simov, B.O'rinboyev, A.Muhammadjonov, S.Qorayev, T.Nafasof, N.Oxunov, S.Naimov, Yo.Xo'jamberdiyev, L.Karimova, S.I.Zinin, J.latipov, M.Ramazonova, X.Xolmo'minov, Sh.Qodirova, N.Mingboyev, A.Zokirov, A.Otajonova, A.Turopov kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega [10]. O'zbekistonning toponimiyasi bo'yicha yozilgan ishlarning deyarli ko'p qismida joy nomlarining lug'aviy qatlamlariga oid fikrlar mavjud. Lekin, bu qatlamlarga oid tahlillar qisman qisqa bo'lib, ularga oid ayrim mulohazalar bildirilgan. Buning ustiga, ushbu tahlillarda joy toponimlar tasnifiy va tavfsifiy jihatdan izohli talqin qilingan. Ularda joy nomlarining yasalish xususiyatlari va izohlanishi, shu jumladan, geografik tavfsifotlari haqidagi fikrlari ustun.

ADABIYOTLAR

1. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. Ўзбекистон ССР “Фан” нашрети. Тошкент. 1965. – 80 б.
2. Бердиев Х. А. Нурота воҳаси топонимларининг тарихий таҳлили (XIX асрнинг охири – XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш ёзилган дисс.Тошкент. 2019.- 190 б.
3. Каримов И.А. Бизнинг йўлимиз – демократик изоҳатларни чуқурлаштириш ва модернизация жараёнларини изчил давом эттириш йўлидир – Тошкент,Ўзбекистон. 2012. – 326 б
4. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Тошкент, Ўзбекистон.2017. – 104 б
5. Аҳмедов С. Н. Жиззах вилояти топонимларининг семантик хусусиятлари. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) дисс... Самарқанд.2020.- 148 б
6. Худуд ул-олам / [Масъул муҳаррир Мирсодиқ Исоқов] . – Т.: Ўзбекистон, 2007. – 64 (Қадимги битиклар).
7. Ибн Ҳавқал. Моворуннаҳр / Ибн Ҳавқал; араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Қамолитдин, масъул муҳаррир Ф.С.Ҳасанов - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси “ Давлат илмий нашрети, 2011. - 400 б.
8. Бухоро тарихи. [Матн] : ўқув қўлланма / Ҳалим Тўраев. – Бухоро : “ Садриддин Салим Бухорий” Дурдона нашрети, 2020. – 320 б.
9. Сатторов У.Ф. Ўзбек халқ топонимик ривоятлари. (Ўзига хос хусусиятлари ва таснифи) Фил. Фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент.2001. - 158 б.
10. Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқи йўллари. Фил.фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс... Тошкент – 2006. 516 б.



Madina KARIMOVA,

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: bonum198210@gmail.com

O‘zRFA MAM bosh ilmiy xodimi, p.f.d Z.Rasulova taqrizi asosida

ON THE OCCASION OF A CEREMONY WITH THE PARTICIPATION OF WOMEN (ON THE EXAMPLE OF THE FERGANA VALLEY)

Annotation

This article highlights the role of rituals in the female lifestyle and the origins of the female ritual “guli armugon”, its syncretization with pre-Islamic beliefs and Islamic religion based on field materials of the Fergana Valley.

Key words: Islam, Islam and woman, ritual, tradition, otinbuvi, Anahita.

ПО СЛУЧАЮ ЦЕРЕМОНИИ С УЧАСТИЕМ ЖЕНЩИН (НА ПРИМЕРЕ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ)

Аннотация

В данной статье освещена роль ритуалов в женском образе жизни и истоки женского ритуала “гули армугон”, его синкретизация с доисламскими верованиями и исламской религией на основе полевых материалов Ферганской долины.

Ключевые слова: Ислам, ислам и женщина, ритуал, традиция, отинбуви, Анахита.

AYOLLAR ISHTIROKIDA O‘TKAZILUVCHI BIR MAROSIM XUSUSIDA (FARG‘ONA VODIYSI MISOLIDA)

Annotatsiya

Mazkur maqolada ayollar turmush tarzida marosimlarning tutgan o‘rni va ayollar ishtirokida o‘tkaziluvchi “guli armug‘on” marosimining kelib chiqishi, uning islomgacha bo‘lgan e‘tiqodlar va islom dini bilan sinkretlashuvi Farg‘ona vodiysi dala materiallari asosida yoritildi.

Kalit so‘zlar: Islom, islom va ayol, marosim, urf-odat, otinbuvi, Anaxita.

Kirish. So‘nggi yillarda mamlakatimizda milliy qadriyatlarga va ma‘naviy merosga katta e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma‘naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, ma‘naviy taraqqiyotni ta‘minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish borasida bir qator choratadbirlarning butun majmui amalga oshirila boshlandi [1].

Shuning bilan birgalikda ayollar ishtirokida o‘tkaziluvchi marosimlarning kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari, yo‘nalishlari evolyutsiyasini etnologik materiallar asosida tadqiq etish xalqimiz madaniyati, ma‘naviy dunyoqarashining tarixiy asoslarini, diniy urf-odat va marosimlar genezisini hamda mazmun-mohiyatini to‘laqonli o‘rganishda o‘ziga xos o‘rin tutadi.

Etnologiyada “marosim” termini inson hayotining moddiy va ma‘naviy turmushining talab va ehtiyoji bilan yuzaga kelgan va keladigan hodisa ekanligi, boshqacha aytganda, marosim umum tomonidan qabul qilingan ramziy harakatlarga ega bo‘lgan hayotiy tadbir [2].

Tadqiqotchi olimlar tomonidan o‘zbek marosimlari ikkita katta guruhga – oilaviy-maishiy va mavsumiy marosimlariga bo‘lingan. Insonning hayot yo‘li bilan bog‘liq holda bajariladigan marosimlarning aksariyatini oilaviy urf-odat va marosimlar tashkil qiladi. Ushbu marosimlarning tashkilotchilari, avlodlardan-avlodlarga eltuvchilari, asosiy ishtirokchilari – subyektlari ayollardir” [3]. Mavsumiy marosimlarga yilning turli fasllari bilan bog‘liq mavsumiy marosimlar, ya‘ni – qishki, bahorgi, yozgi va kuzgi marosimlar kiradi.

Mavsumiy marosimlar turkumiga kiruvchi Farg‘ona vodiysida ayollar ishtirokida o‘tkaziladigan “guli armug‘on” marosimining lokal xususiyatlari hamda bu marosimlarda otinoyilarning lider sifatidagi vazifalari hamda zamonaviy

jarayonlar ta‘sirida yuz bergan o‘zgarishlarni tahliliy ma‘lumotlar asosida berishga harakat qildik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Etnologiya fanining an‘anaviy va zamonaviy masalalariga oid g‘oyalar hamda etnologiyaning nazariy-metodologik muammolariga yangicha qarashlar asosida tahlil etilgan A.A.Ashirov hamda Sh.Atadjanovlarning hammuallifligida nashr etilgan “Etnologiya” kitobi mavzuga oid atamalarning ta‘rifi va tavsifi, farqli xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlari bilan e‘tiborlidir.

Etnolog olim “O‘zbek xalqining qadimiy e‘tiqod va marosimlari” deb nomlangan asari Farg‘ona vodiysi materiallari asosida o‘zbek xalqi an‘anaviy turmush tarzida saqlanib qolgan totemizm, shomonlik, zardushtiylik kabi qadimiy diniy e‘tiqodlar bilan bog‘liq an‘ana va marosimlar, marosim taomlari, an‘anaviy oila turmush marosimlaridagi qadimiy e‘tiqodlarning izlariga bag‘ishlangan bo‘lib, o‘zbek ayollari ishtirokida o‘tkaziluvchi “guli armug‘on” marosimining genezisini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Shuningdek, folklorshunos olim M.Jo‘raev tomonidan xalqimizning «Lola sayli», «Qizil gul sayli» kabi bahoriy udumlar folklori tadqiq etilgan. Mazkur olimning dumlarining har biri o‘ziga xos ramziy ma‘no kasb etishi, ranglar mohiyatiga oid ma‘lumotlari “guli armug‘on” marosimini yoritishda qimmatli ma‘lumotlar taqdim etganligini alohida qayd etish lozim.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Etnologiya fanining an‘anaviy va zamonaviy masalalariga oid g‘oyalar hamda etnologiyaning nazariy-metodologik muammolariga yangicha qarashlar asosida tahlil etilgan A.A.Ashirov hamda Sh.Atadjanovlarning hammuallifligida nashr etilgan “Etnologiya” kitobi mavzuga oid atamalarning ta‘rifi va tavsifi, farqli xususiyatlari haqidagi ma‘lumotlari bilan e‘tiborlidir.

Etnolog olim "O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari" deb nomlangan asari Farg'ona vodiysi materiallari asosida o'zbek xalqi an'anaviy turmush tarzida saqlanib qolgan totemizm, shomonlik, zardushtiylik kabi qadimiy diniy e'tiqodlar bilan bog'liq an'ana va marosimlar, marosim taomlari, an'anaviy oila turmush marosimlaridagi qadimiy e'tiqodlarning izlariga bag'ishlangan bo'lib, o'zbek ayollari ishtirokida o'tkaziluvchi "guli armug'on" marosimining genezisini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shuningdek, fol'klorshunos olim M.Jo'raev tomonidan xalqimizning «Lola sayli», «Qizil gul sayli» kabi bahoriy udumlar fol'klori tadqiq etilgan. Mazkur olimning dumlarining har biri o'ziga xos ramziy ma'no kasb etishi, ranglar mohiyatiga oid ma'lumotlari "guli armug'on" marosimini yoritishda qimmatli ma'lumotlar taqdim etganligini alohida qayd etish lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tarixiy va etnologik tadqiqotlarda umum qabul qilingan tarixiylik prinsipi, qiyosiy va yaxlit tahlil, shuningdek, kuzatish, individual interv'yular kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Mavsumiy marosimlar turkumiga kiruvchi ayollar ishtirokida jamoaviy holda o'tkaziladigan, Respublikaning boshqa yerlarida uchramaydigan gul bayramlaridan [4] biri "Guli armug'on" marosimidir. O'zbek tilida "arg'uvon guli", tojikchada "Guli armug'on" gulning atalishi bo'lib, marosimiy sayl Farg'ona viloyati Oltiariq tumani Burbaliq qishlog'idagi Do'sti xudo pirim ziyoratgohida ayollar ishtirokida o'tkaziladi. Do'sti xudo masjidi Farg'onadagi me'moriy yodgorlik bo'lib, XX asr boshlarida mahalliy eshon Alixon buyurtmasi bilan usta Yoqub rahbarligida qurilgan. Xalfa tillo majmuasining shimoliy qismida joylashgan. Masjid milliy bezaklar bilan serhasham qilib bezatilgan [5].

Armug'on gul daraxtining ko'plab turlari mavjud bo'lib, Yevropa va Osiyoda Siliquastrum turi tarqalgan. Bu tur yovvoyi holda O'rta Yer dengizi atrofida ham uchraydi [6]. Turkistonning Pomir-Oltoy tog' tizmalari atrofida yerlarda uchraydigan armug'on daraxti "Grift"lar (burchokdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumiga kiruvchi o'simlik. Uning Kanada, Yevropa va Kavkaz, Rossiya, G'arbiy va Markaziy Osiyo turlari mavjud. Uning yovvoyi turlari O'zbekistonning Qurama va Ugom tog'larida o'sadi va ular Markaziy Osiyo grifiti) oilasiga mansub. Olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida ma'lum bo'lishicha, Farg'ona vodiysi Oltiariq tumani Burbaliq qishlog'idagi Do'sti xudo pirim ziyoratgohida o'suvchi armug'on guli tana va bargining tuzilishi, rangi jihatidan ham Osiyo armug'on gullaridan farqlanadi. Biolog va botanik mutaxassislarining bergan xulosalariga tayangan holda, Do'sti xudo pirim ziyoratgohidagi armug'on guli O'zbekistonning boshqa yerlarida uchramasligini qayd etishimiz mumkin [7].

"Armug'on guli" haqida mahalliy turli afsona va rivoyatlar mavjud. Arabistonga borgan axborotchilarning qayd etishicha, bu gul Arabistonda juda ko'p uchraydi, ushbu gul Do'sti xudo pirim tomonidan Arabistondan olib kelingan ekan. Undan turli muammolarni yechishda foydalanilishi tufayli muqaddaslashtirilgan [8]. Shuningdek, islom diniga oid manbalarda biron gulni muqaddaslashtirish to'g'risidagi ma'lumotlar yo'q bo'lib [9], aholi tomonidan bu gulni muqaddaslashtirilishi uning aynan Arabistondan olib kelinganligi tufayli ham bo'lishi mumkin.

Armug'on gulining Qurama va Ugom tog'larida o'suvchi yovvoyi turi aprel oyi boshida, Rossiya Federatsiyasida may oyida gullaydi [10]. Bahorning erta yoki kech kelishi va gulning ochilishiga qarab bu marosim har yili mart oyining oxiri aprel oyining boshlarida nishonlanadi.

Armug'on guli marosimiga faqatgina ayollarning qatnashishi, axborotchilarning fikricha, gulning ayolga

qiyoslanishi hamda bu gulning ochilishini birinchi bo'lib ayol kishi ko'rganligi [11] sabab sifatida ko'rsatiladi. Armug'on gulining bahorda chiroyli va nafis pushti rangda ochilishi ham ayolga qiyoslanadi. Bizning nazarimizda "Guli armug'on" marosimida rang bilan bog'liq magik tasavvurni, aniqrog'i qizil, pushti rangning magik ta'sirini ko'rishimiz mumkin. Zero, fol'klorshunos olim M.Jo'raev ham "lola sayli"ga parkentlik qiz-juvonlar qizil rangli matodan yangi ko'ylaklar tikib kiyish sababini an'anaviy dunyoqarashda qizil rang qon, hayot ramzi bo'lganligi bilan izohlaydi [12]. Darhaqiqat, qadimgi animistik tasavvurga ko'ra, qizil rang o'ziga xos magik qudratga ega bo'lgan.

Armug'on guli ochilishidan 3-4 kun avval marosim tashkilotchilari tomonidan marosim boshlanishi haqida qishloq ahliga xabar berilgan va marosimni o'tkazish uchun aholidan ixtiyoriy ravishda pul yoki oziq-ovqat mahsulotlari to'plangan [13].

Marosim uchun yig'ilgan mablag'ga qo'y sotib olinib, qurbonlik qilingan, to'plangan mahsulotlardan esa marosim uchun maxsus taomlar tayyorlangan. Marosim taomlaridan dastlab faqatgina ayollar iste'mol qilishi lozim bo'lgan bo'lsa, so'nggi kuzatishlarimiz natijasida marosim uchun yordam bergan erkaklarga ham mazkur taomlardan berilayotganiga guvoh bo'ldik. Marosim taomlari ko'pincha insonning biologik ehtiyojini qondirish maqsadida emas, balki uni baloqazo, insu jinslardan asrovchi oziq-ovqat yoki marosimiy qurbonlik sifatida iste'mol qilingan [14].

Marosimda otinbuvarlar tomonidan "Fotiha", "Taborak", "Yosin" suralari o'qilgan. Ishtirokchi ayollar otinbuvarlar bilan birgalikda "Assalotu vassalomu alayka yo xabibulloh" so'zini 5-6 marta takrorlab, qo'llari ko'ksilarida ta'zim keltirishgan.

Shundan so'ng Qur'ondan oyatlar o'qilib tilovat qilingan, o'tgan ajdodlar ruhiga marosim savobi bag'ishlanib, gulni ochilishi faqat to'kin-sokinlik olib kelsin, keyingi yillari ham gullashini ko'rishga yetkazsin, deb duo qilishgan. 40 daqiqa davom etgan marosim yakunida "dam solingan" isiriq, choy, tuz, suvlar egalariga qaytarilgan, ishtirokchilar olib kelgan ro'mol, material va pulni otinoyilar bo'lib olishgan. So'ngra ayollar tomonidan marosim ishtirokchilariga ikkinchi taom, ya'ni palov tortilgan.

Ushbu marosimning kelib chiqishi, genezisi haqida ham ayrim olimlar o'z fikr-mulohazalarini bildirib o'tganlar. Chunonchi, etnolog A.Ashirovning fikricha, "Guli armug'on" marosimi genezisiga ko'ra dehqonchilik va hosildorlik ma'budasi bo'lgan qadimgi ayol kul'ti Anaxita bilan bog'liq, G.P.Snesarevning fikricha, islom dini O'rta Osiyoga kirib kelgach, Anaxitaning vazifasi musulmonlar orasida muqaddaslashtirilgan. U Muhammad payg'ambarning (s.a.v.) qizlari Bibi Fotima va mahalliy aholi orasidan chiqqan Anbar ona nomi [15] bilan mashhur bo'lgan ayollar homiysiga bevosita o'tib ketgan. Demak, bundan ko'rinadiki, "Guli armug'on" marosimining genezisida islomdan oldingi tabiatning uyg'onishi bilan bog'liq qarashlar saqlanib qolgan.

"Guli armug'on" marosimi genezisiga ko'ra qadimgi agrar ayol kul'ti Anaxitaning magik (sehrarlik kuchiga) ishonch asosida shakllangan va islomiy qarashlar bilan qorishgan holda (sinkretik) yoki uyg'unlashgan holda bizgacha yetib kelgan. Mazkur marosimni o'rganish Turkiston xalqlari diniy e'tiqodiy qarashlari tavsifiga oid yangi materiallar berishi bilan birga, ularning islomiy qarashlar bilan uyg'unlashish qonuniyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu marosim terapevtik ahamiyatga ega bo'lib, odamlarga qiyin hayotiy vaziyatlarda stressdan xalos bo'lishga, psixologik muvozanatni tiklashga yordam berishi ijobiy jihatidir.

Xulosa. Ayollar ishtirokida o'tkaziluvchi "guli armug'on" marosimida ro'y bergan bir qator o'zgarishlar mavjudligi aniqlandi, jumladan marosimlarda tayyorlanadigan

taomlarni o'rganish jarayonida an'anaviy taomlar marosimiy ahamiyat kasb etibgina qolmay, "jinsiy tabu" vazifasini o'taganligi ayon bo'ldi. Shuning bilan birgalikda, ayollar ishtirokida o'tkaziluvchi "guli armug'on" marosimi qadimiy diniy e'tiqodlar va islom dinining amaliy qismi sifatida tarixan

tarkib topgan urf-odat, marosim, bida'atlarni to'plash, mustahkamlash, amaldagi din bilan bog'lash hisobiga yuzaga kelgan hatti-harakatlar yig'indisi sifatida e'tirof etishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. 2022 йил 28 январдаги “ 2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси” тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПФ-60-сон Фармони
2. Аширов А., Атаджанов Ш. Этнология. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2014. – Б.116.
3. Бекмуротов М. Ўзбек менталитети. –Т.: Янги аср, 2004. – Б.5-6.
4. Жавлиев Т. Табиат, инсон ва дин. – Т.: Фан, 1986. – Б.52-68.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси // Дўсти Худо масжиди. 3- жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2002. – Б. 399.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2000. – Б.442.
7. Дала ёзувлари. Тошкент шаҳри. Ботаника институти биология фанлари доктори Ахборотчи Нина Ивановна Штонда. Ботаника боғи илмий ходими. 2010 йил.
8. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти. Олтиариқ тумани. Бурбалиқ қишлоғи Хабибуллаева Ўғилхон. Дастурхончи.
9. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Бурбалиқ қишлоғи.
10. Дала ёзувлари. Тошкент шаҳри Ахборотчи шайх Абдуллазиз Мансур.
11. Дала ёзувлари. Тошкент шаҳри. Ахборотчи Нина Ивановна Штонда. Ботаника боғи илмий ходими.
12. Жўраев М. Наврўз кўшиқлари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007. – Б.78.
13. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Бўрбалиқ қишлоғи.
14. Дала ёзувлари. Фарғона вилояти Олтиариқ тумани Бўрбалиқ қишлоғи.
15. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. –Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, – Б. 196.
16. Женщина в мифах и легендах. – Т.: Главная редакция энциклопедий,1992. – С.26.



UDK:93/94

Eshbolta QOBILOV,
Termiz Iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d
Ulg‘o‘zi ASHUROVA,
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: ashurova.ul@inbox.ru

TerDu professori, t.f.d S.Tursunov taqrizi asosida

ISSUES OF HISTORIOGRAPHY OF KOREANS DEPORTED FROM THE FAR EAST TO THE UZBEKISTAN SSR

Annotation

This article discusses the conduct of scientific research in the former Soviet period and after the collapse of the USSR on the Koreans who were subjected to mass ethnic deportation and were forcibly relocated to the Uzbekistan SSR during the former Soviet period and after the fall of the USSR.

Key words: “Ethnic deportation”, Koreans, Western European studies, Korean collective farms, reconstruction, modern studies.

ВОПРОСЫ ИСТОРИОГРАФИИ КОРЕЙЦЕВ, ДЕПОРТИРОВАННЫХ С ДАЛЬНЕГО ВОСТОКА В УЗБЕКИСТАНСКУ ССР

Аннотация

В данной статье рассматривается проведение научных исследований в постсоветский и постсоветский период корейцев, подвергшихся массовой этнической депортации и насильственно переселенных в Узбекскую ССР в постсоветский период и после распада СССР.

Ключевые слова: «Этническая депортация», корейцы, западноевропейские исследования, корейские колхозы, реконструкция, современные исследования.

UZOQ SHARQDAN O‘ZBEKISTON SSR GA DEPORTATSIYA QILINGAN KOREYSLARNING TARIXSHUNOSLIGI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Stalin davrida ommaviy etnik deportatsiyaga uchrab, O‘zbekiston SSRga majburan ko‘chirilgan koreyslarga oid ilmiy tadqiqotlarning sobiq sovet davrida va SSSR qulagandan keyingi davrlardagi olib borilishi xususida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Etnik deportatsiya”, koreyslar, G‘arbiy Yevropa tadqiqotlari, koreys kolxozlari, qayta qurish, zamonaviy tadqiqotlar.

Kirish. Bugungi kunda dunyoning qator ilmiy tadqiqot markazlarida sobiq SSSRda stalincha rejim tomonidan tashkil etilgan va amalga oshirilgan ommaviy majburiy deportatsiyalar va uning oqibatlarini mavzusi bo‘yicha ko‘pgina ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, Rossiya Federatsiyasi, AQSh, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar ilmiy tadqiqot markazlarida sovet davlatidagi xalqlar deportatsiyasi miqyosi, deportatsiyaga uchragan xalqlar va etnik guruhlar, majburiy ko‘chirilgan xalqlar joylashtirilgan mintaqalar geografiyasi kabi masalalar izchil o‘rganilmoqda. Sovetlar davridagi xalqlar, jumladan koreyslar deportatsiyasi muammosini tadqiq etish darajasi ma‘lum ma‘noda mazkur maqolaning obyektini belgilab beradi.

Garchand, Ittifoq kompartiyasining 1956 yil 25 fevraldagi XX s‘ezdida KPSS Markaziy Qo‘mitasi birinchi kotibi N.S. Xrushchevning “Shaxsga sig‘inish va uning oqibatlarini to‘g‘risida” ma‘ruzasi deportatsiyalar masalasida keng qamrovli, haqqoniy tadqiqotlar olib borishga asos bo‘lmasa-da, majburan ko‘chirilgan xalqlarning ijtimoiy-huquqiy holatini bir qadar yaxshiladi. Bu hisobotda Stalinning faoliyati chuqur tahlil qilingan va uning qatag‘on qilingan etnik jamoalarga qarshi harakatlari batafsil yoritilgan. Ammo sobiq ittifoqning totalitar rejimi va barcha tadqiqotlarning markaz foydasiga ishlashi lozimligi deportatsiyalar bo‘yicha, xususan koreyslarning majburiy ko‘chirilishi bo‘yicha XX asrning oxiriga qadar deyarli hech qanday ilmiy ishlarning qilinishiga yo‘l bermadi.

Shu bois SSSRdagi ilk “etnik deportatsiya” ning qurboni bo‘lgan koreyslar masalasining o‘rganilishi ham dastlab G‘arbiy Yevropalik tadqiqotchilar asarlarida o‘z aksini topdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. SSSRdagi xalqlar deportatsiyasining umumiy jihatlari bilan bog‘liq masalalar G‘arbiy Yevropalik olimlardan taniqli ingliz tadqiqotchisi R.Konkvest tomonidan o‘rganilgan. Uning “Sovetlarning xalqlar deportatsiyasi”, “Katta terror” kitoblari G‘arbiy tarixshunosligida XX asr 30-40 yillaridagi Stalin qatag‘on-jazo tizimi haqida ma‘lumot beruvchi dastlabki jiddiy tadqiqotlar edi [1].

Maqolaning asosiy ob‘ekti hisoblangan SSSRning Uzoq Sharq hududlaridan koreyslarning majburan Qozog‘iston va O‘zbekistonga deportatsiya qilinishi masalasi g‘arb tarixchi olimlaridan V.Kolarz, Dj.Stefan, Ko Son Mu tadqiqotlarida ham atroflicha o‘rganildi. Xususan, V.Kolarz birinchilardan bo‘lib koreyslarning majburiy ko‘chirilish masalasiga to‘xtalgan va Uzoq Sharq mintaqasidagi majburiy deportatsiyalar arafasidagi ichki va tashqi siyosiy jarayonlarga birmuncha haqqoniy baho bera olgan [2]. Xelsinki universiteti professori Ko Son Muning “Sovet Markaziy Osiyosida koreyslar” monografiyasida esa sovet koreyslarining etnomadaniy hayoti tarixi ancha keng spektrda tadqiq etilgan, ayni vaqtda ularning Qozog‘iston va O‘rta Osiyoga deportatsiya qilinishi masalasi yoritilgan. Kitob asosan, koreyslarning O‘rta Osiyoga deportatsiya qilinishining 50 yilligiga bag‘ishlangan [3].

Koreyslarga oid dastlabki mahalliy tadqiqotlarning paydo bo'lishiga asosiy sabab esa - ular tomonidan deportatsiya qilingan hududlarning quruq va issiq iqlim sharoitida ham paxta yetishtirish, sholichilik va sabzavotchilikda SSSRning boshqa xalqlariga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarga erishilganligidir. Jumladan, 1950 yilda A.B.Ten ning Toshkent viloyatidagi "Polyarnaya zvezda" nomli mashhur koreys kolxozining iqtisodiyotiga bag'ishlangan ilk nomzodlik dissertatsiyasida asosiy e'tibor aynan O'zbekistonga majburan ko'chirilgan koreyslarning murakkab sharoitlarga qay yo'sinda moslashganligi, "Polyarnaya zvezda" kolxozining dehqonchilikda erishgan yutuqlari haqida statistik, tahliliy ma'lumotlar berilgan[4].

Sohadagi ilmiy ishlar 70 yillarda yangi bosqichga ko'tarildi. 1970 yilda P. N. Kim tomonidan "O'zbekiston Kompartiyasining Koreya kolxozlarini tashkiliy-iqtisodiy mustahkamlash bo'yicha faoliyati (1937-1940)" nomli nomzodlik dissertatsiyasi yoqlangan bo'lsa [5], aynan shu yili X.Inoyatov va R.Nurullinlarning "Polar Star" kolxoziga bag'ishlangan tarixiy ocherki nashrdan chiqdi [6]. Mashhur koreys kolxozlari ishchilarining hayoti va mehnat faoliyatiga bag'ishlangan ma'lumotlar F.Isxakov hamda M.Kimning hammuallifligidagi "Baxtli taqdir odamlari" [7], Xvan Man Geumning "Politotdel kolxozi" asarlarida o'z aksini topdi. S.V.Choining 1972 yildagi "O'zbekiston SSR sholichilik sovxozlarida sholi yetishtirishni ko'paytirish va uning tannarxini pasaytirish yo'llari" nomli dissertatsiyasida ham asosiy urg'u koreyslarning dehqonchilik faoliyatiga qaratilgan.

Vaqt o'tishi bilan, SSSR tarkibidagi boshqa oz sonli millatlarga nisbatan koreyslarning madaniy va ijtimoiy sohada ham yaqqol ustunligi ko'zga tashlana boshladi. Natijada, yangi hududlarda ham "Kore Saram" iborasi paydo bo'lib, bu taraqqiyotda o'z yo'nalishi va o'rniga ega bo'lgan, oz sonli, ammo nihoyatda ilg'or koreys diasporasiga nisbatan ishlatilgan iboraga aylandi. Ilgarigi akademik adabiyotlarda ular "sovet koreyslari" degan umumiy nom ostida bo'lgan. Biroq deportatsiyaga uchragan koreyslar yillar davomida o'ziga xos xususiyatni - mezbon mamlakatlarda o'zlarini moslashtirishning maxsus qobiliyatini namoyish etadilar. Buning ajoyib namunasi - Kore saramdir.

Kore Saram etnografiyasi bir muncha murakkab bo'lib, buning asosiy sababi, migratsiyalar tarixiga borib taqaladi. Koreyslarning yangi-yangi hududlarga tez-tez ko'chirilishi oqibatida, ularning etnik birligi ko'p o'zgarishlarga uchragan. Taniqli rus etnograf olimasi R. Sh. Jarilgasinova o'z maqolalarida Markaziy Osiyo va Qozog'iston koreyslarining madaniyati, turmush tarzi, an'analari, urf-odatlarini, e'tiqodlarini, mentalitetini o'rgangan [8].

Qayta qurish yillarini bevosita koreyslar bo'yicha tadqiqotlarda yangi davrni boshlab berdi deyish mumkin. 1980 yillarning ikkinchi yarmida ziyolilar, birinchi navbatda, jurnalistlar, yozuvchilar, publitsistlar orasida jurnalistik faollikning o'sishi kuzatildi. 1988 yilda jurnalist Brutt Kimning "Biz kimmiz" kitobi koreys tilida nashr etilgan bo'lib, unda Koryo Saram va ularning madaniyati tarixidagi muhim voqealar keltirilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Umuman koreyslar deportatsiyasi tarixshunosligida e'tibor talab qiladigan jihat bu davriy tadqiqotlarning xarakteristikasi hisoblanadi. 50-70 yillar tadqiqotlaridagi asosiy obyekt bu - koreyslarning respublika qishloq xo'jaligida erishgan yutuqlari va iqtisodiy hayotni yaxshilashdagi roli hisoblanib, bir yoqlama yoritilgan. Yuqorida tavsiflangan ilmiy ishlarda koreyslarning kelib chiqishi tarixi, deportatsiyagacha bo'lgan hayoti, majburiy ko'chirilish sabablari, ularning O'zbekiston SSR dagi ijtimoiy-madaniy hayoti, tub yerli aholiga qay tariqa moslashganligi, maorifdagi roli kabi jihatlar deyarli e'tibordan chetda qolgan. Shu boisdan koreyslarning O'zbekiston SSR ga

ko'chirilganidan to shu kungacha bo'lgan hayotini davr nuqtayi nazaridan tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Bunda tarixiy ketma-ketlik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish lozim.

Tahlil va natijalar. Mavzu tahlil qilinganda 90 yillardan boshlab koreyslarning majburiy ko'chirilishi, ya'ni deportatsiyasi masalasida endilikda siyosiy depressiyalardan xoli yangi farazlar paydo bo'lganini kuzatish mumkin. Endilikda O'zbekiston koreyslari tarixshunosligida haqqoniy va aniq ma'lumotlar asosida dalillangan tadqiqot ishlari paydo bo'ldi. Xususan, Ikkinchi jahon urushi arafasi va urush davrida etnik xalqlar vakillarining, xususan, Uzoq Sharq koreyslarining ko'chirilishi, ularning yangi hududlarga joylashtirilishi, mehnat faoliyatini tashkil etish, maxsus ko'chirilganlarga tibbiy xizmat ko'rsatish kabi masalalarni aniqlashtirish nuqtai nazaridan 1992 va 1997 yillarda Moskvada nashr etilgan 2 jildlik hujjatlar to'plami bu soha tadqiqotchilari uchun g'oyat qimmatli mamba sanaladi. Bu to'plam sovet koreyslarining majburiy ko'chirish evolyusiyasini, surgun joylarida koreyslar mehnatidan foydalanish shakllarini ko'rsatib beruvchi hujjatlar to'plamining ilk nashridir. Unda Uzoq Sharq koreyslarining Qozog'iston va O'rta Osiyoga ko'chirilishi, koreyslarning urush yillarida surgun joylarida maxsus ko'chirilganlar rejimidan deyarli farq qilmaydigan yashash sharoitlarini aks ettiruvchi arxiv hujjatlari va surgun azoblarini boshdan kechirgan koreys fuqarolarining esdaliklari jamlangan. Bu to'plamning biz uchun alohida ahamiyati shundaki, unda O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan koreyslar miqdori, ularning O'zbekiston SSR viloyatlari bo'ylab joylashtirilishi, koreyslarning sanoat korxonalari, turli muassasalar va qishloq xo'jaligidagi mehnat faoliyati, yashash sharoitlari, fashizm ustidan qozonilgan g'alabada koreyslarning qo'shgan xissasi bilan bog'liq arxiv hujjatlari ham o'rin olgan[9. 65,186].

Mavzuni yoritishda akademik A.N. Yakovlev fondi tomonidan nashr etilgan alohida mavzuga oid hujjatlar va materiallar to'plami[10] ham muhim qimmatga ega. Unda Kiyev, Odessa, Leningrad, Moskvada go'yoki sovet hukumatiga qarshi tashkil etilgan antisovet guruhlarining taqdiri OGPU, NKVD mahfiy materiallari asosida ochib berilgan. Bu to'plamning deportatsiyalar tarixi bo'yicha ahamiyati shundaki, unda turli xalqlarni deportatsiya qilishga rahbarlik qilgan NKVD xodimlarining ko'chirish ishlari qanday kechayotgani yuzasidan markazga yuborgan hisobotlari ham o'rin olgan.

Deportatsiya qilingan xalqlar tarixiga oid to'plamlar orasida 1928-1953 yillardagi deportatsiya siyosati va amaliyotining tayyorlanishi va rivojlanish bosqichlari haqidagi umumittifoq va mintaqaviy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan "Stalinning 1928-1953 yillardagi deportatsiyalari" nomli arxiv hujjatlari va materiallari to'plami[11. 13,190] alohida ahamiyatga egadir. Ushbu to'plam sovet davri deportatsiyalaridagi asosiy segment hisoblangan etnik deportatsiyalar mavzusini qamrab olgan.

To'plamning birinchi qismi urush arafasidagi (1928-1939) etnik deportatsiyalar masalasiga oid bo'lib, bu qismda Uzoq Sharq o'lkasidan koreyslarning Qozog'iston va O'zbekistonga ko'chirilishiga doir xilma-xil arxiv hujjatlari o'rin olgan.

O'zbekistondagi koreys diasporasi muammosiga doir tadqiqotlar muhim o'rin tutadi. Bu masalaga bag'ishlangan birinchi tadqiqot ishi P.G. Kimning "O'zbekiston Respublikasi koreyslari" nomli monografiyasidir[12]. Mazkur kitobda koreyslarning 1937 yilda O'zbekistonga deportatsiya qilinishidan tortib to 1990 yillar boshigacha bo'lgan hayoti va mehnat faoliyatiga doir ma'lumotlar o'rin olgan. Monografiyaning salmoqli qismi deportatsiya masalasiga bag'ishlangan.

Taniqli koreysshunos olim L.B.Xvanning "Qoraqalpog'iston koreyslari: kecha va bugun" nomli monografiyasida esa Qoraqalpog'iston Respublikasidagi koreyslar tarixi xronologik izchillikda tahlil etilgan[13].

Tadqiqotchi olim A. Rahmonqulovanning O'zbekistonga deportatsiya qilingan xalqlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli masalalariga bag'ishlangan maqolalarida majburan ko'chirilgan xalqlarning O'zbekiston sharoitiga moslashishi, ularning xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi mehnat faoliyati masalasi o'rganilgan. Muallif asosan, 1937-1938 yillarda mahalliy hokimiyat organlari tomonidan koreyslarni respublikaga joylashtirish bo'yicha olib borgan faoliyati va koreyslarning yangi sharoitga moslashish jarayonlariga e'tibor qaratgan.

Tarixchi Askar Jumashevning «К истории депортации дальневосточных корейцев в Каракалпакстан (1937-1938)» nomli kitobida[14] koreyslarning alohida mintaqadagi hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlar jamlangan. Bu kitobni tayyorlashda muallif juda keng ko'lamdagi arxiv hujjatlari va materiallaridan foydalangan.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda ilm-fan sohasida shakllangan tarixshunoslik borasidagi vaziyatni tahlil qilish,

tarixchi-olimlar tomonidan amalga oshirilgan ishlarni tasdiqlashga imkon beradi. Avvalo, repressiv deportatsiyalar mavzusidan maxfiylik maqomi olib tashlandi, bu mavzu to'la omma mulkiga aylandi, garchi uning rivojlanishi keyingi yigirma yilda faollashgan bo'lsada, o'tgan qisqa davr ichida fundamental ahamiyatdagi ko'pgina asarlar yaratildi.

Qayd etib o'tish lozimki, sobiq SSSR hududidagi, xususan, O'zbekiston va O'rta Osiyoning boshqa respublikalari deportatsiya qilingan koreyslarga "mezbon" bo'lgan bo'lsa-da, bu respublikalardagi deportatsiya qilinganlar yashash sharoitlarining ularning milliy va ijtimoiy tarkibi o'zgarishiga ta'siri masalalari, ko'chirib keltirilgan koreyslarning ushbu mintaqalar iqtisodiy salohiyatining oshishiga ko'rsatgan ta'siri masalalari yetarli darajada yoritilmagan. Shuningdek, koreyslarning surgun mintaqalariga moslashuvi, ularga nisbatan mahalliy hokimiyat va aholining munosabati, etnik guruhlarining yangi sharoitlarda jon saqlab qolish omillari, o'zaro va madaniyatlararo munosabatlar kabi jihatlarni chuqurroq o'rganish sohada yangi yo'nalishlarning paydo bo'lishiga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Conquest R. The Soviet Deportation of Nationalities. – London, 1960; Conquest R. The Nations Killers: The Soviet Deportation of Nationalities. – London, 1970. – 500 p.
2. Kolarz W. Russland und seine asiatischen Volker. Frankfurt am Main Europaische Verl. Anst. 1956. – 356 p.
3. Songmoo Kho. Koreans in the Soviet Central Asia. Helsinki, Studie Orientalia, 1987. Vol.61. – 200 p.
4. Тен А. Б. Экономика передового колхоза «Полярная звезда»: Диссертация на соискание ученой степени кандидата наук. – Ташкент, 1950;
5. Ким П. Н. Деятельность Коммунистической партии Узбекистана по организационно-хозяйственному укреплению корейских колхозов (1937–1940): автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1970;
6. Иноятов Х., Нуруллин Р. Восхождение (Исторический очерк о колхозе «Полярная звезда»). – Ташкент, 1970;
7. Исхаков Ф., Ким М. Люди счастливой судьбы (О тружениках колхоза «Полярная звезда»). – Ташкент, 1972;
8. Джарылгашинова Р. Ш. Основные тенденции этнических процессов у корейцев Средней Азии и Казахстана // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – М., 1980.
9. Ли У Хе, Ким Ен Ун. Белая книга. О депортации корейского населения России в 30-40-х годах. Книга 1. – Москва: Интерпракс, 1992. 204 с.;
10. Лубянка. Сталин и главное управление госбезопасности НКВД. 1937–1938 гг. Сост. В.Н. Хаустов и др. Под ред. Академика А.Н. Яковлева. – Москва: МФД: Материк, 2004. – 734 с.
11. Сталинские депортации. 1928-1953. Под общ. ред. акад. А.Н. Яковлева. Сост.: Л.Н. Поболь, П.М. Полян. – Москва: МФД: Материк, 2005. – 904 с.
12. Ким П.Г. Корейцы Республики Узбекистан (история и современность). – Т.: Узбекистан, 1993. – 176 с.
13. Хван Л.Б. Корейцы Каракалпакстана: вчера и сегодня. – Нукус: 2004.
14. Джумашев А. К истории депортации дальневосточных корейцев в Каракалпакстан (1937-1938). – Ташкент: 2007.



UDK:930

Mavzuna MUXIDDINOVA,
SamDU tadqiqotchisi, SXTU o'qituvchisi
E-mail: Mavzuna.MS@gmail.com

O'zMU professori A.Yermetov taqrizi asosida

MANG'ITLAR DAVRIDA OLIY TA'LIM MASKANLARI VA ULARNING IJTIMOIIY-MA'NAVIIY HAYOTIDAGI O'RNI

Аннотация

Ushbu maqolada Buxoro amirligida madrasalar faoliyati, xususan, bu davrda amirlik hududida qaysi madrasalar faoliyat yuritganligi, ularning mavqeyi, mudarris va ulamolalar faoliyati, shuningdek madrasalarda o'qitiladigan fanlar va kitoblar haqida ma'lumot berilgan. Ushbu ma'lumotlar mang'itlar davrida Buxoro, Samarqand va Shahrisabz madrasalarida tahsil olgan "Tarixi Xumuliy" asari muallifi Jumaquli Xumuliy ma'lumotlari asosida keltirildi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, "Tarixi Xumuliy", Samarqand, Tillakori madrasasi, Miri Arab, Gulobod, nahf, ulumi zaruriya, oxund, a'lam, "Sharhi Jaloliy", Lutfulloh Xoja, Muttahar Xoja.

ВЫСШЕЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ УЧРЕЖДЕНИЯ И ИХ РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕННО-ДУХОВНОЙ ЖИЗНИ В МАНГИТСКОМ ПЕРИОДЕ

Аннотация

В данной статье рассматривается деятельность медресе Бухарского эмирата, частности, дана информация о том, какие медресе действовали на территории эмирата, их статусе, деятельности преподавателей и ученых, а также о предметах и книгах, преподаваемых в медресе. Данная информация дана на основании сведений Джумакули Хумули, автора труда «История Хумули», обучавшегося в медресе Бухары, Самарканда и Шахрисабза в мангитский период.

Ключевые слова: Бухарский эмират, «История Хумули», Самарканд, медресе Тиллакори, Мири Араб, Гулабад, нахф, улуми зарурия, ахунд, алам, «Шари Джалали», Лутфуллах Ходжа, Муттахар Ходжа.

HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND THEIR ROLE IN SOCIAL AND SPIRITUAL LIFE IN MANGIT PERIOD

Annotation

This article examines the activities of madrassas in the Bukhara Emirate, in particular, information is provided on which madrassas operated in the emirate, their status, the activities of teachers and scientists, as well as about the subjects and books taught in the madrassas. This information is given on the basis of information from Jumakuli Khumuli, the author of the work "History of Khumuli", who studied in the madrassas of Bukhara, Samarkand and Shakhrisabz during the Mangit period.

Key words: Bukhara Emirate, "History of Khumuli", Samarkand, Tillakori madrasah, Miri Arab, Gulabad, nakhf, ulumi zaruriya, akhund, alam, "Shari Jalali", Lutfullah Khoja, Muttahar Khoja.

Kirish. Movarounnahr hududi qadimdan nafaqat o'z allomalari, ilm ahli va ulamolari bilan balki, ta'lim maskanlari bilan ham butun dunyoga ma'lum va mashhur bo'lgan. O'rta Osiyoning I va II "renessans"ida ham aynan O'zbekiston hududi allomalari va ilm maskanlari, akademiyalar, madrasalar va kutubxonalarining o'rni beqiyos. Zero ushbu ta'lim maskanlariga butun dunyodan ilm talabida bo'lgan tolibi ilmlar bilan bir qatorda, zamonasing eng bilimli mudarrisarlari, olimlar ham kelishgan. Keyingi davrlar ya'ni xonliklar davrida ham ushbu an'ana saqlangan. Jumladan, XIX asrda Buxoroga safar qilgan Ye.K.Meyendorf shaharning ilm taratuvchi markaz sifatidagi mavqeini shunday baholaydi: "O'zining ko'plab maktablari, olimlari va muqaddas qadamjolari sababli, musulmonlarning ziyoratgohiga aylangan. Ehtimol shuning uchun "sharif" nomiga sazovor bo'lgandir [1].

Tadqiqot metodologiyasi. XVII asrda Mirzo Ulug'bek madrasasining mantiqiy davomi sifatida bunyod etilgan Sherdor va Tillakori madrasalari ham o'z davrida talabalarga ilm beshigi, ma'rifat maskani sifatida xizmat qilgan. Jumladan, "Tarixi Xumuliy" asarining muallifi yetuk tarixnavis, iste'dodli shoir Jumaquli Xumuliy ham Tillakori madrasasining bitiruvchilaridan bo'lganligini alohida qayd etmoq kerak [2]. Tadqiqotda "Tarixi Xumuliy" asarida Buxoro

amirligi hududidagi madrasalar haqida, ta'lim jarayoni va mudarrislar faoliyati xususidagi ma'lumotlar berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Buxoro amirligi hududi madrasalar faoliyatini yoritishda "Tarixi Xumuliy" asari asos qilib olindi. Shunindek, R.Shamsutdinov va B.Rasulovning "Turkiston maktab va madrasalari tarixi (XIX asr oxiri va XX asr boshlarida)" [3], Sh.Vohidov va Z.Choriyevlarning "Sadri Ziyo va uning kutubxonasi" [4], A.Jumanazarovning "Buxoro ta'lim tizimi tarixi" [5], L.Asrorovning "Buxoro madrasalari tarixidan" [6] singari ilmiy adabiyotlar tadqiqotga jalb qilindi.

Tahlil va natijalar. "Tarixi Xumuliy" muallifning Buxoro, Samarqand, Kitob madrasalarida tahsil olgani, u yerdagi mudarrislar, ustozlari haqida ma'lumotlar keltiradi. 1790 yilda (1205h) otasi uni Kesh viloyatiga qarashli Kitob shahri hokimi Xolboy oxund eshikog'aboshi Kenagas tomonidan qurilgan madrasaga olib boradi [2, 148a-149b]. "Xolboy tolibi ilmlar uchun shaharning markazida ma'lum bir tegishlik madrasa bino qilgan. Atrofida yashash uchun ko'p hujralar qurdirdi. Ilm do'konida ilm matoini toru pudini aqlu farosat, hissiyot bilan toqib zehnu xayol ignasi bilan libos tikadiganlar uchun jamiki ozuqa, kiyim-kechak va boshqa ehtibonlarni (zaruriy ashyolar) muhayyo qilgan edi" [2]. Xolboy oxund madrasasida Jumaquli Xumuliy avval Mullo Ernazar Namangoniydan tahsil oladi. Keyinchalik ustoz haj

safariga ketgach, tahsilni Muhammad Lutfulloh Xoja qo'lida davom ettiradi. Ustoz ilmi aruz, qofiya, insho, she'r, ilmi masohat (ya'ni geodeziya va kartografiya), faroiz (fiqh ilmiga oid bo'lib, "meros" ilmi, ya'ni merosni to'g'ri taqsimlash ilmi) kabi ilmlarni "qofiya"ni dars berish asosida batafsil ta'lim berdilar [2].

Lutfulloh Xoja o'z davrida Amiri ma'sum Shohmurod (1785-1800 yy.) tashabbusi bilan Samarqandning Tillakori madrasasiga mudarris etib tayinlanadi. Bundan tashqari Lutfulloh Xojaga yana qator lavozim va vazifalar topshirilganligi xususida muallif o'z asarida quyidagilarni bayon etadi: "Janob ustozni Buxoro amiri Shohmurod Buxorodan yaxshi sarupolar kiygizib yaxshi otlarga mindirib ko'p izzatu ikromlar ko'rsatib Samarqandga jo'natdi va u kishini Samarqanddagi Tillakori Yalangto'shbiy madrasasiga mudarris, fatvo berish amali va Dahbed ziyoratgohining ishini yurgizuvchi mansablariga mansub qildi. U kishini martabalarini boshqalardan yuqori ko'tardi. Hazrati ustod Amirning farmoniga muvofiq amal qilib, Samarqandga kelib ish boshladilar" [2].

Yuqorida keltirilgan faktlardan kelib chiqib, Xumuliy yashagan davrda hukmdorlarning ilm ahliga bo'lgan hurmati, ilmga bo'lgan rag'bat juda baland bo'lganligini qayd etmoq joiz. Aflotuni zamon, sulton ul-muhaqqiqin, imomlarning ustuni kabi yuksak maqomlar bilan tanilgan ulug' zot Lutfulloh Xojaning Amir tomonidan izzat-ikrom qilinislari bu tarixiy shaxsning o'z davrida salohiyatli donishmandlar qatoridan o'rin olganliklarini namoyon etadi.

Ustoz Lutfullohxoja xoja Amir Shohmurod davrida Tillakori madrasasida mudarrislik qilish bilan bir qatorda Samarqand shahri fatvo hay'atini ham boshqardilar. "Hokimlar va boshqa kishilarga xushomadgo'ylik qilishdan chetda turar edilar. Yaxshilikka buyurish, yomonlikdan kishilarni qaytarishda ustuvor edilar. Adolatni oshkor etishga tenglari topilmas edi. Amiru qozi va hokimlarga nasihat qilishdan qo'rqmas edilar. Olimu fuzalolar bilan bahslashgan paytda u kishi keltirgan dalilu hujjatlar bilan doimo g'olib kelar edilar. Hokim yoki qozi biror munkar, yoqimsiz amalni qilib qo'ysa, ularni qo'rqmay tanqid qilar edilar" deb qayd etiladi asarda [2]. Amir Haydar otasi vafotidan so'ng ustoz – Lutfullohxoja Xojani Buxoro sharifiga ko'chirib bordi. U kishini tumanlarga qozi va shaharning katta madrasalariga mudarris etib tayinladi.

Ta'kidlash joizki, Lutfulloh Xojaning ukalari So'fi Xoja ham ko'p yillar Buxoro madrasalarida tahsil olib, ilmi dinni va suluki yaqinni, mantiq ilmi[14]ni o'zlashtirganlar. Shu paytlar xattotlik bilan ham shug'ullanganlar: "bir hafta ichida "Sharhi Jaloliy" kitobini chiroyli husnixat bilan ko'chirib sotar, bu pul bilan besh-olti nafar musofir hujradoshlarini ham ta'minlab turar edilar" [17]. So'fi Xojaga ham Amir Haydar bir necha marta amaldorlik lavozimlarini taklif etgan, ammo u kishi rad etib, keyinchalik Urgut qasabasiga, otalari yoniga qaytganlar.

Asar muallifi ustoz Lutfulloh Xoja avlodlari haqida ma'lumot keltirar ekan shunday yozadi: "Bu ulug' xonadon ahlining hammalari erkagu ayol, kattayu kichiklari zohiriy va botiniy bilimlar bilan ziynatlangan" [2]. Jumladan, asarda Lutfullohxojaning farzandlari Shirin Xoja handasa [2], ash'or, aruz, musiqa, advor (musiqani notaga ko'chirish ilmi), insho va imlo kabi bilimlarni, Ofoq Xoja falakiyot ilmlarini kasb etganligi, So'fi Xoja avlodidan eshon Muttahar Xoja aynan shu asarni, ya'ni "Tarixi Xumuliy"ni qayta ko'chirganligi, ya'ni xattotlikdan xabardorligi haqida qayd etilgan.

Shu o'rinda asarda yana bir qiziqarli ma'lumot berilgan, ya'ni So'fi Xoja avlodidan bo'lgan eshon Boqir Xoja va eshon Muttahar Xoja Samarqanddagi "Ruxobod" madrasasida "Sharhi Mullo"dan tahsil olganligi haqida qayd etilgan. Shuningdek, asarda shunday sharh keltirilgan: "Hazrati Ruhobod – aslida ismlari shayx Burhoniddin

Qilichdur. Ruhobod – laqab. U kishi o'n to'rtinchi qutbning murshidlaridan" [2]. Demak, XIX asrda bugungi kunda biz maqbara sifatida bilgan "Ruhobod" madrasa sifatida ham faoliyat yuritgan. Bundan kelib chiqib, bu davrda Samarqandning deyarli barcha hududlari, qadimiy inshootlarda madrasalar tashkil etilgan va doimiy ravishda talibi ilmlarga ta'lim tarbiya berilganligini xulosa qilish mumkin.

Umuman olganda Jumaqli Xumuliyning qayd etishicha, Shohmurod davrida ta'lim-tarbiyaga juda katta e'tibor qaratilgan: Shohmurod butun Buxoro va uning atrofidagi tumanlarga olimlar va komil muhtasablarni tiklab ishga soldi. va buyurdi: Mas'jid, madrasalarda xalqni yig'ing, ulardan hol va ahvol so'rang. Din zaruriyatlaridan bo'lgan farzu vojib ishlarini ta'lim beradigan a'yonlarning kamchiligi bilinsa, ularga muallimlar tayinlab, yumshoqlik bilan, ohistalik bilan shariat ilmini ta'lim berilsin. Ta'lim beradigan ustozlarning maoshini xiroj hisobidan ta'minlansin. Bosh tortgan kishilarga qattiq tanbeh berilsin. Garchi bu bosh tortgan kishi obro'li sharif kishilardan bo'lsa ham. Yosh bolalarni maktablarga bersinlar. Xalq orasiga qattiq o'rnashib qolgan bid'atlarni tark qilishga sa'yu harakat qilsinlar; Adolat bilan ishlab, bozorlarda tarozidan urib qolish, matolarni o'lchab berishda kamchilikka yo'l bermasinlar. Nazoratsizlikda harobaga aylangan ta'lim tarbiya ishlari to'xtab qolgan madrasalarning faoliyatini qayta boshlab, uning rahbarligini diqqatga sazovor kishilarning zimmasida yuksilansin [2, 211].

O'zbekistonda yashab o'tgan ilm va fazl ahllari tomonidan ko'plab binolar, jumladan, masjid va madrasalar bunyod etilgan. Diqqatga sazovor jihati shundaki, madrasalarda ta'lim bepul amalga oshirilgan, hamda talabalarning yashashi va ta'lim olishi uchun zarur barcha sharoitlar madrasa zimmasida bo'lgan. Mazkur masjid va madrasalarda zamonasining tanikli ulamolari, pir maqomiga yetgan zotlarning dars o'qitishlari bir tomondan talibi ilmlar uchun maktab vazifasini o'tagan bo'lsa, boshqa tomondan xalqning ma'naviy barkamolligiga hissa qo'shgan.

Xumuliy 1794-1800 yillarda Shahrisabzda Lutfulloh Xojaga shogird bo'ladi. Lutfulloh Xoja ulug' olim kishilardan bo'lgan. Uni Xumuliy Faylasufi zamon, Aflotuni davr va o'z asrida ilmlar bobida yagona kishi erdi deb yigirmadan ziyod sifatlar bilan ta'riflaydi. Va aytadiki: Lutfulloh Xoja haqida alohida kitob bitsa arziydi. Ota bobolarining silsilasi Ali ibn Abutolibga borib taqaladi. Lutfulloh xoja Urgutiy Urgutdan Samarqand va Buxoroga borib zamona bilimlarini olib podshoh Shohmurodning buyrug'i bilan Samarqanddagi "Tillakori" madrasasida mudarris va muftiy bo'lib keladilar. Samarqandda unga nisbatan dushmanlar ig'vo va fitna qiladilar va Lutfulloh Xoja Shahrisabzga keladi. Shahrisabz hokimi Niyozali u kishini e'zozlab kutib oladi va Kitob shahrining yoqimli xushmanzara hududiga joylashtiradi. Lutfullohxoja 5-6 yilcha Shahrisabzda yashaydi va madrasada dars beradi. Aynan shu yerda Xumuliy unga shogird bo'ladi. Xumuliyning yozishicha ustoz Lutfulloh Xoja unga ilmi aro'z, ilmi qofiya, ilmi insho, ilmi she'r, ilmi fasohat va ilmi faroiz va geografiya ilmlaridan dars bergan [2, 43].

1800 yilda Amir Shohmurod o'lmasdan oldin Lutfulloh Xojani Samarqandga o'z ishlariga qaytarishga buyruq beradi. Xumuliy ustoz bilan Samarqandga keladi va "Tillaqori" madrasasida ta'limni davom ettiradi.

1800 yilda Xumuliy Samarqanddagi "Tillaqori" madrasasining talabasi edi. Samarqandda yashab ta'lim olib yurgan vaqtda ham ustoz bilan doim birga bo'ladi. Amir Shohmurod bu vaqtga kelib Samarqandga kelib yashaydi va buzilgan shaharni obod qilishga boshchilik qiladi.

1800 yil Amir Shohmurod vafot etgach taxtga uning o'g'li Amir Haydar o'tiradi. Amir Lutfulloh Xojani Buxoroga olib boradi va u yerda Lutfulloh Xoja madrasada mudarrislik

va qozilik qiladi. Xumuliy ham ustoz bilan birga borib Buxorodagi "Gulobod" madrasasida yashaydi va tahsil oladi.

Keyinchalik Amir Haydarning qaynotasi Amir Said otaliq yuzning taklifi bilan Lutfullohxoja Hisorga boradilar. Lutfulloh Xoja Hisorda umrlarining oxirigacha madrasa ta'limiga mas'ul bo'lganlar va 1822 yili vafot etganlar qabrlari Dehnav yaqinida. Lutfullohxojaning jiyanalari Muhammad Boqirxoja va Muhammad Muttaharxojalar Samarqanddagi Ruxobod madrasasida tahsil olganligi haqida asarda ma'lumot bor [2].

Asar ma'lumotlariga ko'ra, tolibul ilmlarga ilmi aruzshe'rdagi vaznlar va ularning qonun-qoidalar haqida bahs yuritadi; ilmi qofiya- qofiya qonuniyatlari hamda turlari to'g'risida ma'lumot beradi; ilmi insho- Yozma ish uslubi, maktub, yozuv savodxonligi, ilmi she'r-she'r ilmi, ilmi fasohat- yoki fasohat ilmi - chiroyli, o'rinni qoidaga muvofiq bo'lgan og'zaki nutq, ilmi faroiz- musulmonchilik qoidalarini o'rganish, meros ilmidan saboq olgan.

An'anaviy ta'lim tizimining yuqori bosqichi bo'lgan madrasaga boshlang'ich ta'lim maskani-maktabni o'qib tugatgan, savodxon shaxslar o'qishga qabul qilingan. Shariat qoidasiga muvofiq, har qanday yoshda o'qish uchun murojaat qilgan kishiga birorta mudarrisning rad javobi berishga huquqi bo'lmagan [7]. Madrasada dars jarayonlari, odatda har yili oktyabr oyida boshlanib, aprel oyigacha davom etgan [7]. An'anaviy qoidaga ko'ra madrasada hafta kunlari 2 ga bo'lingan: tahsil kunlari va ta'til kunlari. Tahsil kunlari-shanba, yakshanba, dushanba va seshanba. Ta'til kunlari (o'tilganlarni takrorlash va dam olish)-chorshanba, payshanba va juma [7]. Masalan, Mehtar Shafi' ibn Xo'ja Latif va Fathulla qo'shbegi ibn amir Nasrulloh nomidagi madrasalarning vaqf hujjatida haftada to'rt kun dars bo'lishi yozib qo'yilgan [7]. Darsning boshlanishi quyosh chiqishi bilan belgilangan (bomdod namozidan keyin) [8].

Madrasada ta'lim olish uchun bosqichda amalga oshirilgan: boshlang'ich (adno), o'rta (avsat), yuqori (a'lo).

Buxoro amirligi poytaxti Buxoro shahrida XIX asrning o'rtalarida ham 200 ga yaqin madrasalar faoliyat ko'rsatilgan. O'rta Osiyo xonliklarida mavjud ta'lim tizimi bo'yicha O'z MDA tarqoq shaklda bo'lsa ham anchagina ma'lumotlar mavjud.

Talabalar o'quv kursiga qarab emas, balki qaysi kitobni o'qiyotganligiga qarab jamoa-guruhlariga ajratilgan[9]. Jamoa-guruh soni talabalar miqdori va madrasaning kattakichikligiga qarab belgilangan. Katta madrasalarda har bir guruhda 5-10 nafardan 20 nafargacha talaba tahsil olgan [8].

Tolibi ilm madrasadagi hujraga ega bo'lsa, madrasa vaqf daromadidan ulush olar edi. Madrasada juma va payshanba, ramazon oyi va hayit kunlari dars bo'lmagan. Odatan darslar kuzda, mezon oyining boshi (24 sentyabr) oyidan 22 martgacha davom etgan [9]. Madrasa talabalariga mudarrislar dars bergan [9, 184].

Mudarrislar Buxoro ulamolarning tarkibiy qismini tashkil qilib, ular madrasalarda dars berib, vaqf daromadidan haq olishardi [10].

Buxoro madrasalarining hammasida ham mudarrislar bo'lmagan. Vaqfnoma shartiga binoan madrasaga mudaris tayinlanishi mumkin edi. Buxoroning eng katta madrasalarida bittadan qirqtagacha mudarris tayinlangan. Eng katta madrasa bo'lgan Ko'kaldoshda, Govkushon, Miri Arabda bittadan, biroq o'rta bo'lgan Ja'farxo'ja madrasasida qirqta mudarris bo'lgani ma'lum.

Mudarrislarni madrasaga qozi kalon tayinlagan. Ko'kaldosh, Govkushon, Miri Arabga esa amir roziligi va farmoni bilan tayinlangan. Bu yo'l bilan eng mashhur olim mudarris tayinlangach unga "muaxxaz" - daromad manbai, nafaqa berilardi. Ko'kaldosh mudarrisi eng yuqori oxund[15] unvoniga ega bo'lib, Govkushon mudarrisi ikkinchi darajadagi a'lam[16], Miri Arabdagi mudarris muftii askar[17], undan

keyingi madrasalardagi mudarrislar muftii kalon[18] (Tursunjon madrasasida), qolgan pastroq darajadagi madrasalar mudarrisleri muftiy[19] unvoniga ega bo'lishgan. Buxoro madrasalarining barcha mudarrisleri, ijtimoiy kelib chiqishlaridan qat'i nazar, Buxoroning yuqori ashroflari tabaqasiga mansub bo'lishgan [11].

Buxoro shahridagi madrasalardan Ko'kaldosh, Govkushon, Miri Arab, Tursunjon, Xo'ja Nihol, Ja'farxo'ja, Abdulazizxon, Mirzo Ulubek, Olimjon, Saroyi tosh, Kalobod, Do'st chuhraog'osi, Rahmonqul, Xiyobon, Shodimbiy, G'oziyon, Doru-sh-shifo, Bozori go'sfand, Iskandar xon, Qo'sh madrasa, Devonbegi madrasalaridagina mudarrislar dars (leksiya tariqasida) mashg'uloti olib borganlar [10].

Buxoro madrasalarida uch turdagi bilimlardan ta'lim berishganini "Tarixi Xumuliy" bergan ma'lumotlaridan bilish mumkin. Unga ko'ra bular shar'iy (shariat ilmlari); arabiy (arab tiliga oid fanlar) va hikmat.

Bu ilmlarga oid asarlar (darsliklar) I. Matn (fanga oid asar). II. Sharh (asar matniga bag'ishlangan sharh) va III. Hoshiya, matn va sharhlarni tushuntiradigan asarlardan iborat bo'lgan. Bulardan matn va sharhlar ko'proq o'rganilsa ham hoshiyalarni madrasa talabalarini mustaqil ravishda yoki alohida olimlar huzurida o'rganishgan.

Birinchii turdagi shariat ilmiga oid asarlardan birinchisi tafsir ilmiga oid bo'lib, uni "Tafsiri qozi Bayzoviy" (to'liq nomi "Anvor at-tanzil va asror at-ta'vil") asosida o'rganishgan. Uning muallifi Sheroz qozisi Abu Sa'd Abdulloh ibn Umar ibn Muhammad ibn Ali al-Bayzaviy bo'lib u 716/1316-1 vafot etgan. Bu asarga quyidagi sharhlar mavjud: 1) Sharhi Shayxzoda bar tafsiri qozi Bayzoviy, 2) Sharhi Alloma al-Taftazoni bar tafsiri qozi Bayzoviy, 3) Sharhi Assomuddin bar tafsiri qozi Bayzoviy, 4) Sharhi Abdulhakimi Lohuri bar tafsiri qozi Bayzoviy. Shariat ilmining ikkinchi ilm turkumi hadis ilmi bo'lgan va uni Valiuddin Muhammad ibn Abdulloh al-Umaryi al-Xatib at-Tabriziy (vafoti 740/1339-40) ning "Mishkoti sharif" (Mishkot al-Masobih) asari [2, 303a] va unga bag'ishlangan sharhlaridan 1) Ali ibn Sulton-al-Qoriyning "Mirqot", 2) Abdulhaqq (Abdulhaqq ibn Sayfiddin ad-Dehlaviy, 1052/1642-43) sharhi (asari nomi: "Ash-shi'at lamaot fi sharh Mishkot"), 3) Sharhi Mir Sayyid al-Sharif bar Mishkot"4) "(Tafsiri) Tabyon" o'rganishgan.

Shariat ilmlarining uchinchi fiqh ilmi bo'lib, u I) "Viqoya" unda 1) Ubaydulloh Sadri Sharianing "Muxtasar al-viqoya", uning sharhlaridan: 2) Abdul Ali ibn Muhammad ibn al-Huseyn al-Birjandiyning sharhi, 3) Abdul-Makorim ibn Abdulloh 4) Ali-ul-Qori, 5) Mullo Faxriddin al-Buxoriylarning sharhlari o'rganilgan. Fiqhga bag'ishlangan ikkinchi asar: II. Sharh al-Viqoya, bo'lib unda 1) Mahmud-Toj ush-sharianing "Viqoyatu-r-rivoyot", 2) Ubaydulloh Sadri-Sharianing "Sharhi viqoyat-ur-rivoyot", mazkur asarga bag'ishlangan sharhlardan: 1) Sharhi Chalabiya bar "Sharhi-viqoyat-ur-rivoyot" 2) Tarshih ("Sharhi-viqoyat-ur-rivoyot"). III. Hidoya [2, 220a]- Burhonuddin Ali al-Marg'inoniy va Abulmuin Samarqandiyning: 1) "Inoya", 2) "al-Kifoya fi sharhi-l-Hidoya" (Mahmud ibn Ubaydulloh ibn Mahmud Toj ush-sharianiki): 3) "Nihoya" va 4) "Fathu-l-qadir li-l-objiz al-faqir" (Kamoliddin Muhammad ibn Adulvohid ibn Humom as-Sivasiy al-Hanafiyniki) asarlari madrasa talabalarini tomonidan o'rganilgan. Fiqhning IV sohasi: Usuli fiqh, ya'ni ijmo' va qiyosning usullari bulib, unda: 1. Sadru-sh-sharia Ubaydulloh ibn Mas'ud ibn Toju-sh-sharia Umarning Abulhasan Ali ibn Muhammad al-Pazdaviyning "Usul - Kanzu-l-vusul ila ma'rifati-l-usul"iga bag'ishlangan "Tanqihu-l-Usul"i o'rganilgan: 1) Ubayduloh Sadri-Sharianing "Tavzih fi halli g'avomiz at-tanqih(-l-Usul)"asari: 2) Alloma at-Taftazoniyning "Talvih" asari va ularga bag'ishlangan hoshiyalardan 1) Hoshiyai Chalabiy, 2) Hoshiyai Abdulhakimi Lohuri, 3) "Sharhu Sharhi "Talvih"

asarlari o'rganilgan. Fiqhning V bo'limi ilmi kalom, bo'lib unda: I. Imomi A'zam Abu Hanafiy Kufiyning "Asli Tavhid"i II. Najmiddin Abu Hafs Umar ibn Muhammad ibn Ahmad ibn Ismoil an-Nasafiyning (vaf.537/1142-43) "Aqoid un-Nasafiy" hamda unga yozilgan Alloma at-Taftazoniyning "Sharh al-Aqoid an-Nasafiy" [2,165a] si o'rganilgan.

Talabalar mustaqil ravishda 1) Hoshiya Mulla Ahmad ibn Umar al-Jundiy (ala sharh Aqoidi Nasafiy), 2) Sharhi Ramuz, 3) Sharhi Ilyos 4) Hoshiya Xayoliy (Shamsuddin Ahmad ibn Muso al-Xayoliyning "Hoshiya ala sharh al-aqoid an-Nasafiy") va Xayoliyga Abdulhakim Lohuriy(Abdulhakim ibn Shamsuddin as-Siyalkuti, vafoti 1068/1658-59)ning hoshiyasi "Hoshiya ala hoshiya al-Xayoliy ala sharh al-aqoid an-Nasafiy li-t-Taftazoniy" 5) Sharhi Mullo Qosim, 6) Sharhi Qara-Kamol, 7) Sharhi Qul-Ahmad 8) Sharhi Chalabiy, 9) Sharhi Oxund Shayx bar mullo Jalol [2, 165a], 10) Sharhi Abdurrahmon va 11) Sharhi Ismatulloh. III. Risolayi Azdiya "al-aqoid al-Azdiya" (Azud al-millat va-d-din Abdurrahmon ibn Ahmad ibn Abdulg'affur as-Siddiqiy al-Mutaraziy ash-Shabankoriy – Azudiddin al-Ijii, 756/1355-56 vafot etgan), va unga Mullo Jaloliddin ad-Davvoniyan bergan sharhi, bu sharhga Xonaqohiyning sharhi(Sharhu-sh-sharh, ya'ni subkommentariy)si o'rganilgan.

Bulardan tashqari talabalar: 1) Tatimma al-havoshiy fi izolat al-G'avoshiy (Yusuf Ko'saj al-Qarobog'iy), 2) Hoshiyai-Kalobazi, 3) "Hoshiyai ala sharh al-aqoid al-Azdiya" muallifi Mavlono Sharif – Muhammad Sharif ibn Muhammad al-Husayniy, vafoti 1100/1689. Shu muallifning "Al-Hoshiya al-jadida ala sharh al-aqoid al-Azdiya" nomli yana bir sharhi mavjud, 4) Hoshiyai Oxun Shayx, 5) Hoshiyai Abdulhakim (Hoshiya ala sharh al-aqoid), 6) "Takmila (bar tatimma)"ni o'rgananganlar.

Shariat ilmining oltinchi bo'limi ilmi Faroiz bo'lib, unda meros masalasi yoritiladi. Bu fan "Matni Faroiz" ("al-Faroiz as-Sirojiiya" – muallifi Sirojiddin Abu Tohir Muhammad ibn Muhammad ibn Abdurashid as-Sajovandiyniki) va unga yozilgan sharh Mir Sayyid Sharif – Ali ibn Muhammad al-Jurjoniy (vafoti 816/1413 yil)ning asari asosida o'rganiladi. Shariat ilmining yettinchisi ilmi Qiroat bo'lib, unda tajvid (retitatsiya) ilmi. A) Muhammad al-Jazariyning "Kitob ut-tamhid fi ilmi-t-tajvid" va uning shu asariga yozilgan: 1) Sharhi Rumi, 2) Sharhi Ali ul-Qoriy (asari nomi: "Sharh muqaddimat al-Jazariya"), 3) Sharhi Misriy va 4) "Mufhima" asrlari. B) Shotibiy asari (al-Qasida ash-Shotabiya. Mualifi Qohiradagi al-Foziliya madrasasining qiroat mudarrisi, asli andalusiyalik Abulqosim al-Qosim ibn Firah ibn Abilqosim Xalaf ibn Ahmad ar-Ra'iniy ash-Shotabi. Vafoti 590/1194-95 yil) va unga Imodaddin bergan sharhi. V) Sajovandiy asarlari asosida o'rganilgan.

Arabiya ilmlariga oid ilmlarning birinchisi ilmi lug'ot bo'lib unda: I. Muhammad ibn Ya'qub Firuzobodiy ash-Sheroziyning "Qomus(al-Muhit va-l-qabas al-vasit). II. Ismoil ibn Hammud al-Javhariyning "Sihoh" lug'ati [2, 165a], III. Abu Ja'far Ahmad ibn Ali al-Muqriy al-Bayhaqiy "Ja'farak"ning "Toj al-Masodir" lug'ati. IV. Jamol Qarshiyning "Suroh" lug'ati. V. "Fi-l-lug'ot" asarlari ta'lim berilgan.

Arabiyaning ikkinchi bo'limi ilmi Sarf bo'lib: uning darsliklari: I. Muizziy va uning sharhi "Muqaddimai Alloma at-Taftazoniy", II. Ibni Hojibning "Shafiiya" asari. Shu bo'limda ilmi xatti arabiy ham o'rganilgan.

Arabiyo'ning uchinchi bo'limi ilmi Nahv va u I. Abulqosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariyning "An-namuzzaj". II. Ibni Hojibning "Kofiya" va uning sharhlaridan; Jomiyning 1) "Favoid az-Ziyoiya", 2) Hindiya, 3) Husomaddin Asfaroiniy va unga Abdulhakim sharhi, 4) Sharhi Ismatulloh, 5) Sharhi Abdurrahmon, 6) Sharhi Oxun Shayx, 7) "Sharhi Shamsiddin bar Kofiya", 8) Sharhi Mirzo Zohid, 9)

Sharhi Mullo Sodiqiy va 10) "Sharhi Abdulg'affur bar Sharhi Mullo" asarlari ta'limidan iborat.

Ilmi aruz va ilmi Qofiya arabiyot ilmining to'rtinchi va beshinchi bo'limlari bo'lib, madrasa talabarlari ularni Mavlono Andulusiyning "Risolai Andulusiy" asosida o'rganangan.

Arabiyot ilmining oltinchisi fani maoni, fanni bayon va ilmi badi' bo'lib, ular: I. Xatib al-Dimishqiyning "Talxis"i, unga Alloma Sa'duddin Mas'ud ibn Umar At-Taftazoniy yozgan sharhi ("Sharhi talxis al-Matul") va unga: 1) Mir Sayyid ash-Sharif, 2) Xalxoliy, 3) Xitoyi, 4) Chalabiy, 5) Sharhi bayot, 6) "Uqud-ad-durar" II. Yusuf-al-Sakkokiynq "Miftoh-al-ulum" va uning "Sharhi Miftoh" asari va boshqa sharh va hoshiyalar asosida ta'lim berilgan. Ilmi tavrix doirasida turli tarixiy asarlar talabalar tomonidan mustaqil o'rganilgan.

Hikmat ilmi mantiq ilmidan iborat bo'lib, u: I. Asiruddin ibn Mufazzal ibn Umar al-Abhariyning "Isag'uj al-mantiq" va uning sharhlari (masalan, "Sharhi Risolayi Shamsiya Oxund Mullo-Sodiq"). II. Umar al-Kotib (Najmiddin Ali) ning "Shamsiya" [2] va uning 1) Sharhi Shamsiya va 2) Hoshiyai Mir Sayyid-Sharif [2] va unga yozilgan 1) Hoshiyai Adulhakimi Lohuriy, 2) Hoshiyai Mullo Ahmad, 3) Hoshiyai Isomiddin. III. Alloma at-Taftazoniyning "Tahzib al-mantiq va-l-kalom"i va uning quyidagi sharhlari: 1) "Sharhi Tahzibi Muhammad ibni As'ad-Davvoni", 2) "Sharhi Tahzibi Xoja Jamol", 3) "Hoshiyai mavlono Oxund Yusuf Ko'saj al-Qarabog'iy"(vafoti 1054/1644-45 yil), 4) Sharhi Qozi-Muborak, 5) Sharhi Xoni-Mullo va 6) "Xoni ulum". Talabalar bu fan doirasida 1) Oxund Shayx – Inoyatulloh Shayx al-Buxoriyning "Hoshiya ala sharh ad-Davvoniyan ala al-aqoid al-Azdiya" va "al-Hoshiya ala al-aqoid al-Azdiya", 2) Mirzo Zohid sharhlarini ham o'rganangan. IV. Muhibulloh ibn Abdushukkur al-Bihoriyning "Sullamu-l-ulum" va uning: 1) Qozi-Muborak, 2) Firuzshohiy, 3) Mir-Sadriddin sharhlari ham o'rganilgan.

Ilmi munazira (bahs yuritish ilmi) Najmiddin Ali ibn Umar al-Qazviniy al-Kotib (Dabiron)ning "Hikmat-ul-ayn" va unga bitilgan: 1) Qutbiddin sharhi va mazkur asarga Mir Sayyid Sharif, 2) Mirzojon (Habibulloh Mirzojon ash-Sheroziy al-Bog'andiy(Buxoroda 944/1586-87 vafot etgan); 3) Oxund Yusuf-Qarabog'iyning sharhlari va Yusuf-Qarabog'iy asariga yozilgan 1) Mullo-Ahmad va 2) Abdulboqiyning sharhlari o'rganilgan.

Madrasalarda avval sarf, keyin ilmi nahv, "Kofiya" kitobiga o'tgandan keyin "Muxtasar" (fiqh ilmidan), ilmi aro'z, ilmi munozira (hikmat ilmidan) ta'lim beriladi. Keyin mantiqqa oid ikkita kitob, keyin ilmi kalomga oid ikki kitob va keyin "Tahzib" asari, fiqhga oid uch kitob o'rganiladi. Keyin "Hikmat ul-ayn", ilmi kalomning uchinchi kitobi, keyin fani maoni, fani-bayon va ilmi badi', fiqhning uchinchi kitobining davomi, so'ngra usuli fiqh saboq beriladi, hadisning birinchi kitobiga o'tiladi. Ilmi faroiz, ilmi qiroat va ilmi hisob va oxiri "Tafsiri Bayzoviyy"dan talabalar saboq olishardi.

Xoja Hofiz, Sa'diy, Navoiy, Mirzo Bedil va Fuzuliy asarlarini ham talabalar mustaqil yoki "Hofizxon", "Sa'dixon", "Navoiy" va "Bedilxon", "Fuzuliyxon" deb nom olgan mudarrislar oldida o'rgananganlar.

Madrasa darslarini tamom qilgan talabalariga Qur'on tafsiri, payg'ambar hadislarini, fiqhi islomiydan dars berishga ijozat berilgan [12].

Buxoro madrasalarini tugatgan talabalariga guvoynoma berilgan. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik institutida Samarqanddagi Ulug'bek madrasasini tugatgan Balxlik Shamsiddin Muhammadga berilgan guvoynoma-sanadning nusxasi saqlanmoqda. Unda madrasada o'qitilgan fanlarning nomlari keltirilgan [13, 109]. Ayrim hujjatlar – ijozat(irshod)nomalarda ustoz

domlalarining o'z shogirdlariga dars berish huquqini berganlari yozilgan [9, 184].

Xulosa va takliflar. XVIII asr oxiri va XIX asrda ham Buxoroda madrasalari nufuzi va ilmiy salohiyati yuqori bo'lganligi, o'qitish keng qamrovli bo'lganligi haqida bu madrasalarning ko'pligi, hamda mang'itlar davrida ta'limga

bo'lgan e'tibordan dalolat beradi. "Tarixi Xumuliy" asari muallifi ushbu madrasalar talabasi va bitiruvchisi sifatida amirlikdagi ba'zi madarasalar xususida qiziqarli dalillar keltirgan. Asarni o'rganish jarayonida nafaqat mang'itlar davri siyosiy, iqtisodiy tarixi, shuningdek, ijtimoiy-madaniy tarixi ma'lumotlari ham diqqatga sazovordir.

ADABIYOTLAR

1. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. Москва: 1975.
2. Мулло Жумакули Хумулий. Тарихи Хумулий. Самарканд-Тошкент, 2013, "Mega Basim Baha Is Merkezi нашриёти, Haramidere", Istanbul, Turkey.-243 б.
3. Шамсутдинов Р. Расулов Б. Туркистон мантаб ва мадрасалари тарихи. Андижон:1995. -106б.
4. Вохидов Ш. Чориев З. Садр-и Зия и его библиотека. Тошкент: «Янги аср авлоди», 2007. -353с.
5. Жуманазар, Абдусаттор. Бухоро таълим тизими тарихи [Матн]. Тошкент: Akademnashr, 2017. - 592 б.
6. Асророва Л. Бухоро мадрасалари тарихидан: Ахмадхон ибн Исмоилхон мероси. Т.: «Hilol-Nashr» 2017. - 224 б.
7. ЎзР МДА, 47-фонд, 1-рўйхат, 333а-иш. В.5; Ўша жойда, 1010-фонд, 1-рўйхат, 20-иш. В.5.
8. Айний С. Асарлар. 5-жилд. – Тошкент: Бадий адабиёт, 1965. – Б. 169.
9. Джалилов О. Мадрасалар таърифида (Об описании медресе) // Фан ва турмуш, 1983. №9. – С.12-13.
10. Бобожонова Ф.Х. Бухоро амирлигида таълим тизими (XIX аср охири-XX асрнинг бошлари). Тарих фанлари номзоди..дисс. – Тошкент: Ўз Фа Ти, 211. – 184 с.
11. Сухарева О.А. Квартальная обшина позднефеодалного города Бухары (в связи с историей кварталов). Москва: Наука, 1976. – С. 298.
12. Ижозатнома/Иршоднома.Бухоро вилоят музейи қўлёзма фонди. 32352/11инвентар.
13. Ахмедов Б. Улуғбек. Историческая повесть. – Ташкент: Камалак, 1994. – С.109 Ахмедов Б. Улуғбек. Историческая повесть. – Ташкент: Камалак, 1994. – С.109
14. Тарихи Хумулий 180а, 285б.
15. Oxun, oxund – madrasani bitirgan va mudarrislikning yuqori darajasi.
16. A'lam – musulmon olimining yuqori ilmiy unvoni. Eng dono degani.
17. Muftii askar qo'shinda faoliyat ko'rsatgan.
18. Muftii kalon – muftiylar (fatvo) beruvchilarning rahbari..
19. Muftiy – fatvo beruvchi, fatvo berish darajasidagi qozixona xodimi.



UDK: 378.4

Umida NAMAZOVA,
Samarkand State University
E-mail: mr.firdavs027@gmail.com

According to the review of I. Rizaev, doctor of Philosophy, associate Professor of the Samarkand branch of the Tashkent University of Information Technologies

FROM THE HISTORY OF SAMARKAND INSTITUTE OF VETERINARY MEDICINE, ANIMAL HUSBANDRY AND BIOTECHNOLOGIES: HISTORY OF THE FIRST HALF OF THE XX CENTURY

Annotation

The article examines the history of the state of the institute, its role in the development of agriculture. The main emphasis is on the importance of the institute in the development of agriculture, its contribution to increasing the productivity and quality of crops, protecting the environment and animal health, as well as the development of modern technologies and mechanization in agriculture in Uzbekistan.

Key words: Samarkand Agricultural Institute, agriculture, Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology agronomy, veterinary medicine, Uzbekistan.

САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ, ЖИВОТНОВОДСТВА И БИОТЕХНОЛОГИЙ: ИСТОРИЯ ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XX ВЕКА

Аннотация

Статья рассматривает историю состояние института, его роль в развитии сельского хозяйства. Основной акцент делается на значимости института в развитии сельского хозяйства, его вкладе в повышение производительности и качества сельскохозяйственных культур, охране окружающей среды и здоровья животных, а также развитию современных технологий и механизации в сельском хозяйстве Узбекистана

Ключевые слова: Самаркандский сельскохозяйственный институт, сельское хозяйство, Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии, агрономия, ветеринария, Узбекистан.

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI: XX ASR BIRINCHI YARMI TARIXI

Аннотация

Maqolada institutning tarixi, qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor institutning qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi ahamiyati, ekinlar mahsuldorligi va sifatini oshirish, atrof-muhit va hayvonlar salomatligini muhofaza qilish, shuningdek, O'zbekistonda qishloq xo'jaligida zamonaviy texnologiyalar va mexanizatsiyani rivojlantirishga qo'shayotgan hissasiga qaratiladi.

Kalit so'zlar: Samarqand qishloq xo'jaligi instituti, qishloq xo'jaligi, Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti, agronomiya, veterinariya, O'zbekiston.

Introduction. Samarkand Agricultural Institute (Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology) was founded in 1929. This educational institution is currently one of the largest, prestigious institutions of higher education in the field of agriculture in our Republic. The institute's faculties train specialists in various specialties. Among them are qualified agronomists, agrochemists, specialists in crop production, horticulture, selective seed production, forestry, veterinarians, agricultural mechanization engineers, vocational training, agricultural processing technologists and farm managers.

Currently, Samarkand State University of Veterinary Medicine, Animal Husbandry and Biotechnology has a material and technical base that meets the requirements of the time. The Institute has the most modern technical facilities that meet the requirements of the time, laboratories, educational buildings, classrooms equipped with computers. The institute has a scientific and information resource centre with the necessary teaching aids and books, as well as a sports complex and a student building. An educational and experimental farm for conducting scientific and practical classes, a training ground, and a vivarium serve students to acquire knowledge.

Review. Based on the requirements of the period, the institution is developing educational, methodological and scientific-practical cooperation with universities in a number of foreign countries - the USA, England, the Netherlands, Germany, Poland, Russia, China, Egypt, Turkey, Kazakhstan, Turkmenistan, Tajikistan, Kyrgyzstan and others [1]. Research at the institute is mainly aimed at sustainable development of agriculture, increasing livestock productivity, creating new high-yielding and early-ripening varieties of agricultural crops, increasing soil fertility, preserving and improving the cleanliness of the environment, protecting livestock from various diseases and their effective treatment with agricultural machinery, creating effective machine unit systems. In agriculture, based on new conditions, effective work is being carried out to develop and implement improved methods of economic mechanism in enterprises with various forms of ownership.

As we know, the Republic of Uzbekistan takes its place among the countries of the Union. Soon after joining the union formed at the beginning of the 20th century, at the end of the 20s, fundamental changes began to occur in agriculture, collective farms and state farms began to form.

To manage these farms and develop the industries, many management personnel and specialists were required. Taking into account the above, the government of the republic paid great attention to this issue, considering the training of personnel for the agricultural sectors to be one of the urgent tasks.

Analysis. On December 13, 1929, the government of Uzbekistan adopted a decree on the opening of preparatory courses at the Samarkand Cotton Institute.

Agricultural educational institutions were created in a number of cities of our republic - Kokand, Bukhara, Karman, and the State Institute of Cotton Growing and the State Veterinary Institute of Uzbekistan were created in the city of Samarkand [2].

At that time, the Uzbek State Institute of Cotton Growing included the faculties of cotton growing, mechanization, crop production and irrigation. Preparatory courses were organized for admission to higher education institutions. Classes on these courses began in 1929, and from this year the institute began its activities.

In addition, during the same period, the Uzbek Higher Communist Agricultural School was created in Samarkand, training leaders for agriculture. The Uzbek State Agro-Commercial University also trained personnel for mid-level agriculture. Training of specialists was also carried out in horticultural, veterinary, and irrigation technical schools.

Training classes at the Uzbek State Veterinary Institute were held in the buildings of the Pedagogical Academy (now SamSU) and technical schools, and then in the building of the Central Savings Bank, which at that time was transferred to the institute, where the Samarkand branch of the Academy of Sciences of Uzbekistan is now located.

All educational institutions and student dormitories, despite their accessibility, caused great difficulties due to the lack of teachers to conduct classes according to the curriculum [3]. Despite this, these educational institutions with their personnel have made a worthy contribution to the development of all sectors of agriculture in Uzbekistan. It is not difficult to imagine under what difficult conditions these organized educational institutions began their activities.

The insufficiency of classrooms, equipment, material and technical base for the training of qualified personnel, as well as the insufficient preparedness of applicants and the lack of teachers for their training created great difficulties in the activities of the institute. When hundreds of young people arrived from the villages, many of them were not yet ready to study. However, in those years, the republic urgently needed new-thinking personnel working in new conditions, with confidence and firmness [4]. Educational work was constantly being improved, although the material and technical base of the institute was weak to continue educational and scientific work.

Due to the great importance of higher educational institutions in the development of the republic, this issue was under the constant control of the Chairman of the Council of People's Commissars of the Republic of Uzbekistan Fayzulla Khodjaev. That is why the directors often attended his reception on issues related to the activities of the institute.

In the pre-war years, much attention was paid to the training of engineering and mechanical personnel for agriculture. There were not enough tractors and machinery in those years. That is why the American companies Inter, Caterpillar and Joinder provided us with great help by selling their cars [5]. By the end of the first five-year plan, more than 90% of the land in our republic was plowed. Plowing the land with tractors was just a dream of our peasants. The institute had a faculty of agronomy with the largest number of students, and agronomists played an important role in implementing agricultural policy in rural areas.

Results. In the mid-thirties, the Institute's scientists achieved notable success in their work to promote production. In carrying out this work, students used their organizational skills and dedicated work. In production, agronomists and livestock specialists were the main specialists and became the decisive force.

Agronomists were among the first in the world to use new methods in agriculture to combat insects and diseases by applying mineral fertilizers, planting new varieties of cotton, and introducing modern agricultural technology. With the help of scientists from the veterinary faculty, in 1937 it was possible to get rid of pulmonary colds, plague, and equine tuberculosis in cattle. The incidence of anthrax in animals has sharply decreased [6].

From the first days of the war, many personnel and students went to the front to defend their homeland. Many died in battle, but bravely withstood the trials of such harsh days that befell them. The war required the reorganization of everything in the front-line areas. This concerned not only industrial, but also scientific and educational institutions. In Samarkand, all higher educational institutions were closed, except for the institute. But the Samarkand Agricultural Institute did not stop its activities for a day. Because in addition to steel, cast iron, and coal, the country also needed bread, cotton, meat, horticultural and vegetable products.

In November 1941, the Moscow Military Veterinary Academy was included in the institute on the basis of the Moscow Agricultural Academy and the Veterinary Faculty named after K.A. Timiryazev (now the Moscow Veterinary Academy named after P.I. Scriabin). The institute's staff created conditions for the evacuated scientists and shared everything with them. The studies were organized in three shifts in such a way as not to interrupt the educational process of the three higher educational institutions, using the material and technical base of the institute in full. Hundreds of arrivals were accommodated in the apartments of institute employees and other houses [7]. To organize classes in classrooms and laboratories, special schedules began to be drawn up. In such difficult conditions, there were no interruptions in the organization of lectures, laboratory, practical and scientific work in three educational institutions.

Employees and students of the Moscow Institute of Leather and Fur constantly accessed the library of the institute. They were located on the basis of the Research Institute of Karakul Breeding. The Kharkov Agricultural Institute, as well as the Krasnodar Institute of Viticulture, Winemaking and Tobacco, and the Leningrad Film Institute were evacuated to the city of Kattakurgan. Training at these institutes began between weeks after the arrival of food trains loaded with training equipment. Our scientists began to gain experience from educational, methodological, scientific work and combine scientific research with these scientists.

During the difficult recovery years, the institute's staff faced great challenges. Of these, the renovation of existing educational buildings, dormitories, the construction of new buildings, the improvement of educational and methodological, scientific research, spiritual and educational work, development, etc. The teaching staff, graduate students-researchers conducted research experiments in the organizations organized at that time at the Institute of educational and experimental farms (a rice plot behind Chapanata, a plot in Charkhin and a plot in Arabkhana), in large farms (former state and collective farms, livestock farms and collections) [8]. Cooperation was established with the scientists of this institute in the scientific and methodological field of the teaching staff of the agricultural institute; the scientific councils included members from both sides.

During these years, as a result of large-scale construction work, the institute opened educational buildings,

student dormitories, canteens, a student recreation area, and dispensaries. In order to improve the educational process, a training ground, educational farm, poultry farm, and greenhouses were built. The Faculty of Mechanization has opened courses for machinists, tractor drivers, and combine harvesters. All students received an official driving record along with their major diploma. A sufficient amount of equipment was purchased to organize this process.

Conclusions. To summarize, it should be said that all opportunities for the development of the institution were aimed at:

Televisions and modern equipment were installed in all classrooms; special technical equipment was purchased at

the institute to ensure the educational process; a film and photo laboratory was opened.

In order to modernize the organization of the scientific and educational process, a special computer science department and a central scientific laboratory were created at the institute.

In order to strengthen control and management of the educational process, a system for managing the training of special personnel was developed and implemented at the institute; in a short time, an educational, methodological and material and technical base that met the requirements of the time was created at the new faculties.

REFERENCES

1. Salievich K. S. The paradigm challenge to reflexive sociology //Thematic Journal of Social Sciences. – 2022. – Т. 8. – №. 2.
2. Сафаров А. И., Ризаев И. И. Роль исторического сознания и исторической памяти в системе национального сознания //Культурное наследие и народное искусство: сохранение и актуализация в целях устойчивого развития общества. – 2022. – С. 297-303.
3. Alikulov X., Haqqulov N. Q. Spiritual maturity and philosophical thinking dependence of development //ISJ Theoretical & Applied Science. – 2020. – Т. 4. – №. 84. – С. 164-167.
4. Ismoilovich E. I. The mechanism of evaluation of innovative investment processes effectiveness in the service sector //SAARJ Journal on Banking & Insurance Research. – 2016. – Т. 5. – №. 3. – С. 60-71.
5. Ризаев И. И., Муминова З. О. Профессиональная подготовка личности: оздоровление и духовное воспитание //Система менеджмента качества в вузе: здоровье, образованность, конкурентоспособность. – 2021. – С. 264-268.
6. Саматов Х. У. Парадигмальная сущность социально-экономической системы Узбекистана //Парадигма современной науки в условиях модернизации и инновационного развития научной мысли: теория и практика. – 2022. – С. 406-408.
7. Khotambekovna E. M. Таълимда инновацион ғоялар кириб келишидаги хаотик жараёнлар ҳамда таълим тизимида аттрактор омили //Philosophy and life international journal. – 2022. – №. SI-1.
8. Усмонов Ф. Н. Основные этапы развития научной рациональности //Theoretical & Applied Science. – 2017. – №. 11. – С. 181-184.
9. Кубаева Ш. Т. Развитие инновационного мышления в Самаркандской академии Улугбека //Universum: общественные науки. – 2014. – №. 5 (6). – С. 2.
10. Мардонов Р. С., Ризаев И. И. Проблемы в инновационном развитии (на примере Узбекистана) //Географические и экономические исследования в контексте устойчивого развития государства и региона. – 2022. – С. 244-246.
11. Muminova Z. O. Spiritual moral beying of humans in the sinergetik context //Austrian journal of humanities and social sciences. – 2015. – Т. 3.
12. Тураев Б. О., Ризаев И. И. Особенности проявления искусственного интеллекта в бытии человека //Новые информационные технологии и системы (НИТиС-2022). – 2022. – С. 361-363.
13. Mamarahimov K. The need to improve the process of developing aesthetic knowledge and skills in youth at a new stage of development //American Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2022. – Т. 11. – С. 45-49.
14. Mardonov R. Features of educational services in modern conditions //Archive of Conferences. – 2021. – Т. 22. – №. 1. – С. 100-103.



UDK: 902.2(584.4)

Dilmurod NORMURODOV,

O‘zbekiston Milliy universiteti dosenti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: d.r.normurodov@mail.ru

O‘zbekiston Milliy universiteti professori, t.f.d. R.Suleymanov taqrizi asosida

STONE STATUES OF BALBALA OF THE TASHKENT VALLEY FROM THE ERA OF THE TURKIC KAGANATE

Annotation

This article describes and analyzes four “stone sculptures - balbals” found in the Tashkent oasis, which speak about changes in the ideological views of the inhabitants of the Chach – Tashkent oasis during the Turkish kaganate, that is, about the graves of the deceased in the period from the end of the VI to the VIII centuries.

Key words: Chach, Sogd, balbal, stone statue, Turkish kaganate, Ulkantoytepa, Suyrlitepa, Samarchug, nomads, naus, ossuary.

КАМЕННЫЕ СТАТУИ – БАЛБАЛЫ ТАШКЕНТСКОЙ ДОЛИНЫ ЭПОХИ ТЮРКСКОГО КАГАНАТА

Аннотация

В данной статье приводится описание и анализ четырех найденных в Ташкентском оазисе каменных скульптур – балбалов, свидетельствующих о некоторых изменениях в идеологических воззрениях жителей Чача – Ташкентского оазиса, отразившихся в погребальном обряде в период Западного тюркского каганата (конец VI – VIII вв.).

Ключевые слова: Чач, Согд, балбал, каменная статуя, тюркский каганат, Улкантойтепа, Суюрлитепа, Самарчуг, кочевники, наус, оссуарий.

TOSHKENT VOHASINING TURK XOQONLIGI DAVRI “TOSH HAYKAL – BALBAL”LARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada Toshkent vohasidan topilgan to‘rt dona “tosh haykal – balbal”larning tavsif va tahlili bayon qilingan bo‘lib, unda Choch – Toshkent vohasi aholisining G‘arbiy Turk hoqonligi (VI asrning oxirlaridan to VIII asrlargacha) davrida marhumlarni dafn etish udumlarida, mafkuraviy qarashlarida sodir bo‘lgan o‘zgarishlar to‘g‘risida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Choch, Sug‘d, balbal, tosh haykal, turk hoqonligi, Ulkanto‘ytepa, Suyrlitepa, Samarchuq, ko‘chmanchi, naus, ostadon.

Kirish. O‘rta Osiyoning ayniqsa, uning shimoliy va sharqiy qismlari aholining qadimgi va ilk o‘rta asrlar davri mafkuraviy qarashlarini, marhumlarga bo‘lgan ehtiromini ochib beradigan yozma manbalar yetarli emas. Shu boisdan bu kabi masalalarni oydinlashtirishda moddiy ashyolarni tahlil qilish katta ahamiyat kasb etadi. Ular orqali nafaqat ayrim etnik guruhlarining g‘oyaviy qarashlarini balki, bir hil madaniyatli aholining tarqalishini, madaniyatidagi o‘ziga xoslik va umumiylikni kuzatishning ham imkoni bo‘ladi. Jumladan, hurmat – ehtirom sifatida marhumlarning qabrlari ustiga ustun shaklida tik qilib qo‘yilgan “tosh haykal – balbal”larni tadqiq qilish turkiy xalqlarga xos bo‘lgan etnomadaniy va ularga xos mafkuraviy qarashlarini ma‘lum darajada tiklash mumkin. Bunday tosh haykallar qabrning ustidan tashqari diqqatga sazovor joylarga ham yodgorlik sifatida o‘rnatilgan. Ularning yuzasiga odam qiyofasida ishlangan, matnlar yoki tasvirlar o‘yib tushirilgan. Bunday yodgorlik tosh – balballar eski turkchada “tosh bobo haykal” ma‘nosini bildirgan. Ularning namunalarini Toshkent vohasidan ham topilgan bo‘lib, ular orqali ilk o‘rta asrlarda voha aholisi orasidagi g‘oyaviy o‘zgarishlarni ma‘lum darajada tiklashga imkon tug‘iladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turkiy qabilalarga tegishli bo‘lgan balballar sharqda Sibirdan – g‘arbda G‘arbiy Yevropagacha bo‘lgan hududlardan aniqlangan [1]. Ayniqsa, ular Oltoy, Janubiy Sibir, Xitoyning Sharqiy Turkiston (Sindzyan) o‘lkasi shimoliy qismlari va Mo‘g‘ulistonning Utukan vodiysi havzasi, Qozog‘istonning Yettisuv, Qirg‘izistonning Chu vodiysi hududlarida ko‘proq tarqalgan [5].

Oltoy va Tuva hududlarida miloddan oldingi II – milodiy VIII asrlarda, O‘rta Osiyoda VI – IX asrlarda

qabrlarning ustiga balballar qo‘yilgan [18]. Ularni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlar XIX asrning o‘rtalaridan, qayd qilish ishlari esa undan ham ancha oldin boshlangan [3]. Aniqlangan tosh haykallarining aksariyatini old tomoni odatda odam qiyofasida ishlangan bo‘lsa, qisman hollarda qadimgi turk yozuvidagi yozuvlar tushirilganlari yoki tasvirsiz va qiyofasizlari ham uchraydi.

O‘rta Osiyo va unga tutash hududlardagi, ayniqsa, uning shimol tomonidagi dashtliklardagi balballarni qayd qilish va tadqiq etish bo‘yicha V.V.Radlov, V.V.Bartold, N.I.Veselovskiy, V.A.Kallaur, V.A.Mustafin, I.V.Anichkov, N.N.Pantusov, I.A.Kastanye, A.N.Bernshtam, A.X.Margulan, M.Ye.Masson, L.R.Kizlasov, Ya.A.Sher, A.A.Charikov, A.M.Dosimbayeva, K.M.Baypakov kabi olimlar samarali ishlarni amalga oshirishganlar. Tadqiqotchilarning deyarli barchasi balballarning turi tavsifi va semantik mazmuniga ko‘ra qadimgi turkiylarning ajdodlarga sig‘inish va ular bilan bog‘liq bo‘lgan marosimlar bilan chambarchas bog‘liqligi haqidagi xulosaga kelishgan [2; 3; 8; 13; 14; 20; 27; 30].

Dastlab, 1800 - yil tog‘-konchilik ishlari muhandislari Pospelov va Burnashevlarining Qirg‘izistonda Toshkentga kelayotib, hozirgi Qirg‘iziston hududlari dashtligidagi qabr-qo‘rg‘onlarida ikki dona granit toshining tik qilib qo‘yilganligini, ulardan birida erkak, ikkinchisida esa ayol kishining qiyofasi aks ettirilganligi aniq bilinib turishi haqidagi ma‘lumotni berganlar [23]. Qirg‘izistonning Talos vodiysidagi balballarni o‘rganishda arxeologlardan – A.X.Margulan [17], L.R.Kizlasov [15], S.G.Klyashtorn [12], V.D.Kubarev [13] kabilarning xizmatlari taqsimga loyiq. Jumladan, A.X.Margulan Qozog‘istonning Karaganda viloyati, Qarqarali tumani va Pavlodar viloyati, Bayanaul hududlarida tizilib turgan 300-350 ta balballarning qayd qilib,

ular turkiy halqlarning ajdodlariga atab qabrlarning ustiga qo'yilganligini takidlab o'tgan [17]. M.Ye.Masson Toshkent vohasidagi balballarning qo'shni hududlardagilardan ancha keyin, Angrendagi qabr-qo'rg'onlardan birida aniqlanganligini qayd qilgan [18]. Ammo uning aynan qaysi joydan topilganligi, u qayerda saqlanayotganligi, tuzilishi va tavsifi hususida hech qanday ma'lumot yig'a olmagan. 1929 - yil M.Ye.Massonning To'ytepa qishlog'i (hozirgi Nurafshon shahri) mahalliy aholisidan qishloqda tosh haykal borligi haqidagi ma'lumotni olishi uni juda qiziqtirgan. Uning arxeologik surishtiruv-tekshiruv ishlari natijasida, 1918 - yili ushbu hududda joylashgan g'isht zavodiga g'isht quyish uchun soz tuproqli tepalikning tuproqlari tashib ketilishi paytida erkak kishining qiyofasi mavjud bo'lgan kattagina toshning ikkiga bo'lingan qismlari chiqib qolganligini, g'isht zavodining boshlig'i ikkala tosh bo'laklarini ham qishloqqa olib kelganligini, toshlarni hovlisi oldidan o'tgan ariq ustiga ko'piriq qilib qo'yganligini aniqlagan. So'ng tosh haykal uy egasi va boshqa mutasaddilarning yordami bilan Toshkent (hozirgi O'zbekiston tarixi davlat) muzeyiga oilib kelib topshiriladi [18]. M.Ye.Masson ushbu balbalning tavsifa va tahlilini berish bilan birgan uning qishloqdan sharqdagi "Mingtepa" deb yuritiladigan joyda, eski g'isht zavodidan 100 qadam uzoqlikdan olinganligini, bu yerdagi qabr-qo'rg'onlari deyarlik buzilib ketganligini ham aniqlagan. Hozirgacha bu Toshkent vohasidan topilgan balballar orasida eng yiriga va ahamiyatligi, ilmiy muomalaga tortilganligi bilan ajralib turadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar balballardagi qiyofalar mashhur turkiylarning tirkligidagi ko'rinishi desa, o'zgalari aksincha, ularda o'ldirilgan nomdor dushmanlarining tasviri aks ettirilgan, deb hisoblashadi [11]. V.A.Mustafin balballardagi qiyofa marhumlarga emas, balki dafn marosimida qatnashgan shahsniki, degan fikrni bildirgan [25]. Qadimgi xitoy manbalarida turkiylarning qabrisoni yoniga qurilgan binoda marhumning surati chizilgani va uning hayoti davomida qatnashgan janglar tavsifi yozib qo'yilgani, odatda, u jangchi bir odamni o'ldirgan bo'lsa, unda bitta tosh qo'yilgani, uning o'ldirganiga ko'ra toshlarning soni yuz yoki hatto mingtaga yetishi keltirilgan [9]. Balbalda uning kimga tegishligi yoki kimga atab qo'yilganligi yozib qo'yilganlari ham aniqlangan. Jumladan, Mo'g'ilyon hoqonning yodgorlik toshida "bu Tolos shodining () balbali" degan yozuv bitilgan [26]. Ayrim tadqiqotchilar yuqoridagi kabi tosh haykallarda mashhur turkiylar tasvirlangan desa, o'zgalari aksincha, ularda o'ldirgan nomdor dushmanlarining tasviri aks ettirilgan, deb hisoblashadi [11]. Bu balballarning turli hollarda ham qo'yilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Fikrimizcha, aksariyat hollarda balballar nufuzli turkiy shaxslar: erkak va ayollarning shaniga hurmat va ehtirom ramzi sifatida qo'yilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Toshkent vohasi balballarining har birini alohida-alohida tavsiflash, ularni tizimlashtirish, turli hududlardan topilgan va ilmiy jamoatchilikka ma'lum qilingan balballar bilan qiyoslash, tarixiylik, xolislik mutodlarini qo'lab, vohasi aholisining g'arbiy turk hoqonligi davridagi madaniy o'zgarishlariga aniqlash kiritishdan iborat.

Tahlil va natijalar. Toshkent vohasidan jami bo'lib to'rt dona balballar topilgan bo'lib, hozirda ulardan uchtasi O'zbekiston tarixi davlat muzeyida, bittasi Angren shahar tarixi muzeyida saqlanib kelmoqda (1-4-rasmlar). Ular quyidagicha tavsif va tarifga ega:

1-balbal I – XII asr boshlariga oid bo'lgan Ulkanto'ytepa arxeologik yodgorligi ya'ni, XI – XII asrlarda Hoqning boshqaruv shahri vazifasini o'tagan Navkat shahri xarobasi atrofidan, Hozirgi Nurofshon shahridan topilgan. U yuqorida qayd qilinganidek, M.Ye.Masson tomonidan o'rganilgan, uning tavsifini va tahlil berilgan. Ushbu "tosh

haykal – balbal" bir muncha tekis kesilgan. Uning bo'yi – 308 sm ni, yuza tomonining eni – 46-50 sm ni, tashkil qiladi. Yon tomoni juda ensiz (20 sm). Toshning orqa tomoni tekis bo'lib, qolgan tomonlari o'yib-yo'nib va zarb urib shakl berilgan (1-rasm). Old – yuza tomonining yuqori qismi odam boshi qiyofasida yakunlangan. Toshga katta bosh biroz chapga burilgan, oyoqlari kaltaroq erkak kishining qiyofasi yassi barelef shaklda ishlangan. Unda peshonasi baland, burni katta, ko'zlari cho'ziq-bodomsimon, mo'ylovi biroz pastga qayrilgan, ammo soqoli yo'q kishi tasvirlangan. Uning chap qulog'iga katta (og'ir) sirg'a taqilgan. Ustiga tuzasidan pastgacha tushgan ko'ylak – kaftan, pasiga oyoq tupig'idan qisilgan keng shim (shalvar) kiygan. Bo'yniga esa jevak (bo'yinga taqiladagan halqa shakldagi taqinchoq)ka o'xshash katta marjoy-munchoq taqilgan. Tirsaklaridan bukilib bir oz teparoqqa ko'tarilgan nkki qo'llari uzun hasa-tayoqni shulab yoki unga suyanib turibdi. Belidan biroz pastroqda, kamarga osilgan yoki uning orqasiga tiqilgan tekis, kalta narsaning izlar bor. Bu balbal M.Ye.Masson tomonidan turk xoqonligi davriga oidligi, unda kohin yoki shomonning qiyofasi aks ettirilgani takidlangan [18].

2-balbal Bo'stonliq tumani, Xo'jakent shaharchasidan 3 km pastroqda, Chirchiq daryosining o'ng qirg'og'idan topilgan. U ovalsimon ko'rinishda bo'lib, pastga tomon kengayib borgan. Unda ham erkak kishining qiyofasi gavdalantrilgan. Balbalda odam boshi tasvirlangan qismi singan va u qismi saqlanmagan (2-rasm). Uning saqlangan qismini balandligi – 80 sm ni tashkil qiladi. Balbalning saqlangan qismining yuqorisida bo'ynining ko'ndalangiga yo'nilgan konturi izlari bor. Uning ensiz yon tomonida keng ko'rinishda pastga qat-qat bo'lib osilib turgan, yuqoriga qarab ustunsimon qayrilgan kiyimning bir qismi o'yilgan.

3-balbal 1916 yildagi oktyabr to'ntarilishidan oldin hozirgi O'zbekiston tarixi davlat muzeyiga olib kelingan. U paytda muzeyga keltirilgan topilmalarning qayerdan topilganligiga katta e'tibor qaratilmaganligi bois, ushbu balbalning Toshkent viloyatining aynan qayeridan topilganligi haligacha noma'lum bo'lib kelmoqda. U to'rtburchak qilib ohaktoshdan yo'nilgan va tepasi – boshi oval shaklda tugallangan (3-rasm). Balandligi 114 sm bo'lgan bu haykalda gavdalantrilgan odamning yuz va kiyimlari yaxshi ko'rilmaydi. Iyaagi esa uchburchak, kamon ko'rinishidagi ingichka qoshlari bo'rtma shaklda qiyofalangan. Burni esa pastga tomon kengayib borgan va og'zi yonlamasiga bir chiziq ko'rinishida.

4-balbal Angren shahri, Samarchug' mahallasi, Ohangaron daryosining o'ng sohilidan topilgan. Uning yuza qismi balandligi – 4 sm ni, eni esa – 31 sm ni tashkil qiladi. U to'rtburchak shakldagi tosh bo'lib, toshga erkak kishining old tomonining kindikdan yuqori qismi o'yib aks ettirilgan. Uning qoshlari kamon, ko'zilar qiyiq – bodomsimon, burni bir tekis pastga tushgan, og'zi yopiq va ko'ndalangiga kichik bir chiziq ko'rinishda, iyaagi uchburchak shaklda. Uzun mo'ylovi kamonsimon bo'lib, ikki uchi biroz tepaga qayrilgan. Ikkala qo'li ham tirsaklaridan bukilib ko'kiragiga ko'tarilgan va qadahsimon idish tutgan. Shubun albal topilgan Samarchug' mahallasi va uning atroflaridan ilk o'rta asrlardan – XIII asrning boshlarigacha bo'lgan davrga oid qishloqlarning o'rni, polimetal konlari (asosan kumush, qisman oltin), metal eritish joylari, ustiga soz tuproq uyilgan qabr va qabr-qo'rg'onlari, sopol idishlarning siniqlari, tangalar (IX – XII asrlarga oid) topilgan [22]. Bular Toshkent vohasining turkiylar uchun muhim hududlardan biri bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Tosh balbalning topilishi ham buning qadimgi turklar yashagan joyligini, u yerda e'tiborli kishining dafn etilganligini ko'rsatadi. Biz yuqoridagilarning so'zsiz turkiylarga xosligini qo'llaymiz. Ular Turk xoqonligi davriga oid bo'lib, bu fikr shu paytda xoqonlikning boshqa hududlarida bo'lgani kabi



Chochda ham shu tartibdagi an'ananing tarqalishi bilan bog'liqdir. Shuni ham takidlash kerakki, Toshkent vohasining VI asrning o'rtalari – VIII asrlarga oid arxeologik majmuasi Turk xoqonligi davri yodgorliklari sifatida davrlashtirilgan va bu davrda voha “urbanistik” rivojlangan hudud sifatida belgilanib, u alohida yangi – mustaqil Mingo'rik bosqichiga ajratilgan[6]. Ayni shu davrda Mingo'rikda rivojlangan shahar madaniyati qaror topgan [28]. Shahar mahobatli devor bilan o'ralgan. Hatto shaharning markaziy imoratlarning devori devoriy rasmlar bilan, hashamatli me'moriy qoplamalar bilan bezatilgan. Ayrim tadqiqotchilar yuqoridagilarni e'tibordan chetda qoldirishadi yoki bilib turib bilmaslikka olishadi. Hususan, tadqiqotchilardan biri Yu.F.Buryakovning uzoq yillik qazishmalardan olingan hulosasini chippakka chiqarib, uning ko'chmanchi madaniyati belgilari e'tibordan chetda qolganligini qayd etadi [19]. Bunda xato xulosa chiqarishining zamirida yuqorida so'z ketgan davrni Toshkent vohasida keng tarqalgan Qovunchi madaniyati materiallarini L.Levinaning hech joyda qazishma ishlarini olib bormasdan, muzeyda to'plangan kulolchilik materiallari o'rganish asosidan bu madaniyatning III bosqichini VI – VIII asrlar bilan xato belgilaganligi yotadi [16]. Yana bir tadqiqotchi uning fikrini qo'llab, Qovunchi madaniyatini III – yakunlovchi bosqichining yuqori sanasini VIII asr bilan belgilashni to'g'ri deb hisoblaydi. Bunda u Toshkent vohasining Suyurlitpeya ibodatxonasida kuzatilgan manzara tahlilidan shunday xulosaga kelgan [10]. Tahlil masalasiga keladigan bo'lsak, haligacha bu madaniyat yoki uning biror bosqicha mutloq davrlashtirishga asoslangan tahlilga ega emas. Bu ilmiy

farazlarning turicha ilgari surilishiga sabab bo'ymoqda. Ammo yuqoridagi tavsiflangan yodgorlik – balballar Yu.F.Buryakovning Toshkent vohasida turk xoqonligi hukmronligi davridagi shaharlashishning rivojlanishi bilan belgilagan bir davrga to'g'ri keladi. Haqiqatan, bu davrda Toshkent vohasida 8 turdagi 32 ta shahar va shaharmonand manzillar bo'lganligi, atrofi devor bilan o'rab olingan qal'a, ko'shk-qasrlardan iborat boshqaruv binosi, alohida-alohida inshootlari va ibodatxonalari, turarjoy va hunarmandlarning ustaxonalar bo'lgan bir talay qishloqlar bo'ganligi o'z isbotini topgan [21]. Shu bilan birga Choch aholisining ma'naviy hayotida Xorazm va Sug'd kabi chuqur o'zgarishlar ro'y berganligi, qo'rg'on go'rlarining (katakomba shaklidagi qabr qo'rg'onlari) kamayib, naus va ostadonlarning tarqalganligini ko'ratiladi [21]. Bundan tashqari, vohada turkiylarga xos bo'lgan balballi qabrlar ham kengaygan. Bu Choch – Toshkent vohasida turk-sug'd simbiozi sodir bo'lganligini yana bir bor tasdiqlaydi [24]. Bu paytda rivojlangan madaniyatga xos savdo-sotiq rivoj topgan. Ipak yo'li bo'ylab olib boriladigan savdoning katta qismi turk xoqonligi izmida bo'lgan. Ular nafaqat mahalliy muomalaga, qolaversa halqaro miqyosdagi tovarlarning oldi-sottisiga maslab ham tangalar zarb qildirgan [4]. Ko'chmanchi turmush tarzi hukmron Sharqiy Turk xoqonligidan farqli, asosan, o'troq turmush tarzi ustivor bo'lgan G'arbiy Turk xoqonligining markazi Choch bo'lgan.

Xulosa va takliflar. Xullas, Toshkent vohasidan aniqlangan balballarning tahlilga tortilishi Choch vohasi aholisining VI asrning oxirlaridan to VIII asrlargacha bo'lgan davrdagi dafn udumlarini, mafkuraviy qarashlarida yangi o'zgarishlar sodir bo'lganligini ma'lum ma'noda teklayshga, tushinishga va yoritishga yordam beradi. Shu bilan birga Toshkent vohasi – Chochning turk xoqonligi davri bosqichi masalasidagi tortishuvlarni to'g'ri hal qilishga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Амброз А.К. О Вознесенском комплексе VIII в. на Днепре // Древности эпохи великого переселения народов V–VIII вв. – Москва, 1982. – С. 212–220.
2. Ахинжанов С.М. Об этической принадлежности каменных изваяний в «трехрогих» головных уборов из Семиречья // Археологические памятники Казахстана. Алма-Ата, 1976. – С. 65–79.
3. Байпаков К.М. Древняя и средневековая урбанизация Казахстана (по материалам исследований Южно-Казахстанской комплексной археологической экспедиции). Книга I. Урбанизация Казахстана в эпоху бронзы – раннем средневековье. – Алматы, 2012. – С. 354, 356.
4. Бобоёров Ф. Фарбий Турк хоқонлиги: тарих ва танга-пул тизими. – Тошкент, 2021. 54, 64-бетлар.
5. Борисенко А.Ю., Скобелев С.Г., Худяков Ю.С. Основные проблемы изучения культуры древних тюрок в Центральной Азии // Памятники древнетюркской культуры в Саяно-Алтае и Центральной Азии. – Новосибирск, 2000. – С. 7–26.
6. Буряков Ю.Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. - Ташкент. 1982. – С. 100.
7. Веселовский Н.И. Современное состояние вопроса о “Каменных бабах” или “Балбалах”. – Одесса, 1915. – С. 3–35.
8. Грач А.Д. Древние изваяния Тувы // По материалам исследований 1953-1960 гг. – Москва, 1961. 96 стр.
9. Иакинф. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии. – Санкт-Петербург, 1851. Ч. I. – С. 270.
10. Иномов О.У. Қовунчи маданияти ва унинг ўзбек халқининг шаклланишидаги роли. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2019. 16-бет.
11. Кароматов Х.С. Ўзбекистонда мозий этикодалар тарихи. – Тошкент, 2008. 77-бет.
12. Кляшторный С.Г., Савинов Д.Г. Степные империи древней Евразии. – Санкт-Петербург, 2005. – С. 166–172.
13. Кубарев В.Д. Памятники каракольской культуры Алтая. – Новосибирск, 2009. 264 с.
14. Кызласов Л.Р. История Тувы в Средние века. – Москва, 1969. – С. 23–35.
15. Кызласов Л.Р. Памятники поздних кочевников Центрального Казахстана (из работ Центрально-Казахстанской археологической экспедиции в 1948 году) // Известия Академии наук Казахской ССР. (Серия: Археологическая). 1951. – Вып. 3. – С. 53–63.
16. Левина Л.М. Керамика нижней и средней течения Сырдарья в 1 тыс. н.э. – Москва, 1971. – С. 184.
17. Маргулан А.Х. Каменные изваяния Улытау // Сочинения. – Том 14. Раздел 3. – Алматы, 2003. – С. 36–136.
18. Массон М.Е. Ахангаран (археолого-топографический очерк). – Ташкент, 1953. – С. 25–27.
19. Муродалиев Р.Х., Рашидов Н.Н. Сўнгак мазор-қўрғонида 2021 йилда олиб борилган археологик казишмалар // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2021 йил 14-сон. – Самарканд, 2022. 84-бет.
20. Новгородова Э.А. Кипчакские святые на юге Казахстана (Сандыкский перевал, г. Мерке) // Ученые записки Комиссии по изучению памятников цивилизаций древнего и средневекового Востока Всесоюзной ассоциации

- востоковедов. Археологические источники. – Москва, 1989. С. 136–177.
21. Normurodov D.R. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (miloddan avvalgi XIII – milodiy XIII asr boshlari). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020. 19–20-betlar.
 22. Normurodov D.R. Toshkent vohasining qadimgi va o'rta asrlar davri moddiy madaniyati tarixi (miloddan avvalgi XIII – milodiy XIII asr boshlari). – Toshkent, 2023. I ilova, 567–574-yodgorliklar.
 23. Описание поездки Поспелова и Бурнашева в Ташкент в 1800 году // Вестник Императорского Русского географического общества. Часть 1. Книга 1. – Санкт-Петербург, 1851. – С. 19. электрон ресурс: RuPRLIB12047666.pdf. 457-бет.
 24. Отахўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк- сугд муносабатлари. – Тошкент, 2010. 7–27-бетлар.
 25. Прилож. к протоку. Туркест. кружка любит. Археология. 1898 г. – С. 28.
 26. Сборник трудов Орхонской экспедиции. № IV. – Санкт-Петербург, 1897. – С. 45.
 27. Федоров-Давыдов Г.А. Кочевники Восточной Европы под властью золотоордынских ханов. – Москва, 1966. 275 стр.
 28. Филанович М.И. Древняя средневековая история Ташкента в археологических источниках. – Ташкент, 2010. – С. 140–145, 154.
 29. Худяков Ю.С. Дискуссионные вопросы изучения поминальных памятников древних тюрок в Горном Алтае // Древности Алтая. – № 9. 2002. – С. 137–153.
 30. Шер Я.А. Каменные изваяния Семиречья. – Москва–Ленинград, 1966. 154 стр.



UDK: 575.1

Islombek OLIMOV,
Namangan Davlat Universiteti mustaqil tadqiqotchi
E-mail: olimov.islombek92@mail.ru.

Prof. t.f.d., A.Rasulov taqrizi asosida

O‘ZBEKISTONNING ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH BORASIDA XALQARO HAMKORLIKLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tobora atrof-muhitda ro‘y berayotgan salbiy o‘zgarishlar, uning oqibatlari, atrof-muhitni muhofaza qilishning dolzarbligi, O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza etishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Orol dengizi, Monreal, XEX, “Bazel bitimlari”, Konvensiya, OBSE, ekologiya.

IMPORTANCE OF INTERNATIONAL COOPERATION OF UZBEKISTAN IN ENVIRONMENTAL PROTECTION

Annotation

This article provides information about the negative changes taking place in the environment, its consequences, the relevance of environmental protection, measures aimed at environmental protection in Uzbekistan.

Key words: Aral Sea, Montreal, XEX, "Basel Agreements", Convention, OSCE, ecology.

ЗНАЧЕНИЕ МЕЖДУНАРОДНОГО СОТРУДНИЧЕСТВА УЗБЕКИСТАНА В ОХРАНЕ ОКРУЖАЮЩЕЙ СРЕДЫ

Аннотация

В данной статье представлена информация о негативных изменениях, происходящих в окружающей среде, их последствиях, актуальности охраны окружающей среды, мерах, направленных на охрану окружающей среды в Узбекистане.

Ключевые слова: Аральское море, Монреаль, XEX, «Базельские соглашения», Конвенция, ОБСЕ, экология

Bugungi kunda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilashni ta‘minlash sohasida izchil ishlar olib borilmoqda. Atrof-muhit muhofazasi nihoyatda muhim. Yashash uchun tabiatni asrashimiz, tabiiy resurslarni oqilona boshqarishimiz, ulardan tejamkorlik bilan foydalanishimiz zarur. Shuningdek, bugungi kunda yer sharidagi ko‘plab ekotizimlar zahirasi deyarli butkul tugab, ortga qaytarib bo‘lmaydigan darajaga yuz tutgan, boz ustiga aholi nufuzi o‘sib borayotgan, iqtisodiy taraqqiyotga ehtiyoj kun sayin ortayotgan vaziyatda atrof-muhitni saqlash har qachongidan ham dolzarb vazifa sanaladi.

Yer sayyorasi va uning o‘ziga xos tabiati insoniyatning umumiy yashash makoni, yagona uyi hamda yashash vositasi hisoblanadi. Shuning uchun yuz berayotgan ekologik tangliklarni bartaraf etish yer yuzidagi barcha xalqlar va davlatlarning umuminsoniy vazifasidir. Xalqaro ekologik hamkorlik (XEX) deyilganda – yer yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv-shartnoma, konvensiyalar tuzish, xalqaro ekologik me‘yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy ekologik muammolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o‘tkazish kabi keng ko‘lamli chora-tadbirlar kompleksi tushuniladi. Hozirgi paytda XEX asosan ikki xil shaklda namoyon bo‘lmoqda:

1. Atrof-muhit muhofazasi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga qaratilgan ikki yoki ko‘p tomonlama davlatlararo bitim, shartnoma va konvensiyalar tuzish.

2. Turli xalqaro tabiatni muhofaza qiluvchi uyushma, komissiya va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish.

Xalqaro hamjamiyatning tarkibiy qismi hisoblangan Markaziy Osiyo mintaqasining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni

yechishda O‘zbekiston XEX masalalariga katta e‘tibor bermog‘da.

Dunyo davlatlarining atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishda xalqaro doirada qo‘yilgan qadamlardan birinchisi 1913 yilda Bernda 18 ta davlat ishtirokida "Tabiatni muhofaza qilish" bo‘yicha xalqaro konferentsiya o‘tkazish bo‘ldi. 1923 yilda esa Parijda birinchi xalqaro tabiatni muhofaza qilish kongressi bo‘lib o‘tdi. 1928 yilda Bryusselda "Tabiatni himoya qilish xalqaro byurosi" ochildi. Ushbu xalqaro tadbirlar doirasida atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilishga e‘tibor bir muncha kuchaydi.

O‘zbekiston Respublikasi 1991 yilda mustaqilligini qo‘lga kiritganidan so‘ng, o‘z davlatchiligiga ega bo‘ldi va rivojlanishning evolyutsion yo‘lini tanladi. Bu yo‘l jamiyatimizning barcha sohalarida tadqiq etila boshlandi. O‘tish davrida, albatta, har qanday davlat oldida bir qancha muammolar mavjud bo‘ladi yoki vujudga keladi. Ana shunday muammolardan biri bu butun dunyodagi ekologik muammolar va tahdidlardir hamda bu muammolar va tahdidlarning O‘zbekistonni ham chetlab o‘tmaganligidir. Bugungi kunda ekologiya muammosi davrimizning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib qoldi. Uning xavfi hatto yadro xavf-xataridan ham daxshatliroq bo‘lib, butun yer shari xalqlarini tashvishga solmoqda[1]. "Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi,- deb yozadi Davlatimiz birinchi rahbari,- juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo‘l qovushtirib o‘tirish o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir"[2]. 1990 yillardan boshlab Orol fojiasining halokatini boshidan kechirayotgan barcha mamlakatlar Birlashgan Millatlar Tashkiloti, shuningdek boshqa xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar minbarlaridan jahon hamjamiyatining muammoga, uni mintaqaviy va global chambarchas bog‘liq ekanligiga jalb etib kelishmoqda. Orol fojiasi va uni bartaraf etish choralari qidirish O‘zbekiston

tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasining 1992 yil 2 martda BMT ga teng huquqli a'zo bo'lishi tabiat muhofazasi sohasidagi halqaro hamkorlik uchun ham keng yo'l ochib berdi. 1992 yil Rio-de-Janeyroda o'tkazilgan. BMT ning 11-umumjahon tabiatni muhofaza qilish kongressida O'zbekiston Respublikasi birinchi bor mustaqil davlat sifatida qatnashdi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti 1993 yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida va 1995 yil oktabrdagi 50-sessiyalarida so'zlagan nutqlarida jahon hamjamiyatini Markaziy Osiyo mintaqasidagi ekologik halokat bo'lgan Orol va Orolbo'yini qutqarishda ko'mak berishga chaqirdi[3]. Ushbu yig'ilishda davlatimiz rahbari tomonidan Orol dengizi qurishi bilan bog'liq bo'lgan global muammoni ko'tarib chiqqani ham muhim ahamiyat kasb etdi. Davlatimizning birinchi rahbari o'z nutqida «Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojia, butun yer yuzini qamrab oladigan biosfera, o'nlab million kishilarning hayot sharoitlari, salomatligi, nasliga halokatli ta'sir ko'rsatuvchi global muammo» ekanligini ko'rsatib, bugungi kunda BMTning tashkilotchilik faoliyatsiz bu muammoni hal etish mumkin emasligini ham asoslab berdi. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda BMT ning atrof muhit muassasalari bilan shug'ullanuvchi yetti komissiyasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ayniqsa, Orol va Orolbo'yi ekologik muammolar xalqaro tashkilotlarning diqqat markazida bo'lib, ushbu yo'nalishda bir nechta tadbirlar o'tkazilmoqda. Orolbo'yi aholi sonini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash, ularga tibbiy yordam ko'rsatish hamkorlikning asosiy manbalaridan hisoblanadi. Jahon banki, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (OBSE) va boshqalar o'zidagi ekologik muammolarni hal qilish ishiga katta hissa ko'shdilar. O'zbekistondagi nodavlat tashkilot ekologiya va salomatlik fondi "Ekosan" ekologik muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlikni muvofiqlashtirish ishiga o'z hissasini qo'shmoqda.

Yer kurrasida yuzaga kelayotgan ekologik nobop muhitning chuqurlashuvida ozmi-ko'pmi O'zbekistonning ham ishtiroki bor. Mamlakatimizda yashayotgan 36 milliondan ziyod aholining yarmidan ko'pi ekologik xavfli bo'lgan muhitda istiqomat qilmoqda. Orol dengizi va uning atrofida ro'y bergan ekologik inqiroz holati sovet davrining noekologik agrar va iqtisodiy siyosatining natijasidir. Orol dengizining qurishi oqibatida paydo bo'lgan cho'l Orolbo'yi hududini qamrab olib, mavjud hudud va mahalliy aholining turmush sifati va salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu xavfning ta'siri bugungi kunda butun Markaziy Osiyo mintaqasini qamrab bormoqda. Mutaxassislar ekologik inqiroz ko'lamini tahlil qilib, Orolbo'yi havzasini 2 ta katta qismga bo'ladi: 1-fojiiyaviy hudud (Orol dengizi tubi, Qoraqalpog'istonning Mo'ynoq va Taxtakopir tumanlari kiradi), 2-tang hudud (Turkmanistonning Toshhovuz, O'zbekistonning Xorazm, Buxoro va Navoiy viloyatlari kiradi)[4]. O'zbekiston Respublikasi rahbariyati ekologik masalalarni iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy islohotlar bilan uyg'unlashtirgan holda olib borishni lozim deb topdi[5]. Shu yo'lda u nafaqat Orol bo'yi mintaqaviy davlatlarini balki butun dunyoni "Orol fojeasi" va ekologik xavfsizlik atrofida birlashishga undadi. MDH mamlakatlari kelishuviga binoan tabiatni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik 1992 yil tuzilgan Davlatlararo Ekologik Ittifoq (DEI) orqali amalga oshirildi. Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish muammolarini hal qilishda O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo davlatlari, Osiyo, Yevropa, Amerika va Tinch okeani mintaqaviy mamlakatlari bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirmoqda. Xalqaro hamkorlikni oshirishga ekologik ta'lim va tarbiyaga ham alohida e'tibor beriladi. Ekologik bilimlar turli axborot vositalari orqali ommalashtiriladi. Umumta'lim maktablari va oliy o'quv yurtlarida jahon ta'lim va tarbiya berishni amalga

oshirish maqsadida ma'lum tadbirlar amalga oshirilmogda. Ekologiya va tabiatdan foydalanish ixtisosligi yo'nalishida mutaxassislar tayyorlana boshlandi. Ushbu yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi FA muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida keng ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmogda. Ushbu yo'nalishni yanada rivojlantirish uchun kerakli tadbirlar amalga oshirilishi zarur hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi 1985 yilgi Ozon qatlamini himoya qilish (Vena) konvensiyasi, 1987 yilgi Ozon qatlamini emiruvchi birlashmalar bo'yicha protokol (Monreal), 1989 yilgi (Bazel) xavfli chiqindilarni chegaralararo tashishni nazorat qilish konvensiyasi, 1992 yil (Rio-de-Janeyro) biologik rang-baranglikni saqlash konvensiyasi, 1992 yilgi (Nyu-York) iqlim o'zgarishi tomonidagi konvensiyalarga qaraladi[6]. Ushbu yo'nalishda faol harakatlar amalga oshirilmogda. Ekologiya va Tabiatni muhofazasi sohasidagi har qanday davlatlararo hamkorlik ekologik vaziyatni mahalliy, mintaqaviy va global darajada yaxshilashning asosidir.

O'zbekiston Respublikasi 1993 yil 18 mayda Ozon qatlamini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasiga va Ozon qatlamini yemiruvchi moddalar bo'yicha Monreal protokoliga qo'shildi. 2030 yilda gidroxlorforuglerodlar ishlatishni batamom to'xtatish O'zbekiston uchun Monreal protokolining xalqaro majburiyatlarini bajarishga rioya etishning strategik yo'nalishi hisoblanadi[7].

O'zbekiston 1993 yildan buyon BMTning Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasining (Nyu-York, 1992 yil may) a'zosi hisoblanadi. Ushbu Konvensiyaga Kioto protokoli 1998 yilda imzolangan va 1999 yilda ratifikatsiya qilingan, Parij bitimi esa 2017 yilda imzolangan va 2018 yilda ratifikatsiya qilingan[8].

O'zbekiston 1992 yilda imzolangan MDH Davlatlararo Ekologiya Kengashining teng huquqli a'zosi hisoblanadi.

Bugungi kunda, O'zbekiston Xitoy, Gruziya, Hindiston, Isroil, Yaponiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Malayziya, Koreya Respublikasi, Slovakiya, Shveysariya, Tojikiston, Tailand, Turkiya, Turkmaniston va Ukraina bilan atrof-muhitga tegishli komponentlar kiritilgan bir qator ikki tomonlama bitimlar imzolangan.

Ushbu bitimlarda O'zbekiston quyidagi sohalarda hamkorlik qilishi ko'zda tutilgan:

Suv va havoning ifloslanishi monitoringi texnologiyalari.

Tabiatni muhofaza qilish ilmi va texnologiyalari tadqiqotlari.

Ekologik ta'lim, mutaxassislarni tayyorlash va targ'ibot.

Tabiatni muhofaza qilish jarayonlarini boshqarish va biologik turlarni himoya qilish.

Ekologik toza ishlab chiqarish texnologiyasi.

Tabiiy resurslar va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlar, qonun-qoidalar, siyosat va standartlar, shu jumladan sanoat ishlab chiqarishi va mahsulotlari uchun ekologik standartlar.

Tomonlar kelishib olgan atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga taalluqli hamkorlikning boshqa sohalari.

"Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosdagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga

bog'liqdir"[9].

2010 yil «O'rta Osiyoning transchegaraviy ekologik muammolari: ularni hal etishda xalqaro huquq mexanizmlarini qo'llash» mavzusida o'tkazilgan xalqaro konferensiyada Islom Karimov transchegaraviy daryolar va ulardan foydalanishda

adolat tamoyiliga rioya etish zarurligi, aks holda mintaqaning eko olamiga ulkan fojialarni keltirishi mumkinligi haqida yana bir bor ommaga ma'lum qildi.

2013 yilda Orolbo'yi uchun Amudaryo deltasidagi kichik suv havzalarini tashkil etish, sho'rsizlantiradigan qurilmaga ega suv chiqarish inshootlarini qurish, himoya o'rmonini tashkil etish kabi loyiha va tadbirlarni moliyalashtirishga mablag'lar ajratish rejasini tasdiqlangan.

2013 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining o'sha paytdagi Davlatimiz rahbarlari tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasi 68- sessiyasining rasmiy hujjati sifatida «Orolning qurishi oqibatlariga barham berish va Orolbo'yi ekotizimi halokatining oldini olish tadbirlari Dasturi» ilgari surildi[10].

Global miqyosda va mintaqamizda ekologik vaziyatning tobora yomonlashuvi va chuchuk suv taqchilligi sharoitida Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Orol dengizi tarixiga etibor bersak, u boy tabiiy resursi bilan mashhur bo'lgan. Bu dengiz biologik jihatdan boy ekotizim sifatida e'tirof etilgan. 1911-1962 yillarda dengiz sathi eng yuqori nuqtada bo'lib, 53,4 metrni, suvning hajmi 1064 km³ ni, suvning yuzasi 66 ming km² ni va minerallashuv darajasi bir litr suvda 10-11 grammni tashkil etgan[11]. Dengiz transport, baliq xo'jaligi, iqlim sharoiti jihatidan kata ahamiyatga ega bo'lgan. Unga Sirdaryo va Amudaryodan har yili deyarli 56 km³ suv kelib quyilgan. Yangi yerni jadal o'zlashtirish, sug'orma dehqonchilikni yanada rivojlantirish XX asrning 60 yillaridan boshlab dengizning qurib borishga olib keldi. O'tgan davrda Orol dengizi akvatoriyasi 8 baravar qisqardi, suv hajmi 14 marta kamaydi, uning minerallashuvi esa o'nlab baravar oshib, dengizni tirik organizmlarning yashashi uchun yaroqsiz ahvolda keltirdi[12].

Dengizning qurigan hududini oq tuz konlari egalladi. Hayvonot va o'simlik dunyosi tobora yo'qolib bormoqda. Dengizning qurib qolgan tubida vaqti-vaqti bilan chang va sho'r bo'ronlar kuzatiladi. Jumladan, har yili 100 million tonnaga yaqin qum-tuz bo'ronlari bo'lib, 400 kilometrdan ortiq masofaga tarqaladi. Bu esa insonlarning sog'lig'iga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hududda nafas yo'llari, onkologik, surunkali bronxit kabi kasalliklar kuzatilmog'da. Atrof-muhitning buzilishi iqtisodiy ko'rsatkichlar pasayishiga ham sabab bo'ladi. Hududda chorvachilik va baliqchilik sohasi oqsamoqda. Iqtisodiy zarar ko'rsatkichi ortib bormoqda. Orol dengizi fojiasi natijasida yuzaga kelgan suv resurslari tanqisligi, yer degradatsiyasi, cho'llanishning kuchayishi, bioxilma-xillikning keskin kamayishi va boshqa iqlim o'zgarishlari jiddiy tashvish uyg'otmoqda[13].

Orol halokati oqibatlarini yumshatish bo'yicha mintaq hududida 500 dan ortiq keng miqyosli loyihalar amalga oshirildi, qurigan dengizning 350 ming gektar maydoniga saksovlul va sho'rga chidamli o'simliklar ekilib, butazorlar barpo etildi. Bugun bunday hududlarning umumiy maydoni qariyb 700 ming gektarga yetdi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan 2017-2021- yillarda Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish Davlat dasturi qabul qilindi. Moliya vazirligi huzurida Orolbo'yi mintaqasini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi va unga 200 milliard so'mdan ortiq mablag' yo'naltirildi. Hozirda ushbu mablag'lar hisobidan amaliy ishlar qilinmoqda. Xususan, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyati aholisining suv ta'minoti, turmush sharoitini yaxshilashga ko'maklashilmoqda[14].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Orol dengizining qurishi bilan bog'liq oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faol birlashtirish, BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko'rgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish

bo'yicha 2017- yil qabul qilingan maxsus dastur to'liq amalga oshirilishi masalasiga jahon hamjamiyati e'tiborini qaratgan edi. "Davrimizning o'tkir muammolaridan yana biri – global iqlim o'zgarishlaridir. Bugungi kunda har bir mamlakat bu jarayonning salbiy ta'sirini his etmoqda. Ming afsuski, bunday o'zgarishlar Markaziy Osiyo taraqqiyotiga ham katta xavf tug'dirmoqda. E'tiboringizni yana bir bor Orol dengizi qurishining halokatli oqibatlariga qaratmoqchiman. Orolbo'yi hududi ekologik fojiani markaziga aylandi. Biz mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu yerda ikki million gektar yangi o'simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlamini shakllantirish bo'yicha ulkan ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Mamlakatimiz tashabbusi bilan Orolbo'yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo'yicha ko'p tomonlama sheriklik trust fondi tuzildi. Umid qilamizki, ushbu fond og'ir ekologik hududda yashayotgan aholiga amaliy yordam ko'rsatish uchun xalqaro hamjamiyatning tayanch platformasi bo'lib xizmat qiladi. Biz Orolbo'yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e'lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilishni taklif etamiz. Ushbu muhim hujjat tasdiqlangan sanani esa Xalqaro ekologik tizimlarni himoya qilish va tiklash kuni sifatida nishonlash maqsadga muvofiq bo'lardi"[15].

Shuningdek, 2021 yilning 7-8 iyun kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tgan «Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikdagi harakatlar: yangi yondashuvlar, innovatsion echimlar va investitsiyalar» mavzusidagi xalqaro anjumanda qabul qilingan rezolyutsiya bu borada amaliy yechim sifatida xizmat qilishi shubhasiz[16].

Darhaqiqat, hozirgi kunda Orolbo'yi hududida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mintaqaning suv va ekologiya bilan bog'liq muammolariga yechim topish bo'yicha qo'shni davlatlarning sa'y-harakatlarini birlashtirish lozimligi yanada yaqqolroq namoyon bo'lmoqda. Yaqinda Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlari rahbarlari kengashining majlisida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratdi. O'z navbatida, Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishda mintaqadagi davlatlarning o'zaro hamkorligi borasida ustuvor ahamiyatga molik konstruktiv yo'nalishlar Markaziy Osiyo davlat rahbarlari tomonidan qo'llab-quvvatlandi. Prezidentimiz Orol muammosi mintaq hayoti va kelajagiga daxldor dolzarb masala ekani, muzokaralarda anchadan buyon to'planib qolgan savollar ochiq va konstruktiv muhokama qilinganini, endi qog'ozdan amaliy ishga o'tilishini alohida ta'kidlab o'tdi. Ayniqsa, mintaq davlatlari umumiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, ushbu fojia oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo'yidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mintaqaning suv va ekologiya bilan bog'liq muammolariga yechim topish bo'yicha barcha sa'y-harakatlarni birlashtirish lozimligi qayd etildi. Darhaqiqat, mintaq davlatlarining barchasi Jamg'arma faoliyatida, jumladan, Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko'rsatish bo'yicha to'rtinchi Dasturni ishlab chiqish va o'zaro kelishish jarayonida to'laqonli qatnashishi bu boradagi umumiy muammolarni hal etish va tahdidlarni bartaraf qilishda muhim ahamiyat kasb etishi shubhasizdir.

Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish yuzasidan taklif etilgan konstruktiv yo'nalishlar xalqaro jamoatchilik tomonidan ham e'tirof etilmog'da. So'nggi yillarda Prezidentimiz tomonidan Orol dengizining qurishi natijasida mintaqada yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik muammolarni bartaraf etishga jiddiy e'tibor qaratilmog'da. So'nggi uch yil ichida Orolning qurigan tubida o'rmonzorlar barpo etish bo'yicha dunyoda muqobili bo'lmagan ishlar jadallik bilan olib borilmog'da. O'tgan davr mobaynida qariyb 2 million gektar maydonda

o'rmon-lashtirish ishlari amalga oshirilib, saksovul va cho'lga chidamli boshqa o'simliklar urug'lari sepildi[17].

Shuni alohida qayd etish joizki, Orol dengizining qurigan tubini o'rmonlashtirish borasida amalga oshirilgan

ulkan bunyodkorlik mintaqa ekotizmini barqaror-lashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu chora tadbirlar tabiiy resurslar degradat-siyaning, shuningdek, dengizning qurigan tubidan qum va chang ko'tarilishining oldini olishni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6 -T.: "O'zbekiston", 1998. -B.145
2. Karimov.I.A. O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat // O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1 -T.: "O'zbekiston", 1992. -B.105
3. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yagi tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: 2021. -B.164
4. "Хоразм воҳасининг экологик ҳолати ва унинг аҳоли саломатлигига таъсири" мавзуси бўйича 2003-2005 йилларда бажарилган грант лойиҳаси ҳисоботи. Хива. 2005. – Б54
5. I.A.Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998. -B.415
6. Султонов П.С., Ахмедов Б.П. Экология ва атроф-мухитни муҳофаза қилиш асослари – Т.: Ғафур Ғуллом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2004. -Б. 220
7. "2030 йилгача бўлган даврда Ўзбекистон Республикасининг атроф-мухитни муҳофаза қилиш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида"ги 30 октябр 2019 йил ПФ-5863 сонли Фармони.
8. Эргашев А., Руденко И., Давлатев С. Барқарор тараққиёт ва табиатшунослик асослари // Олий ўқув юртларининг барча таълим йўналишлари учун дарслик. Т.: Baktria press, 2016 -Б. 199-204.
9. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1999. -B.505.
10. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yagi tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: 2021. -B.165
11. Davletov S.R. XX asrning ikkinchi yarmi – XXI asr boshida O'zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari.: Tarix. fan. dok. ...diss. – Toshkent, 2018. -155 b.
12. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning BMT sammitida Mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlangan yalpi majlisida so'zlangan nutqi // Xalq so'zi. – Toshkent. 2010. -22 sent.
13. Niyazova A. "Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" // maruzalar matni. Namangan: 2011. -B.77
14. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yagi tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: 2021. -B.166
15. <https://president.uz/oz/lists/view/1063>
16. Xoliqova R.E. O'zbekistonning eng yagi tarixi. O'quv qo'llanma. – T.: 2021. -B.167
17. Orol havzasi geoeologik muammolari: ilmiy g'oyalar, tadqiqotlar, innovatsiyalar//xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2019. – B.58

Dilmurod OMONOV,
Samarqand arxeologiya instituti tayanch doktoranti
E-mail: domonov046@gmail.com

Samarqand arxeologiya instituti yetakchi ilmiy xodimi t.f.d. A.Raimqulov taqrizi asosida

FOUND IN PRINTED CERAMICS FOUND IN THE KHOJA RUSHNOI ARCHEOLOGICAL MONUMENT

Annotation

The article put forward the idea of the mountain, where cultural development between the Khwarezmshahs and the Timurids did not end the whole, and while the heritage of Muslim civilization was partially divided, the representatives of the Great Chigatoy kept until the Timurids.

Key words: Khoja Rushnoi, Khoja Buzruk, print, decoration, pottery, hyometric, round, rose, leaf.

НАЙДЕН В ПЕЧАТНОЙ КЕРАМИКЕ, НАЙДЕННОЙ В АРХЕОЛОГИЧЕСКОМ ПАМЯТНИКЕ ХОДЖА РАШНОЙ

Аннотация

В статье выдвигается идея о том, что культурное развитие не было полностью прервано в период Хорезмшахов и Тимуридов и что наследие мусульманской цивилизации частично сохранили представители чигатайского улуса до времен Тимуридов.

Ключевые слова: Ходжа Рушной, Ходжа Бузрук, печать, узор, керамика, геометрическая, прямоугольная, цветочная, листовая.

XO'JA RUSHNOI ARXEOLIGIK YODGORLIGIDAN TOPILGAN BOSMA NAQSHLI SOPOL BUYUMLAR

Annotatsiya

Maqolada Xorazimshohlar va Temuriylar davri oralig'ida madaniy rivojlanish butkul uzilib qolmagani va musulmon sivilizatsiyasi merosini qisman bo'lsada Chig'atoy ulusi vakillar Temuriylar davrigacha saqlagani tog'risidagi g'oya ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Xo'ja Rushnoi, Xo'ja Buzruk, bosma, naqsh, , sopol, giyometrik, to'rtburchak, gul, barg.

Kirish. Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligi Qashqadaryo viloyati Muborak tumanida, Qarshi Buxoro A 380 magistral yo'lining Qarshi shahridan kelishdagi 60-km dan 1 km shimolda joylashgan. Arxeologik yodgorlik bugungi kunda Xo'ja Rushnoi qabristoni bilan chegaradosh bo'lib ushbu qabristonning shimoli-sharqiy tomonida joylashgan. Yodgorlikning nomi ham aynan ushbu qabriston nomidan olingan. Yodgorlikga eng yaqin axoli punkti bu Muborak shahri bo'lib, yodgorlik va shahar o'rtasidagi masofa 10 km ni tashkil qiladi. Sobiq ittifoq davrida bu hududlar O'zbekiston safxo'zi tarkibiga kirgan[2].

Mahalliy axolining mifologik qarashlariga ko'ra qabriston nomi Xo'ja Rushnoi avliyosi nomiga qo'yilgan bo'lib, afsonalarga ko'ra Xo'ja Rushnoi yog' ishlab chiqarish piri bo'lgan va o'z zamondoshlarini yog' maxsuloti bilan taminlashni burchi deb bilgan. Bugungi kunda ham mahalliy axoli turmish tarzida saqlanib qolgan ayrim rasim rusumlar orasida Xo'ja Rushnoi avliyosiga bag'ishlab aynan manashu qabristonda chiroq yoqish marosimlarini kuzatishimiz mumkun.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Yodgorlik haqidagi dastlabki ilmiy malumotlar 1993-1995 yillar Muborak tumanidagi Zanjir Saroy arxeologik yodgorligida tatqiqot ishlarini olib brogan tarix fanlari doktori A. A. Raimqulov tomonidan taqdim qilingan. A. A. Raimqulov ushbu yillarda yodgorlikda dastlabki qidiruv kuzatuv ishlarini amalga oshirgan va yodgorlik ustida sochilib yotgan sopol buyumlar va yodgorlikning topografik ko'rinishidan yodgorlikni Temuriylar davriga tegishli qishloq ekanligini taxmin qilgan [1].

Tatqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologiyasi tarixiy-qiyosiy, ob'ektivlik, davriy-muammoviy va retrospektiv tahlil etishga asoslanadi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi.



(1-rasm) Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligi

Tahlil va natijalar. Maqolaning mazmunini tashkil qiluvchi bosma naqshli sopol idishlar Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligidan 2023 yilning avgust-sentiyabr oylarida olib borilishi ko'zda tutilgan statsionar tatqiqot oldidan 2023 yilning iyun oyida olib borilgan qidiruv kuzatuv

jarayonida va bevosita shu yilning avgust-sentiyabr oylarida olib borilgan tatqiqotlar jarayonida to'plangan. Topilmalar asosan yodgorlik ustida sochilib yotgan yuza materiallardan yig'ilgan, faqatgina ikki dona bosma naqshli sopol 2023 yilda olib borilgan tatqiqotlar jarayonidagi 3-qazishmadan topilgan.



(2-rasm) Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligidagi 3-qazishma

Bu turdagi sopol buyumlar hali loyi qotmasdan, xumdonda pishirilishidan oldin maxsus naqsh beruvchi qoliplar yordamida naqshlangan. Naqshlar sopol yuzasiga muxurlangandan so'ng xumdonga solib pishirilgan. Bosma naqshli sopol buyumlarning boshqa uslubda naqshlangan sopollardan farqli jixati sopol buyum yaroqsiz xolga kelguncha uning naqshlari saqlanib qolgan. Sopollarga bosma naqshlar berish asosan rivojlangan o'rta asrlarda urf bo'lgan. Xusan aynan Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligida topilgan bosma naqshli sopol buyumlarga o'xshash sopollar Qashqadaryo viloyati G'uzor tumaning Botosh qishlog'ida joylashgan Xo'ja Buzruk tepa arxeologik yodgorligining yuqori qatlamlaridan 2023 yilning sentiyabr-oktiyabr oylarida Qashqadaryo ekspeditsiyasi tomonidan olib borilgan tatqiqotlar jarayonida topildi. Bosma naqshli sopol buyumlar

topilgan qatlamlar X – XII asrlarga tegishli deb taxmin qilinmoqda. Chunki ushbu qatlamlarda somoniylar va qoraxoniylar davriga tegishli bo'lgan sopol, shisha va g'isht parchalari ko'plab topildi. Bundab shunday xulosaga kelish mumkinki bosma naqshli sopol buyumlar rivojlangan o'rta asrlarning boshlarida urf bo'lgan va Temuriylar davrigacha o'zining shakliy xususiyatini yo'qotmasdan kelgan. Xo'ja Buzruk tepada topilgan eng noyob bosma naqshli sopol buyum qorin qismi ko'p qirrali xumcha bo'lib, bunday turdagi sopol buyumning ko'p qirrali qorin qismining parchasi 1972 yilda B. D. Kochnev tomonidan Shulluktepa shahristonidagi 1-qazishmadan topilgan. B. D. Kochnev bunday turdagi sopol buyum Nasaf vohasining boshqa hech bir yodgorligida kuzatilmaganligini takidlab o'tgan[4].



(3-rasm) Xo'ja Buzruk tepadan topilgan xumcha

Xo'ja Buzruk tepa arxeologik yodgorligi haqidagi dastlabki malumotlarni 1965 yilda yodgorlikga tashrif buyurgan M. Y. Masson keltirgan. Yodgorlikning joylashgan o'rni va tapografik ko'rinishidan M. Y. Masson yodgorlikni tarixiy manbalarda keltirilgan ilk o'rta asrlar davriga tegishli bo'lgan Eski Fag'in bilan lokalizatsiya qilgan[3, 34 b.]. Darhaqiqat 2023 yilgi tatqiqotlar davomida yodgorlik hududidan Antik davrga xos bo'lgan qadah ham topildi.

Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligidan topilgan bosma naqshli sopol buyumlarni naqshlarining shakliga qarab ikki turga ajratib oldik:

Giyametrik shakl berilgan bosma naqshli sopol buyumlar.

O'simlik tasviri tushurilgan bosma naqshli sopol buyumlar.

Geometrik naqshli sopol buyumlarning asosiy naqshlari to'rtburchak shaklda bo'lib, diyarli manashunday to'rtburchak shakldagi naqshlarning barchasini uning to'rtidan birini tashkil qiluvchi to'rtta kichikroq to'rtburchaklar hosil qilgan. Geometrik shakllar sopolning asosan qorin qismida ishlangan. Sopolning og'iz gardishi tomon qarab ko'tarilgach esa bir nechta aylana chiziqlar bilan bezak berilgan. Ushbu topilmalar ichida faqat bitta sopolda to'rtburchak shaklni uzidan kichikroq bo'lgan to'rtta to'rtburchak tashkil qilmasdan, to'rtburchakning ichki tomonida ozidan kichikroq bo'lgan to'rtburchak tasvirlangan geometrik bosma naqshni kuzatishimiz mumkun.

Geometrik bosma naqshlarda uchburchak shaklni ham kuzatishimiz mumkin. Bunday naqsh berilgan sopol ham topilmalar ichida yagona. Ushbu uchburchak bosma naqshli sopol buyumning o'ziga xos jihati uchburchaklar orasida yarim oy tasvirini ham kuzatish mumkin. Bu shundan dalolat beradiki, bizga bosma naqshli sopol buyumlar islom dini bilan birga kirib kelgan degan fikrni keltiradi.

Geometrik bosma naqshli sopol buyumlar orasida kichik nuqtali qilib naqsh berilgan sopollar ham mavjud. Sopol yuzasida ikkita chiziq tortilishi orqali malum bir kattalikdagi yo'lak hosil qilingan va manashu maydonchaga ko'plab kichik nuqtalar qo'yilishi bilan naqshlar hosil qilingan.



(4-rasm) Giyometrik shakl berilgan bosma naqshli sopol buyumlar.

O'simlik tasviri tushurilgan bosma naqshlar turli obrazlarga ega. Xususan eng ko'p uchraydigan obraz bu gul tasviri. Bosmada atirgulga o'xshash gul tasvirlangan bo'lib bosma naqshli sopollarning aksaryatida manashunday tasvirlarni uchratishimiz mumkin. Bu tasvirning boshqalaridan farqli jixati faqat gulning gulbarg qismi tasvirlanib uning poyasi va barglari ko'rsatilmagan. Bunday naqshlarda chiziqlar tortish orqali alohida maydonlar sopol yuzasida hosil qilinib aynan manashu joyga gul tasvirlari tushurilgan. G. Bagamolovning malumotlariga ko'ra manashunday bosma naqsh tushurilgan sopol buyumlar Toshkent vohasining Xonqa arxeologik yodgorligidan topilgan va bu sopol buyumlar IX-XII asrlarga tegishli degan malumotlarni keltirib o'tgan[5].

Bundan tashqari o'simlik tasviri tushurilgan bosma naqshlar orasida asosiy planda o'simlikning gulbargi emas balki uning nozik qayrilgan barklari va poyasi naqsh hosil qilgan bosma naqshli sopol buyumlar ham mavjud. Bunda

bosma naqshlar bir biriga zich qilib ishlangan va har biri bir-biriga uyg'unlashtirilgan. Bir naqsh ikkinchisining boshlanishi, ikkinchisi uchunchisining davomi bo'lib shakllantirilgan. Aynan manashu turdagi bosma naqshlar qolgan turdagi bosma naqshlardan epizodlarga boyligi bilan farqlanib turadi.

O'simlik tasviri tushurilgan bosma naqshlar orasida qo'lga kiritilgan sopol buyumlarning ichida faqat bitta sopolda yaxlit bir o'simlikning tasvirlanganini kuzatishimiz mumkin. Bu o'simlik shakli ko'ra ko'knorni eslatadi. Biroq sopollarning davriy kelib chiqishini hisobga olsak bu gipoteza haqiqatga unchalik to'g'ri kelmaydi. Chunki bu davr Qashqadaryo aholisi islom diniga etiqod qiluvchilar bo'lib, ko'knorini istimol qilish diniy etiqodlariga mutloqo zid bo'lgan. Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki hozircha buni qanday o'simlik ekanligi borasida hali bir to'xtamga kelinmadi.



(5-rasm) O'simlik tasviri tushurilga bosma naqshli sopol buyumlar

Xulosa va takliflar. Maqolaning xulosa qismida shuni aytishimiz mumkunki Temuriylar davri yurtimiz tarixida eng dovuqli davr bo'lgan. Temuriylar davri sivilizatsiyasining butun asosi o'zga ellardan olib kelinmagan, balki uning poydevorlarini o'zimizning yurtimizdan izlashimiz kerak. Bugungi kunga qadar Xorazimshoxlar va Temuriylar davri oralig'idagi mo'g'illar davri yurtimiz tarixidagi bir qora dog' bo'lib qolmoqda. Vaholanki yurtimiz hududlarida Chig'atoy ulusi tashkil topgandan so'ng mo'g'ul urug'lari ham

o'troqlashib madaniy hayotda ancha oldinga siljiydi. Maqolada keltirilganidek bosma naqshli sopol buyumlar yurtimiz hududida X – XI asrlarda paydo bo'lgani va buni Chig'atoylar va Temuriylar davriga xos bo'lgan Xo'ja Rushnoi arxeologik yodgorligida ham topilishi birinchi musulmon RENESSANS merosini Chig'atoylar Temuriylar davrigacha asray olganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Rayimqulov A. A. Janubiy Sug'dning VIII-XIV asrlar davri tarixiy topografiyasi. Dis... dok. tar. fan. Samarqand, 2018. S. 38-45.
2. O'zbekistonning arxeologik yodgorliklari katalogi 5 tom Qashqadaryo viloyati 4-qism Qamashi tumani/Samarqand-2014 116-bet.

3. Массон М.Е. Работы Кешской археолого-топографической экспедиции (КАТЭ) по изучению восточной половины Кешской области УзССР 1966 г. Археология Средней Азии. Сборник научных трудов ТашГУ, №533, Ташкент, 1977.
4. Кочнев Б. Д. Отчет о работах городища Шуллактепа за 1976 г. Архив Института археологии АН РУз, Ф. 3.01, Д. 38. С. 14-29. (Kochnev B. D. Report on the work of the settlement of Shulluktepa for 1976. Archive of the Institute of Archeology of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan, F. 3.01, D. 38. 14-29 P.)
5. Богомолов Г. Элементы домусульманских верований в Согде и Шаше в эпоху средневековья // O‘ZBEKISTON MODDIY MADANIYATI TARIXI 41-nashr, 81 b.



UDK: 902.34

Timur RO'ZIBOYEV,

Samarqand arxeologiya institut 1-bosqich tayanch doktoranti

E-mail: timurruziboyev72@gmail.com

Nurbek BAXRIDDINOV,

UZMU 2-bosqich magistratura talabasi

E-mail: baxriddinovnurbek26@gmail.com

Samarqand arxeologiya institut kata ilmiy xodimi PhD A.Xolmatov taqrizi asosida

KOCHAKSOY ON THE PRELIMINARY RESEARCH OF NEW ROCK PAINTINGS

Annotation

This article describes the geographical location, nature, climate and daily lifestyle of the inhabitants of Kochaksoy. In addition, the drawing styles and processing techniques of Kochaksoy new rock paintings were also discussed. The degrees of sunburn of this new rock painting monument due to various natural phenomena, i.e. snow, rain and sun exposure have also been determined.

Key words: Man, arka, mountain goat, cheetah or leopard, wolves, camel, wild boar.

КОЧАКСОЙ О ПРЕДВАРИТЕЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ НОВЫХ НАСКАЛЬНЫХ РИСУНКОВ.

Аннотация

В данной статье описывается географическое положение, природа, климат и повседневный образ жизни жителей Кочаксоя. Кроме того, обсуждались стили рисунка и техника обработки новых наскальных рисунков Кочаксоя. Также была определена степень солнечного ожога этого нового памятника наскальной живописи, вызванного различными природными явлениями: снегом, дождем и воздействием солнечных лучей.

Ключевые слова: Человек, арка, горный козел, гепард или леопард, волки, верблюд, кабан.

KOCHAKSOY YANGI QOYATOSH RASMLARI DASTABKI TADQIQOTLARI XUSUSIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada kochaksoyning geografik joylashuvi, tabiati, iqlimi va aholisining kundalik turmush tarzi haqida yozilgan. Bundan tashqari kochaksoy yangi qoyatosh rasmlarining chizilish uslublari va ishlanish texnikalari haqida ham so'z yuritilgan. Bu yangi qoyatosh rasmlari yodgorligining turli tabiat hodisalari ya'ni qor, yomg'ir tushishi oqibatida va quyosh ta'sirida oftobda kuyish darajalari ham aniqlangan.

Kalit so'zlar: Odam, arxar, tog' echkisi, gepard yoki leopard, bo'rilar, tuya, yovvoyi cho'chqa.

Kirish. Kochaksoy shimoliy Nurota tog' tizmasi shimoliy yonbag'ridan oqib tushuvchi yirik soylardan biri bo'lib, yo'qori qismi Nurota davlat qo'riqxonasiga tutashgan pastki qismida esa Andagin qishlog'i joylashgan. Bu qishloq aholisi qunuqsoy urug'iga mansub hisoblanadi. Andagin so'zining ma'nosi qishloq aholisi oqsoqollarining so'zlariga qaraganda "sal shoshilmoq" degan ma'noni anglatadi. Hattoki, qishloq aholisi vakillari bilan suhbatlashganimizda buni o'zlari ham tasdiqlab, ya'ni bizlar haqiqatdan ham biron-bir ish qilishda sal shoshqoloqmiz deb aytib ham qo'yadi. Andagin aholisining asosiy mashg'uloti asosan dehqonchilik, chorvachilik, poliz mahsulotlari ekish bilan shug'ullanadi. Kochaksoyning suvi kam bo'lganligi uchun aholisi dehqonchilik ekinlarini faqat o'z xo'jaligiga yarasha kamroq ekishadi. Ammo, dasht hududlarida lalmikor arpa, bug'doy ekinlari ko'plab ekiladi. Tog'ning tepa qismlari salqin, yog'ingarchilik paski qismiga qaraganda ko'proq bo'ladi. Nurota tog'larining tog'oldi hududlarida yoz quruq va issiq, qishi ham u qadar sovuq bo'lmaydi. Yillik o'rtacha harorat 13,4—14,4°, yanvar oyida -0,6° -2,3°, iyul oyida esa +15° +25,4° atroflarida bo'ladi. Eng yuqori temperatura tog'oldi hududlarda +46° +47°, eng past temperatura -29°, -30°. Yillik yog'in miqdori 251—452 mm, qor qoplamining qalinligi 15—30 sm. Shamolning o'rtacha tezligi sekundiga 2,0—3,2 m, ba'zida 28 m ga yetadi. Nurota tog'lari asosan bo'z tuproqlardan iborat ammo, 1600 – 1700 m balandliklarda jigarrang bo'z tuproqlar keng tarqalgan. Buta va daraxtlardan bodom, yong'oq, na'matak, uchqat, do'lana va boshqalar o'sadi. Tog'ning yuqori qismida archazorlar ham borligini


ko'rishimiz mumkin. Hayvonlardan esa bo'ri, tulki, tog' echkisi, quyon, yumronqoziq, bo'rsiq, ilonlar, kaklik, bulduruq va boshqa hayvon va qushlar yashaydi[1]. Bu ma'lumotlar orqali Nurota tog' tizmasi qadimdan odamlar yashashi uchun qulay geografik hudud bo'lganligini bilishimiz mumkin. Bu hududlarda ayniqsa chorvador aholi yashashi, chorva mollarini boqishi uchun juda ham qulay va unumdor yerlar bo'lganligi uchun ham qadimdan odamlar yashab kelganlar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Nurota to'g' tizmasi janubiy qismidagi qoyatosh rasmlarida PhD. A.N. Xolmatov tomonidan 2010 yildan boshlab tadqiqot ishlari olib borgan va natijada Nurota tog' tizmasining geografik joylashuvi, iqlimi, o'simlik va xayvonot dunyosini o'ranib chiqqan. Bundan tashqari qoyatosh rasmlarining o'rganilish tarixi, tipologiyasi, chizilish uslublari, ishlanish texnikalari, oftobda kuyish darajalari va stratigrafiyalarida tadqiqot ishlari olib borgan.[2].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning metodologiyasi tarixiy-qiyosiy, ob'ektivlik, davriy-muammoviy va zamonaviy texnologik usullardan foydalanib tahlil etildi. Bugungi kunda dunyo fanida tarixiy tadqiqotlar bo'yicha qo'lga kiritilayotgan yutuq va yangiliklardan, ayniqsa, ko'pchilik dunyo olimlari tomonidan qabul qilingan tadqiqot usullari va yondashuvlardan imkon qadar foydalanishga harakat qilindi.


Tahlil va natijalar. Jizzax viloyatidagi qadimgi yodgorliklarni qidirib topish va ro'yxatga olish uchun Samarqand arxeologiya instituti hodimlari tomonidan 2023 yil 15-maydan boshlab to 15 iyungacha arxeologik dala qidiruvlari bo'lib o'tdi. Natijada Jizzax viloyati Forish va

G'allaorol tumanlaridan ko'plab arxeologik yodgorliklar (qadimgi qishloq makonlari va shaharlarning o'rinlari, mozorqo'rg'onlar), qoyatosh rasmlari va arxeologik ashyolar topildi va ro'yxatga olinib xaritasi tuzib chiqildi (1-rasm).



(1-rasm). Jizzax viloyati G'allaorol va Forish tumanlari qoyatosh rasmlari nuqtalari.

Bu ekspeditsiya davomida topilgan ko'plab arxeologik manbalar bilan bir qatorda Jizzax viloyati Forish tumani Andagin qishlog'idagi Kochaksoydan yangi qoyatosh rasmlari topildi va ro'yxatga olinib xaritasi tuzib chiqildi (2-rasm).



(2-rasm). Kochaksoy qoyatosh rasmlari nuqtalari.

Andagin qishlog'ining tog'li hududlari Nurota davlat qo'riqxonasi chegarasining ichkari qismiga kirgani uchun bizning qo'riqxonaga ichiga kirishimiz uchun Nurota davlat qo'riqxonasi inspektor hodimlari Salim aka bilan Xurshid aka yordam berdilar. Yangi qoyatosh rasmlari yodgorligi Andagin qishlog'idan 1000-3000 m janubi-g'arbda va dengiz sathidan 800-1250m balandlikda joylashgan. Yangi Kochaksoy qoyatosh rasmlari 4km masofada Kochaksoyning o'ng va chap taraflarida tasvirlangan. Kochaksoy yangi qoyatosh rasmlari mahalliy slanes qoyatoshlarga o'rib-chukichlash va tirnab chizish texnikalari asosida chizilgan. Ularni ishlashda soya, kontur, naqshdor-bezakli va sxematik uslublaridan foydalanilgan. Bu tasvirlar quyoshda harxil kuchli, kuchsiz va yorqin darajalarda kuygan. Qoyatosh rasmlaridagi o'rib-cho'kichlangan joylarning o'rtacha qalinligi 0,5-1mmni tashkil etadi. Kochaksoy qoyatosh rasmlarining o'ziga xos jihati mahorat bilan ishlangan yovvoyi hayvonlarning ko'pligidir. Odam, arxar, tog' echkisi, gepard yoki leopard, bo'rilar, yovvoyi cho'chqa, tuyaning tasvirlari hamda turli geometrik shakldagi belgilar, arab yozuvlari, krill yozuvlari, raqamlar, chala qolgan yoki buzilgan tasvirlar va noaniq xira tasvirlarni ko'rishimiz mumkin. Bu qoyatosh rasmlari yodgorligi 10 sm dan 25 smgacha kattalikda chizilgan va chizilish uslublari, ishlanish texnikalari va mazmun mohiyatiga ko'ra turli xil davrlarga tegishlilik ma'lum bo'ldi. Kochaksoy qoyatosh rasmlari ichida ayniqsa bug'u va tog' echkilarining rasmlari juda ham mohirlik bilan jonli tarzda tasvirlangan. Xususan bug'u tasvirida baquvvat tanali, boshi yo'qoriga tik ko'targan, boshlari aslidagi kabi tarvaraqaylagan, oyoqlari baquvvat, dumi esa kalta qilib tasvirlangan. Tog' echkilar alohida-alohida yo kompozitsion manzaralarda aks ettirilgan. Bu tog' echkilar tarang va tik qomatli yoki yotgan holatlarda, yakka yoki qo'sh shoxli, bo'yni uzun bazilari yo'qoriga bazilari pastga qaragan, oyoqlari uzun va baquvvat bo'lib ikki yoki to'rt oyoqli, kalta dumli qilib tasvirlangan. Yovvoyi yirtqich hayvon (gepard

yoki leopard) tasvirida tumshug'i va quloqlari yumaloq tarzda, tanasi cho'ziq, oyoqlari uzun, ingichka qayrilma dumli tarzda ifoda etilgan (3-rasm).



(3-rasm).

To'qay, dasht, cho'l va tog' etaklarida yashaydi. Yovvoyi yirtqich hayvonlar ichida gepard eng tez chopadigan hayvon bo'lib soatiga 110 km tezlikda chopadi. Shuning uchun bo'lsa kerak nafaqat mill.avv. III-II ming yilliklarda gepard qo'lga o'rgatilib har xil hayvonlarni ov qilishda foydalanilgan bo'lishi mumkin, balki o'rta asrlarda ham geparddan ov maqsadida foydalanilgan. Masalan Hindiston hukmdori Akbar saroyida 9000 gepard bo'lganli manbalarda qayd etilgan. Hozirgi kunda gepardlar son jihatdan juda ham kamayib ketgan, butun dunyo bo'yicha tabiatda bir necha yuzta saqlanib qolgan. O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro Qizil kitobga kiritilgan[3]. Yovvoyi cho'chqa rasmi katta boshli, qisqa bo'yinli, qo'pol tanali, oyoqlari uzunqor ko'rinishda ifoda etilgan. Kompozitsion tarzda manzaralarda esa ov jarayoni ya'ni yovvoyi yirtqich hayvonlarning tog' echkilariga hujum qilayotganlari va tog' echkilarining yovvoyi yirtqich hayvonlardan qochayotganlari, ba'zilarida esa yovvoyi yirtqich hayvonning tog' echkisining orqasidan tishlayotgani natijasida tog' echkisidan qon oqayotgan tasvirlari ham chizilgan (4-rasm).



(4-rasm).

Bu qoyatosh rasmlarining oftobda kuyish darajasi o'rtachani tashkil qiladi ammo, bu qoyatosh rasmlari hozirgi kundagi "rassomlar" tomonidan qaytadan o'rib-cho'kichlab tashlangan. Qaytadan o'rib-cho'kichlangan tasvirlar esa yorqin kuygan. Bu tasvirlar naqshdor-bezakli va soya uslublarida chizilgan. Bu tasvirlarning chizilish uslublari va ishlanish texnikalari Arjan mozorqo'rg'onlaridagi qoyatosh rasmlari bilan bir xil ya'ni hayvon (zverenni) uslubida chizilgan. Qiyosiy tarzda bu qoyatosh rasmlarining davrini ilk temir asriga mansub deyishimiz mumkin. Chunki bunga sabab birinchidan rasmlarning hayvon (zverenni) uslubida chizilganligi, ikkinchidan esa Arjan mozorqo'rg'onlarini 1971 yilda qazishma ishlari paytida ko'pgina arxeologik ashyolar bilan bir qatorda mozorqo'rg'on devorlaridan qoyatosh rasmlari ham topilgan. Bu qabrlar ustida olib borilgan tadqiqotlar natijasida bu qabrlarning davri miloddan avvalgi VII-IV asrlarga tegishlilik aniqlangan [4]. Kompozitsion tarzda manzaralardan yana birida esa erkak va ayol kishining ko'payish jarayoni aks etgan. Bu tasvir Kochaksoyning o'ng tarafida joylashgan katta tik turgan slanes qoyatoshning o'rta qismiga o'rib-cho'kichlash texnikasida ishlangan bo'lib, chizilish uslubiga ko'ra soya uslubida

chizilgan. Oftobda kuyish darajasi o'rtachani tashkil etadi. Bu qoyatoshning yuza qismining ba'zi joylari tekis ammo, boshqa joylari singan, yorilgan bo'lib bundan tashqari mox va lishayniklar bilan qoplanganligi ham bizga petrogliflarning yoshini aniqlashga yordam beradi. Qoyatosh suratlari qadimgi ovchi va chorvador odamlarning kundalik turmush tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, diniy e'tiqodi, xo'jaligi hamda etnomadaniy muammolarini o'rganishda birlamchi manbalardan biri hisoblanadi [5]. Bu rasmdan biz yangilanish, yasharish va ko'payish jarayonini ko'rishimiz mumkin va

qadimda odamlarning bu hududlarda yashab istiqomat qilganliklarini hamda kundalik mashg'ulotlarini ham bilib olishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rnida shuni keltirishimiz mumkinki, Nurota tog' tizmasi insoniyat tomonidan kishilik tarixi tosh davridan boshlab o'zlashtirilgan bo'lsa [6], Nurota tog' tizmasining shimoliy qismida joylashgan Andagin qishlog'ida ham odamlar qadimdan ya'ni bronza davridan boshlab yashab kelganliklarini ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil
2. Холматов А.Н. Нурога тоғ тизмаси қоятош расмлари техника-типологияси ва тарихий таҳлили. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. – 47 б.
3. O'ZME. Birinchi jild. Toshkent, 2000 yil
4. Марсадолов Л.С. История и итоги изучения археологических памятников Алтая VIII–IV вв. до н. э. (От истоков до начала 80-х гг. XX в.). СПб., 1996
5. Холматов А.Н. Нурога тоғ тизмаси қоятош расмлари техника-типологияси ва тарихий таҳлили. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2019. – 47 б.
6. Касымов М.Р. Кремнеобрабатывающие мастерские и шахты каменного века Средней Азии. Ташкент, 197



UDK: 94(575.1)

Saidmurod TO'RAXO'JAEV,

Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasida tayanch doktoranti

E-mail: saidmoxidil@gmail.com

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti dosenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori A.A.Xakimov taqrizi asosida

REEVACUATION OF PRISONERS OF WAR IN TURKESTAN

Annotation

In this article, the conditions established during the re-evacuation of German and Austro-Hungarian soldiers and refugee citizens from the Turkestan ASSR to their countries during the First World War (1914-1918) captured by the Soviet authorities during the Russian Empire, that is, food for prisoners and refugees – information on the delivery of food, clothing, and medicines is provided. At the same time, the article describes the life and work activities of the prisoners being re-evacuated in Turkestan and the measures taken by the leadership of the country in the process of sending the prisoners based on archival sources.

Key words: Prisoners of war, First World War, country, camp, Soviet power, re-evacuation, Turkestan.

РЕЭВАКУАЦИЯ ВОЕННОПЛЕННЫХ В ТУРКЕСТАНЕ

Аннотация

В данной статье рассмотрены условия, сложившиеся при реэвакуации немецких и австро-венгерских солдат и граждан-беженцев, захваченных советскими властями в годы Первой мировой войны (1914-1918 гг.) из Туркестанской АССР в свои страны, то есть продовольствие для заключенных и беженцы-предоставлена информация о доставке еды, одежды, медикаментов. В то же время в статье описывается жизнь и трудовая деятельность реэвакуированных заключенных в Туркестане и меры, принимаемые руководством страны в процессе отправки пленных, на основе архивных источников.

Ключевые слова: Военнопленные, Первая мировая война, страна, лагерь, Советская власть, реэвакуация, Туркестан.

TURKISTONDAN HARBIY ASIRLAR REEVAKUATSIYASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada sovet hokimiyati tomonidan Rossiya imperiyasi davrida Birinchi jahon urushi (1914-1918) yillari asirga olingan Germaniya va Avstriya-Vengriyaning harbiylari va qochoq fuqarolarini Turkiston ASSRdan o'z yurtlariga reevakuatsiya qilinishi va ularni jo'natish jarayonida tashkil etilgan shart-sharoitlar, ya'ni asirlar va qochoqlar uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmonlarni etkazib berilishi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Shu bilan birga, maqolada reevakuatsiya qilinayotgan asirlarning Turkistondagi hayoti va mehnat faoliyati hamda o'lkahabariyatining asirlarni jo'natish jarayonidagi amalga oshirgan chora-tadbirlari borasidagi fikr-mulohazalar arxiv manbalari asosida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Harbiy asirlar, Birinchi jahon urushi, o'lkahabariyat, lager, sovet hokimiyati, reevakuatsiya, Turkiston.

Kirish. XX asr boshlarida sovet hokimiyati va uning Turkiston o'lkasida amalga oshirgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy siyosati Vatani tarixida o'chmas iz qoldirgan. Chunki sovet davrida yozilgan tadqiqotlarda Turkiston va Rossiya o'rtasidagi munosabatlar hukmron mafkura talabiga mos ravishda yoritib kelingan. Vatani tarixining ana shu davri istiqloqlar sharofati bilan tarixchilar tomonidan mafkuraviy tazyiq va ta'sirlardan holi tarzda, mavjud arxiv manbalariga tayangan holda xolisona tadqiq etilmoqda. Ushbu maqolada Rossiya imperiyasi tomonidan Birinchi jahon urushi yillarida Avstriya-Vengriya va Germaniya davlatlarining asirga olingan harbiylari va fuqarolarini bolsheviklar hokimiyati Turkiston hududidan o'z yurtlariga reevakuatsiya qilish siyosati yoritilgan. Shu bilan bir qatorda, o'lkahabariyatining bu jarayonda amalga oshirgan ishlari, xususan, Turkistonda qolib ketgan asirlar mehnatidan unumli foydalanish masalalari ochib berilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Sovet hokimiyati tomonidan XX asrning 20 yillari Turkiston ASSRda amalga oshirilgan asir va qochoqlarni o'z yurtiga reevakuatsiyasi masalasining ayrim qirralari alohida tadqiqotlarda aks etgan bo'lib, hozirga qadar yaxlit tarzda ilmiy o'rganilmagan. Bolsheviklar hokimiyati hukmronligining dastlabki yillarida Turkistonda asir va qochoqlarni reevakuatsiya qilish bo'yicha bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Chunki Turkistonda ro'y bergan ocharchilik tufayli o'lkada

saqlanayotgan asirlarni boqishda qiyinchiliklar va muammolar yuzaga kelgan. Ushbu jarayonlar sovetlar davrida bir qancha adabiyotlar va tadqiqotlarda bayon qilingan. Ular mana shu o'rganilayotgan davr bilan bog'liq mavzuni ilmiy jixatdan tadqiq etish va mohiyatini chuqurroq tushunib olish uchun yordam beradi. Mustaqillik yillarida Vatani tarixiga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, uni mafkuraviy tazyiqlardan holi tarzda, tarixiy manbalarni chuqur o'rganish orqali yoritish imkoniyati yuzaga keldi. Jumladan, sovet hokimiyati tomonidan Turkiston ASSRdagi asirlarni reevakuatsiya qilish siyosati tarixiga oid ko'plab tadqiqotlar yuzaga keldi.

Tadqiqot metodologiya. Hozirgi vaqtda tariximizning ushbu masala bilan bog'liq haqiqatini yuzaga chiqarish, ya'ni o'lkadagi iqtisodiy qiyinchilik va ocharchilik sharoitlarida saqlanayotgan asirlarni o'z yurtiga reevakuatsiyasi tarixini xolisona o'rganish extiyoji paydo bo'ldi. Uning samarali mahsuli sifatida esa bir qancha tadqiqotlar yaratildi. Lekin hozirga qadar sovet hokimiyatining amalga oshirgan asirlar reevakuatsiyasi masalasi alohida tadqiqot ob'ekti bo'lmagan. Mazkur maqoladagi ma'lumotlar umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan.

Tahlil va natijalar. Asir olinganlar masalasi 1907 yilgi Gaaga konventsiyasida tilga olinib, quyidagicha izohlangan: harbiy asir-urushayotgan davlatlar armiyasida xizmat qilayotgan fuqaro bo'lib, u biron-bir raqib davlat

qo'shini tomonidan qo'lga olinib va o'sha davlat hududiga olib kelinib saqlanadigan insonlardir[1]. Shu konventsiya talablariga tayangan holda Rossiya imperiyasi Birinchi jahon urushi yillarida asir olgan harbiylarni va harbiy unvonga ega bo'lmagan fuqarolarni imperiya hududi bo'ylab joylashtirish va ular uchun harbiy lagerni tashkil etish hamda ularni mehnatidan foydalanish borasida qoidalarni ishlab chiqqan. Rossiya hukumati dushman hududidan asirga olganlarni imperiyaning Sibir, Ural, Turkiston mintaqalarida tashkil etilgan harbiy lagerlarga joylashtirgan[2]. Umuman olganda, Rossiya imperiyasi hududida asirlarni saqlash va ularni joylashtirish uchun 400 dan ortiq harbiy lagerlar tashkil etilgan[3]. Rossiya hududidagi asirlar tarkibi esa nemis, avstriya, venger, rumin, sloven, polyak va boshqa millatiga mansub kishilardan iborat bo'lgan.

Rossiya imperiyasi hukumati asirga olinganlarni Turkistonga ko'chirish ishlarini 1914 yil sentyabr oyidan boshlagan[4]. Ya'ni, Birinchi jahon urushi(1914-1918) davrida Rossiya imperiyasi tomonidan Germaniya va Avstriya-Vengriya armiyalarida xizmat qilgan 50 ming nafar qo'lga olingan asirlar Turkiston hududiga ko'chirib keltirilgan[5]. Shuningdek, 1915 yil oxiriga kelib, Rossiya imperiyasiga qochoqlar tariqasida kelgan Polsha hududidan 8-10 ming nafar polyak va Boltiqbo'yi davlatlaridan 1500-2000 nafar aholi Turkistonga evakuatsiya qilib joylashtirilgan[6]. Ko'p sonli mana shunday asirlar va qochoqlarning Turkiston o'lkasiga ko'chirib keltirilishi mahalliy aholining turmush tarziga va moddiy imkoniyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Boz ustiga, o'lkaga ko'chirib keltirilgan asirlar va qochoqlarni qabul qilishdagi infratuzilmaning yo'qligi va o'lkada iqlimning sovib ketishi ortidan hosilsizlikning ro'y berishi mahalliy xalqlarni oziq-ovqat muammosiga duch kelishiga va moliyaviy ahvoli og'irlashishiga, qolaversa, evakuatsiya tariqasida kelganlar orasida turli kasalliklar mavjudligi esa tibbiy sanitariya holatini yomonlashishiga sabab bo'lgan. Biroq, bu vaqtda Turkiston o'lkasi Rossiya imperiyasi mustamlakasi bo'lganligi bois, ko'chirib keltirilgan asirlarni qabul qilish va saqlab turishga majbur bo'lgan.

Rossiya imperiyasi qulagach, hokimiyatni qo'lga olgan bolsheviklar Turkistonda ham boshqaruv hokimiyatini o'rnatgan. Hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar dastlabki yillarda mamlakatdagi asirlar va qochoqlarni katta oqimini tartibga solish hamda ularni o'z yurtlariga reevakuatsiya qilish maqsadida xorijiy fuqarolar qo'mitasini tuzgan. Shu bilan birga, RSFSR Xalq Komissarlar Soveti 1918 yil 23 aprelda maxsus dekret qabul qilib, Rossiya harbiy ishlari bo'yicha xalq komissarligi qoshida "Asirlar va qochoqlar bilan shug'ullanuvchi Markaziy kollegiya"ni ta'sis etgan[7]. Ushbu Markaziy kollegiya Sovet Rossiyasi hududiga evakuatsiya qilingan asirlarni o'z vatanlariga reevakuatsiya qilish masalalarini hal etgan. Uning Turkistonda ham bo'limlari tashkil etilgan va o'lkadagi asirlarni reevakuatsiya qilish bo'yicha vazifalarni bajargan. Chunki Rossiya va uning o'lkalarida, xususan, Turkiston hududida saqlanayotgan harbiy asirlar yangi hukumat uchun muammo bo'lib qolgan edi.

Turkistonda oziq-ovqat muammosini vujudga kelishi va bu vaqtda iqlimning sovib ketishi ortidan hosilsizlikning ro'y berishi hamda ocharchilik balosining paydo bo'la bo'lishi Turkistonda saqlanayotgan asirlarni o'z yurtiga reevakuatsiya qilishni taqazo etgan. Qolaversa, 1918 yil 3 marta Brest-Litovsk shartnomasi imzolangan va Rossiya Birinchi jahon urushidan chiqqan. 1918 yilning noyabrida esa Birinchi jahon urushi butunlay tugagan. Natijada davlatlar o'rtasida tinchlik shartnomalari imzolaniib, harbiy asirlarni vataniga qaytarish jarayoni boshlangan. Xususan, Rossiya va Avstriya-Vengriya o'rtasida tinchlik shartnomasi imzolangan, Turkistondagi Avstriya va Vengriyadan bo'lgan harbiy asirlarning aksariyatini o'z vatanlariga reevakuatsiya qilish ishlari boshlangan.

Birinchi jahon urushidan so'ng, o'lkadagi iqtisodiy ahvolning og'irlashishi asirlarni uzoq muddat saqlashga imkon bermagan. Ya'ni, bu o'lkahabariyatiga asirlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak, dori-darmon va ish bilan ta'minlash qiyinchilik tug'dirgan. Vaholanki, o'sha vaqtda ro'y bergan inqiroz hatto mahalliy aholi uchun ham oziq-ovqat, dori-darmon va ish topish muammosini keltirib chiqqan edi. Shu sababdan, 1919 yil 24 mayda Turkiston Xalq Komissarlar Soveti RSFSR Xalq Komissarlar Sovetining "Asirlar va qochoqlar bilan shug'ullanuvchi Markaziy kollegiya haqidagi Nizomni o'zgartirish va to'ldirish to'g'risida"gi dekretiga asosan, Turkiston Ichki ishlar xalq komissarligi tarkibida Markaziy kollegiyaning maxsus bo'limini tashkil etgan[8]. Ushbu bo'lim vazifasiga asirlar va qochoqlarni ro'yxatga olish va ularni reevakuatsiyasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish kiritilgan. Qolaversa, RSFSR Xalq Komissarlari Soveti 1919 yil 6 mayda Turkiston XKSga "O'lkadagi asirlarni tez fursatda ro'yxatini shakllantirish, ularni reevakuatsiya qilish uchun tashkiliy masalalarni hal etish" yuzasidan topshiriq bergan[9]. Shuning uchun 1919 yil 4 iyunda Turkiston ASSR Ichki ishlar xalq komissarligi qoshida asirlarni reevakuatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi bo'lim tashkil etilib, unga o'lkadagi asirlarni ro'yxatga olish va ularni reevakuatsiyasi uchun shart-sharoitlarni yaratish vazifasi yuklatilgan. Yangi tashkil etilgan asirlarni jo'natish markazlari juda ham ko'p asirlar bilan to'lib ketgan hamda o'lkada saqlanayotgan asirlarni tez fursatda o'z yurtiga jo'natish bolsheviklar uchun muammoga aylangan.

1920 yil yanvar oyidan boshlab asirlar va qochoqlar bilan shug'ullanuvchi Markaziy boshqaruv RSFSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining Markaziy evakuatsiya bo'limiga aylantirilgan[10]. Ichki Ishlar Xalq Komissarligining 1920 yil 20 fevraldagi qaroriga ko'ra, Markaziy evakuatsiya bo'limi RSFSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligining aholini evakuatsiya qilish bo'yicha Markaziy boshqarmasiga aylantirilgan[11]. 1920 yil 20 martda esa Markaziy evakuatsiya bo'limining mahalliy organlari haqida Nizomi ishlab chiqilgan, unga ko'ra, RSFSR Ichki Ishlar Xalq Komissarligi Markaziy evakuatsiya bo'limining kichik idoralari saqlangan holda, tegishli ijro qo'mitasi bo'limlari qoshida guberniya va uezd evakuatsiyasi boshqaruvini tashkillashtirish tartibi tasdiqlangan[12]. Jumladan, Turkiston hokimiyati tizimida maxsus vakillik boshqarmalari, komissiyalari yoki aholini evakuatsiya qilish bo'yicha boshqarmalar tashkil etilgan. Markaziy evakuatsiya bo'limi reevakuatsiya qilinganlarni belgilangan hududlarga tashish rejasini tuzar, evakuatsiya organlarini moliyalashtirishni boshqarar, ular tomonidan moddiy vositalarni sarflash va taqsimlashni nazorat qilar edi[13].

1920 yil fevral-mart oylarida Moskvada Umumrossiya mehnat kazaklarining 1 syezdi bo'lib o'tgan[14]. Ushbu s'ezdda Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasiga RSFSR hududidagi harbiy asirlarni amnistiya qilish uchun murojaatnoma ishlab chiqilgan. 1920 yil mart oyida Butunrossiya Markaziy Ijroiya Qo'mitasi ana shu murojaatnomaga binoan "RSFSR hududidagi harbiy asirlar Amnistiya asosida lagerlardan ozod qilinishi to'g'risida" qaror qabul qilgan[15]. O'sha vaqtda Turkistondagi lagerlarda 40 ming nafardan ortiq harbiy asirlar saqlanayotgan edi[16]. 1920 yilning yozidan amnistiya binoan 34 ming nafar harbiy asirlarni Turkistondan o'z yurtiga reevakuatsiya qilish jarayoni boshlangan[17]. Ushbu reevakuatsiya qilingan xarbiy asirlarning aksariyati Germaniya va sobiq Avstriya-Vengriya imperiyasi fuqarolari bo'lgan. Asirlarni vataniga qaytarishda ularga xar tomonlama tibbiy va gumanitar yordam ko'rsatish ishlari Turkiston XKS qoshida maxsus tashkil etilgan markaziy evakuatsiya bo'limi tomonidan amalga oshirilgan. Asirlarni tashish ishlari tez fursatlarda tashkil qilingan, ya'ni 1920 yil iyun oyida 1400 nafar asir o'z yurtiga jo'natilgan

bo'lsa, shu yilning dekabr oyiga qadar yana 16000 nafar harbiy asir reevakuatsiya qilingan[18]. Turkistonda yuzaga kelgan shart-sharoit harbiy asirlarni mumkin qadar tezroq o'z yurtiga reevakuatsiya qilishga olib kelgan.

Asirlarni o'lkadan reevakuatsiya qilishda 1920 yil 14 oktyabrda imzolangan Sovet-Finlyandiya tinchlik bitimi muhim rol o'ynagan. Bitimni ijro etish uchun asirlar va qochoqlarni almashtirish bo'yicha aralashma komissiya tashkil etilgan. Komissiya majburiyatlarni Turkiston ASSR hukumati tarkibidagi Tashqi ishlar xalq komissarligi bajargan, ya'ni asir va qochoqlar reevakuatsiyasini o'tkazish tartibi, shartlari hamda reevakuatsiya qilinishi mumkin bo'lgan shaxslarni o'z yurtiga jo'natishish ishlari bilan shug'ullangan. Markazdagi bolsheviklar hukumati tazyiqi bilan Turkiston hukumati rahbariyati o'lkadagi iqtisodiy qiyinchilik va ocharchilik asoratlarini engishga pul ajratishda "ziqnalik" qilgan holda, reevakuatsiya qilinayotgan asirlarni oziq-ovqat, kiyim-kechak va dori-darmon bilan ta'minlashga katta miqdorda pul sarflagan. Masalan, Turkiston XKSning 1920 yil 16 oktyabrdagi qaroriga asosan, o'lkadan reevakuatsiya qilinayotgan harbiy asirlarga chegaragacha etib borishi uchun Turkiston hukumati o'z mablag'lari hisobidan oziq-ovqat, kiyim-kechak, pul, dori-darmonlar ajratish va asirlarga davlatning ijtimoiy ta'minot yordamini ko'rsatish belgilab berilgan[19]. 1920 yil noyabr oyiga kelib, Turkistondagi markaziy evakuatsiya boshqarmasining ruxsati bilan Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on uezdida 1200 nafar asirlar o'z yurtiga reevakuatsiya tariqasida jo'natilgan[20]. Shuningdek, Turkiston ASSRning Toshkent, Namangan, Qo'qon, Samarqand shaharlaridagi xarbiy kazarmalarda saqlanayotgan 2000 nafar Germaniya, Avstriya, Vengriyadan bo'lgan harbiy asirlar ham 1920 yil dekabr oyida markaziy evakuatsiya bo'limining ruxsati bilan rejalashtirilgan holda reevakuatsiya qilingan[21].

Bolsheviklar hukumati ko'rsatmasiga asosan, Turkiston Sog'liqni saqlash xalq komissarligi tomonidan o'lkadan reevakuatsiya qilinayotgan harbiy asirlarning tibbiy-sanitariya holati va asirlarning sog'-salomat holatda o'z yurtlariga etib olishlari hamda kasallikka chalingan asirlarni davolash ishlari borasida ham talaygina ishlar bajarilgan. Masalan, Toshkentdagi nemis xarbiy asirlari o'z yurtiga jo'natilayotgan vaqtda, ushbu komissarlik vakillari yordamida turli kasallikka qarshi (asosan vabo va tif kasalligiga-T.S.) emlangan[22]. Shuningdek, komissarlik xodimlari tomonidan sanitar poezdlar pokiza holatga keltirilib, toza choyshab va to'shaklar, ma'lum miqdorda dori-darmon bilan ta'minlagan

hamda yaxshilab dizinfeksiya qilingan, qolaversa, asirlar o'z yurtiga etib borguniga qadar doimiy ravishda shifokor va hamshiralar nazoratida bo'lgan.

Sovet hokimiyatining reevakuatsiya siyosati tufayli Turkistondan ketishni xohlamagan asirlar o'lka sanoati va qishloq xo'jaligi tizimida samarali mehnat qilganlar. O'zbekiston Milliy arxivi fond hujjatlarida, Turkiston hukumati o'lkada qolib ketgan asirlar mehnatidan samarali foydalanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud. Ular orasida ko'plab muhandislar, mehaniklar, me'morlar, quruvchilar, agronomlar, rassomlar, xaykaltaroshlar va musiqachilar bor edi. O'lkada qolib ketgan ana shunday me'mor va quruvchi asirlar mehnatidan Turkiston ASSR, BXSr hukumatlari foydalanib, yangi harbiy lagerlar, kazarmalar, maktab-internatlar, temir yo'l stantsiyalari va cherkov soborlarni qurdirishgan. Bunday inshootlar Turkiston, Kazalinsk, Chernyaev, Xo'jand, Avliyoota, Perovsk, Buxoro, Katak'rg'on, Qo'qon va Namangan shaharlarida barpo etilgan. Masalan, Toshkentdagi katolik cherkovi soborini qurilishida 60 nafardan ortiq asirlar ishtirok etgan[23]. Shuningdek, Buxoroda temir yo'l qurilishiga 500 nafar asirlar safarbar etilgan[24]. Keyinchalik o'lkada qolib ketgan asirlar O'zbekiston SSR sanoati va qishloq xo'jaligi sohasida samarali mehnat faoliyatini oli borishgan.

Xulosa va takliflar. Sovet hokimiyati Turkistondagi asirlarni o'z yurtiga reevakuatsiya qilish jarayonida bir qancha muammolarga duch kelgan. Chunki Rossiyaning ko'plab guberniyalari qatori Turkistonda ham ocharchilik ro'y bera boshlagan va sovet hokimiyati oldida ocharchilik girdobidagi aholini qutqarish vazifasi eng dolzarb bo'lib turgan edi. Qolaversa, turli millat vakillarining Sovet Rossiyasi hududlarida yashashi, mahalliy xalqlarning etnik tarkibi va madaniyatiga o'z ta'sirini o'zkazgan. Shuning uchun sovet bolsheviklari nafaqat Turkistondagi, balki Sovet Rossiyasi hududidagi asirlarni ham o'z yurtiga reevakuatsiya qilish ishlarini amalga oshirgan. Bolsheviklar rahbariyati Turkistonda boshlangan ocharchilik balosi va uning oqibatlarini bartaraf etishdan ko'ra, aksincha asirlarni reevakuatsiya qilishga katta e'tibor qaratgan. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'z yurtiga reevakuatsiya qilinayotgan asirlar Turkistonda mahalliy aholining mehmondo'stlik, insonparvarlik xislatlaridan bahramand bo'lgan va shuning uchun asirlarning ayrimlari shu yurtda qolishga qaror qilib, o'lkaning barcha sohalari rivojiga o'zining hissalarini qo'shgan.

ADABIYOTLAR

1. Шелокаева Т.А. Правовой статус Военнопленных в СССР (1939-1956). Дисс. канд. ист. наук. –Екатеринбург, 2000. С. 28-40
2. Греков Н.В. Германские и австрийские пленные в Сибири (1914-1917). // Немцы. Россия. Сибирь. Сб. статей. Омск, 1997. С. 154-180
3. Котюкова Т.В. Туркестанский плен: немецкие и австро-венгерские военнопленные в Русском Туркестане в годы первой мировой войны. // "Историко документальный журнал". 2017, № 8. С. 48
4. Дорошенко Т.И. Положение военнопленных в Туркестане в годы первой мировой войны. // Вестник науки и образования. Часть 1. 2021, № 10(113). С. 20-28
5. Киреева Ю.В. Условия содержания немецких и австро-венгерских военнопленных на территории Туркестанского военного округа (1914-1917 гг.) // Военная история. Саратов, 2006. №5(23). С. 198-204
6. Матвеев А.М. Зарубежные выходцы в Туркестане на путях к Великому октябрю (1914-октябрь 1917г.). Ташкент.: Фан, 1977. С.115
7. Марина Галас. Государственно-институциональная и социальная адаптация репатриантов и реэвакуируемых беженцев в России в 1920-е гг. // «Отечественный опыт». С.105-109
8. Белова И.Б. Вынужденные мигранты: беженцы и военнопленные Первой мировой войны в России. 1914 – 1925 гг. Диссертация доктора исторических наук. Брянск, 2014. С. 346
9. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'xat, 6-ish, 26-varaq
10. Марина Галас. Государственно-институциональная и социальная адаптация репатриантов и реэвакуируемых беженцев в России в 1920-е гг. «Отечественный опыт» журнал. С.105-109

11. Дулатов Б.К. Вопросы репатриации бывших граждан австро-венгерской империи из Поволжья и Сибири в 1920-е годы. Вестник ВолГУ. Серия 4, История. Регионоведение. Международные отношения. 2019. Т. 24. № 5. С. 148-161
12. Белова И.Б. Вынужденные мигранты: беженцы и военнопленные Первой мировой войны в России. 1914 – 1925 гг. Диссертация доктора исторических наук. Брянск, 2014. С. 352
13. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 19-ish, 65-varaq
14. Константин Скоркин. История органов НКВД РСФСР 1917-1930 гг. Создание и развитие советской системы мест заключения. ЧАСТЬ 2. https://vk.com/wall-114360762_3.
15. https://vk.com/wall-114360762_3.
16. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 51-ish, 21-varaq
17. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 51-ish, 49-varaq
18. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 51-ish, 65-varaq
19. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 32-varaq
20. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 59-varaq
21. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 43-ish, 71-varaq
22. O'zR MA, R-621 fond, 1-ro'yxat, 50-ish, 43-varaq
23. O'zR MA, I-1 fond, 6-ro'yxat, 55-ish, 11-varaq
24. O'zR MA, I-1 fond, 6-ro'yxat, 55-ish, 26-varaq



Azizbek XOLLIYEV,
O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti, t.f.d
E-mail: azizbekholliiev@gmail.com
Tel: (90) 941 31 76

T.f.d., dots. D.Urakov taqrizi asosida

LEGISLATIVE FRAMEWORK FOR THE ACTIVITY OF JOINT STOCK COMPANIES WITH THE PARTICIPATION OF FOREIGN INVESTMENTS IN RUSSIA (XIX – BEGINNING OF XX CENTURY).

Annotation

This article examines the processes associated with the formation of the legislative framework for the activity of joint-stock companies in Russia in the historical conditions characteristic of the 19th - early 19th centuries. Legal documents that legislatively regulate certain aspects of the participation of foreign entrepreneurs in joint stock companies in Russia are analyzed.

Key words: Russia, joint-stock companies, societies, partnerships, foreign investments, legislation, entrepreneurship.

ЗАКОНОДАТЕЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ АКЦИОНЕРНЫХ КОМПАНИЙ С УЧАСТИЕМ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РОССИИ (XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА).

Аннотация

В данной статье рассматриваются процессы, связанные с формированием законодательных основ деятельности акционерных обществ в России в исторических условиях, характерных для XIX - начала XX века. Анализируются правовые документы, законодательно регулирующие отдельные аспекты участия иностранных предпринимателей в акционерных обществах в России.

Ключевые слова: Россия, акционерные компании, общества, товарищества, иностранные инвестиции, законодательство, предпринимательство.

ROSSIYADA XORIJIY SARMOYALAR ISHTIROKIDAGI AKSIYADORLIK KOMPANIYALAR FAOLIYATINING QONUNCHILIK ASOSLARI (XIX – XX ASR BOSHLARI)

Annotatsiya

Ushbu maqolada XIX-XIX asr boshlariga xos bo‘lgan tarixiy sharoitlarda Rossiyada aksiyadorlik kompaniyalar faoliyati qonunchilik asoslarining shakllanishi bilan bog‘liq jarayonlar ko‘rib chiqilgan. Chet el tadbirkorlari sarmoyalarining Rossiyadagi aksiyadorlik kompaniyalarda ishtirokinining muayyan tomonlarini huquqiy jihatdan tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Rossiya, aksiyadorlik kompaniyalar, jamiyatlar, shirkatlar, xorijiy sarmoyalar, qonunchilik, tadbirkolik.

Kirish. Ko‘rib chiqilayotgan davrda Rossiyaning xorijiy davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini tashkil qilish va rivojlantirish uchun qonunchilik-huquqiy bazani shakllantirish jarayoni juda muhim rol o‘ynadi. Turli tarixiy davrlarda qabul qilingan Rossiya davlatining huquqiy hujjatlarida tadbirkorlik faoliyatining muayyan jihatlarini tartibga soluvchi, u yoki bu darajada xorijiy davlatlar va fuqarolar bilan bog‘liq bo‘lgan alohida qoidalar, boblar va bandler mavjud edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Muayyan davrning tarixiy sharoitlarida Rossiyada xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalar faoliyati qonunchilik asoslarining shakllanishi bog‘liq masalalar bir qator tadqiqotchilarning izlanishlarida tahlil qilingan. Jumladan, S.A.Smirnov va A.V.Filippova o‘zlarining asosiy e‘tiborini Rossiyada chet el tadbirkorligi, xorijiy tijorat tashkilotlari faoliyatini ma‘muriy-huquqiy tartibga solishni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini tadqiq qilishga qaratgan. O‘z navbatida aksiyadorlik kompaniyalarining statistikasi masalasi L.E.Shepelev tomonidan o‘rganilgan. Rossiyaning xorijiy davlatlar bilan tuzilgan shartnomalar bilan I.I.Gratsianskiy tomonidan tayyorlangan to‘plamda tanishishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Rossiya qonunchiligi xorijiliklarga tadbirkorlikni tashkil etish shakllarini tanlashda to‘siqlar qo‘ymas edi. Bu esa aralash aksiyadorlik kompaniyalari va shirkatlarni shakllantirish va faoliyat yuritish imkonini bergan. 1836 yildagi aksiyadorlik kompaniyalari to‘g‘risidagi qonunda (1836 yilgi Qonunda

ro‘yxatdan o‘tish maxsus tartiblar o‘rnatilgan va korporatsiyalar uchun boshqa talablar belgilangan edi[1]) faqat ro‘yxatga olingan aksiyalarning mavjudligi ko‘zda tutilgan (22-moddada shunday deyiladi: “Ushbu qoida e‘lon qilinganidan keyin tashkil etiladigan istisnosiz barcha kompaniyalarda faqat aksiyalarning shunday turiga ruxsat beriladi, ya‘ni ularda oluvchi shaxsining unvoni yoki mansabi, ismi, otasining ismi va familiyasi aniq ko‘rsatilishi shart. Noma‘lum aksiyalar taqiqlanadi”)[2] bo‘lishiga qaramay, chet elliklarning ularga egalik qilishi taqiqlanmagan edi. 1863 yildan boshlab bu qoidaga istisnolar ruxsat etilgandi.

Tahlil va natijalar. Shuni ta‘kidlash kerakki, 1836 yilgi “Aksiyadorlik kompaniyalari to‘g‘risida”gi qonun esa “xorijiy jamiyatga” ta‘rif bermagan edi va boshqa mamlakatlarda ularning qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarining Rossiyadagi faoliyatini hech qanday tarzda tartibga solmas edi.

XIX asrning 60 yillar boshiga qadar Rossiyada xorijiy kompaniyalar faoliyatini tartibga soluvchi me‘yoriy hujjatlar umuman yo‘q edi.

1861 yilgacha bo‘lgan davrning xarakterli jihati shunda ediki, bu davrda Rossiyada tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xorijiy subyektlar qatoriga korporativ birlashmalar emas, balki asosan yakka tartibdagi xorijiy tadbirkorlar - xorijiy hunarmandlar yoki chet ellik savdogarlar, chet el fuqarolari yoki ajnabiylar kirar edi[3].

1863-1904 yillar oralig'ida Rossiya 10 ta davlat, jumladan Fransiya, Belgiya, Germaniya, AQSh va Buyuk Britaniya bilan aksiyadorlik jamiyatlarining huquqlarini o'zaro tan olish va himoya qilish bo'yicha bir qator konvensiya va bitimlarni imzoladi. Natijada, Rossiyadagi xorijiy kompaniyalar, chet eldagi ruslar singari, sud himoyasi huquqidan foydalandilar. Masalan, Idora qiluvchi Senat Fuqarolik kassatsiyalari bo'limining "Uchastkalar bo'yicha shirkatlar, yoki aksiyalar negizidagi kompaniyalar to'g'risida"gi qarorlarida: "Fransiya aksiyadorlik (anonim) jamiyatlari va, Fransiyada tuzilgan bo'lib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar nomiga ega boshqa tijorat, ishlab chiqarish va moliya shirkatlari Rossiyada, rus qonunlariga muvofiq holda, o'zlarining barcha huquqlaridan, shu jumladan sud himoyasi huquqlaridan foydalanishlari mumkin"[4], deb qayd etilgan

1863 yil oktyabr oyining boshida esa Senatning "Fransiyada tashkil etilgan fransuz aksiyadorlik (anonim) kompaniyalari va boshqa shirkatlarga rus qonunlariga muvofiq Rossiyada barcha huquqlaridan foydalanish huquqini berish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilingan[5]. Uning asosi Qonunlar to'plamining (10-jild., 1-qism) Aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish tartibi to'g'risidagi №2139 moddasi 1-sonli tegishli eslatma bilan to'ldirilgan. Shu bilan birga, Rossiya tomoni 1861 yilgi aksiyadorlik jamiyatlari huquqlari to'g'risidagi ikki tomonlama Rossiya-Fransiya konvensiyasini tasdiqlagan[6].

Deyarli parallel ravishda, 1863 yilda Rossiyada xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatiga oid davlat siyosatining asoslari ishlab chiqilgan. Ammo, qonunchilik sohasida ushbu siyosatni amalga oshirish, Rossiyada, birinchi navbatda, xorijiy yuridik shaxslarning faoliyati uchun tegishli huquqiy bazani yaratish yigirma yilga cho'zilib ketgan edi.

1865 yil noyabr oyida aksiyadorlik jamiyatlarining huquqlarini o'zaro tan olish to'g'risidagi Rossiya-Belgiya konvensiyasi tuzilgan. Shu bilan birga bunday shartnomalarni boshqa davlatlar bilan muhokama qilish va qabul qilish tartibi soddalashtirilgan. Tashqi ishlar vaziriga, zaruratga qarab, Moliya vaziri bilan kelishilgan holda boshqa davlatlar bilan xuddi shunday shartlar asosida, har safar qonunchilik tartibida maxsus ruxsat so'ramasdan, konvensiyalar tuzish huquqi berilgan. Keyinchalik, sug'urta kompaniyalari bundan mustasno, barcha turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga oid bunday konvensiyalar 1866 yil noyabrda Italiya bilan, 1867 yil yanvarda Avstriya bilan tuzildi. Germaniyaning Rossiyadagi aksiyadorlik jamiyatlariga kelsak, boshqa davlatlar bilan ilgari tuzilgan kelishuvlar shartlari 1874 yildan boshlab ularga ham taaluqli bo'lgan.

Ta'kidlash joizki, nizom har bir aksiyadorlik jamiyatining faoliyat yo'nalishi va shartlarini belgilab beruvchi asosiy hujjat edi. Aksiyadorlik nizomlarini tuzish tartibi 1836 yildagi "Uchastkalar bo'yicha shirkatlar yoki aksiyalar negizidagi kompaniyalar to'g'risidagi qoidalari" - Rossiyada 1917 yilgacha o'z ahamiyatini saqlab qolgan aksiyadorlik korxonalarini tuzish va faoliyatini tartibga soluvchi birinchi qonunchilik hujjati bilan belgilangan edi[7].

1870 yillar boshidan 1880 yillar oxirigacha Rossiyada xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy me'yorlar majmui shakllandi. Ushbu shartlar, rus hukumatidan faoliyatni amalga oshirish hamda ta'sis hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish uchun majburiy ruxsat olishdan tashqari, rossiyalik kredit beruvchilar oldidagi majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash kafolati sifatida xorijiy kompaniyaning Davlat bankiga garov qo'yish majburiyatini belgilagan edi; ko'chmas mulkni sotib olish va undan maqsadli foydalanish zaruriyati mahalliy gubernya rahbarlari tomonidan aniqlangan taqdirda, uni olishning maxsus ijozat beruvchi tartibi joriy etilgan. Rossiyada xorijiy uyushmaning ishlarini boshqarish, shu jumladan uning barcha

operatsiyalari to'g'risidagi yillik hisobotlar va balanslarni, shuningdek aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha ma'lumotlarni e'lon qilish uchun maxsus mas'ul agentlik barpo etish majburiyati o'rnatilgan[8]. Shu bilan birga ta'kidlanar ediki, Rossiya "hukumati har doim qandaydir sabablarga ko'ra nizomi bizning qarorlarimizga mos kelmasligi e'tirof etilgan bunday kompaniyaga ruxsat berishni rad etishga haqli" yoki shart sifatida kompaniyaning Rossiyadagi faoliyati nuqtai nazaridan maqomini o'zgartirish talabini qo'yish huquqiga ega. Aslida bu hukumat tomonidan kompaniyaning mamlakatdagi faoliyati shartlarini belgilash huquqini anglatar edi[9].

Rossiyada xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatini qonunchilik orqali tartibga solish 1880 yillarda sodir bo'ldi.

1885 yil iyun oyida Rossiya va Germaniya tomonidan tuzilgan "Aksiyadorlik jamiyatlarining huquqlarini o'zaro tan olish va himoya qilish to'g'risida"gi bitimda, shuningdek, 1887 yil dekabrda Yunoniston bilan tuzilgan shunga o'xshash konvensiyada 1878 yilgi izohga muvofiq tarzda qo'shimcha kiritilgandi. Unda bir davlatda tuzilgan aksiyadorlik jamiyatlarining boshqa davlatda o'z operatsiyalarini amalga oshirishiga ijozat berish yoki yo'l qo'yimaslikka oid masala umuman ko'rib chiqilmagani qayd etilgan, chunki ularning faoliyatiga ruxsat berish mamlakatda bu borada mavjud qoidalarga bog'liq va chet elda qonuniy ravishda tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyati Rossiyada faoliyat yuritish huquqini qo'lga kiritishi uchun har safar maxsus Oliy (imperatorlik) ruxsatini olishga qaratilgan murojaatni amalga oshirishi lozim, ya'ni rus aksiyadorlik jamiyatlari bilan bir xil tarzda. Kelajakda aynan Germaniya bilan tuzilgan shartnoma XIX asr oxiri - XX asr boshlarida boshqa davlatlar bilan bunday bitimlar tuzish uchun namuna bo'ldi[10].

Shunga e'tibor qaratish lozimki, Rossiyada xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari tomonidan huquq layoqatiga ega bo'lish tartibini aniqlashtiradigan tegishli qo'shimchalar umumiy qonunchilikka kiritilmagan edi. Demak, xorijiy kompaniyalarning operatsiyalarni amalga oshirish huquqi masalasi munozarali deb hisoblanishi mumkin edi. Rossiyada xorijiy kompaniyalar faoliyatini ochish amaliyoti ushbu qoidaning ko'rsatkichi sifatida namoyon bo'ldi. Moliya vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, bir qator xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari Rossiyada hukumat ruxsatisiz o'zlariga xos, nizomlar bo'yicha, operatsiyalarni amalga oshirishda davom etdilar[11]. 1886 yilga kelib, ularning aksariyati o'zlarining ishonchli vakillari yoki agentlari - rus fuqarolari orqali ishlab bordilar. Bunday amaliyot mahalliy davlat idoralari tomonidan hech qanday to'siqlarga uchramadi.

Rossiya qonunchiligiga ko'ra, aksiyadorlik jamiyati tashkil etilganligining yuridik asosi uning nizomini imperator tomonidan tasdiqlanishi edi, bu esa alohida qonun sifatida kuchga kirar edi. Ammo xorijiy aksiyadorlik jamiyatlariga nisbatan kompaniyaning kelib chiqishi mamlakatida allaqachon qonuniy tasdiqlangan nizomni tasdiqlash mumkin emas edi, chunki chet elda, u yerdagi qonunlarga muvofiq tarzda, sodir etilgan amallar Rossiyada yaroqli qonuniy hujjatlar sifatida tan olingan.

Xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari uchun Rossiya imperiyasida faoliyat yuritish uchun ruxsat olish tartibi taxminan ruslarniki bilan bir xil edi. Tegishli vazirlikka kompaniyaning iltimosnoma yuborgan paytda, rus tiliga tarjimai belgilangan tartibda tasdiqlangan, quyidagi hujjatlar taqdim etilishi lozim edi: 1) xorijda tasdiqlangan kompaniya nizomi, mamlakatda amaldagi qonunchilikka muvofiq tarzda tuzilganligi to'g'risida Rossiya konsulligining tegishli shahodatnomasi bilan; 2) imperiya hududida faoliyat yuritish uchun ruxsat olish uchun ariza berish huquqi uchun Rossiyadagi vakili nomiga kompaniya tomonidan berilgan ishonchnoma; 3) har bir hisobot yili uchun unga tegishli bo'lgan barcha savdo-sanoat muassasalaridan olingan yalpi

daromad va sof foydani ko'rsatgan holda jamiyatning oxirgi besh yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti va aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan balanslar, hamda har bir aksiya yoki ulush uchun dividendlar miqdorini ko'rsatgan holda daromadning taqsimoti[12].

Shuni ta'kidlash kerakki, soliqqa tortish, muassasalar, tashkilotlar va shaxslar bilan munosabatlarda xorijiy fuqarolar alohida huquqiy toifa sifatida ajratilmagan va imperiyaning umumiy qonunlariga bo'ysungan. To'g'ri, soliqqa tortish masalasida ayrim noaniqlik 1899 yilgacha mavjud bo'lgan edi. Gap shundaki, 1885 yil 20 maydagi Nizomda chet elda chiqarilgan obligatsiyalar uchun 5%lik kupon solig'i belgilangan edi. 12 yil davomida u xorijiy kompaniyalardan undirilmagan. Ehtimol, bu holatga 1869 yildan 1896 yilgacha Rossiyada atigi 71 xorijiy korxonalar ro'yxatidan o'tganligi sabab bo'lgan. 1896 yildan boshlab ularning soni tez o'sishni boshlagan. 1897 yilda Moliya vazirligi ulardan soliq to'lashni talab qildi, bu esa xorijiy tadbirkorlarning noroziligiga sabab bo'ldi. 1899 yil 10 dekabrda muammo hal qilindi va imperator farmoni bilan xorijiy aksiyadorlik jamiyatlari obligatsiyalari rus puliga tenglashtirilgan holatda chet el valyutasida chiqarilishi sharti bilan 5%lik yig'im to'lashdan ozod qilindi. 1898 yilgi Kasbkorlik solig'i to'g'risidagi nizomga ko'ra, Rossiyadagi operatsiyalar uchun mo'ljallangan mablag' xorijiy kompaniyaning asosiy sarmoyasi deb hisoblanardi va aynan shu mablag' soliqqa tortilishi kerak edi[13]. Faqat 1898 yildagi Kasbkorlik davlat solig'i to'g'risidagi yangi Nizomning qabul qilinishi bilan tabaqaviylik tamoyili batamom rad etilgan va savdo va sanoat bilan shug'ullanish

huquqi savdogarlar tabaqasiga mansublikdan xalos bo'lgan[14].

Xorijiy va qo'shma korxonalarini soliqqa tortish rossiyalik tadbirkorlarni soliqqa tortishdan ko'ra og'irroq bo'lmagan. Chet el kompaniyalariga qarashli korxonalar, rus tadbirkorlari singari, asosiy sarmoyaning har 100 rublidan 15 tiyin, 1908 yildan 1910 yilgacha esa har 100 rublidan 20 tiyin miqdorida soliq to'lagan[15]. 1887 yildan boshlab kredit tashkilotlari va xorijiy kompaniyalar daromad solig'ini to'lay boshladilar. Soliq solinadigan baza "Rossiyada amalga oshirilgan operatsiyalardan olingan" sof daromad edi.

Aksiyadorlik korxonalariga kelsak, 1880 yillarda Rossiyada soliqqa tortishning yangi tizimi joriy etildi. Ilgari ular, boshqa yirik aksiyadorlik bo'lmagan korxonalar kabi, savdogarlarning birinchi gildiyasi bo'yicha tadbirkorlik faoliyati huquqi uchun hujjatlarni olgandan keyin faqat 565,5 rubl miqdorida boj to'lagan. 1885 yil 15 yanvarda yangi qonun bilan aksiyadorlik jamiyatlarining sof daromadiga nisbatan 3%lik qo'shimcha soliq joriy etildiki, ushbu soliqning tushumini nazorat qilish uchun esa umumiy tartibda barcha aksiyadorlik jamiyatlarining majburiy oshkora hisobotlar o'rnatildi[16].

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, Rossiyada xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi aksiyadorlik kompaniyalar va shirkatlarning faoliyatiga oid qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida rus ma'murlarining chet el tadbirkorlariga nisbatan olib borgan siyosatining asosiy jihatlari hamda mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida mavjud bo'lgan tendensiyalar o'z aksini topdi.

ADABIYOTLAR

1. Gregg A., Nafziger S. Capital structure and corporate performance in late Imperial Russia // *European Review of Economic History*. №23, 2018. - P. 449.
2. ПСЗРИ (Полное собрание законов Российской империи) II. №9763 - Высочайше утвержденное Положение о компаниях на акциях. Т.XI. Отделение II. - Санкт-Петербург: Типография II Отделения Собственной Его Императорского Величества Канцелярии, 1837. - С.261
3. Филиппова А.В. Становление и развитие административно-правового регулирования деятельности иностранных коммерческих организаций в России // *Актуальные проблемы российского права*. 2015. - № 8 (57) август. - С.58.
4. Акционерные общества и товарищества на паях. По решениям Гражданского кассационного департамента Правительствующего Сената. № 2139. Примечание 1. / Сост. Берггольд Г.В. - Москва: Печ. А.И.Снигеревой, 1900. - С.7
5. Грацианский И.И. Собрание ныне действующих торговых трактатов России с иностранными государствами. - Санкт-Петербург: Хромолит. и Тип. В. Грацианского, 1877. - С.282-283.
6. Смирнов С.А. Правовое регулирование иностранного предпринимательства в России во второй половине XIX - начале XX веков: Дисс... канд. юрид. наук. - Волгоград, 2002. - С.91.
7. Шепелев Л.Е. Акционерная статистика в дореволюционной России. / *Монополии и иностранный капитал в России*. Труды ЛОИИ. Вып. 4. - Москва; - Ленинград, 1962. - С.169.
8. Филиппова А.В. Становление и развитие административно-правового регулирования деятельности иностранных коммерческих организаций в России // *Актуальные проблемы российского права*. 2015. - № 8 (57) август. -С.59.
9. РДТА (Россия давлат тарих архиви), 560-фонд, 22-руйхат, 228-иш, 44-орка варак - 45-варак.
10. Смирнов С.А. Правовое регулирование иностранного предпринимательства в России во второй половине XIX - начале XX веков: Дисс... канд. юрид. наук. - Волгоград, 2002. - С.93-94.
11. РДТА (Россия давлат тарих архиви), 23-фонд, 24-руйхат, 24-иш, 6-варак.
12. РДТА (Россия давлат тарих архиви), 20-фонд, 6-руйхат, 239-иш, 23-варак.
13. Иностранное предпринимательство и заграничные инвестиции в России: Очерки. - Москва: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 1997. - С.23
14. Собрание узаконений и распоряжений правительства, издаваемое при Правительствующем Сенате. 2-е полугодие: [№ 121-165]. - Санкт-Петербург: Тип. Правительствующего Сената, 1898. -Ст. 964.
15. Свод законов Российской империи (СЗРИ). Устав о прямых налогах. Кн. II. Т. V. - Санкт-Петербург, 1910. - С.57-58
16. Шепелев Л.Е. Акционерная статистика в дореволюционной России. / *Монополии и иностранный капитал в России*. Труды ЛОИИ. Вып. 4. - Москва; - Ленинград, 1962. - С.121.



UDK :9 (433)

Panji XUSHBOQOV,

Termiz davlat pedagogika instituti dotsenti, t.f.n

E-mail: @pxushboqov@gmail.com

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti professori, t.f.d E.Qabulov taqrizi asosida

SHEROBAD IN THE PERIOD OF SOVIETS

Annotation

This article covers the history of social and economic life of Sherabad district during the Soviet period, which was formed as a result of the delimitation of the national state and its division into administrative-territorial parts in Central Asia, which was part of the Surkhandarya region, based on archival data.

Key words: Central Asia, Sherobod, savkhoz, uezd, kolkhoz agrocenter, Yangiabad, collectivization.

ШЕРОБАД В ПЕРИОД СОВЕТОВ

Аннотация

В данной статье освещена история социально-экономической жизни Шерабадского района в советский период, который образовался в результате разграничения национального государства и разделения его на административно-территориальные части в Средней Азии, входившей в состав Сурхандарьинской области, по архивным данным.

Ключевые слова: Средняя Азия, Шерабад, савхоз, уезд, колхозный агроцентр, Янгиабад, коллективизация.

SHEROBOD SHO'ROLAR DAVRIDA

Annotatsiya

Ushbu maqola O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi va ma'muriy-hududiy qismlarga bo'linishi natijasida tashkil topgan, Surxondaryo viloyati tarkibiga kirgan, Sherobod tumanining sho'rolar davri ijtimoiy-iqtisodiy hayoti tarixi arxiv ma'lumotlari asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: O'rta Osiyo, Sherobod, savhoz, uezd, kolhoz agromarkaz, Yangiobod, kollektivlashtirish.

Mustaqillik yillarida o'zlikni anglash tariximizni holisona o'rganish tarixchilar oldidagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. O'zbekiston hududi tarixi haqida gap ketar ekan, har bir regionlarning alohida o'rni mavjud. Tarixni lokal regionlar miqyosida yoritib berish bugungi kunda tarixchilar orasida urfga aylandi. Surxon vohasining Sherobod tarixiga nazar tashlasak qadimgi davrdan boshlab, insoniyat rivojlanishi o'choqlaridan biri hisoblanadi. Tosh davri (mezolit)ga oid "Zarautsoy" qoya suratlari va bronza davriga oid "Sopolli" madaniyati rivoj topganligini nafaqat O'zbek tarixchi olimlari balki, jahon tarixchi olimlari asarlarida o'qishimiz mumkin. Sherobod sho'rolar davri haqida to'xtalsak, 1924 yili O'rta Osiyoda milliy davlat chegaralanishi qayta ko'rib chiqilgan. Buxoro xalq sovet respublikasini katta qismi O'zbekiston SSRga, qolgan qismi Tojikiston va Turkmaniston respublikalari tarkibiga qo'shib olindi. Bu tarixiy jarayonlardan so'ng, O'zbekiston SSR ma'muriy hududiy tarkibiga kiradigan viloyatlar tuzuldi [1]. O'zbekiston SSR revolyutsion komiteti prezidiumining 1925 yil 19-yanvardagi qarori bilan Sherobod Surxondaryo okrugining markazi qilib tasdiqlandi. Bu davrda Surxondaryo okrug tarkibiga sobiq Sherobod, Boysun, Kelif, Denov va Sarosiy o'zliklariga qarashli hududlar kirar edi. Sherobod tarkibiga kirgan Mayda Ariq, Poshxurt, Gilambob, Oqqo'rg'on volostlariga bo'lingan edi. Sherobod uzedining aholisi 35310 kishini tashkil qilib, jumladan erkaklar 20099 nafar, ayollar 15211 nafarni tashkil qilgan [2]. Okrug ijroi komitetining idorasi Amin Hamidov ismli fuqaro uyining 2-qavratida o'rmashgan edi. Ijroi komitet raisi vazifasiga ko'proq Kerkidan kelgan faollar ishlashgan. Mahalliy kadrlar tez orada etishib chiqdi. Misol keltirib o'tadigan bo'lsak, Egamberdi Quvvatov, Abdusamat Boboxo'jayev va boshqalar sovet davlati apparatida ko'p yillar davomida faoliyat yuritdilar. Bu vaqtda rayon markazi Sherobod daryosining

o'ng tomonida joylashgan bo'lib uning idoralari Shodibek Sohibovning hovlisida edi. O'sha yillari viloyat markazi Sherobodda bo'lsa ham ko'pgina viloyat tashkilotlari, masalan 50 ga yaqin savdo xo'jalik va korporativ muassasalar Termiz shahrida joylashgan edi. Bunday infratuzilma partiya sovet tashkilotlarining rahbarlik qilish faoliyatida katta qiyinchiliklar tug'dirar edi. 1917 yilgacha Sherobod hududida sanoat korxonalari soni talaygina bo'lgan. Qurulish obodonchilik ishlari bilan birga, hunarmandchilik sohasi nihoyatda rivojlangan edi. Sherobodda joylashgan 3 ta sholi tozalaydigan objuvoz, 128 ta tegirmon, 147 ta juvoz, 90 ta to'quvchilik, shuningdek temirchilik, etikdo'zlik ustaxonalari bunga misol bo'ladi. Hunarmandchilik sanoatining rivojlanishi jihatdan Sherobod viloyatda Sarosiy tumanidan keyin ikkinchi o'rinda turgan. O'zbekiston SSR xalq komissarlari sovetining 1927 yil 20 iyuldagi qaroriga muvofiq viloyat markazi Sheroboddan Termizga ko'chirildi. Shundan keyin Termiz Surxondaryo viloyatining markaziga aylangan edi [3]. Surxondaryo markazning Sheroboddan Termiz shahriga ko'chirilishining asosiy sabablaridan biri xarbiy qismlarning talaygina qismi Termiz shahrida bo'lganligidir.

O'zbekiston Kompartiyasining 1925 yil noyabrda bo'lib o'tgan ikkinchi seyizdi respublikada sanoat o'choqlarini vujudga keltirish vazifasini qo'ydi. Keyingi yillarda rayon hududida sanoat korxonalarini vujudga keltirish sari qadam tashlandi.

XX asrning birinchi yarmida tumanda bir qancha sanoat korxonalari jumladan Paxta tozalash zavodi, G'isht pishirish, tosh saralash zavodlari qurildi. Mehnatkashlarning kundalik maishiy ehtiyojlariga xizmat qilayotgan ikkita aholiga maishiy xizmat ko'rsatish kombinati, bitta ta matlubot jamiyati, uchta ishchilar koperatsiyasi va uchta savdo boshqarmasi tashkil etildi. XX asrning ikkinchi yarmida, savxozlararo qurulish tashkiloti, remont – qurulish uchastkasi

va bir nechta qurulish boshqarmasi ish boshladi. Sherobod dashtlari o'zlashtirilishi barobarida rayonda sanoat korxonalarini kengaytirildi. Sovet hokimiyatining dastlabki kunlaridan boshlab Sherobod hududida qishloq xo'jaligini tiklashga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirildi [4].

1925 – 1926 yillarda maydoni 22383 desyatina (gektarning 1,092 hissasiga barobar keladigan er o'lchovi)ni tashkil etgan. Shundan 17740 desyatina sug'oriladigan erlar bo'lgan, bu erda asosan bug'doy, sholi, arpa kabi boshloqli ekinlar va paxta etishtirilgan. 1926 yili bu erda 8632 desyatina erga bug'doy 3000 desyatina erga chigit ekilgan. Surxondaryo viloyati sovetining 1925 yili bo'lib o'tgan 2-seyididan keyin Sherobod uiezidida paxtachilikni rivojlantirishda yangi bosqich boshlandi. Bu vaqtda Sherobod paxtachilikni rivojlantirishda Jarqo'rg'ondan keyin ikkinchi o'rinda turar edi. G'oz qator oralarini oddiy ishlab chiqarish qurollari bilan parvarish qilish natijasida har desyatina erdan 45 pud, (1 pud, 18,38 kilogrammi tashkil etgan) paxta hosil olinar edi. 1926 yili Sherobodda birinchi tajriba "Agrofirma"si tashkil etilgan. Agromarkazda qisqa vaqt ichida Sherobodda 17 ta paxtachilik, beshita bedachilik uchastkalari tuzilgan. 1926 yil Sherobod Agromarkaziga traktorlarning birinchi partiyasi ikkita traktor yuborildi. Traktorlarning ikkinchi partiyasi Termiz Agromarkaziga berilgan edi. Sherobodga traktorlarning kelishi qishloq xo'jaligida tubdan o'zgarish yasadi. Qisman dala ishlari traktorlar bilan bajarila boshlandi. Qishloq xo'jalik asbob uskunalaridan foydalanishni o'rganish bo'yicha maxsus kursalar ochildi. Biroq dastlabki olingan traktorlarning ishi asosan targ'ibot xarakteriga ega edi. Agromarkazlarga berilgan traktorlar bilan ularga qarashli, shuningdek dehqonlar ixtiyorida ekin maydonlar haydalar edi. 1927 yili qishloq xo'jalik artellari tuzila boshladi [5]. Kolxoz tuzumining tashkil bo'lishi tufayli rayon qishloq xo'jaligida mexanizatsiyani ilg'or agrotexnikani joriy etish sohasida o'zgarishlar amalga oshirildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida asosan don ekilar edi. Urush tugashi bilan paxtachilikni qayta tiklashga e'tibor qaratildi. 1959 yili tuman bo'yicha 8 ming 203 gektar erga chigit ekilib, gektaridan 13,19 sentenrdan hosil etishtirildi va davlatga 7225 tonna paxta sotildi. 1963 yilga kelib, davlatga sotilgan paxta 20 ming 175 tonnaga etdi. Shu yillar ichida rayon xo'jaliklarida paxta maydoni 1955 yili 5541 gektardan 1970 yilda 20 ming 200 gektarga ko'paytirildi. Shuningdek g'alla va sabzavot maydoni ham ancha kengaytirildi. Ayniqsa Beshqo'ton dashtlarini o'zlashtirish muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ya'ni birgina Yangiobod savxozining o'zi 1955 – 1960

yillarda butun rayonda etishtirilgandan ham ko'p paxta tayyorladi. Yangi savxozlarda ham chorva mollarining tashkil etilishi ham qorako'lchilik savxozining vujudga keltirilishi rayonda chorvachilikni rivojlantirish imkonini berdi. 1960 – 1961 yillarda rayonda paxtachilik va g'allachilik quyidagicha rivojlandi. 1960 yillarda 9 ming yuz gektar erga paxta ekilgan, 13 ming 713 tonna hosil olingan. 1965 yilga kelib, 15 ming 950 gektar erga paxta ekilgan 25 ming 148 tonna paxta etishtirilgan.

Jumladan:

G'alla 6 ming 4 gektarga ekilgan. 7 ming 400 tonna g'alla olingan. 1965- yil 26 ming 640 gektarga g'alla ekilib, 14 ming 559 tonna bug'doy etishtirilgan. Bir vaqlar omoch va ketmongagina ega bo'lgan rayon xo'jaliklari texnika bilan ta'minlangan. 1965- yildan 1967- yilgacha xo'jaliklardagi chopiq traktorlar soni 401 tadan 712 taga, haydov traktorlar soni 209 tadan 282 taga ko'paydi [6]. Sovet hokimiyati yillarida rayonda xalq maorifini rivojlanishi o'ziga xos tarixga ega. Bu erda yangi tipdagi sovet maktablari 1921 – 1925 yillarda shakllandi. 1926 – 1927 yillarda rayonda Dehqon yoshlari maktabi ochildi. 1928 yili davlat budjetidan rayon xalq maorifi uchun 153 ming 597 so'm mablag' sarflandi. Davriy yilda yangidan 6 ta maktab binosi qurildi. Maktablar qurulishida keng jamoatchilik faol qatnashdi. Shu yillarda maktablar qoshida savodsizlikni tugatish kurslari ochilib ularda erkaklar bilan birga xotin-qizlar ham o'qiy boshladilar. 1928 yili Termiz shahrida pedagogika bilim yurti tashkil etildi. Bu bilim yurtiga Sheroboddan ham ko'pchilik yoshlar o'qishga yuborildi. 1931 yildan e'tiboran mehnatkashlarning butun kuch va g'ayratlari rayon iqtisodi, va ma'daniyatini tez suratlar bilan rivojlantirishga safarbar etildi. Qishloqlarni kollektivlashtirish ishida muayyan ishlar amalga oshirildi. Bularning hammasi umumiy, majburiy boshlangich ta'limni amalga oshirish uchun zarur sharoit yaratdi. Bu sohada partiya Markaziy komitetining 1933 yili 25 iyulda "Umumiy majburiy boshlangich ta'lim" to'g'risida chiqargan qarori katta ahamiyatga egadir. 1936 yilga rayonda o'rta maktab ochildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida tuman xalq maorifi xodimlari yosh avlodni tarbiyalash sohasida fidokorona mehnat qildilar. 1930 yildan keyin tashkil etilgan boshlangich maktablar 7 yillikka, 7 yillik maktablar esa o'rta maktablarga aylantira boshlandi. Shunday qilib o'tgan yillar ichida tuman maktablarining soni 94 taga etkazildi. Tuman maktablarining o'sishini quyidagi jadvalda ko'rsa bo'ladi [7].

No	1930 yilda	1940 yilda	1950 yilda	1960 yilda	1967 yilda	1980 yilda
Jami maktablar soni	30	40	50	37	53	64
Jami o'quvchilar	2110	8819	8917	6311	15645	22940
O'rta maktablar	-	1	2	6	16	26
O'qituvchilar	60	201	345	385	883	554
Jumladan oliylar	-	2	21	51	291	
Bolalar bog'chalari	-	1	1	1	15	21
Tarbiyalanuvchilar	-	25	83	93	1335	2100
Yaslilar	-	1	1	1	219	250
Tarbiyalanuvchilar	-	24	60	76	4351	6000
Bog'cha, yasli tarbiyachilari	-	3	3	8	52	70

1-jadval. Umumiy o'rta ta'lim maktablari sonlarda.

Shunday qilib Sherobod maktablari o'tgan 50 yil ichida tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Bu erda ta'lim olgan minglab yoshlar xalq xo'jaligining turli sohalarida ishlamoqda. Tarix fanlari doktori Abdusamat Boboxo'jayev professor Qulmurot Shaxmonov filologiya fanlari nomzodi Muhiddin Boboxo'jayev, Akbar Mamatqulov, Falsafa fanlari nomzodi Toshmurod Jovliyev va boshqalar tumannimiz maktablarining dastlabki sobiq o'qituvchilaridan bo'lishgan. Kolxoz, sovxoz

raxbarlarining hammasi tuman partiya komitetining birinchi sekretari, tuman ijroya komitetining raisi ham shu erdagi maktablarni tamomlab chiqishgan.

O'tgan yillar ichida pedagogik kadrlarni tanlash va tarbiyalashga e'tibor kuchaytirildi. Rayonimizda xalq maorifini rivojlantirishda O'zbekiston SSR da xizmat ko'rsatgan o'qituvchi R. Xo'jamberdiyev, I. Yongrafov keksa pedagoglardan M. Jumayev va boshqalar yaxshi hissa

qo'shdilar. O'nlab o'qituvchilarimiz davlatning orden va medallari bilan mukofotlandi.

Sherobod dashtlari o'zlashtirila borgani sari yangi yangi maktablar tashkil etilishi, xalq maorifi yanada rivojlanishiga ijobiy ta'sir etdi. Shuningdek Sovet hokimiyatining dastlabki kunlaridan boshlab aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishda muayyan ishlar amalga oshirildi. 1926 yilning oxiri 1927 yilning boshlarida rayonda 25 o'rinli kasalxonaga tashkil etildi. Bu erda atiga 2 ta vrach ishlar edi. Sho'rolar davrida tibbiyot tarmog'i kengaytirildi.

Tibbiy laboratoriyalar, bolalar konsultatsiyasi bir nechta dorixonalar soni ko'paytirildi. XX asr 50 yillarida beshqo'ton massivida yangi tashkil etilgan savxozlarning hammasida kasalxonaga binolari qurilib ishga tushurildi. Tumanda tibbiyot muassasalarining soni rivojlanganligini quyidagi jadvaldan ko'rish mumkin (2-jadval) [8]. XX asr 50 yillarda tuman tibbiyot muassasalarida asosan RSFSR ning turli viloyatlaridan kelgan hodimlar ishlar edi. Chunki mahalliy aholi o'rtasida tibbiyot ishlari bilan tanish bo'lgan mutaxassislar kam edi.

Yillar kesimida	Tibbiyot muassasalari	Med punkitlar	Vrachlar	O'rta ma'lumotlilar
1930 yil	2	4	2	13
1940 yil	2	4	3	15
1950 yil	2	5	4	22
1960 yil	3	17	11	39
1967 yil	12	41	45	227
1970 yil	16	50	75	317

2-jadval. Tibbiyot birlashmalari sonlarda.

Xulosa qilib aytganda Sherobodda sho'rolar davrida barcha sohalarda islohatlar amalga oshirilgan bo'lsada mahalliy xalq hohish istagi, ehtiyoji hisobga olinmadi.

Bu esa keyingi yillarda ekologiyaning yomonlashuvi, tuproq eroziyasining rivojlanishi, hosildorlikning kamayishi, bu esa Sherobodliklarning ijtimoiy turmushining yaxshilanishiga salbiy ta'sir qildi.

ADABIYOTLAR

1. Ubaydullayeva, S. (2023). BXSERNING TASHKIL TOPISHI, IJTIMOIIY, SIYOIIY VA MADANIY HAYOT. Sentralnoaziatskiy jurnal obrazovaniya i innovatsiy, 2(3), 346.
2. Sherobod tuman davlat arxivi. 3-fond, 5-ro'yxat, 9-ish, 12-varaq.
3. Chorshanbi o'g'li, E. E., & Qo'ldoshevich, S. A. (2023). Demografiya fanining vujudga kelishi. surxon vohasi aholisining demografik jarayonlari o'rganilishi tarixshunosligi. obrazovanie nauka i innovatsionnye idei v mire, 21(3), 524.
4. Sherobod tuman davlat arxivi. 3-fond, 6-ro'yxat, 2-ish, 8-varaq.
5. Sherobod tuman davlat arxivi. 3-fond, 6-ro'yxat, 2-ish, 12-varaq.
6. Sherobod tuman davlat arxivi. 3-fond, 2-ro'yxat, 5-ish, 28-varaq.
7. Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi axborotnomasi. Surxondaryo viloyati raqamlarda. Termiz. 1980 yil. Ikkinchi nashr. 319-bet.
8. Sherobod tuman davlat arxivi. 3-fond, 2-ro'yxat, 5-ish, 36-varaq.



Nazirbek EGAMOV,

Termiz davlat universiteti "O'zbekiston tarixi va manbashunoslik" kafedrasi tayanch doktoranti

E-mail: naziregamov7@gmail.com

TISU ning tarix fanlari nomzodi, dotsent F. Yormatov taqrizi asosida

KUTUBXONACHILIKNI RIVOJLANTIRISH VA KITOBXONLIKNI OSHIRISH MASALASI TADQIQOTCHILAR NIGOHIDA

Аннотация

Kitobxonlik va kutubxonachilikni rivojlantirish barcha davrlarda muhim ahamiyatga ega tarmoq hisoblangan. Bugungi rivojlanib borayotgan davrda esa bu sohani yanada rivojlantirish avvalgidanda zarurroqdek ko'rinmoqda. Shu sababdan ushbu maqolamizda yoshlarni kitobga yanada yaqinlashtirish masalalari va muammolarini olimlar va jamiyatshunoslar fikrlari asosida tahlil qilib ko'rishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: Kitob, kitobxonlik, kutubxonachilik ishi, ARM, axborot xavfsizligi, kioblar narx-navosi, ilmiy anjumanlar.

ВОПРОС РАЗВИТИЯ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ БИБЛИОТЕК С ТОЧКИ ЗРЕНИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

Аннотация

Развитие чтения и библиотечного дела во все времена считалось важной отраслью. В сегодняшнюю развивающуюся эпоху дальнейшее развитие этой области кажется более необходимым, чем раньше. По этой причине в данной статье мы попытались проанализировать вопросы и проблемы приближения молодежи к книге, основываясь на мнениях ученых и социологов.

Ключевые слова: Книга, книгочтение, библиотечное дело, АРМ, информационная безопасность, цены на книги, научные конференции.

THE ISSUE OF LIBRARY DEVELOPMENT AND LIBRARY ENHANCEMENT FROM THE POINT OF VIEW OF RESEARCHERS

Annotation

The development of reading and librarianship was considered an important sector in all times. In today's developing era, further development of this field seems more necessary than before. For this reason, in this article, we tried to analyze the issues and problems of bringing young people closer to books based on the opinions of scientists and sociologists.

Key words: Book, book reading, librarianship, ARM, information security, book prices, scientific conferences.

Kirish. Ilg'or texnologiya va zamonaviy vositalar juda keng tarqalgan bugungi kunda kutubxonalar tarmog'ini yanada kengaytirish va takomillashtirish, yoshlarni kitob o'qishga qiziqitirish, ularni mutolaa jarayoniga jalb qilish kabi masalalar dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Kutubxona va kitobxonlik masalasiga e'tibor qaratgan ingliz yozuvchisi Tomas Karleyl: "Kitob insoniyat ijodiyotining chinakam hayratlanarli va e'tiborga molik ko'rinishidir. Kitoblarda kechmish zamonlarning aql-idroki yashaydi, tuproqlari tush singari allaqachonlar to'zg'ib ketgan odamlarning ovozlari baralla yangrab turadi", - degan edi. Shu va shu kabi fikrlardan kelib chiqqan holda ushbu maqolamizda butun mamlakat bo'ylab kutubxonalarni yanada takomillashtirish, kitob mutolaasiga rag'batni oshirish, kitobxonlar safini yanada kengaytirish uchun qanday ishlar amalga oshirish zarurligi va nima qilinsa yoshlar kitob o'qishga jon-jahdi bilan intilishlari haqida fikr-mulohaza yuritimiz.

Tahlil va natijalar. Hozirgi kunda kutubxonachilik sohasini yanada rivojlantirish va insonlarda kitobsevarlik hissini oshirish uchun turli-tuman fikr-mulohazalar mavjud. Shunday fikr-mulohazalar orasidan eng asosli deb hisoblaganlarimizdan bir nechtasini atroflicha o'rganib chiqamiz. Shu o'rinda jamiyatshunos izlanuvchi, jurnalist Sanjar Saidning fikrlariga bir e'tibor qaratsak. Uning fikr-mulohazalarini navbatma-navbat tahlil qilib ko'ramiz. Birinchidan, uning uchun birinchi navbatga kitobga olib boradigan yo'llar yaqin va oson bo'lishi kerak, deydi izlanuvchi va o'z fikrini asoslash uchun oddiygina maktab kutubxonalarni misol qilib keltiradi: "Siz ta'lim

muassalarida kutubxonalarning qayerda joylashganiga e'tibor berganmisiz? Odatda maktabning eng chetida, ko'rimisiz, kimsa bormas bir burchagida bo'ladi. Oshxona, o'qituvchilar xonasi, sport zali, mayda-chuyda sotiluvchi rastachalar maktabning kirish qismida, hammabop joyida. Aslida esa ular hatto maktabning orqasida, hovlining bir chetida bo'lsa ham topib borishadi. Nima, kitob yegulik, jismoniy mashq yoki ruchka-qalamdek zarur narsa emasmi? Axir u tarbiya, mushohadakorlik, ma'naviy barkamollik manbai-ku".

Ikkinchidan, kutubxona xodimlariga nisbatan, kutubxonachilarning esa o'z ishiga nisbatan munosabatini o'zgartirish kerak. ikkinchi fikrini asoslash uchun Sanjar Said o'zi qatnashgan Do'stlik tuman axborot resurs markazi tomonidan kitobxonlikka oid seminar-ko'rgazmani eslab o'tadi. "Tadbirda qatnashar ekanman, qariyb barcha tashkiliy ishlar qanday qilib bolalarni kitob o'qishga qiziqitirish, bu bo'yicha tajriba almashish va mavjud muammolarni hal etishga emas, balki "tepadan", ya'ni yuqori tashkilotlardan keladigan tekshiruvchilarga qanday munosabatda bo'lish, ular qanday hujjatlarni tekshirishi, ayni shu jihatdan kamchiliklarni qanday bartaraf etishga qaratilganiga amin bo'ldim. Bir gap bilan aytganda, bolaning emas, komissiyaning ko'nglini olish, ularga yomon ko'rinmaslikka qaratilgan bor e'tibor. Ushbu tadbirda viloyat ARM rahbari jurnalist ekanimni eshitib, mendan bir masalani ko'tarib chiqishni takror va takror iltimos qildi. Uning aytishicha, mahalliy hokimiyatlar, sohaning yuqori tuzilmalari rahbarlari kutubxonachilarni bekorchi deb o'ylashadi. Qishloq xo'jaligi, obodonlashtirish va hokazo

ishlarda birinchi navbatda kutubxonachilar jalb etiladi. Bir yilda sovuq mavsumdagi to'rt-besh oyni hisobga olmasa, ular deyarli o'z ishlari bilan shug'ullana olishmaydi. Bunaqada qanday qilib samaradorlikka erishish mumkin? Axir kutubxonachi o'z zimmasiga yuklatilgan tashkiliy ishlardan ortib kitob ham o'qishi, mutolaani jondan sevishi kerak emasmi?" Ushbu fikr bizning jamiyatimizdagi og'riqli nuqtalardan biri bo'lib turganligi ayni haqiqat, buni hech kim inkor etolmaydi.

Shu o'rinda tasavvur qilib ko'ring: Siz oddiygina maktabda o'qiydigan oddiygina o'quvchisiz. Maktabning bir burchagidagi sehrli-sirli xonaga yurak yutib bordingiz, balki bu kimsasiz burchakka kelganingiz uchun qo'rqayotgandirsiz ham. Ammo nimadir sizni ilgari chorlayveradi. Shunda kutilmaganda mehribon bir nigoh sizni qarshi olsa. U sizga yoshingizdan kelib chiqib bir necha kitoblarni taklif qilsa, o'sha kitob haqida shu qadar qiziqarli hikoyalar, o'z taassurotlarini aytib bersaki, butun dunyoni unutib mutolaaga berilib ketsangiz. So'ngra har kuni o'sha nurli maskanga oshiqsangiz. Kutubxonachi siz bilan hayotiy mushohadalarini o'rtoqlashsa, fikringiz, munosabatingiz bilan qiziqsa, kerak bo'lsa u bilan dardlashsangiz. Axir u qanchalar ko'p kitob o'qigan, dunyoqarashi qanchalar keng. Bunday odamning suhbatiga to'yib bo'larkanmi? Ammo real vaziyatga bir nazar solingchi. Aksariyat kutubxonalarda kadrlar qo'nimsizligi odatiy holga aylangan, bor xodimlar ham (ularni kutubxonachi, deyishga tilim bormaydi) kitob mutolaasidan mosuvo. Bu yerga faqat vaqt o'tkazish va oylik olish uchun keladigandek. Ba'zi kutubxonalarda kitob olish yoki u yerga a'zo bo'lish uchun biror yangi kitob berish talab qilinadi va hokazo.

Uchinchidan, kitobxon mansub bo'lgan jamiyat, muhit kitob o'qishga moyil bo'lishi ham juda muhim. Qo'liga biror marta kitob olmagani odamning bolaga: "kitob o'qi", deb maslahat yoki buyruq berishga hech qanday haqqi ham, asosi ham yo'q! Bu fikrni pedagogika sohasi darg'alaridan biri hisoblangan Anton Makarenkoning: "Bolalarni bizning gap-so'zlarimiz emas, balki xatti-harakatlarimiz tarbiyalaydi", degan gapi yanada oydinlashtiradi. Kitob o'qiladigan xonadonlarda mutolaaga mehr qo'ygan bolalar kamolga yetadi. Albatta, bu mutlaq haqiqat emas. Kitobi yo'q uylarda ham kitobxonlar bor. Ammo hamma joyda, har doim ham emas. Aksariyat oilalarda vaziyat taxminan quyidagicha: ona kuni bo'yicha uy-ro'zg'or ishlari bilan band, ozgina bo'sh vaqt topdi deguncha qo'shni ayollar bilan hasratlashishga oshiqadi. Televizor, serial ko'rish, to'y-ma'arakalarda qatnashish va boshqalarga ajratilgan vaqt kitob o'qishga yetmaydi. Ota esa kuni bo'yi ishda bo'lib, kechqurun kelib ovqatlanadiyu, bir oz televizor ko'rgandek bo'lib, so'ngra uxlashga kirib ketadi. O'qilgan kitoblarni muhokama qilish, qanday kitoblarni o'qish bo'yicha maslahatlar berish, afsuski, oilalarda juda kam uchraydigan holat. Ommaviy ravishda: xiyobonlarda, transport vositalari, kutish zallari, bekatlar, shifoxonalarda kitob o'qilishi haqida gapirmasak ham bo'ladi. Qaniydi bunday joylarda shundoqqina qo'l uzatsang yetadigan yerda kitoblar tursayu, bo'sh vaqtingda mutolaaga berilsang. Bu so'zlar aslo shaxsiy tasavvurim mahsuli emas. Ko'plab mamlakatlarda shu kabi ijtimoiy loyihalar yo'lga qo'yilganki, odamlar o'qib bo'lgan kitoblarini hamma uchun ochiq va bepul bo'lgan maxsus javonlarga keltirib qo'yadi. U yerdagi istagan asarini olib ketishi mumkin. Marhum adibimiz Asqad Muxtor aytganidek, kitob – boylik, sotib olingani emas, balki o'qilgani. Masalaga mana shu nuqtadan qararasak, bu bebaho boylikni hamma bilan bo'lishish mumkin.

Bolalarni kitobga qiziqtirishda kattalarning xabardorligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu haqda yuqorida kutubxonachilar misolida mushohada yuritgandek bo'ldik. Biroq pedagoglardan tashqari ota-onalar ham bolaga qanday kitob olib berishni bilishi kerak. Shundan kelib chiqqan holda

aytish mumkinki, ota-onalar majlislarida faqat moliyaviy masalalar emas, kitobxonlikni targ'ib qilish, sinflar kesimida bolalar yoshiga mos asarlar ro'yxati tuzilib, ota-onalarga tarqatilsa bo'ladi. Shu bilan birga, bolalarni kitob o'qishga qiziqtirish va bu qiziqishlarni to'g'ri va samarali qondirish bo'yicha ham maslahat, tavsiyalar berilishi maqsadga muvofiq.

Yangi nashr qilingan kitoblar narxi ham odamni mutolaadan uzoqlashtirib yuborishi mumkin. Birgina misol: yaqindagina chop etilgan Tolstoyning "Anna Karenina" asari kitob do'konlarida 70 ming so'm atrofida sotilmoqda. Albatta, kitob chiqarish, bu – biznes. Uning o'ziga xos qonun-qoidalar mavjud. Ammo 70 ming so'm hamma oilalarning ham byudjetiga to'g'ri kelavermaydi. Narx-navo masalasida yana bir bor chuqur mushohada yuritish, arzon kitoblar ishlab chiqilishi haqida o'ylab ko'rish kerak.

O'zbekistonlik tadbirkor, Asaxiy.uz internet do'koni asoschisi Firuz Allayev Facebookdagi sahifasi orqali o'zbekistonliklar kam kitob o'quvchi millatga aylanib qolayotgani va buning sabablari haqida o'z fikrlarini bildirdi: "Tez-tez nimaga bizda kitob kam o'qiladi, degan savolni berishadi. Buning sabablarini ko'pchilik ta'limda ko'radi, kimlardir davlatni, kimlardir oilani, kimlardir noshirlarni ayblaydi. Bugun kam o'qiydigan millat ekanimizni rad etib bo'lmaydi. Uning mamlakatdagi tizim bilan bog'liq chuqur sabablari bor. Natija bilan emas sabablari bilan ishlamasak, vaziyatni o'nglash muammo bo'lib qolaveradi", – deydi bir necha yildan buyon kitob bozorida faoliyat yuritayotgan tadbirkor. Firuz Allayev. U o'z sohasini yaxshi tushunadigan mutaxassis sifatida bu borada o'zgartirilishi yoki qarshi kurashilishi kerak bo'lgan qator sabablarni sanaydi.

U birinchi sabab sifatida bozor qonunlari keltiradi. Kitob o'qishda ham talab va taklif qonuni ishlaydi. Odamlarda shunchaki kitob o'qishga talab bo'lishi kerak. Qachonki mamlakatda bilim qadrlansa, bilimli odam yaxshiroq yashasa, ko'proq daromad qilsa va jamiyatda hurmat topsa, shundagina kitobga yoki ta'lim bilan bog'liq boshqa faoliyatga talab bo'ladi. Mamlakatda bilim qadrlanishi uchun erkinlik va hammaga teng imkon beradigan inklyuziv tizim amal qilishi kerak. Bozor qonunlari bo'yicha aytganda, iqtisod uchun kim ko'proq qiymat yaratsa, o'sha yaxshiroq yashashi kerak. Halol raqobatbardosh bozorda kim ko'proq bilimga ega bo'lsa, o'sha ko'proq qiymat yaratadi. Amalda nima bo'ldi, oxirgi 40 yilda mamlakatda kariyera qilish, yutuqqa erishish aksar holatlarda tanish-bilish, korrupsiya va boshqa sxemalar orqali bo'ldi. Haqiqatdan o'z mehnati bilan natijaga erishganlar ko'proq qoidadan tashqari holat. Aksar odamlar pul, tanish-bilish orqali muvaffaqiyatga erishdi. Shou-biznes, sport kabi kamroq bilim talab qiladigan kasblar ko'proq qadrlandi. Davlat ishida kariyera qilish kuchli qarindoshchilik, tanish-bilish talab qilingan bo'lsa, biznesda ko'proq qonunlardan ustalik bilan qocha olganlar yoki kerakli organlarning vaqtida tomog'ini moylay olganlar «soqqa» qilishdi.

So'nggi yillarda tizim o'zgarib, demokratlashish evaziga qanchadir miqdorda davlat ishida ishlash bilim talab qila boshladi. Bilimli yosh kadrlar asta-sekinlik bilan yuqori mansablarga erishishdi. Biznesda bo'lsa vaziyat keskin o'zgardi. Kechagina daftarda hisob-kitob qilib, kontrabanda yoki noqonuniy ishlar evaziga yashab yurgan biznes qandaydir 4-5 yilda avtomatizatsiya, dasturlash, marketing, raqobat, sifat evaziga daromad qilib boshladi. Natija shunday bo'ldiki, o'n yil oldingi eng aqlli biznesmenning bilim darajasi bugungi o'rtacha biznesmenning bilim va ko'nikmalaridan pastroq bo'lib qoldi. Mamlakatda bilimga bo'lgan talab kitobga bo'lgan talabni yaratadi, shuning uchun bu talabni qondirish juda muhim vazifa hisoblanib kelmoqda.

Ikkinchi sabab – erkin bo'lmagan axborot. Mamlakatda axborot qanchalik erkin bo'lsa, odamlar jamiyat va davlat hayotiga bog'liq ishlarni ko'proq muhokama qilsa,

OAVda qanchalik ko'p yangilik chiqsa, fuqaro atrofni tushunish uchun shuncha ko'p mutolaaga ehtiyoj sezadi. Shuningdek, axborot erkin bo'lgan mamlakatda shunchaki shou-biznes va turk seriali bilan butun aholini band qilib bo'lmaydi. Hayotni tushungisi, anglagisi keladigan aholi ma'lumot qidirib boshlaydi. Bu ma'lumotlarning asosiy manbai esa kitobdir.

Uchinchi sabab – noto'g'ri targ'ibot. Ma'naviyat va kitob bizda ko'p yillar eski, sovetcha usulda targ'ibot qilindi va bu usullar joylarda hamon davom etyapti. Bu so'zlar shunchalik ko'p gapirildi, noto'g'ri targ'ib qilinaverdiki, bugun shu so'zlarni eshitganda odamlar kuladigan bo'lib qoldi.

Kitob qandaydir qiyin va majburiy narsa sifatida targ'ib qilinavergani ortidan aholining aksar qismi bugun kitob o'qishni zerikarli va yoqimsiz jarayon deb biladi. Ko'p o'qiydigan millatlarda kitob, kino, konsert yoki boshqa dam olish vositalari analogi sifatida ko'riladi. Ya'ni aholi ongida kitob miyaga dam berish vositasi. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda odamlar bugun kech bir-ikki soat kitob o'qib dam olamanmi yoki kino ko'rib dam olamanmi, deya o'ylaydi. Bizda ham mana shu jarayonni yaratish kitobsevarlikni oshirishdagi eng samarali omillardan biri bo'lishi shubhasiz.

Statistika hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda kitob o'qish yiliga o'rtacha 20 foizdan oshmoqda. O'qiydiganlar soni kam bo'lsa-da, muhimi ortib bormoqda. Bu esa so'nggi yillarda mamlakatda bilimga nisbatan talab paydo bo'lgani, so'z erkinligi bilan bog'liq vaziyat yaxshilanayotgani va O'zbekistonda ham zamonaviy marketing rivojlanib

boshlagani natijasidir. Bunda yurtboshimiz Sh. Mirziyoyevning kitobxonlikni rivojlantirishga qaratayotgan e'tibori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020– 2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatyapti deyishimiz mumkin.

Xulosa. Odamlar orasida kitobxonlik rivojlanishi uchun erkin raqobatbardosh bozor yaratilishi va uning ortidan bilimga nisbatan talab doimiy ortib borishi, so'z erkinligi bilan bog'liq vaziyatning yanada yaxshilanishi jamiyatimiz saviyasining rivojlanishida va mamlakatimizning taraqqiy etishida juda muhim o'rin tutadi.

Tarixdan va mingyillik tajribalardan ma'lumki, kitob doimo insoniyatni ezgulikka chorlovchi manba bo'lish bilan bir qatorda davlat va jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan ma'naviy kuch bo'lib kelgan. Shuning uchun bu sohani yanada rivojlantirish va yuksaltirish ham ma'naviy, ham moddiy darajamizning ko'tarilishiga olib keladi. Dunyo tinimsiz rivojlanib borayotgan bir davrda bu rivojlanishning zamirida ham albatta, kitob va undagi bilimlar yotganligini tushunishimiz bizning ham shiddat bilan taraqqiy etishimizga zamin hozirlaydi. Shunday ekan o'zimizni, oilamizni, mahallamizni va umuman butun xalqimizni kitobga yanada yaqinlashtirsak, buyuk bobolarimiz zabt etgan bilim cho'qqilarini qaytadan zabt etishimiz real hayotga aylanadi va butun dunyo andozani bizdan oladigan bo'ladi. Aksincha bo'lsa jahon maydonida ma'naviy qashshoq, iqtisodiy quloq xalq sifatida qolishimiz hech gap emas.

ADABIYOTLAR

1. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. Toshkent. 2011.
2. Axunjanov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 1-qism Toshkent. 2004.
3. Axunjanov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi. 2-qism Toshkent. 2008.
4. Bartold V. V. Uchenoe musulmanskogo Renessansa. Soch. T. 1967.
5. Belovitskaya A. A. Obshee knigovedeniye. Moskva. 1987
6. Qosimova O, Yesimov T. Umumiy kutubxonashunoslik. Toshkent. 1994.
7. Rtveldze E.V, Livshits V.A. Pamyatniki drevncy pismennosti. Tashkent. 1985.
8. Dvorkina M. Ya. Kozlova Ye. I. Teoreticheskiye voprosi sozdaniya modelnix munitsipalnih bibliotek// Bibliotekovedeniye. T. 2019.



UDK:930.85

Tuygun ERNAZAROV,
Samarkand State University
E-mail: tuygun.ernazarov.83@mail.ru

According to the review of I. Rizaev, doctor of Philosophy, associate Professor

ECONOMIC AND POLITICAL ORDER OF THE RUSSIAN EMPIRE IN TURKESTAN: ANALYSIS OF THE CREATION AND ACTIVITIES OF THE CUSTOMS SERVICE

Annotation

This article examines the economic and political order of the Russian Empire in Turkestan in the XIX century, after the conquest of the khanates of Central Asia. The author uses documents from the National Archives of Uzbekistan and the works of historians to analyse this period. The focus is on the comparative analysis method to compare information from different sources. Historical trade ties and dependence of the Bukhara Emirate and the Khanate of Khiva on the Russian Empire are also discussed. This article allows us to better understand the formation and activities of the customs service in the context of the colonial policy of the Russian Empire in Turkestan.

Key words: National Archive of Uzbekistan, Russian Empire, Turkestan, colonialism, customs policy, historical trade relations, Bukhara Emirate, Khanate of Khiva.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ И ПОЛИТИЧЕСКИЙ ПОРЯДОК РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ТУРКЕСТАНЕ: АНАЛИЗ СОЗДАНИЯ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ

Аннотация

Данная статья исследует экономический и политический порядок Российской империи в Туркестане в XIX веке, после завоевания ханств Центральной Азии. Автор использует документы из Национального архива Узбекистана и работы историков для анализа данного периода. Основное внимание уделяется методу сравнительного анализа, чтобы сопоставить информацию из различных источников. Также обсуждаются исторические торговые связи и зависимость Бухарского эмирата и Хивинского ханства от Российской империи. Эта статья позволяет лучше понять формирование и деятельность таможенной службы в контексте колониальной политики Российской империи в Туркестане.

Ключевые слова: Национальный архив Узбекистана, Российская империя, Туркестан, колониализм, таможенная политика, исторические торговые отношения, Бухарский эмират, Хивинское ханство.

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTONDAGI IQTISODIY VA SIYOSIY TARTIBI: BOJXONA XIZMATINING YARATILISHI VA FAOLIYATI TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada XIX asrda O'rta Osiyo xonliklari bosib olingandan keyin Turkistondagi Rossiya imperiyasining iqtisodiy va siyosiy tartibi ko'rib chiqilib, muallif bu davrni tahlil qilishda O'zbekiston Milliy arxivi hujjatlari va tarixchilarning asarlaridan foydalangan. Turli manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirish uchun qiyosiy tahlil usuliga e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Buxoro amirligi va Xiva xonligining tarixiy savdo aloqalari, Rossiya imperiyasiga qaramligi ham muhokama qilingan. Ushbu maqola Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati sharoitida bojxona xizmatining shakllanishi va faoliyatini yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston Milliy arxivi, Rossiya imperiyasi, Turkiston, mustamlakachilik, bojxona siyosati, tarixiy savdo aloqalari, Buxoro amirligi, Xiva xonligi.

Introduction. In the XIX century, after the conquest of the khanates of Central Asia by the Russian Empire, a victim of growing economic necessity and full-fledged colonial policy, the economic and political order of the Russian Empire began to be forcibly established in this territory, due to the military superiority and backwardness of local states and the presence of mutual contradictions. This situation was especially clearly manifested in the indemnities levied by the empire on the khanates, in the taxes levied on indigenous peoples, in the restriction of economic ties between indigenous peoples, and especially in the breaking of the chain of long-existing foreign economic ties. For example, data from the Turkestan Department of Customs Control for 1881 contains information about an increase in the value of trade duties. According to the data, in the Amudarya department of the Syrdarya region of the Zarafshon district, a decision was made to levy a tax in the amount of 4 tiyins from each nomad [1]. After the conquest of the Turkestan land by the Russian Empire, he began its economic and political development.

Review. When studying this topic, documents from the National Archives of Uzbekistan and the works of historians were taken as the main object of research as the main source of information. Because the fact that most of the information from this period is written in Russian requires another careful analysis of the sources in order to take a position of truthfulness without expressing the views of classes or regimes. When covering the topic, more attention was paid to the method of comparative analysis. Information that contradicted each other was supplemented by scientific articles prepared on the basis of data approved by authorized organizations. The study shows that the first feature of colonialism is manifested in changes in the economic sphere. Legislation in the political sphere also reflects economic processes. Sources note that the customs policy of the Russian Empire on the Turkestan land also acted in a unique way and at the same time reflected colonial policy.

Analysis. Since time immemorial, the peoples of Turkestan have had historical trade ties with neighbouring

countries, and these ties did not stop either in peacetime or in war. Because this gave rise to the interests of the parties, and states were interested in levying trade duties. Sources say that these trade duties constituted a significant portion of the states' gross income. That is why economic ties did not stop. Rather, they continued to adapt to conditions (for example, by increasing or decreasing trade duties) [2].

As a result of the active colonial policy of the Russian Empire, the territory of the khanates was conquered, and the Turkestan Governor-General was created here. However, the Bukhara Emirate and the Khanate of Khiva remained in a semi-colonial state. Outwardly, these states looked like independent ones, but in reality they were dependent on the empire. Historical sources indicate that the Russian Empire used the existing historical ties of these states with neighbouring states to its own advantage. Facts about trade relations with Iran, China, Turkey, Afghanistan, stored in the National Archives of Uzbekistan, confirm our opinion. At the same time, the Russian Empire began introducing its own customs system with the goal of taking control of the khanates. There were reasons for this. Because the administration of the Russian Empire was dissatisfied with the trade duty in the provinces and its size. In their opinion, it was necessary to further increase the size of the falling trade duties.

According to sources from 1881, 117,000 rubles were received from the customs service of the Fergana region only through the zakat tax [1]. The economic basis of these revenues was no less than that of the Zarafshon district and greater than that of the Syrdarya region. Therefore, the customs service of the Syrdarya region was placed under special control. In addition, the data from Syrdarya customs contained information about persons involved in smuggling without paying taxes in the region. For example, in the report of the statistical and inspection group of the Syrdarya customs, traders in the region were divided into 4 groups:

Local residents. They trade secretly and do not pay any taxes.

Local population. They pay 1/40 tax in accordance with the law.

Russian traders. They pay 1/40 tax in accordance with the law.

Foreign traders. They pay 1/40 tax in accordance with the law [1].

The customs service of the Syrdarya region offered legal punishment to the participants of the first group. In 1881, the Turkestan Governor General, Lieutenant General Kolpakovsky, issued a decree on separate customs control. According to this, a total of 4 customs posts were created.

Amudarya branch - consists of 3 checkpoints.

Zarafshon district - consists of 5 checkpoints.

Syrdarya region consists of 19 checkpoints.

Fergana consists of 6 checkpoints [1].

This decision was supposed to regulate trade relations and the collection of customs duties carried out through the Governor-General of Turkestan, as well as prevent smuggling. However, the local population, who did not fully understand the new order, ignored the established borders and continued the old trade relations, violating them. This situation forced the imperial administration to take drastic measures and actions regarding the problem.

The funds of the National Archive of Uzbekistan have preserved customs information on trade relations with neighbouring states, including China, through the mediation of the Turkestan General Government, using old historical ties. The information contained in it indicates that relations between the Russian Empire and China have a long history. Report No. 3, addressed to the consul of the Russian Empire in Kashgar, stated that the regions of the provinces of the

Russian Empire bordering China were inhabited by the Chinese, who paid taxes to the empire and acted as intermediaries in mutually beneficial relations with China. Russia and China paid special attention to border relations. In order to prevent disruption of relationships, citizens or taxpayers from border areas have been issued temporary permission to enter their countries for a short period of time. However, after the administrative reform of 1899, the Semirechye region was separated from the Steppe General Government and annexed to the Turkestan General Government, as a result of which this visa process was ignored.

The reports of the governor of the Semirechye region specifically noted that this issue has not been resolved for 3 years. Report No. 2905 dated February 27, 1902 noted that the regional governor once again asked that serious attention be paid to this issue and not be rejected. In fact, during this period there were many cases of people moving from one country to another due to personal work rather than trade ties. Centuries-old cooperation was interrupted to a certain extent through mutual agreements between the Russian and Chinese empires and as a result of the establishment of artificial borders, which led to negative consequences - illegal border crossing and smuggling [7]. In a letter from the commander of the Turkestan Military District No. 298 to the governor of Semirechye on behalf of the Turkestan General Government, an opinion was expressed on the need to comply with the rules established by both parties, established by both parties in this process and mainly in trade relations and in personal matters, a special passport regime is established, and While only Kalmyks were allowed to travel, it was suggested that their passage to China via Mongolia should not be prevented [3].

Results. The earthquake of December 22, 1910 in the southeast of Verny and the Semirechye region did not prevent the development of Russian-Chinese trade relations [4]. Because in 1910, both states agreed that citizens would move freely across countries, rent land and participate in free trade relations [5]. To achieve this, the consulate valued the mediation of Chinese citizens by offering certain benefits to Chinese taxpayers. For example, their share in tax collection has decreased. An example, in our opinion, is the establishment of a 5 percent duty on products imported from Turkestan to China, and a 2 percent duty on goods imported from China [6]. The Chinese Empire provided the same situation to Russian merchants in China, and this situation played a positive role in the development of relations.

At this time, the import of the following goods from China was prohibited: wine, vodka, opium and all drugs. The export of military shells, weapons and gunpowder to the Chinese Empire was prohibited. The St. Petersburg Peace Treaty of 1881 was revised in 1913 and extended until 1921, but duty-free trade in the 50-verst border area was abolished. With this, the Russian Empire further closed its borders to Chinese goods, which invaded Central Asia and other border territories of Russia. Since Russia had a negative trade balance with China, it wanted to limit its trade relations with the Middle Kingdom. The Turkestan newspaper wrote in detail about the nature of trade with China, noting that "All Russian trade in Mongolia, the Xinjiang region, Manchuria and inland China in 1908 was worth 23 million rubles. The export of our goods there is 93 million rubles. Import of Chinese goods, that is, 70 million rubles in favour of China. The continued dominance of Asian intermediaries will have a negative impact on Russian trade with the Xinjiang region. The Russian big bourgeoisie financed trade only with China, and all trade was carried out by Central Asian merchants. The main reason for this situation was the large Muslim population in Kashgar and Xinjiang, with which Fergana merchants had ancient trade ties [7].

Conclusions. Based on the above, we can draw conclusions from this small study. The Russian Empire, with its reforms in the customs sphere and legal legislation, forced Turkestan to enter its economic world. She tried to control the connections of the Turkestan peoples with neighbouring countries or completely suppress them. We can also testify that in historical sources attempts were made to appropriate these links if it suited the interests of the empire. The fact that

the imperial administration tried to take advantage of trade and economic ties between Turkestan and China also confirms our above considerations. These data relate only to Chinese relations and increase the need for research to analyse the foreign economic policy of the Russian Empire through the Zarafshon district (later Samarkand region), Syrdarya, Transcaspian and Fergana customs.

REFERENCES

1. Материалы по Туркестану. Составил Генерального Штаба полковник Бельявский. СПб.1887. – С.26. (Materials on Turkestan. Compiled by the General Staff Colonel Belyavsky. St. Petersburg 1887. – P.26)
2. Sayfullayev S. Turkiston general gubernatorligining tashkil topishi va ma'muriy hududiy tuzulishi. //Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences volume 2 | ISSUE 10 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2022: 5.947.-B.38.
3. O'zMA, фонд И-2,опис-2,дело-253, лист-6. (UzNA, Fund I-2, description-2, case-253, sheet-6.)
4. O'zMA, фонд И-1,опис-12,дело-1730, лист-24 (UzNA, Fund I-1, description-12, file-1730, sheet-24).
5. O'zMA, фонд И-1,опис-12,дело-1730, лист-24 (UzNA, Fund I-1, description-12, case-1730, sheet-24).
6. O'zMA, фонд И-25,опис-1, дело-1305, лист-101 (UzNA, Fund I-25, description-1, case- 1305, sheet-101).
7. Ходжаёрова С.Б. Исторический анализ отношений Туркестанского генерал-губернаторства с Китайским государством в середине XIX - начало XX веков.//academic research in modern science International scientific-online conference. – С.132 (Khodjayorova S.B. Historical analysis of relations of the turkestan general province with the chinese state in the middle of the nineteenth - beginning of the XX centuries.//academic research in modern science International scientific-online conference. – P.132).
8. Шишкина Н.В. Из истории таможенной службы в Туркестане (Shishkina N.V. From the history of the customs service in Turkestan)// <https://museum.customs.gov.ru/document/text/254466>
9. Курбанов Ч. Из истории формирования единой таможенной линии и организации охраны границ Туркестанского генерал-губернаторства во второй половине XIX в //https://cyberleninka.ru/article/n/iz-istorii-formirovaniya-edinoy-tamozhennoy-linii-i-organiizatsii-ohrany-granits-turkestanskogo-general-gubernatorstva-vo-vtoroy
10. НА РУз. Фонд И-3, опис-1, дело-63, л-1-2(NAUz, Fund I-3, description-1, case-63, sheet-1-2).
11. Сафаров А. И., Ризаев И. И. Роль исторического сознания и исторической памяти в системе национального сознания //Культурное наследие и народное искусство: сохранение и актуализация в целях устойчивого развития общества. – 2022. – С. 297-303.
12. Qahramonovich H. N. Worthy descendants of the Samarkandians: enlighteners Jadids //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – Т. 13. – С. 37-40.



UDK: 930

Gullolaxon YUSUPOVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti, t.f.b.f.d (PhD)
E-mail: gullolaxonyusupova@gmail.com

Professor, f.f.d O.Musaev taqrizi asosida

THE ROLE OF THE FERGANA ECONOMIC REGION IN THE SOCIO-ECONOMIC LIFE OF UZBEKISTAN (50-80 YEARS OF THE XX CENTURY)

Annotation

In this article, the socio-economic life of Uzbekistan was analyzed using the example of agriculture in the Fergana economic region. Contains analyzes of the oil and gas industry, light industry, chemical industry, as well as the Fergana economic region.

Key words: Development of light industry, state of agriculture, development of oil and gas industry, state of cotton, chemical industry in Fergana economic region.

РОЛЬ ФЕРГАНСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЖИЗНИ УЗБЕКИСТАНА (50-80 ГОДЫ XX ВЕКА)

Аннотация

В данной статье социально-экономическая жизнь Узбекистана была проанализирована на примере сельского хозяйства Ферганского экономического района. Содержит анализы нефтегазовой отрасли, легкой промышленности, химической промышленности, а также Ферганского экономического района.

Ключевые слова: Развитие легкой промышленности, состояние сельского хозяйства, развитие нефтегазовой промышленности, состояние хлопковой, химической промышленности в Ферганском экономическом районе.

O'ZBEKISTON IJTIMOY – IQTISODIY HAYOTIDA FARG'ONA IQTISODIY RAYONINING O'RNI (XX ASRNING 50-80 YILLARI)

Annotatsiya

Mazkur maqolada O'zbekistonning ijtimoiy – iqtisodiy hayotida Farg'ona iqtisodiy rayonining qishloq xo'jaligi misolida tahliliy bayon etildi. Unda neft-gaz sanoatiga, yengil sanoatiga, kimyo sanoatiga, shuningdek, Farg'ona iqtisodiy rayoni xususida tahlillar berilgan.

Kalit so'zlar: Farg'ona iqtisodiy rayonida yengil sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligi holati, neft-gaz sanoati rivojlanishi, paxta, kimyo sanoati holati.

Kirish. O'lkada sovet hokimiyati o'rnatilgan ilk davrdan boshlab, O'zbekiston sanoati yillar davomida, avvalo, paxtachilikni rivojlantirishning moddiy-texnika bazasiga aylantirib borilgan edi. Bu sohani rivojlantirish uchun irrigatsiya qurilishi va melioratsiya ishlarini jadallashtirishga zarur bo'lgan mashina va mexanizmlarni hamda paxta tozalash sanoat asbob-uskunalarini ishlab chiqarishga e'tibor kuchaytirildi. Biroq O'zbekiston SSR sanoatiga bildirilayotgan yuqori talablar bu yerda yangi texnologiyalarni, zamonaviy fan va texnika yutuqlarini joriy qilish bilan hamohang emasdi. Bu esa muqarrar ravishda belgilangan rejaning bajarilmasligiga va boshqa nomutanosibliklarga olib kelardi, bular ayniqsa sanoatning yengil, oziq-ovqat va boshqa tarmoqlarida aniq ko'zga tashlanar edi. Besh yillik rejalarining bajarilishi esa bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, asosiy e'tibor mashinasozlikni, metallurgiya, kimyo sanoatlarini, shuningdek, yonilg'i-energetika majmui tarmoqlarini rivojlantirishga, ayniqsa, gaz qazib olishni ko'paytirishga qaratilardi.

Mustaqillik tufayli O'zbekistonda amalga oshirilayotgan yangi bosqichdagi islohotlar, ayniqsa, respublikani jahon iqtisodiy tizimiga yanada integratsiyalashuviga imkon berdi. Bugungi kunda iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiyalash, shu orqali jahon standartlariga javob beradigan mahsulot ishlab chiqarishga erishishda, birinchi navbatda to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish ishlari olib borilmoqda. Bu borada erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalar alohida o'rin

tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Urgut", "G'ijduvon", "Qo'qon" va "Xazarasp" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi 2017 yil 12 yanvar PF-4931-son Farmonidan kelib chiqib, bu erkin iqtisodiy zonalarda meva-sabzavot, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, qadoqlash, to'qimachilik, gilam to'qish, poyafzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmasevtika, elektrotexnika, mashinasozlik, avtomobilsozlik va boshqa sohalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berildi. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar Strategiyasida ham "faoliyat ko'rsatayotgan erkin iqtisodiy zonalar, texnoparklar va kichik sanoat zonalarini samaradorligini oshirish, yangilarini tashkil etish" vazifalaridan kelib chiqib, bugungi kunda nafaqat ichki, balki tashqi bozorda ham xaridorgir bo'lgan yengil sanoat, kimyo, oziq-ovqat mahsulotlari, elektr texnikasi buyumlari, zamonaviy qurilish materiallari, mebel va boshqa tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Farg'ona iqtisodiy rayoni 1950 yillarda respublika sanoat mahsulotlarining 30 foizini bergan. Bu rayon nafaqat O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo iqtisodiy rayonida qishloq xo'jalik mahsulotlari hamda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan[1]. O'sha davrdagi adabiyotlarda qayd etilishicha, "Farg'ona oblasti – o'zining tabiiy, iqlim va tuproq xususiyatlariga ko'ra uzumchilik va bog'dorchilikni juda keng rivojlantirish uchun boy imkoniyatlarga ega. Oblast aholi jon boshiga paxta yetishtirishda jahonda oldingi o'rinlarda turadi.

Shuningdek, paxta tolasi, xom ipak, shoyi gazalamalar, paypoq-noski mahsulotlari, o'simlik yog'i, sovun ishlab chiqarish bo'yicha birinchi o'rinda turishi, qurilish uchun ishlatiladigan ohak, syement, g'isht bo'yicha ikkinchi o'rinni, elektr quvvati, ip-gazlama materiallari, oyoq kiyimlari, konservalar, tabiiy gaz chiqarish bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi[2]. M.Abramov O'zbekistonda kimyo sanoatini tahlil qilib, "...bu tarmoq Farg'ona viloyatida alohida rivojlanganligini, shuningdek, Farg'ona viloyati 1975 yilda respublika kimyo sanoati umumiy mahsulotining 22 foizga yaqinini berganligi, bu viloyat haqli ravishda katta kimyo o'lkasi bo'lib qolganligini" – ta'kidlab o'tadi[3]. Mustaqillik yillari yaratilgan adabiyotlar [4] va tadqiqotlarda [5] sovet davlatining iqtisodiy siyosati, agrar islohotlari, paxta yakka xokimligining oqibatlarini, O'zbekistonning xalq xo'jaligini sovet ittifoqi xalq xo'jaligi kompleksiga moslashtirilishi, respublikani rayonlashtirish kabi masalalar yoritilgan bo'lib, faqat ba'zi tadqiqotlar, xususan, D.Bobojonova o'z ilmiy tadqiqoti va monografiyasida sovet hukumatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosatiga to'xtalib o'tadi. Muallif, "Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va ularni rivojlantirishni rejalashtirish dasturlari va islohotlarga doir masalalar ittifoq markaziy idoralari tomonidan iqtisodiy qonunlarga asoslanmaganligini, respublika manfaatlarini e'tiborga olinmagan holda ishlab chiqarish yo'lga qo'yilganligini" – ta'kidlab, O'zbekistonning hududi tabiiy – iqtisodiy jihatdan o'ziga xos bo'lib, u 6 ta iqtisodiy rayonga bo'linganligini – qayd etib, har bir iqtisodiy rayonning iqtisodiy imkoniyatlari va respublikada iqtisodiy rayonlari orasidagi o'rniga qisqacha ta'rif berib o'tadi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbekiston yengil sanoatini tahlil qilgan Sh.Marasulov "SSSRda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha O'zbekistonning tutgan o'rnini tahlil qilib, respublika paxta tolasi, pilla yetishtirish va paxtachilik sohasi uchun mashinalar ishlab chiqarish bo'yicha yetakchi o'rinda, to'qimachilik mashinalari va ip gazlamalar ishlab chiqarish bo'yicha ikkinchi o'rinda, shoyi gazlamalar bo'yicha uchinchi o'rinda turganligini keltirib o'tadi. Muallif to'qimachilik sanoatining o'rnini alohida ko'rsatib, SSSRda ishlab chiqarilgan har 100 metr gazlamaning 70 metri O'zbekiston paxtasidan to'qilganligini" – ta'kidlaydi[7]. O'zbekiston SSR sanoati mamlakat sanoatining tarkibiy qismi hisoblanib, respublikaning ishlab chiqarish usuli va uslubini o'ziga xos bo'lgan[8]. O'zbekiston SSR asosiy paxta xom ashyosi yetishtiradigan va paxtachilikka xizmat qiladigan sanoatning rivojlanishi bilan o'z o'rniga ega bo'lib keldi. Paxtachilik kompleksiga kiruvchi qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha respublika mamlakatda yagona hisoblangan. Paxtachilik respublika qishloq xo'jaligi uchun mineral o'g'it tayyorlash, paxta tozalash sanoati, to'qimachilik sanoati va unga mashina hamda uskunalar yetkazuvchi korxonalar, qishloq xo'jaligi mashinasozligi sohalari rivojlanish imkonini bergan. Shu tariqa, O'zbekistonda asosiy e'tibor paxtaga qaratilganligi sababli bu yerda "xalq xo'jaligining nuqsonli, bir tomonlama xomashyo tuzilmasi shakllandi[9].

Tahlil va natijalar. Sovet davlatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosati jarayonida Farg'ona iqtisodiy rayonining o'ziga xos o'rnini bo'lib, tadqiqotda qator birlamchi manbalar asosida sanoatning rivojlanishi, korxonalar faoliyatidagi o'ziga xususiyatlar bilan bog'liq masalalar tahlili keltirilgan hamda ularda O'zbekiston tarixini yozishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan jihatlar aniqlangan.

Mustaqillik yillari iqtisodiy rayonlashtirish tarixiga bag'ishlangan barcha turdagi adabiyotlar va manbalarning o'ziga xos umumiy va xususiy jihatlari ko'rsatilgan.

Xulosa va takliflar. O'zbekistonda tashkil etilgan iqtisodiy rayonlar orasida salohiyati jihatidan Farg'ona hududiy rayoni respublikaning eng rivoj topgan ishlab

chiqarish komplekslaridan biri bo'lib, xo'jalik ixtisosida paxtachilik bilan bog'liq bo'lgan tarmoqlar asosiy o'rinni egalladi. Bu rayonda sovet hokimiyatining dastlabki yillaridan boshlab, umumittifoq mehnat taqsimotida respublikaning o'rnini va maxsus roli bilan bog'liq bo'lgan sanoat hamda qishloq xo'jaligi tarmoqlari taraqqiy ettirildi. Birinchi navbatda sug'orma dehqonchilik, sanoatda esa, yengil va oziq – ovqat tarmoqlari, keyinchalik sanoatning boshqa tarmoqlari rivojlantirildi.

XX asrning 50-80 yillarida sovet davlatining iqtisodiy rayonlashtirish siyosatini davom ettirishi natijasida respublikalar yirik iqtisodiy rayonlar va mintaqalarning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rnini, mahsulot ishlab chiqarish, uni taqsimlash kabi masalalar go'yoki har bir respublikaning manfaatlarini e'tiborga olgan holda olib borildi. Aslida esa bu jarayonlar umumdavlat xalq xo'jaligini rejali boshqarish asosida belgilab berilgan edi.

Qishloq xo'jaligida paxtachilik sohasini rivojlantirish asosida hamda respublika hududida topilgan foydali qazilmalarni ishga solish negizida O'zbekiston sanoatida sovet mamlakati ahamiyatiga molik bo'lgan ixtisos sohalari vujudga keltirildi. Paxta tozalash sanoati, paxtachilik uchun zarur bo'lgan barcha qishloq xo'jalik texnikasini ishlab chiqaradigan qishloq xo'jalik mashinasozligi, paxta tozalash va to'qimachilik sanoati uchun mashinalar ishlab chiqarish, rangdor metallurgiya, gaz sanoati kabilar ana shu sohalarda tarkibiga kiritildi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, bu davrda respublikada ko'plab sanoat korxonalarining tashkil etilishi yangi ish o'rinlarini yaratib, ayrim sohalarni rivojlanishiga olib kelgan bo'lsada, O'zbekiston xalq xo'jaligi tizimidagi sanoat korxonalarini asosan xom ashyoni qayta ishlashning dastlabki bosqichlarigagina moslashishi sanoatning oldinga qarab sijishiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi. Ishlab chiqarishda mahsulot sifatiga emas, balki miqdoriga katta e'tibor berilgan tufayli aholi uchun zarur tovarlar ishlab chiqarish hajmi yildan yilga kamayib bordi.

1950 yillarda Farg'ona iqtisodiy rayonida yengil sanoatni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilib, bu soha rayonning asosiy tarmoqlaridan biriga aylantirildi va respublikada yetakchi o'rinlarga ko'tarildi.

Biroq, ittifoq miqyosida tayyor yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ba'zi muammolar ham bo'lganki, bu O'zbekistonga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmadi. Xususan, tashqariga chiqarilgan xom ashyo mamlakatning boshqa mintaqalarida tayyor mahsulotga aylantirilib, yana qaytib O'zbekistonga keltirildi. Ikkinchidan, O'zbekistonda aholining o'sib borishi bu yerda mehnat resurslarining oshib borishiga ham sabab bo'ldi (bu holat Farg'ona iqtisodiy rayonida ham yaqqol ko'zga tashlanadi). O'zbekistonda yengil sanoat korxonalarining qurilishi aholini ish bilan ta'minlashi mumkin bo'lgan holda, respublikaning o'zida sanoat korxonalarining nooqilona joylashtirishi ishsizlar sonini oshib borishiga ham sabab bo'ldi.

Ayni paytda o'zining ehtiyojlarini yengil sanoat mahsulotlari bilan qondira olmagani respublika dunyoning 23 ta davlatiga mahsulot chiqardi va bu ko'proq Osiyo va Afrika davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Shu o'rinda qayd etish kerakki, bu davrda ham reja ortidan reja, tajriba ketidan o'tkazilgan tajribalar yengil sanoatda bir qator muammolarni keltirib chiqargan edi. Yuqori tashkilotlardan berilgan besh yillik rejalar go'yoki iqtisodiy rayonlardagi sanoat korxonalarini, xalq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishni nazarda tutgan bo'lsada, rejani bajarilishining qat'i talabi, mas'uliyatsizlik, son ketidan quvib sifatga e'tibor bermaslik, bu yerlarda sovet tizimiga xos bo'lgan davlat mulkini talon-taroj qilish holatlari sovet iqtisodiyotining asosini (tanazzulini ta'minlagan) tashkil etgan edi.

Shuningdek, mintaqalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik yengil sanoatda ham barcha korxonalarni kerakli mashinalar bilan ta'minlash imkonini bermadi. Reja asosida yuborilishi kerak bo'lgan dastgoxlar belgilangan vaqt va miqdorda

yuborilmadi. Bu o'z navbatida ishlab chiqarish hajmi va mahsulotning sifatiga ta'sir qilib, rejalar o'z vaqtida bajarilmay qolishiga sabab bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Экономические районы УзССР. – Ташкент, 1957. – С.27.
2. Фарғона области (тарихий –иқтисодий справочник). – Тошкент. Ўзбекистон, 1974. – 31 бет.
3. Абрамов М. Фарғона – катта химия ўлкаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 6 бет.
4. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. - 151 бет.;
5. Хайдаров И. Ўзбекистон саноатининг совет иттифоқи ягона халқ хўжалиги комплексидаги ўрни (1945-1991 йй). Тарих. фан. доктори (DsC) дис. ... автореферати. – Тошкент, 2021.
6. Бобожонова Д. Ўзбекистонда ижтимоий – иқтисодий муносабатлар (70-80 йиллар мисолида). – Тошкент: Шарқ, 1999. 25-32 бетлар.
7. Марасулов Ш. Ўзбекистонда тўқимачилик саноатининг ривожланиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. 23-24 бетлар.
8. Управление социалистическим производством. Вопросы теории и практики. – Москва: Экономика, 1978. – С. 678-679.
9. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996. – 61 бет.